

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRL IGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**B.T. SALIMOV, M.S. YUSUPOV**

**DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI  
IQTISODI**

*O`quv qo`llanma*

(O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rtal maxsus ta'limgazalararo ilmiy-  
uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o`quv yurtlarining  
“Iqtisodiyot (qishloq xo`jaligi)” ta'limgazalar uchun o`quv qo`llanma sifatida  
tavsiya etilgan)

**TOSHKENT - 2009**

**Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi (o`quv qo`llanma). –T.: TDIU, 2009. - 300 b.**

Ushbu o`quv qo`llanma OT-F7-125 “Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda agrobiznes statistikasi metodologiyasini modernizatsiyalash (sug`orma dehqonchilik xususiyatlarini hisobga olgan holda)” nomli Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida bajarilgan. O`quv qo`llanma Davlat ta`lim standartining «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanini o`rganish bo`yicha talablari asosida tayyorlangan bo`lib, unda qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan bo`lgan dehqon va fermer xo`jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari, ularda yer, suv, mehnat va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish, infratuzilma va servis xizmatlarini tashkil etish, davlat va boshqa korxonalar bilan shartnomaviy munosabatlarni yo`lga qo`yish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va sotish masalalarini tashkil etish bilan bog`liq masalalar yoritilgan. Shu bilan birga ishlab chiqarishga sarmoya sarflash va moliyalashtirish manbalaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxi, daromadlarni shakllantirish va taqsimlash, dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ular faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash kabi mavzularga keng o`rin berilgan.

O`quv qo`llanma bo`yicha materiallarni to`plashda, ularni qayta ishslashda katta yordam ko`rsatgan loyiha ishtirokchilari dots. T.I. Jo`rayev, katta o`qituvchi I.M. Aripov va 4-bosqich EKA-91 guruhi talabasi Sh. To`xtayevlarga muallif o`z minnatdorchiligini bildiradi.

Qo`llanma iqtisodiy ta`lim yo`nalishlarining bakalavr, magistr, professor-o`qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar uchun mo`ljallangan.

**Mas`ul muharrir** i.f.n., dots. Sh.I. Mustafaqulov.

**Taqrizchilar:** prof. Q. Hasanjonov,  
i.f.d. N.S. Xushmatov,  
i.f.n., dots. T.I. To`raxo`jayev.

# M U N D A R I J A

<b>KIRISH .....</b>	7
<b>I bob. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA «DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI IQTISODI» FANINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA UNI O`RGANISH USULLARI</b>	
1.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining predmeti, vazifalari va boshqa fanlar orasida tutgan o`rni .....	9
1.2. «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanini o`rganish usullari .....	12
Qisqacha xulosalar .....	13
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	14
Adabiyotlar .....	14
<b>II bob. DEHQON XO`JALIGINING TASHKILIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI</b>	
2.1. Dehqon xo`jaligining mohiyati, rivojlanish xususiyatlari va qishloq xo`jaligida tutgan o`rni .....	15
2.2. Dehqon xo`jaligini tashkil etish va tugatish tartibi.....	22
2.3. Dehqon xo`jaligi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	25
Qisqacha xulosalar .....	28
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	29
Adabiyotlar .....	29
<b>III bob. FERMER XO`JALIGINING TASHKILIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI</b>	
3.1. Fermer xo`jaligining mohiyati, rivojlanish xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	30
3.2. Fermer xo`jaligini tashkil etish tamoyillari va tartibi .....	33
3.3. Fermer xo`jaligining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	36
3.4. Fermer xo`jaliklarining rivojlanish bosqichlari va asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari	40
3.5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaligining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish.....	48
Qisqacha xulosalar.....	53
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	54
Adabiyotlar .....	54
<b>IV bob. FERMER VA DEHQON XO`JALIKLARINING YER, SUV, MEHNAT RESURSLARI, ULARDAN UNUMLI FOYDALANISH</b>	
4.1. Fermer va dehqon xo`jaliklarining yer fondi, undan samarli foydalanish.....	55
4.2. Fermer va dehqon xo`jaliklariga yer ajratish tartibi .....	60
4.3. Yer solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi .....	63
4.4. Fermer va dehqon xo`jaliklarida suv resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi.....	68
4.5. Fermer va dehqon xo`jaliklarining mehnat resurslari, ulardan samarali foydalanish.....	74
Qisqacha xulosalar .....	78
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	79
Adabiyotlar .....	79
<b>V bob. FERMER XO`JALIGINING MULKI, ASOSIY VA AYLANMA FONDLARIDAN FOYDALANISH</b>	
5.1. Fermer xo`jaligining mol-mulki, uning iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi.....	80
5.2. Fermer xo`jaligining asosiy fondlari, ularning tarkibi va foydalanish ko`rsatkichlari .....	81

5.3. Fermer xo`jaligining aylanma fondlari, ularning tarkibi va foydalanish ko`rsatkichlari .....	90
5.4. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	95
Qisqacha xulosalar .....	97
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	97
Adabiyotlar .....	98
<b>VI bob. FERMER XO`JALIKLARINI MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI BILAN TA'MINLASH</b>	
6.1. Fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslar bilan ta'minlash tizimining xususiyatlari .....	99
6.2. Fermer xo`jaliklarini traktorlar va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlash yo'llari.....	100
6.3. Fermer va dehqon xo`jaliklarini aylanma moddiy resurslar bilan ta'minlash .....	105
6.4. Fermer va dehqon xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish yo'llari .....	113
Qisqacha xulosalar .....	115
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	115
Adabiyotlar .....	116
<b>VII bob. FERMER XO`JALIGIDA ISHLAB CHIQARISHNI MOLIYALASHTIRISH VA MOLIYAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI</b>	
7.1. Fermer xo`jaligining moliyaviy resurslari mazmuni, tarkibi va manbalari.....	117
7.2. Fermer xo`jaligining o`z moliyaviy resurslaridan foydalanish.....	119
7.3. Ishlab chiqarishni moliyalashtirishga tijorat banklarining kreditlarini jaib etish tamoyillari, turlari va mexanizmi.....	125
7.4. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga mikrokreditlar jaib etish tartibi.....	133
7.5. Fermer xo`jaliklarining davlat buyurtmasi bo'yicha paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash tartibi.....	135
7.6. Fermer xo`jaliklarining yer ijarasi huquqini va bo`lg`usi hosilini garovga olgan holda kreditlash tartibi.....	140
7.7. Fermer xo`jaliklarini budgetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash.....	147
7.8. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.....	151
Qisqacha xulosalar .....	155
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	156
Adabiyotlar .....	157
<b>VIII bob. INFRATUZILMALAR VA SERVIS XIZMATLARINI TASHKIL ETISH</b>	
8.1. Infratuzilmaning mohiyati va turlari .....	158
8.2. Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalarini shakllantirish.....	161
8.3. Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi bozor va institutsional infratuzilmalarni shakllantirish.....	165
8.4. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlanterish yo'llari.....	169
Qisqacha xulosalar.....	171
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	172
Adabiyotlar .....	173

<b>IX bob. MAHSULOT SOTISH YO`NALISHLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
9.1. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi .....	174
9.2. Davlat ehtiyojlari uchun etishtiriladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi .....	175
9.3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini erkin sotish mexanizmi.....	177
9.4. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish va ularga narx belgilash tizimini takomillashtirish.....	178
Qisqacha xulosalar .....	180
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	181
Adabiyotlar .....	182
<b>X bob. FERMER XO`JALIKLARINI DAVLAT VA BOSHQA KORXONALAR BILAN IQTISODIY ALOQALARINING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY BAZASI</b>	
10.1. Qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlarning mohiyati, turlari va amal qilish xususiyatlari.....	183
10.2. Shartnomalarni tuzish va ro`yxatdan o`tkazish tartibi.....	186
10.3. Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatları.....	190
10.4. Tuzilgan shartnomalarning bajarilishi.....	193
10.5. Shartnoma shartlarini buzilishi yuzasidan moddiy javobgarlik .....	197
10.6. Respublika qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlar amal qilishining hozirgi holati va ularni takomillashtirish yo`llari.....	200
Qisqacha xulosalar .....	205
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	206
Adabiyotlar .....	207
<b>XI bob. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOTLAR TANNARXINING SHAKLLANISHI</b>	
11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi, uning tarkibi va elementlari .....	208
11.2. Mahsulotlar tannarxining kalkulyatsiya moddalari va ularni hisoblash usullari .	213
11.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish imkoniyatlari.....	224
Qisqacha xulosalar .....	226
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	227
Adabiyotlar .....	227
<b>XII bob. QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH</b>	
12.1. Qishloq xo`jaligida narxning mohiyati, vazifalari va unga ta`sir etuvchi omillar.....	228
12.2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlarining turlari, narx belgilash bosqichlari va usullari.....	232
12.3. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga narx belgilash xususiyatlari.....	239
12.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlariga narx belgilash mexanizmini takomillashtirish.....	241
Qisqacha xulosalar .....	243
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	245
Adabiyotlar .....	245
<b>XIII bob. ISHLAB CHIQARISHGA INVESTITSIYALAR JALB ETISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO`NALISHLARI</b>	
13.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi.....	246
13.2. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash.....	250
13.3. Chet el investitsiyalarini jalb etish mexanizmi.....	252

13.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiyalar samaradorligi va uni oshirish imkoniyatlari .....	258
Qisqacha xulosalar .....	264
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	264
Adabiyotlar .....	265
<b>XIV bob. FERMER XO`JALIGI FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI</b>	
14.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni .....	266
14.2. Iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari.....	267
14.3. Moliyaviy barqarorlik ko`rsatkichlari .....	271
Qisqacha xulosalar.....	276
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	277
Adabiyotlar .....	278
<b>XV bob. FERMER XO`JALIKLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASH</b>	
15.1. Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish zaruriyati va o`ziga xos xususiyatlari .....	279
15.2. Davlatning fermer xo`jaliklarini tartibga solish hamda qo`llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari, uni amalga oshirish shakllari va usullari.....	283
15.3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....	286
15.4. Fermer xo`jaliklarini ma`muriy-huquqiy tartibga solish va himoyalash tizimi.....	292
15.4. Fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan iqtisodiy tartibga solish va qo`llab-quvvatlash choralar.....	297
15.5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo`llari.....	300
Qisqacha xulosalar .....	302
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	302
Aadabiyotlar .....	303
<b>ATAMALAR LUG`ATI.....</b>	304
<b>ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>	309

## KIRISH

Bozor munosabatlarining negizini turli mulk shakllariga asoslanadigan xo`jalik yuritish shakllarining mayjud bo`lishi va ular orasida bo`ladigan sog`lom raqobat tashkil etadi. Respublikamiz qishloq xo`jaligida vujudga kelayotgan yangi xo`jalik yuritish shakllari orasida dehqon va fermer xo`jaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Dehqon va fermer xo`jaliklari xo`jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, qishloq xo`jaligida mulk shakllarining teng huquqlilik va sog`lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o`zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli asarida fermer xo`jaliklarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o`rniga alohida e’tibor bilan qarab: “2008-yilda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo`jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi.

Dastlab zarar ko`rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo`jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo`g`inga — qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtida fermer xo`jaliklari qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o`zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo`jaliklarini moddiy-texnik ta`minlash va moliyalash bo`yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to`la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatmoqda”<sup>1</sup>, - deb ko`rsatib o`tgan.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, dastlab zarar ko`rib ishlaydigan va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan fermer xo`jaliklari bugungi kunda agrar sohaning etakchi bo`g`iniga – qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylanmoqda. Qishloq xo`jaligida amalga oshirilgan tub islohotlar samarasi o`laroq 2008-yilda fermer xo`jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1 %ni, g`alla tayyorlashda esa 79,2 %ni tashkil qildi.

Shu bilan birga, “o`tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo`jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog`liq masalalarini hal qilishni qat’iy talab etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo`jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo`jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o’sishiga ko`p jihatdan to`sinqinlik qilmoqda.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo`lgan fermer xo`jaliklari o`zini zarur texnika, aylanma mablag` bilan ta`minlash, kredit qobiliyatiga ega bo`lish, eng asosiysi, o`z

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009, 21-b.

xarajatlarini qoplash va foyda ko`rib ishslash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylana olmasligini bugun hayotning o`zi ko`rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to`liq inventarizatsiyadan o`tkazish va fermer xo`jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo`yicha keng ko`lamli, shu bilan birga, puxta o`ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo`jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

Ana shu ishlar natijasida fermer xo`jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g`allachilikda o`rtacha 37 hektardan 93,7 hektargacha ko`paydi yoki 2,5 barobardan ziyyod oshdi. Bu ko`rsatkich sabzavotchilikda 10 hektardan 24,7 hektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 hektardan 164,5 hektargacha ko`paydi. 2008-yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlandi<sup>2</sup>.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2009-yilning “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’lon qilinishi va shu munosabat bilan qabul qilingan davlat dasturida qishloqda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, fermerlik harakatini qo`shimcha ravishda qo`llab-quvvatlash, uning ijtimoiy-siyosiy maqomini mustahkamlash yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Shunday ekan, dehqon va fermer xo`jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi faoliyatini, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo`llarini va shu asosda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish yo`llarini o`rganish obyektiv zaruriyat bo`lib hisoblanadi. Bu masalalarni hal qilishda «Fermer va dehqon xo`jaliklari iqtisodi» fanining ahamiyati katta, chunki bu fan islohotlar natijasida vujudga kelgan dehqon va fermer xo`jaliklarini tashkil etish qonuniyatlarini, ularni samarali faoliyat yuritish yo`llarini o`rgatadi.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilasni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so`zi, 2009-yil 14-fevral

**I bob. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA  
«DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI IQTISODI» FANINING MAZMUNI,  
VAZIFALARI VA UNI O`RGANISH USULLARI**

**1.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida «Dehqon va fermer  
xo`jaliklari iqtisodi» fanining predmeti, vazifalari  
va boshqa fanlar orasida tutgan o`rni**

Qishloq xo`jalogining eng muhim vazifalaridan biri mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga va qayta ishlash sanoati korxonalarining xomashyoga bo`lgan talabini qondirishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirish qishloq xo`jaligida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, mulkchilik va xo`jalik yuritishning turli shakllarini rivojlantirish, cheklangan resurslar sharoitida moddiy ne`mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste`mol qilish jarayonini mukammal yo`lga qo`yish orqali ta'minlanadi.

Keyingi yillarda qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional islohotlar natijasida xo`jalik yuritishda inson omilining tashabbuskorligi va tadbirkorligiga, haqiqiy mulk egaligi hissiga tayanadigan ishlab chiqarishni boshqarish tizimi yuksak ahamiyat kasb etib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali xo`jalik yuritish ko`nikmalarini mukammal egallash uchun qishloq xo`jaligida amal qiladigan obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar va ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur o`rganish va teran anglab yetish lozim bo`ladi. Shundan kelib chiqqan holda, «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining predmeti xo`jalik yuritishda amal qiladigan obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar va ishlab chiqarish munosabatlarini o`rganishdan iborat bo`ladi.

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani qishloq xo`jaligi umumiy iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan bir xo`jalik sharoitida amal qilish xususiyatlarini hamda xo`jalik amaliyotida ulardan foydalanish usullarini o`rgatadi.

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani iqtisodiy fan bo`lib, boshqa iqtisodiy fanlar singari u ham cheklangan resurslar sharoitida moddiy ne`matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste`mol qilish jarayonida insonlarning xatti-harakatini tadqiq etadi. Uning asosida ikki muhim omil yotadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlari cheksiz;
- iqtisodiy resurslar, ya`ni tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo`ladigan vositalar chegaralangan.

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani moddiy resurslar cheklangan sharoitda bozor iqtisodiyoti xususiyatlariga mos bo`lgan 5 ta fundamental savollarga javob berishi lozim bo`ladi. Bular:

1. Qanday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish iste`molchilarning moddiy ehtiyojlarini to`laroq qondirishga imkon beradi?
2. Mavjud resurslardan qancha qismini jalb etgan holda, qanday hajmda mahsulot ishlab chiqargan ma`qul?
3. Bu mahsulotlarni yaratishda qanday ishlab chiqarish tizimi va texnologiyasidan foydalilanildi?
4. Mahsulot kim uchun ishlab chiqariladi, uning iste`molchilari kim?

5. Xo`jalik iste'molchilar talabi, resurslar bozori va ishlab chiqarish texnologiyasida yuz beradigan doimiy o`zgarishlarga moslashib boradimi?

Aynan mana shu savollarga javob topish «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining asosiy vazifalarini shakllantiradi.

Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining respublikamizda yuzaga keltirayotgan oqibatlarini bartaraf etish oliv o`quv yurtlari zimmasiga ham ulkan vazifalarni yuklaydi. Zamonoviy iqtisodchi keng qamrovli bilimlarga ega bo`lishi, nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog`lay olishi va o`z tanlagan sohasi bo`yicha haqiqiy bilimdon bo`lishi lozim. Jumladan, bozor iqtisodiyotida samarali faoliyat ko`rsata oladigan va inqirozga qarshi boshqaruv ko`nikmalarini chuqur egallagan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash O`zbekistonning buyuk kelajak sari dadil odimlarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan omillardan biri sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bozor iqtisodiyoti tabiatiga mos keluvchi ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlarining xo`jalikda amal qilishi xususiyatlarini aniqlash;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitlari hamda qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fermer va dehqon xo`jaliklarining maqsadga muvofiq ishlab chiqarish hajmi, ixtisoslashuvi va tarmoq tarkibini asoslash;

- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va uning texnologiyasini takomillashtirishga yo`naltirilgan tadbirlar samaradorligini texnik-iqtisodiy baholash usullarini o`rganish;

- ishlab chiqarishning cheklangan resurslaridan foydalanish tizimini optimallashtirish;

- ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va bahoning shakllanish tamoyillarini tadqiq etish va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ularni takomillashtirish yo`llarini ishlab chiqish;

- moddiy-texnik resurslar ta'minoti va mahsulotlarni sotishning eng samarali tizimlarini aniqlash;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida talab va taklif funksiyalarining amal qilish mexanizmlarini o`rganish va boshqalar.


«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani o`z oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalarni hal etishda bir qator fanlar yutuqlariga tayanadi. Bu fanlar tizimi (1-chizma):

- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- texnik-texnologik fanlarga bo`linadi.

Tabiiy fanlar jumlasiga «Biologiya», «Zoologiya», «Fizika», «Kimyo», «Matematika» va boshqa fanlar kiradi va ular bizni o`rab turgan tabiat (borliq) to`g`risidagi asosiy bilimlarni beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga «Sotsiologiya», «Psixologiya», «Mehnat iqtisodi», «Iqtisodiy nazariya», «Marketing», «Menejment», «Statistika», «Tarmoqlar iqtisodi» (sh.j. «Qishloq xo`jaligi iqtisodi»), «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy-

matematik modellar» va boshqa fanlar kirib, ular «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanini o`rganishda muhim baza bo`lib xizmat qiladi.



1-chizma. Fanning boshqa fanlar bilan aloqalari

Texnik-texnologik fanlarga «Tuproqshunoslik», «Dehqonchilik», «O`simlikshunoslik», «Chorvachilik», «Agrokimyo», «Melioratsiya», «Traktorlar va qishloq xo`jaligi mashinalari», «Mexanizatsiya va elektrlashtirish», «Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash» kabi bir qator fanlar kirib, ular mehnat qurollari va mehnat predmetlarining ayrim xususiyatlari, quvvati, unumdarligi, tabiiy-biologik va boshqa xususiyatlari hamda ularni ishlash tartibi to`g`risida axborot beradi. Bu ma'lumotlarsiz ulardan samarali foydalanishni tashkil etib bo`lmaydi.

## 1.2. «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanini o`rganish usullari

Bizni o`rab turgan borliqni o`rganish usullari fanning uslubiyotini tashkil etadi. Boshqa fanlar kabi «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining uslubiy asosini ilmiy tafakkurning dialektika usuli tashkil etadi. Dialektik usul hamma hodisa va jarayonlar doimiy o`zgarishda hamda o`zaro bog`liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi, deb tushuntiradi. Dialektik usul rivojlanish jarayonini oddiy o`sish jarayoni deb emas, balki oddiylikdan murakkablikka, miqdor o`zgarishlaridan sifat o`zgarishlariga o`sib o`tuvchi murakkab jarayon deb baholaydi.

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanini o`rganish iqtisodiy jarayonlarni kuzatish va zarur ma'lumotlarni yig`ishdan boshlanadi. Iqtisodchilar avvalo ma'lum iqtisodiy muammoga taalluqli dalillarni aniqlaydilar va to`playdilar. Dalillarni tahlil qilish orqali iqtisodiy xulosa yoki iqtisodiy nazariya yaratiladi. Iqtisodiy xattiharakatlarni o`rganishda iqtisodiy tadqiqot nazariyadan ayrim dalillarga va aksincha, dalillardan umumiylaz nazariyaga qarab harakatlanishi mumkin.

Iqtisodiy tadqiqot ayrim dalillardan iqtisodiy nazariyaga qarab harakat qilganda **induktiv** usulni, nazariyadan ayrim dalillarga qarab harakat qilganda **deduktiv** usulni ifoda qiladi.

**Tahlil** usulida hodisalarni mayda bo`laklarga, alohida-alohida dalillarga ajratib o`rganilsa, **sintez** usulida hodisalarni, ayrim dalillarni birlashtirish, birgalikda, o`zaro bog`liqlikda o`rganish orqali umumlashtiriladi va xulosa qilinib, turli nazariyalar yaratiladi. Ammo, bundan xatoga yo`l qo`ymaslik uchun alohida olingan tasodifan qo`lga kiritilgan dalillardan emas, balki o`rganilayotgan obyektga tegishli barcha dalillar yig`indisidan foydalanish maqsadga muvofikdir.

**Dalillarni yig`ish** borliqni ilmiy anglashning boshlanishi xolos. Fermer va dehqon xo`jaliklari tabiiy-iqlim va texnik-texnologik shart-sharoitlar bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarishnihg tashkil etilishi, mehnat unumdarligi va iqtisodiy samaradorlik jihatidan turli darajada rivojlanish xususiyatlariga ega.

Shu tufayli alohida olingan xo`jalik ma'lumotlari boshqa sharoitda joylashgan dehqon va fermer xo`jaliklari uchun mos kelmasligi mumkin. Buning uchun turli ma'lumot va dalillarni chuqur tahlil etish asosida nazariy umumlashtirish lozim bo`ladi.

Dalillarni keng qamrovli tahlil etish uchun iqtisodiy tadqiqotning turli usullaridan foydalaniladi. Ularning ichida eng ko`p **statistik, iqtisodiy-matematik, monografik, tajriba** usullaridan foydalaniladi.

**Statistik**, ya`ni dinamika qarorlari, o`rtacha sonlar, guruhlashtirish analitik, korelyatsion, dispersion va regression tahlil usullari dinamik qatorlar, o`rtacha sonlar, guruhlashtirish usullari orqali xo`jalikda sodir bo`ladigan miqdor o`zgarishlar qanday sifat o`zgarishlariga olib kelishi, ayrim omil va dalillar o`rtasida qanday aloqa va bog`lanishlar borligi anqlanadi.

**Monografik** usul orqali biron voqealari yoki dalil unga ta'sir etuvchi har bir jarayonning o`rganilishi ta'minlanadi.

**Hisob-analitik** usul biron tadbirni belgilashda yoki xo`jalikning istiqboli bilan bog`liq tadbirlarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

**Tajriba usuli** normativ asosda belgilangan me'yoriy tadbirni yoki biron-bir nazariyani keng miqyosda qo`llashdan oldin kichik doirada sinab ko`rishdir. Agar bu sinov natijalari amalda o`zini oqlasa, xuddi shu sharoit bo`lgan joylarda ularni keng qo`llashga tavsiya etishdir. Chunki amaliyot haqiqat mezonidir. Ma'lumki, biron bir natija, masalan, xo`jalikning foydalilik darajasi juda ko`p omillarga bog`liq.

Ayrim hollarda turli omillar bir-birlariga teskari ta'sir etishi mumkin. Bunda **iqtisodiy-matematik** usulidan qo`llanilgan holda hamma omillar ta'sirini miqdor jihatdan hisobga olish imkoniyatini beradigan modellardan foydalaniladi. Masalan, xo`jalikda foydani maksimallashtirish va xarajatlarni minimallashtirish uchun qishloq xo`jalik ishlarini traktor mashinalari bo`yicha optimal taqsimlash kerak.

## **Qisqacha xulosalar**

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani qishloq xo`jaligi umumiy iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan bir xo`jalik sharoitida amal qilish xususiyatlari hamda xo`jalik amaliyotida ulardan foydalanish usullarini o`rgatadi.

«Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani iqtisodiy fan bo`lib, boshqa iqtisodiy fanlar singari u ham cheklangan resurslar sharoitida moddiy ne`matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste`mol qilish jarayonida insonlarning xatti-harakatini tadqiq etadi. Uning asosida ikki muhim omil yotadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlari cheksiz;
- iqtisodiy resurslar, ya`ni tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo`ladigan vositalar chegaralangan.

Bizni o`rab turgan borliqni o`rganish usullari fanning uslubiyotini tashkil etadi. Boshqa fanlar kabi «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining uslubiy asosini ilmiy tafakkurning dialektika usuli tashkil etadi. Bu fan fermer xo`jaliklarini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan asoslab beradi, ularning nazariy, amaliy va uslubiy masalalarini ishlab chiqishga ko`maklashadi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining mazmuni va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fanining predmeti va o`rganish usullarini nimalar tashkil etadi?
3. «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi» fani boshqa qanday fanlar bilan aloqalarga ega?

## **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. -T., 2004.
2. O`zbekiston Respublikasining «Dehqon xo`jaligi to`g`risida» gi Qonuni. -T., 1998.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi. //Xalq so`zi, 2009-yil 14-fevral.
5. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
6. Jo`raev F. Qishloq xo`jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. -T.: Istiqlol, 2004.
7. Samatov G`A. va boshq. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. -T.: O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2005.
8. Серова Е.В. Аграрная экономика. -М.: Государственный университет Высшая школа экономики, 1999.

## **II bob. DEHQON XO`JALIGINING TASHKILIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

### **2.1. Dehqon xo`jalogining mohiyati, rivojlanish xususiyatlari va qishloq xo`jaliga tutgan o`rni**

Dehqon xo`jaliklari aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklari negizida vujudga kelgan xo`jalik yuritish shakllaridan biridir. Dehqon xo`jaligi ichki iste'mol va mayda tovar qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog`liq kichik tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi. O`zbekiston Respublikasining 1998- yil 30-aprelda qabul qilingan 604-I-sonli “Dehqon xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunining 1-moddasida dehqon xo`jaligiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Dehqon xo`jaligi oilaviy mayda tovar xo`jaligi bo`lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi”.

Dehqon xo`jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo`jaligi a’zolarining istagiga ko`ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo`jaligi o’z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas. Dehqon xo`jaligi a’zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo`jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig`i, uning turmush o`rtog`i, farzandlari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Dehqon xo`jaligi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o`ziga xos xususiyatlarga ega(2-chizma):

1. Dehqon xo`jaligi eng avvalo O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan «Yer Kodeksi»ga ko`ra aholiga dehqon xo`jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkasi negizida vujudga keladi.

Dehqon xo`jaligi a’zolari o’z xohishlari, manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib xo`jalikni tashkil etadilar. Ular mahsulot ishlab chiqarish yo`nalishlarini belgilash, boshqa xo`jalik va davlat organlari bilan munosabatlarni ham mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

2. Dehqon xo`jaligida mulk egaligi huquqi shu xo`jalik a’zolarining xususiy mulki bo`lganligi tufayli, ular bu mulkni yaxshi saqlanishi va ko`payib borishidan manfaatdordirlar. Bu esa ularda mulkdan oqilona foydalanish ko`nikmasini hosil qiladi.

Yer maydonining umrbod meros qilib qoldirish huquqi bilan berilishi esa yer resurslaridan unumli foydalanish, tuproq tarkibi va hosildorligini muttasil oshirib borishga rag`bat yaratadi.

1.	Ijtimoiy-psixologik jihatdan	Jamiyatning boshlag`ich bo`g`ini - oila va unga xos bo`lgan qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlami
2.	Tashkiliy-huquqiy jihatdan	A`zolarning istagiga ko`ra: - yuridik shaxs maqomida; - yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik shakllaridan biri
3.	Mehnat munosabatlari jihatidan	Oilaning shaxsiy mehnatiga tayanadi, yollanma mehnatdan doimiy foydalanishi mumkin emas
4.	Ishlab chiqarish yo`nalishi jihatidan	Oilaning ichki iste'moli va qisman bozorga mo`ljallangan oilaviy mayda tovar xo`jaligi
5.	Mulkiy munosabatlar jihatidan	- ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik; - yer maydoni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilishga beriladi
6.	Xo`jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmi jihatidan	Yer maydonining yuqori chegarasi: - sug`oriladigan yerdarda 0,35 gektargacha; - sug`orilmaydigan (lalmi) yerdarda 0,5 gektargacha; - cho`l va sahro mintaqasida sug`orilmaydigan yerdarda 1 gektargacha

## 2-chizma. Dehqon xo`jaligiga xos xususiyatlar

3. Dehqon xo`jaligida mehnatning xarakteri ham o`ziga xos xususiyat kasb etadi. Dehqon faqat o`zi va oilasining farovonligini ta`minlashga yo`naltirilgan erkin, ijodiy mehnatdagina o`z qobiliyati va mahoratini to`laligicha namoyon eta oladi.

4. Dehqon xo`jaligining asosini jamiyatining boshlang`ich tayanch bo`g`ini - oila tashkil etadi. Oilaviy xo`jalikda o`zgacha ijtimoiy va ma`naviy muhit mavjud bo`lib, bu yerda har bir shaxsning manfaati butun oila manfaati bilan qo`shilib ketadi. Bunda mehnat jamoasi vakillarining bir-biriga bo`lgan ishonchi yuqoriligi sababli, har bir kishi umumiy oila farovonligi yo`lida vijdonan va sifatli mehnat qiladi, mehnat va uning natijalarini qadrlashga o`rganadi, o`zaro yordam va shaxsiy javobgarlik xislatlariga moslashadi.

Dehqon xo`jaligi o`ziga xos ma`naviy va axloqiy qadriyatlar davomchisi hamdir. Uning oilaviy turmushida o`zi yashayotganyerdagi mahalliy aholining urfodatlari, ma`naviy qadriyatlari bevosita o`z ifodasini topadi. Xo`jalik yuritishning bu shakli o`ziga xos mehnat va tarbiya maktabi ham bo`lib, bunda minglab yillardan beri ajdodlarimiz tomonidan to`plangan mehnat tajribalari va ko`nikmalar, yerga va tabiatga muhabbat hissi hamda eng yaxshi milliy an'analar mustahkamlanib avloddan-avlodga o`tkazib boriladi.

5. Dehqon xo`jaligi asosan ichki iste'mol va qisman bozorga yo`naltirilgan mayda xo`jalik sifatida bozor konyunkturasiga tez moslashuvchan bo`ladi. Bunday xo`jaliklar bozor holatidagi ozgina o`zgarishni ham tezda ilg`ab, bozordagi iste'molchilar talabiga mos taklif bilan chiqishga intiladi. Dehqonning mahsulotiga

o`rnatiladigan narx bozorda, xaridorlar tomonidan o`rnatilishi tufayli, uning uchun mahsulot sifatini xaridorlar didiga moslashtirishdan boshqa iloji qolmaydi. Bu holatlar bir tomonidan aholini zarur mahsulotlar bilan o`z vaqtida, kerakli miqdorda va sifatda ta'minlash imkonini yaratса, ikkinchi tomonidan bozorlar mo'l-ko`lchiligi sharoitida narxlarning asta-sekin arzonlashib borishiga sabab bo`ladi.

O`zbekistonda aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklarini rivojlantirish tomon dastlabki tadbirlar 80-yillarning oxirlaridan boshlab amalga oshirildi. O`zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining "Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari, grajdnlarning shaxsiy yordamchi xo`jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurishni yanada rivojlantirish to`g`risida"gi (1989-yil, 15-avgust) qarori va O`zbekiston SSR Prezidentining "Jumhuriyat aholisining shaxsiy yordamchi xo`jaliklaridagi mol va parrandalarni yem-xashak bilan ta'minlash hamda ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko`paytirish to`g`risida"gi (1990-yil, may) Farmoni respublikamizda shaxsiy yordamchi xo`jaliklarni rivojlantirishda muhim omil bo`lib xizmat qildi. Buning natijasida aholining tomorqa yer maydonlarini sezilarli darajada kengaytirish, yakka tartibda uy-joy qurishga bo`lgan ehtiyojni qondirish va ko`pgina qishloqda yashayotgan oilalar chorva mollarini sotib olish hamda yem-xashak yetishtirish imkoniyatlarini oshirishga erishildi.

O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligini qo`lga kiritgandan so`ng aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar amalga oshirildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil yanvar oyida e'lon qilingan «Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari va qishloq joylarda yashovchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo`jaliklarini yanada rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi va «Shaxsiy tomorqa xo`jaliklarining egalari bo`lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ular uyushmasi moddiy-texnika negizini mustahkamlash to`g`risida»gi Farmonlariga asosan o`sha yili shaxsiy yordamchi xo`jaliklar uchun yana qo`shimcha 108,5 ming hektar sug`oriladigan yerlar ajratib berildi va 1991-yil oxiriga kelib, shaxsiy yordamchi xo`jaliklarida foydalaniладиган maydonlar qariyb 500 ming gektarga yetdi<sup>3</sup>.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 18-martdagи PF-1737-sonli «Dehqon va fermer xo`jaliklari davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to`g`risida»gi Farmonining qabul qilinishi respublikamizda dehqon xo`jaliklarining keng ko`lamda rivojlanishiga yo`l ochib berdi va aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash hamda ularning manfaatlarini himoya qiluvchi uyushma faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarini belgilab berdi.

1998-yil 30-aprelda O`zbekiston Respublikasining «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni qabul qilinib, aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklari maqomi yanada teranlashtirildi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari belgilab berildi. Ushbu qonunga ko`ra, aholining shaxsiy yordamchi xo`jaliklari

<sup>3</sup> Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004, 13-b.

dehqon xo`jaligi sifatida qayta nomlandi va uning mohiyati, maqomi, faoliyat ko`rsatishi asoslari hamda tadbirkorlik subyekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldaggi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko`rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo`jaliklarni dehqon xo`jaliklariga aylantirish tartibi tasdiqlandi.

Hozirgi kunda dehqon xo`jaliklari ikki yo`nalishda rivojlanmoqda:

1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan dehqon xo`jaliklari.
2. Yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan dehqon xo`jaliklari.

Keyingi yillarda shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko`paytirish borasida yirik tadbirlar amalgalash oshirildi. Ammo, ko`rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay dehqon xo`jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko`tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to`liq foydalanilmayapti. Xo`jaliklarni zotdor, sermahsul chorva mol bilan, omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta`minlash borasidagi ishlar, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko`rsatish bo`yicha infratuzilma tarmoqlari, shuningdek shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni mikrokreditlash tizimi yetarlicha yo`lga qo`yilmagan.

Shu muammolarni hal etish maqsadida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdaggi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida chorva mollarni ko`paytirishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-308-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 21-apreldagi 67-sonli «2006-2010-yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko`paytirishni rag`batlantirish dasturini amalgalash chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarorida aholini, ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta`minlash va shu asosda oilalar daromadini oshirishning muhim omili sifatida chorva mollari, eng avvalo qoramol boqayotgan dehqon va fermer xo`jaliklari sonini ko`paytirish uchun zarur huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish ko`zda tutilgan. Jumladan:

1. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklarida qoramol boqish bilan band bo`lgan shaxslar, o`zları yetishtirgan chorvachilik mahsulotlaridan qanday foydalanishidan qat`i nazar, ish bilan ta`minlangan aholi toifasiga kiritildi va "Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ular tomonidan budjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga eng kam oylik ish haqining kamida 50 % i miqdorida oylik sug`urta badallari to`langan taqdirda pensiya bilan ta`minlanish huquqiga ega bo`ldilar.

2. 2006-2010-yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko`paytirishni rag`batlantirish dasturi qabul qilindi. Unga ko`ra mintaqalar bo`yicha shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida qoramollar sonini ko`paytirish, zooveterinariya punktlari va chorva mollarini sun`iy urchitish punktlari tarmog`ini kengaytirish va zotli mollarni shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklariga auksionlar orqali sotish tadbirlari belgilab berildi.

3. Qoramol sotib olish uchun shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklariga zarur hajmlarda mikrokreditlar ajratishni kengaytirish va chorvachilikni rivojlantirish

uchun fuqarolarga o`zini o`zi boshqarish organlari - mahalla qo`mitalarining kafolatligi ostida tijorat banklari tomonidan imtiyozli mikrokreditlar ajratishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi.

4. Don mahsulotlari korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan omuxta yem, shu jumladan shartnomalar bo`yicha fermer xo`jaliklaridan sotib olinadigan dondan ishlab chiqariladigan omuxta yemni shaxsiy yordamchi va dehqon xo`jaliklariga tuman markazlari va yirik aholi punktlarida ixtisoslashtirilgan savdo shoxobchalari orqali sotish uchun zarur omborxonalar qurish chora-tadbirlari belgilandi.

5. 2010-yilgacha bo`lgan davrda naslchilik chorvachilik korxonalari va xo`jaliklari naslchilik chorvachiligini rivojlantirish uchun respublikaga olib kelinadigan naslchilik materiali, texnologiya va yordamchi uskunalarga boj to`lovlaridan ozod qilindi (bojxona rasmiylashtiruvi yig`imlari bundan mustasno).

6. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklariga qoramol sotib olish uchun imtiyozli mikrokreditlar berish.

Dehqon xo`jaliklari respublikada chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi eng asosiy xo`jalik yuritish shakli ekanligi bois, istiqbolda chorvachilik tarmog`ining rivojlanishi ularning iqtisodiy salohiyatiga bog`liq bo`lib qoladi.

Statistik ma'lumotlarga ko`ra, 2008-yil yakuni bo`yicha respublikamizda 4703,4 mingta dehqon xo`jaliklari faoliyat ko`rsatgan va ular qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining 65,1 %ini, o`simgilikchilik yalpi mahsulotining 44,3 %ini va chorvachilik yalpi mahsulotining 92,4 %ini yetishtirib bergen.

O`tgan 2002-2008-yillar oralig`ida dehqon xo`jaliklarida don ishlab chiqarish 150,6 %ga, kartoshka 169,5 %ga, sabzavotlar 154,0 %ga, poliz 165,3 %ga, go`sht yetishtirish 255,4 %ga, sut 148,1 %ga, tuxum 196,6 %ga o`sganini qayd etib o`tish joiz (1-jadval).

Dehqon xo`jaliklari mamlakatni go`sht, sut, tuxum, jun kabi chorvachilik mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum kabi o`simgilikchilik mahsulotlari bilan ta'minlovchi asosiy xo`jalik yuritish shakllaridan biri bo`lib qolmoqda. Barcha toifadagi xo`jaliklarga nisbatan dehqon xo`jaliklarining ekin maydonlaridagi ulushi 13,0 %ni tashkil etishiga qaramay ular o`simgilikchilik yalpi mahsulotining 44,3 %ini yetishtirib berayotganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

1-jadval

Dehqon xo`jaliklari faoliyatining asosiy ko`rsatkichlari<sup>4</sup>

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	2002-yil	2004-yil	2006-yil	2008-yil	2008 y. 2002 y. ga nisb. (%)
Xo`jaliklar soni	ming dona	3312,4	4377,1	4631,7	4703,4	142,0
Qishloq xo`jaligi mahsuloti qiymati (amal. bahoda)	mlrd. so`m	2087,3	2867,8	4698,7	6839,2	327,6
<b>Jami yer maydoni</b>	ming ga	486,9	497,3	507,6	505,0	103,7
<b>Ekin maydoni, sh.j.,</b>	ming ga	404,1	433,3	454,8	466,7	115,5
Don ekinlari	ming ga	188,6	200,0	216,8	222,2	117,8
Texnika ekinlari	ming ga	7,1	10,4	9,7	7,8	109,9
Kartoshka	ming ga	42,3	45,1	46,7	49,6	117,2
Sabzavotlar	ming ga	91,2	97,4	102,9	105,0	115,1
Poliz ekinlari	ming ga	15,8	15,3	16,1	18,8	119,0
Yem-xashak ekinlari	ming ga	59,0	64,9	63,6	63,3	107,3
<b>Chorva mollari bosh soni:</b>						
Yirik shoxli qoramol	ming bosh	4868,0	5698,1	6538,6	8026,3	164,9
Sigirlar	ming bosh	2196,0	2530,8	2818,2	3327,1	151,5
Qo`y va echkilar	ming bosh	6493,5	7708,7	9053,0	13523,3	208,2
<b>Mahsulot ishlab chiqarish:</b>						
Don va don dukkaklilar	ming ton.	873,5	1020,8	1175,6	1316,0	150,6
Kartoshka	ming ton.	688,2	803,5	898,1	1166,8	169,5
Sabzavotlar	ming ton.	2229,7	2577,9	2818,0	3433,5	154,0
Poliz	ming ton.	306,0	351,3	392,7	506,0	165,3
Meva	ming ton.	496,4	521,2	599,2	732,7	147,6
Uzum	ming ton.	228,8	259,4	332,4	367,6	160,7
Go`sht (so`yilgan vaznda)	ming ton.	479,0	562,6	643,9	1223,2	255,4
Sut	ming ton.	3544,4	4127,6	4709,1	5250,2	148,1
Tuxum	mln. dona	763,5	1000,6	1278,0	1500,8	196,6
Jun (fizik og`irlilikda)	ming ton.	12,5	14,7	17,3	19,7	157,6
<b>Hosildorlik:</b>						
Don va don dukkaklilar	ts /ga	45,2	49,4	52,6	55,2	122,1
Kartoshka	ts /ga	147,7	164,4	177,6	201,1	136,1
Sabzavot	ts /ga	201,3	219,8	233,6	262,5	130,4
Poliz	ts /ga	174,9	200,9	216,6	220,7	126,2

Dehqon xo`jaliklari 2008-yilda don mahsulotlarining 19,5, kartoshkaning 83,4, sabzavotlarning 66,5, poliz mahsulotlarining 51,5, go`shtning 95,0, sutning 96,8, tuxumning 61,8 va junning 83,0 %ini yetishtirib berdilar (2-jadval).

<sup>4</sup> Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан.

2-jadval

Dehqon xo`jaliklarining qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishidagi salmog`i  
(barcha toifadagi xo`jaliklarga nisbatan %da)<sup>5</sup>

Ko`rsatkichlar	2002-yil	2004-yil	2006-yil	2008-yil
<b>Ekin maydonlari va chorva mollari bosh sonida:</b>				
Jami ekin maydonida, sh.j.,	11,4	11,7	12,5	13,0
Don ekinlari	12,3	12,0	13,4	14,2
Kartoshka	86,5	86,6	88,8	82,8
Sabzavotlar	71,6	70,8	66,6	64,7
Poliz ekinlari	42,4	44,1	43,04	44,5
Yem-xashak ekinlari	18,0	22,8	21,4	22,7
Yirik shoxli qoramollar	88,9	91,3	92,8	92,8
Sigirlar	91,8	93,6	94,5	94,3
Qo`y va echkilar	70,3	72,8	75,3	77,2
Cho`chqalar	55,8	56,8	67,1	74,4
Parrandalar	62,6	68,2	68,7	65,7
Otlar	74,3	77,9	81,5	82,4
<b>Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda:</b>				
Don	15,7	17,4	17,9	19,5
Kartoshka	88,6	89,7	88,0	83,4
Sabzavotlar	76,0	77,3	65,6	66,5
Poliz ekinlari	63,8	61,4	52,8	51,5
Meva	59,0	61,2	50,7	52,2
Uzum	44,3	44,1	41,4	46,4
Go`sht	93,3	94,0	94,6	95,0
Sut	95,2	96,4	97,0	96,8
Tuxum	55,8	53,8	60,1	61,8
Jun	75,5	77,2	80,7	83,0
Qorako`l teri	35,9	47,8	65,6	60,7

## 2.2. Dehqon xo`jaligini tashkil etish va tugatish tartibi

Dehqon xo`jaligi uni tuzayotgan a`zolarning istagiga ko`ra, ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda davlat ro`yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Dehqon xo`jaligi tuzish uchun birinchi navbatda tuman hokimligining zaxira yerlaridan, shuningdek zarurat tug'ilganda tuman hokimining qarori bilan fermer xo`jaliklari va boshqa qishloq xo`jaligi korxonalariga uzoq muddatli ijaraiga berilgan yerlardan yer uchastkasi ajratiladi.

Yer uchastkasi berish to`g`risidagi ariza so`ralayotgan yer uchastkasining joylashgan yeri, maydoni, dehqon xo`jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanish ko`rsatilgan holda tuman hokimiga taqdim etiladi.

<sup>5</sup> Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан.

Tuman hokimi ariza asosida va yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) to`g`risidagi masalalarni ko`rib chiqish bo`yicha tuman komissiyasining xulosasi asosida dehqon xo`jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish hamda mazkur xo`jalikni davlat ro`yxatiga olish haqida qaror qabul qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdaggi 357-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish, hisobga qo`yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to`g`risida”gi nizomiga muvofiq dehqon xo`jaligini yuridik shaxs sifatida ro`yxatdan o`tkazish uchun ro`yxatdan o`tkazuvchi organga (shaxsan kelib yoki pochta orqali) ariza taqdim etiladi. Davlat ro`yxatidan o`tkazish to`g`risidagi arizaga:

1. Davlat tilidagi ta`sis hujjatlarining belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi, bunda yuridik shaxs bo`lgan dehqon xo`jaliklari uchun faqat ustav).
2. Bir xil yoki adashtirish darajasida o`xshash bo`lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi.
3. Uch nusxada muhr va shtamp eskizlari.
4. Tuman hokimining yer uchastkasi ajratib berish to`g`risidagi qarori nusxasi taqdim etiladi.

Yuridik shaxs bo`lmagan dehqon xo`jaliklarini davlat ro`yxatidan o`tkazish uchun Inspeksiya dehqon xo`jaligi rahbari tomonidan shaxsan o`zi kelib yoki pochta aloqasi orqali davlat ro`yxatidan o`tkazish to`g`risida ariza taqdim etiladi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- tuman hokimining yer uchastkasi ajratib berish to`g`risidagi qarori;
- muhr va shtamp eskizlari (arizachining xohishiga ko`ra);
- pasport nusxasi.

Dehqon xo`jaligini davlat ro`yxatiga olish dehqon xo`jaligini doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo`jaligiga yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro`yxatidan o`tkazilganlik to`g`risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Agar davlat ro`yxatiga olish belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki dehqon xo`jaligi boshlig`i asossiz deb hisoblaydigan sabablarga ko`ra rad etilgan bo`lsa, xo`jalik boshlig`i sudga murojaat qilishi mumkin.

Ro`yxatdan o`tkazuvchi organ tomonidan yuridik shaxsni tashkil etgan dehqon xo`jaligini davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni yuridik shaxslarning davlat reestriga kiritadi. Yuridik shaxs bo`lmasdan tashkil etilgan dehqon xo`jaliklari to`g`risidagi ma'lumotlar ham boshqa shakllar bo`yicha reestrga kiritiladi.

Ro`yxatdan o`tkazuvchi organlar davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kundan boshlab bir kun mobaynida dehqon xo`jaligi haqidagi davlat reestridan olingan ma'lumotlarni tadbirkorlik subyekti joylashgan joydagisi:

- yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo`jaliklari bo`yicha - statistika, soliq organlari hamda muhr va shtamp eskizlarini uch nusxada ilova qilgan holda ichki ishlar organlariga;

- yuridik shaxs bo`lmasdan tashkil etilgan dehqon xo`jaliklari bo`yicha - soliq organiga hamda muhr va shtamp eskizlarini (ariza beruvchi xohishiga ko`ra) uch nusxada ilova qilgan holda ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Ma'lumotlar olingach ikki kun muddatda:

- soliq organlari - yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo`jaligini va yuridik shaxs bo`lmasdan tashkil etilgan dehqon xo`jaligini, shu jumladan budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga, ish bilan ta'minlash jamg`armasi va yo`l jamg`armasiga (tegishli jamg`armalarga badal to`lovchilar hisoblangan subyektlar uchun) sug`urta badallari to`lovchi sifatida (yuridik shaxs bo`lmasdan tashkil etilgan dehqon xo`jaliklaridan tashqari) hisobga qo`yadi, ularga soliq to`lovchining identifikatsiya raqamini beradi hamda uni statistika va ro`yxatdan o`tkazuvchi organlarga rasman ma'lum qiladi;

- statistika organlari - yuridik shaxsni korxona va tashkilotlarning yagona davlat registriga kiritadi, ro`yxatdan o`tkazish kartasini to`ldiradi hamda ro`yxatdan o`tkazuvchi va soliq organlariga tadbirkorlik subyektiga berilgan kodlarni rasman ma'lum qiladi;

- ichki ishlar organlari muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani rasmiylashtiradi hamda ro`yxatdan o`tkazuvchi organga eskizning ikki nusxasi bilan birgalikda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani yuboradi.

Posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o`zini o`zi boshqarish organlari har bir dehqon xo`jaligini xo`jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo`jaligining tarkibi, xo`jalik boshlig`i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek xo`jalikning tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan) to`g`risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo`yadi.

Dehqon xo`jaliklari davlat ro`yxatidan o`tkazilganlik uchun davlat boji va yig`imini to`lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo`jaliklari ta'sis hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan taqdirda dehqon xo`jaligi boshlig`i tomonidan tegishli qaror qabul qilingan paytdan boshlab 7 ish kuni mobaynida ularni ro`yxatdan o`tkazgan organga o`zлari kelib yoki pochta aloqasi orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;

- dehqon xo`jaligi boshlig`ining ta'sis hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risidagi qarori;

- o`zgartirish va qo`shimchalar matnining dehqon xo`jaligi muhri bilan tasdiqlangan ikki nusxasi;

- nomi o`zgargan taqdirda - davlat ro`yxatidan o`tkazilganlik haqidagi guvohnomaning asl nusxasi va yangi firma nomiga bir xil yoki adashtirish darajasida o`xhash bo`lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomasi, almashtiriladigan muhr va shtamp, shuningdek yangi muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi;

- ustav fondining miqdori ko`paytirilgan taqdirda – dehqon xo`jaligining ta'sis hujjatlarida e'lon qilingan ustav fondi miqdorining shakllantirilganligi haqidagi hujjat;

- ustav fondi kamaytirilgan taqdirda - ularga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilganligini va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingan qaror haqida axborot e'lon qilinganligining tasdig'i (ularga ma'lum barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilgan va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda taqdim qilinadi).

Dehqon xo`jaligi quyidagi hollarda tugatiladi:

- xo`jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo`lgan bironta ham xo`jalik a'zosi yoki merosxo`r qolmagan bo`lsa;

- tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda;

- tomorqa yer uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo`yilganda;

- belgilangan soliqlar muttasil to`lanmaganda;

- agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo`lmasa, yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan bir yil mobaynida foydalanishga kirishmagan taqdirda;

- dehqon xo`jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo`pol ravishda buzilganda.

Dehqon xo`jaligi:

- dehqon xo`jaligi a'zolarining qaroriga binoan;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan tugatiladi. Dehqon xo`jaligini tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **2.3. Dehqon xo`jaligi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari**

“Dehqon xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunning 12-bandiga muvofiq, dehqon xo`jaligi quyidagi huquqlarga ega:

- o`ziga berilgan tomorqa yer uchastkasida dehqon xo`jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;

- yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda baho belgilash;

- o`zi yetishtirgan mahsulotni, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga o`z xohishi bo`yicha realizatsiya qilish huquqini tasarruf etish;

- xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to`lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;

- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdoga mo`ljallangan aksiyalarni sotib olish;

- o`z mol-mulkini, shuningdek tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kimoshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo`yish.

Shu bilan birga dehqon xo`jaligi qonunchilik tartibida quyidagi majburiyatlarni bajarishi shart:

- tomorqa yer uchastkasidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish;

- tabiiy obyekt bo`lmish yerga zarar yetkazmaslik;
- tomorqa yer uchastkasini asrash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;
- yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo`lmasa, bir yil ichida foydalanishga kirishish;
- agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;
- o`zi yetishtirayotgan va realizatsiya qilayotgan mahsulot sifatiga oid amaldagi normativ va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga oid hamda qonun hujjatlarida belgilab qo`yilgan boshqa talab va qoidalarga rioya etish;
- dehqon xo`jaligining majburiyat va qarzları bo`yicha to`la javobgar bo`lish;
- xo`jalik a`zolari uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.

Dehqon xo`jaligining faoliyati birinchi navbatda tomorqa yer uchastkasi negizada amalga oshiriladi. Tomorqa yer uchastkasi - qishloq xo`jaligi mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a`zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o`lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkaside.

Qishloq xo`jaligi kooperativlari (shirkat xo`jaliklari) a`zolarining, boshqa qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlari xodimlarining oilalariga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o`qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarining oilalariga dehqon xo`jaligini yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo`shganda sug`oriladigan yerlarda 0,35 get targacha va sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 get targacha o`lchamda, cho`l va sahro mintaqasida esa sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 get targacha o`lchamda beriladi.

Fuqarolarga dehqon xo`jaligi yuritish uchun 0,06 hektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo`jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar.

Dehqon xo`jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiyashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo`lishi mumkin emas. Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo`yilishi mumkin.

Dehqon xo`jaligiga berilgan tomorqa yer uchastkasi bo`linishi mumkin emas. Tomorqa yer uchastkasining o`lchami va chegaralari faqat dehqon xo`jaligi boshlig`ining roziligi bilan o`zgartirilishi mumkin.

Dehqon xo`jaligi boshlig`i vafot etgan taqdirda, tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu xo`jalik a`zolarining o`zaro kelishuvi asosida, dehqon xo`jaligi faoliyatini davom ettirish istagida bo`lgan xo`jalik a`zolaridan biriga meros bo`yicha o`tadi. Dehqon xo`jaligi boshlig`i mehnat qobiliyatini to`la yo`qotgan taqdirda, yer uchastkasiga egalik qilish va undan

foydalinish huquqi xo`jalik a'zolaridan biriga qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda topshiriladi.

Dehqon xo`jaligi yer uchastkasini olib qo'yishga qonunda nazarda tutilgan hollarda, faqat boshqa teng qimmatli yer uchastkasi berilgandan keyin, dov-daraxtlar, buzilayotgan bino va inshootlarning yoxud ularni boshqa joyga ko`chirish yoki boshqa bino va inshootlar qurish qiymati hamda boshqa barcha xarajatlar (boy berilgan foydani qo'shgan holda) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to`la hajmda to`langan holda yo`l qo`yiladi.

Dehqon xo`jaligi o`ziga qarashli uy-joylar, xo`jalik imoratlari, qishloq xo`jalik ekinzorlari va ko`chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo`jalik texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag`lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek boshqa mol-mulkarga ega bo`ladi. Shuningdek, u ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulot, olingan daromad (foyda), qonunda taqiqlanmagan asoslarda ega bo`lingan boshqa mol-mulklar mulkdoridir.

Dehqon xo`jalogining o`ziga qarashli mol-mulkka bo`lgan mulk huquqi davlat himoyasidadir. Dehqon xo`jalogining mol-mulki, agar uning a'zolari o`rtasidagi kelishuvga binoan umumiy ulushli mulk tashkil etish nazarda tutilgan bo`lmasa, uning a'zolariga umumiy birgalikdagi mulk asosida qarashli bo`ladi.

Dehqon xo`jalogining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalinish va uni tasarruf etish xo`jalik a'zolarining o`zaro kelishivi asosida amalga oshiriladi. Dehqon xo`jalogining mol-mulki fuqarolik qonun hujjatlari normalariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo`jalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxo`rlar meros huquqi to`g`risidagi guvohnoma berilganlik uchun davlat boji to`lashdan ozod etiladilar.

Dehqon xo`jaligi o`z faoliyati yo`nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo`jaligi qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo`jaligi mahsulotini qayta ishslash va realizatsiya qilish bilan shug`ullanishga haqli. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari dehqon xo`jaliklarining xo`jalik faoliyatiga, shu jumladan ular tomonidan agrotexnika usullarini, yetishtiriladigan mahsulot turlarini tanlashda, uning narxini va uni realizatsiya qilish yo`nalishlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo`l qo`yilmaydi.

Dehqon xo`jalogining faoliyati xo`jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo`jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalg etilishi mumkin. Dehqon xo`jalogining a'zolari dehqon xo`jaligi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga ixtiyoriy ravishda badallar to`langan taqdirda davlat ijtimoiy sug`urtasidan o`tkazilishi lozim.

Dehqon xo`jaligida ishlangan vaqt davlat ijtimoiy sugurtasi bo`yicha badallar to`langanligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tuman ijtimoiy ta'minot bo`limida mehnat daftarchasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan holda mehnat stajiga qo`shiladi. Dehqon xo`jaligi a'zolariga ijtimoiy sug`urta bo`yicha davlat nafaqlari va

pensiyalar tayinlash hamda to`lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

Dehqon xo`jaligi o`zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyorilik asosida xo`jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnomada majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo`ladilar.

Dehqon xo`jaligi o`zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi. Dehqon xo`jaliklari ixtiyorilik asosida, shu jumladan ulushli (pay) asosda mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishslash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo`jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo`sini dagi va boshqa xil xizmat ko`rsatish bo`yicha kooperativ (shirkat), jamiyat, ittifoq, uyushma va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo`jaligi qonun hujjatlariga muvofiq yer solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solig`i to`laydi.

Dehqon xo`jaligidan yer solig`i tomorqa yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda undiriladi. Soliq solish tartibi hamda dehqon xo`jaligi to`laydigan yer solig`ining stavkalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Birinchi marta tomorqa yer uchastkasi olgan dehqon xo`jaligi davlat ro`yxatiga olingan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga yer solig`i to`lashdan ozod qilinadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Dehqon xo`jaligi oilaviy mayda tovar xo`jaligi bo`lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo`jaligi a'zolari o`z xohishlari, manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib xo`jalikni tashkil etadilar. Ular mahsulot ishlab chiqarish yo`nalishlarini belgilash, boshqa xo`jalik va davlat organlari bilan munosabatlarni ham mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Dehqon xo`jaligi uni tuzayotgan a'zolarning istagiga ko`ra, ixtiyorilik asosida tuziladi hamda davlat ro`yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Dehqon xo`jaligi tuzish uchun birinchi navbatda tuman hokimligining zaxira yerlaridan, shuningdek zarurat tug'ilganda tuman hokimining qarori bilan fermer xo`jaliklari va boshqa qishloq xo`jaligi korxonalariga uzoq muddatli ijara ga berilgan yerlardan yer uchastkasi ajratiladi.

Dehqon xo`jaligining faoliyati birinchi navbatda tomorqa yer uchastkasi negizida amalga oshiriladi. Tomorqa yer uchastkasi - qishloq xo`jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a'zolaridan biriga

meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

Dehqon xo`jaligi uni tashkil etuvchi fuqaroning xohishiga ko`ra, huquqiy shaxs maqomida yoki huquqiy shaxs maqomi olmagan holda tashkil etiladi.

Qishloqda kichik va o`rta biznes vakili - dehqon xo`jaliklarini rivojlantirish mamlakatimiz qishloq xo`jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning istiqboldagi ustuvor yo`nalishlaridan biridir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Dehqon xo`jaligi deb qanday xo`jalikka aytildi?
2. Dehqon xo`jalingining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Dehqon xo`jalingini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?
4. Dehqon xo`jalingining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Dehqon xo`jaliklari qanday tartibda tashkil etiladi va tugatiladi?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. -T.: O`zbekiston, 2002.
2. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A., Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
3. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
4. Samatov G`A. va boshq. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. -T.:O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2005.
5. Husanov R.H., Qosimov M. Dehqon xo`jalingini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. –T.: Cho`lpon, 2000.

### **III bob. FERMER XO`JALIGINING TASHKILIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

#### **3.1. Fermer xo`jaligining mohiyati, rivojlanish xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati**

O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-avgustda qabul qilingan “Fermer xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunining 1-bandida «Fermer xo`jaligi o`ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi fermer xo`jaligi a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo`jalik yuritish subyekti»,- deb belgilab berilgan.

Fermer xo`jaligi uni tuzayotgan a`zolar xohishiga ko`ra ixtiyoriy tashkil etilib, o`z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida yuqori foya olishni ko`zlab tashkil etadi va ishlab chiqarishning qonun bilan taqiqlanmagan har qanday turi bilan shug`illanishga haqlidir.

Fermer xo`jaligining iqtisodiy negizini ishlab chiqarish vositalariga (yer bundan mustasno) va o`z mehnati natijalariga mulkiy egalik tashkil etadi va u tadbirkorlik erkinligi, oila hamda shaxsning o`z moddiy farovonligi yo`lida mehnat qilishiga tayanadi. Mustaqil xo`jalik yuritish subyekti sifatida u mulkchilikning boshqa shakllaridagi xo`jaliklar bilan teng huquqlarga ega ishlab chiqarish birligi hisoblanadi.

Fermer xo`jaligining jamoa, shirkat yoki hissadorlik kabi yirik xo`jaliklardan asosiy farqi va ustunlik tomoni esa fermerning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita birikuvida, ya`ni mulk va mehnat natijalarini tasarruf etish bo`yicha masalalarni mustaqil hal etishidadir.

Fermer xo`jaligi qishloq xo`jaligida xo`jalik yuritish shakllaridan biri sifatida o`ziga xos bo`lgan ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarga ega (3-chizma).

Fermer xo`jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalgan etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko`paytirishdan iborat.

Fermer xo`jaligi mustaqil xo`jalik yuritish subyekti sifatida o`ziga xos bo`lgan ma`lum bir tamoyillarga tayanadi:

1. Fermer xo`jaligi ixtiyorilik asosida tuziladi, ya`ni fermer xo`jaligi a`zolari o`z xohishi, manfaat va imkoniyatlaridan kelib chiqib xo`jalikni tashkil etadilar. Ular ishlab chiqarish yo`nalishlarini belgilash va o`zlashtirish, boshqa xo`jaliklar va davlat organlari bilan munosabatlarni ham mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Qisqacha qilib aytganda fermerlar to`liq tanlov va tadbirkorlik erkinligiga tayanadilar.

1.	Ijtimoiy-psixologik jihatdan	Jamiyatning boshlang`ich bo`g`ini - oila va unga xos bo`lgan axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlami
2.	Tashkiliy-huquqiy jihatdan	Yuridik shaxs maqomiga (o`z balansi, hisob raqami, muhri va h.k.) ega bo`lishi shart
3.	Mehnat munosa-batlari jihatidan	Xo`jalikda a`zolar mehnati bilan birgalikda yollanma mehnatdan foydalanish mumkin
4.	Ishlab chiqarish yo`nalishi jihatidan	Ishlab chiqarish qisman ichki iste`molga va asosan bozorga yo`naltirilgan tovar xo`jaligi
5.	Mulkiy munosabatlar jihatidan	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik.</li> <li>- Yer maydoni uzoq muddatli ijaraga (eng kamida 30 yildan uzog`i bilan 50 yilgacha) beriladi, ijara muddatida ijara huquqini meros qilib qoldirish mumkin</li> </ul>

### 3-chizma. Fermer xo`jaligining xususiyatlari

2. Fermer xo`jaligida mulk egaligi huquqi alohida xususiyatga ega. Fermer xo`jaligidagi mol-mulk shu xo`jalik a`zolarining xususiy mulki bo`lganligi tufayli, ular bu mulkni yaxshi saqlanishi va ko`payib borishidan manfaatdordirlar. Bu esa fermerlarda mulkdan oqilona foydalanish ko`nikmasini hosil qiladi. Yer maydonining 50 yilgacha muddat bilan ijaraga, ijara muddatida ijara huquqini meros qilib qoldirish bilan berilishi esa yer resurslaridan unumli foydalanish, tuproq tarkibi va hosildorligini muttasil oshirib borishga rag`bat yaratadi.

3. Fermer alohida statusga ega shaxs sifatida yuzaga chiqadi, ya`ni bunda o`z mehnati bilan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi mehnatkash, yuqori foyda olishni ko`zlab o`z mol-mulkini tavakkalchilik asosida ishlab chiqarishga jalb etgan tadbirkor va ma'lum bir intellektual qobiliyatga ega bo`lgan boshqaruvchi bir shaxs timsolida mujassamlanadi.

4. Fermer xo`jaligida mehnatning xarakteri ham o`ziga xos xususiyat kasb etadi. Agrar ishlab chiqarishning doimiy ravishda jonli organizmlar bilan bog`liq holda yuritilishi, bu sohada ishlab chiqarishga haqiqiy javobgarlik hissi bilan yondashuvchi, uning natijalaridan bevosita manfaatdor shaxslar mehnat qilishi lozimligini ko`rastadi. Fermer faqat uning o`zi va oilasining farovonligini ta'minlashga yo`naltirilgan erkin, ijodiy mehnatdagina o`zining qobiliyatlari va mahoratini to`laligicha namoyon eta oladi.

5. Fermer xo`jaliginihg asosini jamiyatning boshlang`ich bo`g`ini - oila tashkil etadi. Oilaviy xo`jalikda o`zgacha ijtimoiy va ma'naviy muhit mavjud bo`lib, bu yerda har bir shaxsning manfaati butun oila manfaati bilan qo`shilib ketadi. Bunda mehnat jamoasi vakillarining bir-biriga bo`lgan ishonchi yuqoriligi sababli, har bir kishi umumiyl oila farovonligi yo`lida vijdonan va sifatli mehnat qiladi, mehnat va uning natijalarini qadrlashga o`rganadi, o`zaro yordam va shaxsiy javobgarlik xislatlariga moslashadi.

6. Fermer xo`jaligi asosan bozorga yo`naltirilgan mayda tovar xo`jaligi sifatida bozor konyunkturasiga tez moslashuvchan bo`ladi. Bunday xo`jaliklar bozor holatidagi ozgina o`zgarishni ham tezda ilg`ab, bozordagi iste'molchilar talabiga mos taklif bilan chiqishga intiladi. Fermerning mahsulotiga o`rnataladigan baho bozorda, xaridorlar tomonidan o`rnatalishi tufayli, uning uchun mahsulot sifatini xaridorlar didiga moslashtirishdan boshqa ilojisi qolmaydi. Bu holatlar bir tomonidan aholini zarur mahsulotlar bilan o`z vaqtida, kerakli miqdor va sifatda ta'minlash imkonini yaratса, ikkinchi tomonidan bozorlar mo'l-ko`lchiligi sharoitida baholarning astasekin arzonlashib borishiga sabab bo`ladi.

7. Fermer xo`jaligi respublikamiz qishloq xo`jaligida endigina shakllanib kelayotgan tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi kuchli rag`batlardan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan shu xususiy tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish orqali ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishish mo`ljallangan.

8. Har qanday iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish samadorligini yuksaltirishning eng muhim shartlaridan biri turli mulk shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligi va ular o`rtasida vujudga keladigan sog`lom raqobatdir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, sog`lom raqobat kurashi vujudga kelishi uchun jamiyatda mulk shakllarining xilma-xillagini ta'minlash zarur.

Fermer xo`jaliklari agrar sohada yangi uklad sifatida shakllanib borishi bir tomonidan haqiqiy mulk egaligining vujudga kelishiga imkon yaratса, ikkinchi tomonidan mulkchilikning boshqa turlariga asoslangan korxonalar bilan ma'lum darajada raqobat kurashi muhitini yaratishga yo`l ochadi.

Fermer xo`jaliklariga ustuvorlik berilishining sabablari:

- umumiy (jamoa) mulkchiligidan xususiy muklchilikka o`tish;
- umumiy (jamoa) javobgarlikdan shaxsiy javobgarlikka o`tish;
- moddiy-texnik resurslaridan tejaml foydalanish va pirovard natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- mol-mulk va ishlab chiqarishga bo`lgan shaxsiy munosabat va moddiy rag`batni oshirish;
- fermerning yagona mulk egasi ekanligi, xo`jalikning ustav kapitalini o`zi shakllantirishi va uni mustaqil boshqarishi;
- boshqarish, sotish va boshqa operatsion sarflar bilan bog`liq noishlab chiqarish xarajatlari keskin kamayishi;
- fermerning mahsulot yetishtirish, sotish va daromaddan foydalanishda mustaqil erkinlikka ega ekanligi;
- «yaxshi mehnat qilgan dehqon yaxshi daromad olishi va pirovard natijada yaxshi hayot kechirishi kerak» degan tamoyilning amal qilishi;
- jahon tajribasida fermer xo`jaliklari qishloq xo`jaligidagi eng asosiy xo`jalik yuritish shakli ekanligi;
- yer uchastkalarini 30-50 yil muddat bilan ijara olganda yerdan asrab-avaylab foydalanishga, tuproq unumdorligini muttasil oshirib borishga rag`bat uyg`onishi.

### **3.2. Fermer xo`jaligini tashkil etish tamoyillari va tartibi**

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagagi “Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo`nalishlari to`g`risida”gi Farmonida fermer xo`jaliklarini shakllantirishning quyidagi tamoyillari belgilab berilgan:

- fermer xo`jaliklari qoida tariqasida, tugatiladigan, zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etiladi;
- fermer xo`jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish huquqi bilan barpo qilinadi;
- yer maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga foydalanish uchun beriladi;
- fermer xo`jaliklariga beriladigan yer maydonlari bo`yicha uzoq muddatli ijara shartnomasi to`g`ridan-to`g`ri tuman hokimlari bilan tuziladi.

Fermer xo`jaliklarini tuzishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Maxsus respublika fondidagi, mehnat resurslari yetarli bo`lman va yangi sug`oriladigan mavzelardagi yerlar hamda zaxira yerlarda maxsus davlat yer fondini shakllantirish orqali fermer xo`jaliklarini tuzish.

2. Zarar ko`rib ishlayotgan, davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bo`yicha tuzilgan shartnomalarni surunkasiga bajarmay kelayotgan past rentabelli fermer xo`jaliklarini qayta tashkil etib fermer xo`jaligi tuzish.

Maxsus tuzilgan yer fondi negizida fermer xo`jaliklarini tuzish islohotlarning dastlabki bosqichlarida ko`proq ahamiyatga ega bo`lgan. Chunki, barcha ekin maydonlari yirik qishloq xo`jaligi korxonalarining balansida bo`lgan hamda fermer xo`jaliklari o`zlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini respublika miqyosida ko`rsatib berishga ulgurmagan ilk bosqichlarda ularni shakllantirish asosan hukumatning topshirig`iga muvofiq maxsus yer fondi tuzish orqali amalga oshirilgan.

Fermer xo`jaligini davlat ro`yxatiga olish tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagagi “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro`yxatdan o`tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi 357-qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish, hisobga qo`yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to`g`risi”dagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Nizomga muvofiq fermer xo`jaligini yuridik shaxs sifatida ro`yxatdan o`tkazish uchun ro`yxatdan o`tkazuvchi organga (shaxsan kelib yoki pochta orqali) ariza taqdim etiladi. Davlat ro`yxatidan o`tkazish to`g`risidagi arizaga:

1. Davlat tilidagi ta`sis hujjatlarining belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi, bunda yuridik shaxs bo`lgan fermer xo`jaliklari uchun - faqat ustav).
2. Davlat bojining yoki ro`yxatdan o`tkazish yig`imining belgilangan miqdori to`langanligi haqidagi bank to`lov hujjati.
3. Bir xil yoki adashtirish darajasida o`xshash bo`lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi.
4. Uch nusxada muhr va shtamp eskizlari.

5. Tuman hokimining yer uchastkasi ajratib berish to`g`risidagi qarori nusxasi taqdim etiladi.

Fermer xo`jaligini davlat ro`yxatiga olish dehqon xo`jaligini doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Fermer xo`jaligiga davlat ro`yxatidan o`tkazilganlik to`g`risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Ro`yxatdan o`tkazuvchi organ tomonidan fermer xo`jaligini davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni yuridik shaxslarning davlat reestriga kiritadi.

Ro`yxatdan o`tkazuvchi organlar davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kundan boshlab bir kun mobaynida fermer xo`jaligi haqidagi davlat reestridan olingan ma'lumotlarni tadbirkorlik subyekti joylashgan joydagi statistika, soliq organlari hamda muhr va shtamp eskizlarini uch nusxada ilova qilgan holda ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Ma'lumotlar olingach ikki kun muddatda:

- soliq organlari - fermer xo`jaligini, shu jumladan budgetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga, ish bilan ta'minlash jamg`armasi va yo`l jamg`armasiga (tegishli jamg`armalarga badal to`lovchilar hisoblangan subyektlar uchun) sug`urta badallari to`lovchi sifatida (yuridik shaxs bo`lmasdan tashkil etilgan dehqon xo`jaliklaridan tashqari) hisobga qo'yadi, ularga soliq to`lovchining identifikatsiya raqamini beradi va uni statistika va ro`yxatdan o`tkazuvchi organlarga rasman ma'lum qiladi;

- statistika organlari - yuridik shaxsni korxona va tashkilotlarning yagona davlat registriga kiritadi, ro`yxatdan o`tkazish kartasini to`ldiradi hamda ro`yxatdan o`tkazuvchi va soliq organlariga tadbirkorlik subyektiga berilgan kodlarni rasman ma'lum qiladi;

- ichki ishlar organlari muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani rasmiylashtiradi hamda ro`yxatdan o`tkazuvchi organga eskizning ikki nusxasi bilan birgalikda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani yuboradi.

Fermer xo`jaligining ta'sis hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan taqdirda fermer xo`jaligi boshlig`i tomonidan tegishli qaror qabul qilingan paytdan boshlab 7 ish kuni mobaynida ularni ro`yxatdan o`tkazgan organga o`zлari kelib yoki pochta aloqasi orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- fermer xo`jaligi boshlig`ining ta'sis hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risidagi qarori;

- o`zgartirish va qo`shimchalar matnining fermer xo`jaligi muhri bilan tasdiqlangan ikki nusxasi;

- nomi o`zgargan taqdirda - davlat ro`yxatidan o`tkazilganlik haqidagi guvohnomaning asl nusxasi va yangi firma nomiga bir xil yoki adashtirish darajasida o`xhash bo`lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomasi, almashtiriladigan muhr va shtamp, shuningdek yangi muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi;

- ustav fondining miqdori ko`paytirilgan taqdirda – fermer xo`jaligining ta'sis hujjatlarida e'lon qilingan ustav fondi miqdorining shakllantirilganligi haqidagi hujjat;

- ustav fondi kamaytirilgan taqdirda - ularga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilganligini va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingan qaror haqida axborot e'lon qilinganligining tasdig'i (ularga ma'lum barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilgan va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda taqdim qilinadi).

Fermer xo`jaligini davlat ro`yxatidan o`tkazish uchun zarur hujjatlar bo`lajak fermerning o`zi yoki shartnoma asosida tuman hokimligining fermer xo`jaligini davlat ro`yxatiga olish to`g`risidagi qarori yoki ro`yxatdan o`tkazishni rad etish to`g`risidagi qarori ariza beruvchi ariza bergen kundan boshlab 3 ish kunida, tuman hokimligining fermer xo`jaligini davlat ro`yxatiga olish to`g`risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi. Shundan so`ng tuman hokimligi yangi tashkil etilgan fermerga «Davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi to`g`risida» gi guvohnoma va tuman hokimiyyati muhri bilan tasdiqlangan «ro`yxatga olingan» belgisiga ega ta'sis hujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi.

### **3.3. Fermer xo`jaligining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Har qanday xo`jalik yuritish shakli muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vujudga kelish va rivojlanish jarayonida tashkiliy iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va psixologik xarakterdagi qator omillar ta'sirida shakllanib, o`ziga yo'l ochib boradi.

Fermer xo`jaligining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer xo`jaligi uni tuzayotgan a'zolar xohishiga ko`ra, ixtiyoriy tashkil etilib, o`z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida yuqori foyda olishni ko`zlab tashkil etadi.

Fermer xo`jaligi tuman (shahar) hokimligida davlat ro`yxatidan o`tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi va o`z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy va mulkiy tusda bo`lмаган huquq va majburiyatlarga ega bo`lishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko`ra fermer xo`jaligi tashkiliy-huquqiy jihatdan:

- xo`jalik a'zolarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan;
- o`ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi;
- o`z nomi o`yib yozilgan hamda gerb tasviri tushirilgan muhrga hamda shtampga ega, yuridik shaxs maqomidagi;
- bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlar ochadigan;
- boshqa korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar hamda muassasalar bilan o`zaro teng huquqli munosabatlarga kirishuvchi mustaqil xo`jalik yuritish subyekt hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligida fermer xo`jaliklarining boshqa xo`jalik yuritish shakllari bilan teng sharoitlarda va sog`lom raqobat asosida rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi, «Fuqarolik Kodeksi», «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida»gi Qonunlar, Respublika Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, fermer xo`jaliklari

faoliyatining mulkiy daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta'minlashga hamda qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Fermer xo`jaligi faoliyatining qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- ustavda nazarda tutilgan doirada va ijara shartnomasida belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq o`ziga berilgan yer uchastkasida ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;

- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona foydalangan holda mustaqil ravishda qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek, xizmatlar ko`rsatish;

- tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga pulli xizmatlar ko`rsatish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

- yetishtirilgan mahsulotni sotish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan, davlat ehtiyojlari uchun sotish yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq xo`jalik shartnomalari tuzish;

- o`zi yetishtirgan mahsulotga egalik qilish, shu jumladan, uni o`zi xohlagan iste'molchilarga sotish va xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to`lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;

- tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda pul mablag`larini ixtiyorilik asosida va shartnomalariga muvofiq jalb qilish;

- kredit olish uchun yer uchastkasidan foydalanishni ijaraga berish huquqini va yetishtirilgan mahsulotni garovga qo'yish;

- kichik va xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosda) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;

- ixtiyoriy ravishda birlashish, shu jumladan, ulush (pay) asosida birlashish, jamiyatlar, ittifoqlar, uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirish;

- huquqlarini himoya qilish uchun o`z faoliyatining har qanday masalalari bo'yicha sudga murojaat qilish.

- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish.

Qonunga muvofiq, fermer xo`jaligi zimmasiga quyidagi majburiyatlar ham yuklatiladi:

- yer uchastkasidan ijara shartnomasida belgilangan maqsad va shartlarda maqsadli, samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash;

- ekologiya talablari va atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etish;

- yerning meliorativ holatini yaxshilash va yer uchastkasining unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, biznes-rejalarda ushbu maqsadlar uchun mablag`lar ajratilishini nazarda tutish;

- yer uchastkasidan, basharti ijara shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo`lmasa, bir yil mobaynida foydalanish;
- paxta va g`allani navlar bo`yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya qilish;
- suvdan limit asosida foydalanish to`g`risidagi shartnomaga muvofiq suv resurslaridan foydalanish;
- xo`jalik ichki melioratsiya tarmog`ini tozalash va ta'mirlash; servitutlarga rioya etish;
- fermer xo`jalogining majburiyatlari va qarzlari yuzasidan to`liq javob berish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq va boshqa majburiy to`lovlarni o`z vaqtida to`lash;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlari va boshqa mahsulotlar yetishtirishda standart talablariga rioya qilish;
- qishloq xo`jaligi zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash olib borish.

Fermer xo`jaligi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o`z zimmasiga oladi.

Fermer xo`jaligi faoliyatining iqtisodiy asoslari mulkchilik munosabatlariga borib taqaladi. Fermer xo`jaligi o`ziga qarashli xo`jalik imoratlari, qishloq xo`jaligi ekinzorlari va ko`chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldar chorva mollari, parrandalar, qishloq xo`jaligi texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag`lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek, fermer xo`jaligi balansida bo`lgan boshqa mol-mulkning, ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotning, olingan daromad (foyda)ning va qonunda taqiqlanmagan asoslarda olingan boshqa mol-mulkning egasi hisoblanadi.

Fermerning pul va moddiy mablag`lari, tovarlarni sotishdan, ishlarni bajarishdan, xizmatlar ko`rsatishdan, shuningdek, faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromad (foyda), qimmatli qog`ozlardan olingan daromadlar, yuridik va jismoniy shaxslarning beg`araz xayriya va boshqa badallari, ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar fermer xo`jaligi mol-mulkini shakllantirish manbalar bo`lishi mumkin.

Fermer xo`jalogining mol-mulki fermerga tegishlidir, u qonunga muvofiq ushbu mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Fermer xo`jalogining mulki umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) egalik asosida uning a'zolariga tegishli bo`ladi. A'zolarning istagiga ko`ra xo`jalik har bir a'zosining mulkdagi ulushi pay asosida belgilab qo`yilishi mumkin. Mol-mulkdan foydalanish a'zolarning kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Xo`jalik faoliyati natijasida olingan foydaning fermerlar ixtiyorida qoladigan yakuniy qismi ham a'zolarning mulkdagi ulushiga mos holda taqsimlanishi mumkin.

Mulkdan foydalanish bo`yicha shartnomada tuzilishi xo`jalik a'zolari orasida kelib chiqadigan turli ixtiloflarning oldini oladi.

Yerga egalik masalasi fermer xo`jalogining mulkchilik munosabatlarida asosiy o`rinni egallaydi. Negaki, butun agrar siyosatning muhim masalasi, negizi yerga mulkchilik masalasidir.

Fermer xo`jaligini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijara beriladi. Ijara muddati qonunga muvofiq kamida 30 va ko`pi bilan 50 yil qilib

belgilangan. Yer uchastkasining ijara muddati tamom bo`lgandan keyin fermer xo`jaligi ijara shartnomasini yangi muddatda uzaytirish (muddatini cho`zish) huquqiga egadir.

Fermer xo`jaligi rahbari vafot etgan taqdirda, yer uchastkasiga ijara huquqi va ijara shartnomasini yangi muddatda uzaytirish (muddatini cho`zish) huquqi qonun hujjatlariga muvofiq meros bo`yicha o`tadi.

Fermer xo`jaligiga berilgan yer uchastkasi xususiy lashtirilishi, oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, garov obyekti bo`lishi, shuningdek, ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Fermer xo`jaligining muassisi bo`lgan shaxs uning rahbari hisoblanadi. U o`n sakkiz yoshga to`lgan, muomalaga layoqatli, qishloq xo`jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo`lishi kerak. Fermer xo`jaligi boshlig`i xo`jalik faoliyatini boshqarishga oid barcha masalalar ni yakkaboshchilik tamoyili asosida mustaqil hal etadi.

Fermer xo`jaligining faoliyati fermerning va mehnat shartnomasi bo`yicha unda ishlovchi shaxslarning shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Fermer xo`jaligida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslarning mehnatiga haq to`lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo`lмаган miqdorda, tomonlarning kelishuviga binoan ham pul tarzida, ham natura tariqasida to`lanadi. Fermer xo`jaligida ishlangan vaqt mehnat stajiga qo`shiladi. Ijtimoiy sug`urta bo`yicha nafaqa va pensiyalar tayinlash hamda to`lash qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi.

Fermer xo`jaligining ishlab chiqarish va boshqa faoliyati natijasida olingan daromad (foyda) soliqlar, yig`imlar hamda boshqa majburiy to`lovlar to`langandan keyin butunlay fermer xo`jaligining ixtiyoriga o`tadi.

Fermer xo`jaligi quyidagi hollarda tugatiladi:

- yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda, xo`jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo`lgan merosxo`r bo`lмаганда;

- fermer xo`jaligi kreditorlik qarzlarini to`lashga noqobiligi tufayli bankrot deb e`lon qilinganda;

- yer uchastkasini davlat ehtiyojlari va boshqa jamoat ehtiyojlari uchun olib qo`yish zarur bo`lganda;

- yer to`g`risidagi qonunlar fermer xo`jaligi tomonidan buzilganligi oqibatida yer uchastkasining ijara shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinganda;

- davlat ehtiyojlari uchun kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan ekinlar ekilganda;

- fermer xo`jaligi rahbari (fermer) ning qaroriga binoan;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan.

### **3.4. Fermer xo`jaliklarining rivojlanish bosqichlari va asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari**

Respublikamizda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish davrini shartli ravishda 4 bosqichga bo`lish mumkin (4-chizma).

Bosqichlar	Bosqichlar davri	Bosqichlarning nomlanishi
1. I bosqich	1989-1997-yillar	Fermer xo`jaliklarining dastlabki vujudga kelish va shakllanish davri
2. II bosqich	1998-2001-yillar	Fermer xo`jaliklarining me`yoriy-huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlash davri
3. III bosqich	2002-2007-yillar	Surunkasiga zarar ko`rib ishlagan past rentabelli shirkatlarni tugatish negizida fermer xo`jaliklarini keng ko`lamda ustuvor rivojlantirish davri
4. IV bosqich	2008-yildan boshlab	Fermer xo`jaliklarining hajmini optimallashtirish davri

4-chizma. Fermer xo`jaliklarini rivojlanish bosqichlari

**I bosqich – 1989-1997-yillar.** Respublikada fermer xo`jaliklarini mustaqil xo`jalik yuritish subyekti sifatida rasman tan olish va faol shakllantirish jarayoni 1991-yilning oxirlaridan boshlandi. Qishloq xo`jaligida bozor munosabatlarini joriy etishni jadallashtirish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulk va shaxs manfaatlarining ustivor rivojlanishini ta'minlash maqsadida 1991-yil 29-novembrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 295-sonli «Respublikada dehqon (fermer) xo`jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash to`g`risida»gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonning qabul qilinishi respublikada fermer xo`jaliklarini bozor sharoitida shakllanib kelayotgan xo`jalik yuritishining yangi shakli sifatida hisobga olish va rivojlantirish uchun dastlabki huquqiy asos bo`lib xizmat qildi. Farmonda fermer xo`jaliklarini shakllantirish maqsadida boshlang`ich yer fondini shakllantirish, ularni moddiy-texnika resurslari va kreditlar bilan ta'minlash hamda fermerlar faoliyatini davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash masalalari belgilab berildi.

Respublika Prezidentining 295-sonli farmoni asosida 1991-yil 30-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 315-sonli “Respublikada dehqon (fermer) xo`jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida”gi qarori e`lon qilindi. Mazkur qarorining 1-bandiga muvofiq, fermer xo`jaliklari tashkil etish uchun 200 ming gektardan iborat yer fondi tuzish ko`zda tutilgani holda haqiqatda ajratilgan yer maydoni 217232 gektarga teng bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 315-sonli qarorini hayotga tatbiq etilishi natijasida respublikamizda fermerlik harakati ancha kuchaydi.

Dastlabki tashkil etilgan fermer xo`jaliklari asosan respublika hukumati tomonidan ajratilgan davlat yer fondi bazasida, zaxiradagi yerkarda, mehnat resurslari yetishmaydigan, yangi sug`oriladigan, qishloq xo`jaligi korxonalarining kam unumli, foyda bermaydigan yoki kam rentabelli yerlarida shakllantirilgan.

Bu vaqt oralig`ida respublika qishloq xo`jaligida dehqon (fermer) xo`jaliklarini shakllantirish borasida dastlabki qadam qo`yilgan bo`lishiga qaramay, hali ularning mustahkam ildiz otishlari uchun qonuniy asos yaratilmagan edi. Shu tufayli 1992-yil 3-iyulda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Dehqon xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Qonunda dehqon (fermer) xo`jaliklari faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari belgilab berildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 7-yanvardagi 13-sonli “O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori dehqon (fermer) xo`jaliklarini yanada rivojlantirish uchun yangi istiqbollar olib berdi. Bu qarorning ahamiyati shundaki, unda birinchi marta past rentabelli va zarar keltirib ishlayotgan davlat xo`jaliklarini tugatib, ular bazasida kollektiv, ijara va fermer xo`jaliklarini tashkil etish vazifasi belgilab berilgan edi.

**II bosqich – 1998-2001-yillar.** Bu davr fermerchilik harakatini rivojlantirishning me`yoriy-huquqiy bazasini shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Qishloq xo`jaligida bozor munosabatlarining faol kirib borishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan fermer xo`jaliklarining yangi ijtimoiy-iqtisodiy uklad sifatida mohiyatini aniqlashtirish, ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini teranlashtirish hamda huquqiy maqomini mustahkamlash zaruriyati yuzaga keldi.

O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi va «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonunlari qabul qilinishi bilan fermer va dehqon xo`jalogining maqomi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tashkiliy-iqtisodiy asoslari, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlik subyekti sifatidagi umumiy va farqli tomonlari aniq belgilab berildi.

Bu davrda past rentabelli va zarar ko`rib ishlayotgan shirkat xo`jaliklarini fermer xo`jaliklariga aylantirish mexanizmi ishlab chiqildi va tajriba tariqsida amaliyotda qo`llanila boshlandi.

Respublikamizda 1999-yildan boshlab zarar keltirib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini fermer xo`jaliklariga aylantirish jarayoni boshlandi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-maydagi 243-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyatidagi jami 8 ta shirkat xo`jaligi tugatilib, o`rnida 472 ta, 1999-yil 25-dekabrdagi 543-sonli qarori bilan jami 8 ta shirkat xo`jaligi tugatilib, ular o`rnida 564 ta fermer xo`jaliklari tanlov asosida tashkil etildi. Bularga qo`shimcha ravishda Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-dekabrdagi 516-sonli qaroriga asosan jami 52 ta shirkat xo`jaligi tugatilib, ular negizida 3031 ta fermer xo`jaliklari tashkil etildi (3-jadval).

**III bosqich – 2002-2007-yillar.** Respublikamizda fermer xo`jaliklarini keng ko`lamda rivojlantirish ishlari 2002-yildan boshlandi. Bu davrga kelib qishloq xo`jaligida istiqbolsiz shirkat xo`jaliklari negizida fermer xo`jaliklari tuzish va ular faoliyatini yo`lga qo`yish borasida ma`lum bir tajribalar to`plangan edi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-maydagi 8-sonli qarori bilan past rentabelli va zarar ko`rib ishlayotgan shirkat xo`jaliklarni fermer xo`jaliklariga aylantirish bilan bog`liq me`yoriy hujjatlar to`plami tasdiqlandi va fermer xo`jaliklarini rivojlantirish uchun mukammallashgan darajada huquqiy baza yaratildi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-maydagi 8-sonli qarori bilan 83 ta, 2003-yil 22-yanvardagi 38-6-sonli qarori bilan 177 ta shirkat xo`jaliklari tugatilib, ular negizidan fermer xo`jaliklari tashkil etildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagи “Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo`nalishlari to`g`risida”gi PF-3226-sonli Farmoni qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo`nalishlarini belgilashda muhim qadam bo`ldi. Agar shunga qadar fermer xo`jaliklariga ajratiladigan yer maydonlari shirkat xo`jaliklari balansida bo`lgan bo`lsa, ushbu farmon qabul qilingandan so`ng ular yer ijarasi shartnomasini to`g`ridan-to`g`ri hokimiyatlar bilan tuzadigan bo`ldilar. Shuningdek, yer ijarasi 30 yildan 50 yilgacha muddatga tuziladigan bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi “2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to`g`risida”gi PF-3342-sonli Farmonining qabul qilinishi, zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini fermer xo`jaliklariga aylantirish borasida navbatdagi muhim bosqichni boshlab berdi.

Ushbu farmonning ijrosini ta`minlash maqsadida qabul qtilingan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi “2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 476-sonli qarorga ko`ra zarar keltirib ishlayotgan va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini fermer xo`jaliklariga davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda 2004-2006-yillar mobaynida zarar ko`rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz 1020 ta shirkat xo`jaligini tugatib, bosqichma-bosqich fermer xo`jaliklariga aylantirish vazifasi belgilab berildi. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli «2005-2007-yillarda fermer xo`jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qaroriga asosan dasturga qo`shimchalar kiritilib, 2005-2007-yillarda jami 1110 ta, shu jumladan 2005-yilda 406 ta, 2006-yilda 370 ta va 2007-yilda 334 ta shirkat xo`jaliklarini tugatib, fermer xo`jaliklariga aylantirish vazifasi belgilandi.

2004-yilda yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi “Fermer xo`jaligi to`g`risida”gi Qonuni qabul qilindi va bu qonun bilan fermer xo`jaligi tashkil etish uchun yer ajratish tanlov orqali amalga oshirilishi hayotga joriy etildi.

Keyingi yillarda zarar keltirib ishlayotgan shirkat xo`jaliklarini bosqichma-bosqich tugatilib, fermer xo`jaliklariga aylantirish borasida yirik tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining:

- 2005-yil 7-noyabrdagi PQ-215-sonli “2006-yilda qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat)larini fermer xo`jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori ijrosi bo`yicha 447 ta shirkat xo`jaliklari tugatilib, ular negizida 34966 ta fermer xo`jaliklari tashkil etildi;

- 2006-yil 11-yanvardagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo`yicha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-255-sonli Qaroriga asosan 210 ta hamda Hukumat komissiyasining qarori bo`yicha qo`shimcha ravishda 9 ta, jami 219 ta shirkat xo`jaliklari tugatildi va ular negizida 39064 ta fermer xo`jaliklari tashkil etildi;

- 2006-yil 21-noyabrdagi PQ-514-sonli “2007-yilda qishloq xo`jaligi korxonalarini fermer xo`jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qaroriga asosan 329 ta zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo`jaliklari tugatilib, ular negizida 24091 fermer xo`jaliklari tender asosida tashkil etildi.

O`tgan 2002-2007-yillar ichida jami 2034 ta zarar keltirib ishlagan va past rentabelli shirkat xo`jaliklari tugatilib, ular negizida 153604 fermer xo`jaliklari tashkil etildi (3-jadval).

Respublikamizda zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib fermer xo`jaliklariga aylantirish borasida amalga oshirilgan keng ko`lamli davlat dasturlari natijasida yildan-yilga ularning ishlab chiqarish ko`rsatkichlari yuksalib bormoqda. Xususan, 2002-2008-yillar oralig`ida fermer xo`jaliklarining soni 145,0 %ga, ularga biriktirilgan yer maydonlari hajmi 269,4 %ga, ekin maydonlari 370,4 %ga oshdi.

### 3-jadval

Respublikada 1999-2007-yillar oralig`ida zarar keltirib ishlayotgan va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo`jaliklari

Nº	Yillar	Tugatilgan shirkat xo`jaliklari soni	Ular negizida tashkil etilgan fermer xo`jaliklari soni
1.	1999	8	440
2.	2000	8	479
3.	2001	52	3031
4.	2002	91	3822
5.	2003	177	11383
6.	2004	326	15161
7.	2005	445	25023
8.	2006	666	74124
9.	2007	329	24091
10.	Jami	2102	157554

Manba: O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumotlari

Fermerlar qaromog`idagi chorva mollari bosh soni ham muttasil o`sib bormoqda. Jumladan, 2002-2008-yillar oralig`ida yirik shoxli qoramollar bosh soni 175,8 %ga, qo`y va echkilar bosh soni 367,6 %ga ko`paydi (4-jadval).

Fermer xo`jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o`sish sur`atlari yuqoriligi ahamiyatga molikdir. Xususan, 2002-2008-yillarda paxta maydoni 302,5 %ga, don ekinlari maydoni 314,1 %ga o`sgani holda, paxta ishlab chiqarish hajmi 375,8 %ga va don ishlab chiqarish hajmi 360,1 %ga o`sganini ta`kidlab o`tish joiz. Bulardan tashqari sabzavotlar hajmi 785,8 %ga, poliz hajmi 585,4 %ga, go`sht ishlab chiqarish 189,2 %ga, sut 185,7 %ga, tuxum 336,6 %ga va jun 433,3 %ga oshgan. 2008-yili yaratilgan qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining 32,6 %i fermer xo`jaliklari hissasiga to`g`ri keldi.

Fermer xo`jaliklarida asosiy qishloq xo`jaligi ekinlarining hosildorligi ham o`sib borgan. Bunga mulkka egalik hissining tiklanganligi, agrotexnik tadbirlarga rioya etilgani va boshqa bir qator omillar ta'sirida erishilmoqda.

Masalan, 2002-2008-yillar oralig`ida kartoshka hosildorligi 125,6 %ga, sabzavot ekinlari hosildorligi 116,1 %ga, poliz ekinlari hosildorligi 172,1 %ga oshganini ko`rish mumkin. Fermer xo`jaliklarida don hosildorligi ham yil sayin yuksalib borib, shu davr mobaynida 35,9 sentnerdan 41,0 sentnerga oshgan.

Respublikamiz hukumati tomonidan fermer xo`jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ulkan tadbirlar natijasida yildan-yilga fermer xo`jaliklarining mamlakat agrar tarmog`ida tutgan o`rni mustahkamlanib, yaratilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmida ularning salmog`i ortib bormoqda. 2008-yil yakuniga kelib qishloq xo`jaligidagi jami ekin maydonlarining 84,4 %i, paxta maydonining 98,4 %i, don ekinlari maydonining 83,4 %i, sabzavot ekin maydonining 34,8 %i, poliz ekinlari maydonining 53,8 %i va yem-xashak ekinlarining 69,7 %i fermer xo`jaliklari tasarrufida edi.

4-jadval

#### Fermer xo`jaliklari faoliyatining asosiy ko`rsatkichlari<sup>6</sup>

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	2002-y.	2004-y.	2006-y.	2008-y.	2008 y. 2002 y.ga nisb., %da
Fermer xo`jaligi soni	dona	72,4	103921	189235	105053	145,0
Qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti qiymati (amaldagi narxlarda)	mlrd. so`m	325,6	857,7	2361,5	3406,4	1046,0
sh.j., o`simlikchilikdan; chорvachilikdan	mlrd. so`m	293,5 32,1	800,4 57,3	2273,8 87,7	3270,1 136,3	1114,2 424,6
Jami yer maydoni	ming ga	1591,7	2935,4	4953,2	5896,6	370,4
Ekin maydoni, sh.j.	ming ga	991,6	1762,6	2710,6	3045,2	307,1
Don ekinlari	ming ga	414,0	805,3	1181,5	1300,3	314,1
Texnika ekinlari, jami	ming ga	473,4	816,6	1280,1	1466,3	309,7
sh.j., paxta	ming ga	463,9	793,2	1268,4	1403,3	302,5
Kartoshka	ming ga	2,1	3,3	5,2	9,8	466,6
Sabzavotlar	ming ga	10,5	19,0	45,0	56,5	538,1
Poliz ekinlari	ming ga	8,8	14,4	19,4	22,7	258,0
Yem-xashak ekinlari	ming ga	82,8	104,0	179,4	203,5	245,8
<b>Chorva mollari bosh soni:</b>						
Yirik shoxli qoramol	ming bosh	273,4	311,9	375,6	480,8	175,8
Shundan, sigirlar	ming bosh	85,6	97,0	121,3	162,4	189,7
Qo`y va echkilar	ming bosh	274,0	419,5	649,4	1007,3	367,6
<b>Mahsulot ishlab chiqarish:</b>						
Don	ming ton.	1480,0	2717,7	4662,5	5329,8	360,1
Paxta	ming ton.	896,7	1825,1	3600,3	3370,1	375,8
Kartoshka	ming ton.	29,9	44,5	108,3	226,6	757,8

<sup>6</sup> Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан.

Sabzavotlar	ming ton.	218,6	389,7	1305,4	1717,8	785,8
Poliz	ming ton.	78,9	174,1	325,7	461,9	585,4
Meva	ming ton.	59,5	109,9	487,9	649,6	1091,8
Uzum	ming ton.	34,0	59,7	408,3	407,5	1198,5
Go`sht (so`yilgan vaznda)	ming ton.	10,2	13,7	14,3	19,3	189,2
Sut	ming ton.	81,6	88,8	111,1	151,5	185,7
Tuxum	mln. dona	46,1	77,4	76,7	155,2	336,6
Jun (fizik og irlilikda)	ming ton.	0,3	0,4	0,9	1,3	433,3
Qorako`l teri	ming ton.	14,1	16,0	31,5	38,3	271,6

**Ekinlar hosildorligi:**

Don	s /ga	35,9	33,9	40,3	41,0	114,2
Kartoshka	s /ga	129,4	120,3	158,6	162,6	125,6
Sabzavot	s /ga	188,4	172,4	206,2	218,7	116,1
Poliz ekinlari	s /ga	97,4	125,8	150,4	167,6	172,1

Fermer xo`jaliklari 2008-yilda paxta xomashyosining 99,1 %ini, donning 79,2 %ini, sabzavotlarning 32,9 %ini va poliz mahsulotlarining 47,1 %ini yetishtirib berdilar (5-jadval).

Qishloq xo`jaligida mulkchilik munosabatlari tubdan isloh qilinib, xususiy sektor ahamiyatining keskin oshishi munosabati bilan qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti tarkibida shirkat xo`jaliklarining salmog`i 2002-yildagi 25,9 %dan 2008-yilda 2,3 %ga tushgan, ya`ni deyarli o`n bir marta kamaygan. Shu davr oralig`ida fermer xo`jaliklari salmog`i oshib borib, 10,0 %dan 32,6 %ga yetgan, yoki deyarli 3,3 barobar o`sgan (6-jadval).

O`simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo`jaliklarining salmog`i muttasil o`sib bormoqda. Jumladan, fermer xo`jaliklarining o`simlikchilik yalpi mahsulotidagi ulushi 2002-yilda 17,8 %ga teng bo`lgan bo`lsa, 2008-yilda bu ko`rsatkich 54,4 %ga yetdi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo`jaliklarining ulushi 2002-yilda 2,0 %ga, 2008-yilda 4,1 %ga teng bo`ldi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2008-yil yakuni bo`yicha respublikamizda 105,3 ming fermer xo`jaliklari faoliyat ko`rsatgan.

Mutaxassislarning fikricha, fermer xo`jaliklarini rivojlantirish, ularning samaradorligini yuksaltirish oqibatida quyidagi natijalarga erishildi:

- xususiy mulkchilik rivojlantirilib, fermer xo`jaliklarida mulkka bo`lgan munosabat tubdan o`zgardi, ularda mulk egaligi hissiyoti shakllandı;
- fermer mulk egasi bo`lib, unga xo`jalikning ustav kapitalini mustaqil shakllantirib, boshqarish imkoniyati berildi;
- yer ijarasi muddatining 30 yildan 50 yilgacha belgilanishi natijasida fermerlarda yerdan samarali foydalanishga rag`bat shakllantirildi;
- fermer xo`jaligi yuridik shaxs maqomiga ega bo`lib, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomalarni mustaqil ravishda tuzib, bajarilishiga hamkorlar bilan teng huquqda javob berish hissiyoti shakllandı;

5-jadval

Fermer xo`jaliklarining qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishidagi salmog`i  
(barcha toifadagi xo`jaliklarga nisbatan %da)

Ko`rsatkichlar	2002-y.	2003-y.	2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.
<b>Ekin maydonlari va chorva mollari bosh sonida:</b>							
Jami ekin maydoni, sh.j.	28,0	37,0	47,7	58,7	74,5	84,17	84,4
Paxta	32,6	41,1	54,5	69,0	87,6	98,5	98,4
Don ekinlari	27,0	38,0	48,3	57,7	73,0	82,8	83,4
Kartoshka	4,3	4,5	6,3	5,8	9,9	14,2	16,3
Sabzavotlar	8,2	12,0	13,8	15,8	29,1	33,5	34,8
Poliz ekinlari	23,6	41,2	41,5	43,6	51,9	54,8	53,8
Yem-xashak ekinlari	25,1	30,0	36,6	46,3	60,5	68,0	69,7
Yirik shoxli qoramol	5,0	5,0	5,0	5,1	5,3	5,6	6,0
sh.j., sigirlar	3,6	3,6	3,6	3,7	4,1	4,4	4,9
Qo`y va echkilar	3,0	3,1	4,0	4,4	5,4	6,9	7,4
Cho`chqalar	11,7	14,1	17,4	15,0	16,1	16,8	13,8
Parrandalar	3,9	4,4	4,1	3,7	3,6	5,0	8,7
<b>Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda:</b>							
Paxta xomashyosi	29,0	37,8	51,7	66,0	87,0	98,4	99,1
Don	26,7	36,1	46,3	55,5	71,2	79,8	79,2
Kartoshka	3,8	4,0	5,0	5,0	10,6	15,0	16,2
Sabzavotlar	7,4	10,7	11,7	13,7	30,4	33,2	32,9
Poliz mahsulotlari	16,5	30,3	30,4	33,4	43,8	49,5	47,1
Meva	7,0	7,4	12,9	18,5	41,3	45,7	46,3
Uzum	6,6	5,6	10,1	13,9	50,8	54,5	51,5
Go`sht	2,0	2,0	2,3	2,2	2,1	2,5	2,5
Sut	2,2	2,1	2,1	2,1	2,3	2,5	2,8
Tuxum	3,4	3,7	4,2	3,6	3,6	4,0	6,4
Jun	1,5	1,8	2,1	3,0	4,2	4,9	5,4
Qorako`l teri	2,0	2,1	2,4	3,6	4,3	4,7	4,3
Pilla	4,7	10,5	25,3	42,7	68,5	84,2	95,0

Manba: Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан

- davlat buyurtmasidan ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotga erkin narx qo`yish va sotish huquqiga ega bo`ldi;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan kelgan sof foydani mustaqil tasarruf etish imkoniyati shakllandi va h.k.

6-jadval

**Qishloq xo`jaligi mahsulotining xo`jalik shakllari bo`yicha tarkibi, %da**

Yillar	Barcha toifadagi xo`jaliklar	Shu jumladan		
		qishloq xo`jaligi korxonalarini	fermer xo`jaliklari	dehqon xo`jaliklari
<b>Qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti tarkibida</b>				
2002	100	25,9	10,0	64,1
2003	100	22,1	14,9	63,0
2004	100	19,3	18,6	62,1
2005	100	14,0	24,3	61,7
2006	100	6,3	31,4	62,3
2007	100	2,5	33,4	64,1
2008	100	2,3	32,6	65,1
<b>O`simlikchilik mahsuloti tarkibida</b>				
2002	100	42,6	17,8	39,6
2003	100	35,9	27,2	36,9
2004	100	31,6	32,9	35,5
2005	100	21,3	41,6	37,1
2006	100	7,6	54,6	37,8
2007	100	1,5	57,3	41,2
2008	100	1,3	54,4	44,3
<b>Chorvachilik mahsuloti tarkibida</b>				
2002	100	8,7	2,0	89,3
2003	100	7,8	2,1	90,1
2004	100	5,5	2,6	91,9
2005	100	4,7	2,7	92,6
2006	100	4,1	2,8	93,1
2007	100	3,8	3,6	92,6
2008	100	3,5	4,1	92,4

Manba: Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан

Keltirilgan statistik ma'lumotlar va tahlillar fermer xo`jaliklarining mamlakatimiz qishloq xo`jaligidagi o`rni va ahamiyati katta ekanligidan darak beradi. Respublikamiz hukumati xo`jalik yuritishning bu shaklini istiqbolda yanada rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

### **3.5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaligining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish**

Respublikamiz iqtisodiyotining tobora globallashuv jarayoniga qo'shilib borayotgani, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan hodisalarining mamlakatimizga ta'sirini kuchaytirib boradi. Shu nuqtai nazardan yondoshganda "bugungi kunning eng dolzarb muammosi 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning

ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat"<sup>7</sup> bo`lib qolmoqda.

O'tgan davr mobaynida zarar ko`rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini tugatish negizida fermer xo`jaliklarini tashkil etish, ularga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish, fermer xo`jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalashtirish bo`yicha yirik ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida fermer xo`jaliklari qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy xo`jalik yuritish shakllaridan biriga aylandi.

Fermer xo`jaliklari erishayotgan natijalar ularning agrar sohada ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakllaridan biri ekanini tasdiqlamoqda. Ammo, o`tgan davr tajribasi shuni ko`rsatdiki, fermer xo`jaliklari sonini o`stirish, ularga ajratilayotgan yer maydonlari va chorva mollari bosh sonini ko`paytirish bilan ularning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirib bo`lmas ekan. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo`jaliklarida yer maydonlari hajmining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o`sishiga to`sinqinlik qilmoqda.

Yetarlicha aylanma mablag`larga ega bo`lmagan fermer xo`jaliklari o`zlarini zarur texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, yetarlicha to`lov qobiliyatiga ega bo`lish, eng muhimi, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplab, foyda ko`rish imkoniyatiga ega bo`lmayapti. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarining samarali faoliyat ko`rsatishi asosida ularda ishlab chiqarish xarajatlarini oqilona rejalashtirish va tannarxni pasaytirish orqali rentabellikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini har tomonlama kamaytirish, xarajatlarni kamaytiradigan texnologiyalarni qo`llash, ekinlar hosildorligi, chorva mahsulorligining o`sishini ta'minlash, mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirish tannarx pasayishiga va natijada daromadning oshishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqib, o`tgan yilda fermer xo`jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi "Fermer xo`jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo`yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to`g`risida"gi PF-3077-sonli farmoyishini qabul qilinib, unda yer maydonlarini to`liq inventarizatsiyadan o`tkazish va fermer xo`jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo`yicha keng ko`lamli, shu bilan birga, puxta o`ylangan ishlar amalga oshirish borasida quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- respublikadagi mavjud fermer xo`jaliklari ixtiyorida bo`lgan yer maydonlaridan yaxlit konturlarda yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;

- fermer xo`jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligini e'tiborga olish;

- suv va boshqa moddiy resurslarini tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo`llashga qulay sharoit yaratish;

<sup>7</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009, 4-b.

- yiriklashtirilgan fermer xo`jaliklarining kompleks mexanizatsiyalashga moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

- zarar bilan ishlayotgan va o`zini oqlamayotgan kichik fermer xo`jaliklarining faoliyatiga barham berish.

Bu borada amalga oshirilgan yirik tadbirlar natijasida fermer xo`jaliklarining soni 2008-yil 1-oktabr holatidagi 219,9 mingtadan 2009-yil boshida 105,05 mingtaga kamaydi. Ularga ajratilgan yer maydonlarining o`rtacha hajmi 27 getkardan 56 getkarga oshdi. Bu ko`rsatkich paxtachilik va g`allachilikda o`rtacha 37 getkardan 93,7 getkarga yoki 2,5 barobardan ziyodroq, sabzavotchilikda 10 getkardan 24,7 getkarga yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 getkardan 164,5 getkarga yoki 1,06 barobar ko`paydi (7- va 8-jadvallar).

Muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimov 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasiida: “Alohida e’tibor qaratish lozim bo`lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa – qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o`zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog`liq keng ko`lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorlarning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o`rni va ahamiyatini tubdan qayta ko`rib chiqish, fermer xo`jaliklari rivojini har tomonlama qo`llab-quvvatlashdan iboratdir”<sup>8</sup>, - deb ta’kidlab o`tdilar.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning mamlakatimiz qishloq xo`jaligiga ta’sirini kamaytirish, tarmoqning barqaror sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlash hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu maqsadda respublikamiz hukumati tomonidan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli Qaroriga ko`ra 2009-yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” yili deb e’lon qilinishi munosabati bilan qishloqlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan Davlat dasturi ishlab chiqildi.

<sup>8</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilasni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi. //Xalq so`zi, 2009-yil 14-fevral.

7- jadval

O`zbekiston Respublikasida fermer xo`jaliklarining yiriklashtirishdan oldin va keyingi ko`rsatkichlari

	Viloyatlar	2008-yil 1-oktabr holatiga			Yiriklashtirilgandan keyin		
		Fermer xo`jaliklari soni, mingta	Umumiy yer maydoni, ming ga	O`rtacha bir fermer xo`ja- ligiga nisbatan yer maydoni, ga	Fermer xo`jaliklari soni, mingta	Umumiy yer maydoni, ming ga	O`rtacha bir fermer xo`ja- ligiga nisbatan yer maydoni, ga
1.	Qoraqalpog`iston Respublikasi	8,8	539,0	61	4,5	539,0	119
2.	Andijon	18,4	244,9	13	10,2	244,9	24
3.	Buxoro	15,9	851,9	54	7,4	851,9	114
4.	Jizzax	14,0	488,7	35	6,4	487,7	76
5.	Qashqadaryo	29,8	799,3	27	9,1	799,3	87
6.	Navoiy	6,8	223,7	33	3,3	223,7	66
7.	Namangan	13,7	276,3	20	7,3	274,2	37
8.	Samarqand	25,6	507,4	20	12,2	507,4	41
9.	Sirdaryo	8,2	252,1	30	4,8	252,1	52
10.	Surxondaryo	14,3	667,3	47	6,7	667,8	99
11.	Toshkent	19,6	425	22	7,9	439,3	55
12.	Farg`ona	25,6	331,4	13	14,7	331,4	22
13.	Xorazm	18,6	240,8	13	9,8	240,8	25
	Jami:	219,9	5848,2	27	105	5860,1	56

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi

Fermer xo`jaliklarining yer uchastkalarini optimallashtirilgandan  
oldingi va keyingi holati

Ko`rsatkichlar	Optimal-lashti-rishdan oldin	Optimal-lashti-rishdan keyin	Shu jumladan, ixtisoslashuvi bo`yicha									
			paxtachilik va g`allachilikda		sabzavot va polizchilikda		bog`dorchilik va uzumchilikda		chorvachilikda		boshqa yo`nalishlarda	
			10.10.08 holatiga	01.01.09 holatiga	10.10.08 holatiga	01.01.09 holatiga	10.10.08 holatiga	01.01.09 holatiga	10.10.08 holatiga	01.01.09 holatiga	10.10.08 holatiga	01.01.09 holatiga
Fermer xo`jaliklari soni	219976	105033	112233	47615	16091	5859	70408	36189	7923	5962	13321	9408
O`rtacha yer maydoni, ga	27	56	37	92	10	25	3	6	154	170	7	9

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi

Dasturga qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o`rta tabaqa - mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalari ham kiritilgan.

Shuningdek, qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlashni davom ettirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi imtiyozlar berish, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan:

- fermer xo`jaliklariga investitsiyalar jalb etish, mahsulotlarni qayta ishslash va zamonaviy minitexnologiyalar olib kirish va yangi ish o`rinlarini barpo etish sohalarida qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- fermerlarga xizmat ko`rsatish tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni jami 7547 dona texnika bilan ta'minlash, shundan 5902 donasi lizing asosida, 1208 tasi tijorat banklari kreditlari hisobidan, 437 tasi korxonalarining o`z mablag`lari hisobidan amalga oshiriladi;
- sun'iy qochirish usulining ulushini 20 %gacha yetkazish, 700 dona zotdor qoramollarni chetdan olib kirish evaziga zotli chorva mollari yaratish ishlarini kuchaytirish va zooveterinariya xizmati sifatini oshirish;
- ozuqa ekinlari maydonini 324,6 ming gektarga yetkazish orqali chorvachilikning ozuqa bazasini kengaytirish.

Bu tadbirlarga barcha manbalardan 22,0 mlrd. so`m sarflanishi kutilmoqda.

Qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarmoqni kelgusida rivojlantirish istiqbollari fermer xo`jaliklarini har tomonlama rivojlantirish va qo`llab-quvvatlashga bog`liq bo`lib bormoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Fermer xo`jaligi o`ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi fermer xo`jaligi a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo`jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo`jalogining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer xo`jaligi uni tuzayotgan a`zolar xohishiga ko`ra, ixtiyoriy tashkil etilib, o`z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida yuqori foyda olishni ko`zlab tashkil etadi.

Fermer xo`jaligi o`ziga qarashli xo`jalik imoratlari, qishloq xo`jaligi ekinzorlari va ko`chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, parrandalar, qishloq xo`jaligi texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag`lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek, fermer xo`jaligi balansida bo`lgan boshqa mol-mulkning, ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotning, olingan daromad (foyda)ning va qonunda taqiqlanmagan asoslarda olingan boshqa mol-mulkning egasi hisoblanadi.

Fermer xo`jalogini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijara beriladi. Ijara muddati qonunga muvofiq kamida 30, ko`pi bilan 50 yil qilib

belgilangan. Yer uchastkasining ijara muddati tamom bo`lgandan keyin fermer xo`jaligi ijara shartnomasini yangi muddatda uzaytirish (muddatini cho`zish) huquqiga egadir.

Fermer xo`jaligining ishlab chiqarish va boshqa faoliyati natijasida olingen daromad (foyda) soliqlar, yig`imlar hamda boshqa majburiy to`lovlar to`langandan keyin butunlay fermer xo`jaligining ixtiyoriga o`tadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer xo`jaligi deb qanday xo`jalikka aytildi?
2. Fermer xo`jaligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Fermer xo`jaligini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?
4. Fermer xo`jaliklari qanday tartibda tashkil etiladi?
5. Fermer xo`jaligining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
6. Fermer xo`jaliklarining rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari nimalardan iborat?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo`llari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagи «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. //Xalq so`zi, 2004-yil 15-oktabr.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. -T.:O`zbekiston, 2009.
3. Olimjonov O. va boshq. Fermer faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. -T., 2005.
4. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
5. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N. O`zbekistonda fermer xo`jaligini yuritish asoslari. -T.: “Voris-nashriyot”, 2007.

## **IV bob. FERMER VA DEHQON XO`JALIKLARINING YER, SUV, MEHNAT RESURSLARI, ULARDAN UNUMLI FOYDALANISH**

### **4.1. Fermer va dehqon xo`jaliklarining yer fondi, undan samarli foydalanish**

Davlat yerdan foydalanuvchilarga hamda qishloq xo`jaligi korxonalariga qonunda belgilangan tartibda yer uchastkasi ajratib beradi.

Yer uchastkasi - yer fondining qayd etilgan chegara, maydon, joylashish manzili, huquqiy rejimi hamda davlat yer kadastro va yer uchastkasiga bo`lgan huquqlariga, davlat ro`yxatidan o`tkazish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa jihatlarga ega bo`lgan muayyan qismidir.

Har bir qishloq xo`jalik korxonasi ma'lum yer maydoniga ega bo`lib, qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug`ullanadi. Korxonaning umumiylar maydoni tabiiy sharoitlari hamda xo`jalikda foydalanish xususiyatiga ko`ra bir xil emas. Hamma yerdan ham qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishda foydalanilmaydi. Shuning uchun yer maydonlaridan qishloq xo`jaligiga yaroqlilari ajratiladi.

Qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar deganda, doimiy qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun foydalaniladigan yerlar tushuniladi. Ularga haydaladigan yerlar, ekinzorlar, bog`lar va uzumzorlar, pichanzorlar va yaylovlardan kiradi. Qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar maydoni va uning tarkibi bir xil bo`lmasdan o`zgarib turadi.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida ishlab chiqarish faoliyatining asosini yer resurslari tashkil etadi.

9-jadval

Umumiylar maydoni va qishloq xo`jaligi yerlarining yerdan foydalanuvchilar  
bo`yicha taqsimlanishi,

(2008-yil 1-yanvar holatiga, ming getkarda)

Yer turlari	Qishloq xo`jaligi korxonalari va xo`jalik-larin jami yerlari	Shu jumladan			
		Fermer xo`jalik- larining yerlari	jamiga nisbatan, % da	Dehqon xo`jalik- larining yerlari	jamiga nisbatan, % da
Umumiylar maydoni	22 259,2	5899,2	26,5	621,7	2,8
Qishloq xo`jaligining barcha yerlari	17 234,3	5265,9	30,5	506,0	2,9
Haydaladigan yerlar	4050,6	3557,2	87,8	460,5	11,4
Bog` va uzumzorlar	328,3	256,4	78,1	92,2	28,1
Pichanzor va yaylovlardan	12 774,7	1410,2	11,0	-	-

Manba: «O`zbekistonning yillik statistik to`plami. 2008», O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo`mitasi. Toshkent, 2009.

Fermer xo`jaliklari tasarrufida 2008-yilning 1-yanvari holatiga jami 5899,2 ming hektar yer maydoni mavjud bo`lib, uning 5265,9 ming hektarini qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar, shu jumladan, 3557,2 ming hektarini haydaladigan yerlar, 256,4 ming hektarini bog` va uzumzorlar, 1410,2 ming hektarini pichanzor va yaylovlardan tashkil etgan.

Bu sanada qishloq xo`jaligi korxonalarini va xo`jaliklari umumiyligi yer maydonining 26,5 %-i, qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlarning 30,5 %-i, haydaladigan yerlarning 87,8 %-i, bog` va uzumzorlarning 78,1 %-i, yaylov va pichanzorlarning 11,0 %-i fermer xo`jaliklari tasarrufida bo`lgan.

Dehqon xo`jaliklari tasarrufida 2008-yilning 1-yanvari holatiga jami 621,7 ming hektar yer maydoni mavjud bo`lib, uning 506,0 ming hektarini qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar, shu jumladan, 460,5 ming hektarini haydaladigan yerlar, 92,2 ming hektarini bog` va uzumzorlar tashkil etgan (9-jadval).

O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Yer Kodeksi”ning 1-bandiga muvofiq: “Yer umummilliy boylikdir, O`zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi”.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida yerdan foydalanish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo`jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerkarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;
- yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- yerdan foydalanganlik uchun haq to`lash.

Fermer xo`jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat`iy belgilangan maqsadda foydalaniadi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayriboshlash obyekti bo`lishi va ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Yer uchastkasining o`lchami va chegaralari faqat fermer xo`jaligi boshlig`ining roziliqi bilan o`zgartirilishi mumkin. Fermer xo`jaligi boshlig`i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatiga meros bo`yicha o`tadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatini tugaganidan keyin fermer xo`jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo`jaligi boshlig`i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga uning merossxo`ri ega bo`ladi. Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi taraflarning kelishuviga binoan, taraflar

kelishuvga erishmagan taqdirda esa, sud tomonidan o`zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Fermer xo`jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

Dehqon xo`jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiyashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo`lishi mumkin emas. Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo`yilishi mumkin.

Dehqon xo`jaligiga berilgan tomorqa yer uchastkasi bo`linishi mumkin emas. Tomorqa yer uchastkasining o`lchami va chegaralari faqat dehqon xo`jaligi boshlig`ining roziligi bilan o`zgartirilishi mumkin.

Dehqon xo`jaligi boshlig`i vafot etgan taqdirda, tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu xo`jalik a`zolarining o`zaro kelishuvi asosida, dehqon xo`jaligi faoliyatini davom ettirish istagida bo`lgan xo`jalik a`zolaridan biriga meros bo`yicha o`tadi. Dehqon xo`jaligi boshlig`i mehnat qobiliyatini to`la yo`qotgan taqdirda, yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi xo`jalik a`zolaridan biriga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda topshiriladi.

Dehqon xo`jaligi yer uchastkasini olib qo`yishga qonunda nazarda tutilgan hollarda, faqat boshqa teng qimmatli yer uchastkasi berilgandan keyin, dov-daraxtlar, buzilayotgan bino va inshootlarning yoxud ularni boshqa joyga ko`chirish yoki boshqa bino va inshootlar qurish qiymati hamda boshqa barcha xarajatlar (boy berilgan foydani qo`shgan holda) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to`la hajmda to`langan holda yo`l qo`yiladi.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida er resurslaridan unumli foydalanishga ularda mavjud er va ekin maydonlari tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. 2002-2008-yillar oralig`ida fermer xo`jaliklariga biriktirilgan ekin maydonlari 307,1 %ga, don ekinlari maydoni 314,1 %ga, paxta maydoni 302,5 %ga, sabzavotlar maydoni 538,1 %ga oshgan bo`lsa, dehqon xo`jaliklariga biriktirilgan ekin maydonlari 115,5 %ga, don ekinlari 117,8 %ga va sabzavot ekinlari 115,1 %ga oshdi (10-jadval).

10-jadval

Fermer va dehqon xo`jaliklarining ekin maydonlari tarkibi

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	2002-yil	2004-yil	2006-yil	2008-Yil	2008 y. 2002 y.ga nisb., % da
<b>Fermer xo`jaliklarida:</b>						
Ekin maydoni, sh.j.	ming ga	991,6	1762,6	2710,6	3045,2	307,1
Don ekinlari	ming ga	414,0	805,3	1181,5	1300,3	314,1
Texnika ekinlari, jami	ming ga	473,4	816,6	1280,1	1466,3	309,7
Sh.j., paxta	ming ga	463,9	793,2	1268,4	1403,3	302,5
Kartoshka	ming ga	2,1	3,3	5,2	9,8	466,6
Sabzavotlar	ming ga	10,5	19,0	45,0	56,5	538,1
Poliz ekinlari	ming ga	8,8	14,4	19,4	22,7	258,0
Yem-xashak ekinlari	ming ga	82,8	104,0	179,4	203,5	245,8
<b>Dehqon xo`jaliklarida:</b>						
Ekin maydoni, sh.j.	ming ga	404,1	433,3	454,8	466,7	115,5
Don ekinlari	ming ga	188,6	200,0	216,8	222,2	117,8
Texnika ekinlari	ming ga	7,1	10,4	9,7	7,8	109,9
Kartoshka	ming ga	42,3	45,1	46,7	49,6	117,2
Sabzavotlar	ming ga	91,2	97,4	102,9	105,0	115,1
Poliz ekinlari	ming ga	15,8	15,3	16,1	18,8	119,0
Yem-xashak ekinlari	ming ga	59,0	64,9	63,6	63,3	107,3

Manba: Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан.

2008-yil yakuniga kelib qishloq xo`jaligidagi jami ekin maydonlarining 84,4 %i, paxta maydonining 98,4 %i, don ekinlari maydonining 83,4 %i, poliz ekinlarining 53,8 %i va yem-xashak ekinlarining 69,7 %i fermer xo`jaliklari hissasiga to`g`ri kelgan bo`lsa, shu yillar oralig`ida dehqon xo`jaliklarining jami ekin maydonlaridagi salmog`i 13,0 %ni, don ekinlari maydonida 14,2 %ni, kartoshka maydonida 82,8 %ni, sabzavotlarda 64,7 %ni, poliz ekinlarida 44,5 %ni va yem-xashak ekinlarida 22,7 %ni tashkil etdi (11-jadval).

Fermer va dehqon xo`jaliklarida yer resurslaridan foydalanish eng avvalo yerlarning meliorativ holatini va tuproq unumdorligini yaxshilash masalalariga borib taqaladi. Agrotexnik tadbirlarning muddati vaqtida bajarilmay, kechiktirib yuborilishi yerlarning umumiyligi sho`rlanish darajasining oshib borishiga va hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Almashlab ekish tizimining buzilishi, mineral o`g`itlarni qo`llashning maqbul nisbatlariga amal qilmaslik tuproqdan har yili ko`p miqdordagi foydali elementlarning chiqib ketishiga, tuproq sifat ko`rsatkichlarining pasayishi va oqibatda, bir hektar hisobiga olinayotgan mahsulot birligining kam bo`lishiga sabab bo`lishi mumkin.

## 11-jadval

Fermer va dehqon xo`jaliklarining jami ekin maydonlaridagi salmog`i,  
(barcha toifadagi xo`jaliklarga nisbatan %da)

Ko`rsatkichlar	2002-y.	2004-y.	2006-y.	2008-y.
<b>Fermer xo`jaliklari salmog`i</b>				
Jami ekin maydoni, sh.j.	28,0	47,7	74,5	84,4
Paxta	32,6	54,5	87,6	98,4
Don ekinlari	27,0	48,3	73,0	83,4
Kartoshka	4,3	6,3	9,9	16,3
Sabzavotlar	8,2	13,8	29,1	34,8
Poliz ekinlari	23,6	41,5	51,9	53,8
Yem-xashak ekinlari	25,1	36,6	60,5	69,7
<b>Dehqon xo`jaliklari salmog`i</b>				
Jami ekin maydoni, sh.j.	11,4	11,7	12,5	13,0
Don ekinlari	12,3	12,0	13,4	14,2
Kartoshka	86,5	86,6	88,8	82,8
Sabzavotlar	71,6	70,8	66,6	64,7
Poliz ekinlari	42,4	44,1	43,04	44,5
Yem-xashak ekinlari	18,0	22,8	21,4	22,7

Manba: Сельское хозяйство Узбекистана (за 2002-2008 г.г.), статсборники. Госкомстат Республики Узбекистан.

Tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko`rmay turib, texnologik ishlov bermasdan va barcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirmasdan qishloq xo`jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va yaxshi natijaga erishish mumkin emas.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida yer resurslaridan foydalanishni to`g`ri tashkil qilish, eng avvalo, undan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish va shu bilan bog`liq bo`lgan tadbirlarni amalga oshirishga qaratilishi kerak. Buning uchun:

- kam unumli yerlarni o`zlashtirib, yuqori unumli yerlarga aylantirish bilan bir qatorda, mavjud foydalanilayotgan yerlarda melioratsiya ishlarini o`tkazish;
- yerlarni kapital tiklash, shamol va suv eroziyasiga qarshi tadbirlar o`tkazish;
- mahalliy va mineral o`g`itlardan to`g`ri nisbatlarda foydalanish;
- almashlab ekishni oqilona joriy qilish tadbirlarini belgilash va qat`iy ravishda almashlab ekish texnologiyasiga amal qilish;
- muntazam ravishda yerkarning sho`rini yuvib turish, o`z vaqtida yerlarni ekishga tayyorlash, tuproqqa ishlov berish va kultivatsiyalash;
- barcha haydaladigan maydonlarnig tuproq tarkibi va sifatini maxsus laboratoriya sharoitida qayta o`rganib chiqish va baholash;
- barcha agrotexnik va agrokimyo chora-tadbirlarni ilm-fan tavsiyalariga va ilg`orlar tajribalarini e'tiborga olgan holda amalga oshirish va boshqalar.

## **4.2. Fermer va dehqon xo`jaliklariga yer ajratish tartibi**

Fermer xo`jaligi o`ziga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi xo`jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo`jligini yuritish uchun:

- zaxiradagi yerdardan yer uchastkalari;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerdardan yer uchastkalari;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat xo`jalik)larining hamda boshqa qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari;
- qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat xo`jalik)larining hamda boshqa qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari beriladi.

Fermer xo`jaliklariga qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat xo`jalik)larining hamda boshqa qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan berilgan yer uchastkalari ularning balansidan chiqariladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o`quv yurtlariga, akademik litseylar, kasbhunar kollejlari va umumta`lim maktablariga o`quv, tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer xo`jaliklariga berilmaydi.

Fermer xo`jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo`lgan, lekin o`ttiz yildan kam bo`lmagan muddatga beriladi. Fermer xo`jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo`jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar ustun huquqdan foydalananadilar.

Zaxira yerdardan yoki yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerdardan yer uchastkalari er uchastkalari berish masalalarini ko`rib chiquvchi tuman komissiyasi o`tkazgan tanlov yakunlariga ko`ra tuman hokimining qaroriga asosan beriladi.

Qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari mazkur shirkat xo`jligining yoki korxona, muassasa, tashkilotning a`zolariga fermer xo`jaligi yuritish uchun qishloq xo`jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining vakolatli organi tomonidan o`tkazilgan tanlov yakunlariga ko`ra tuman hokimining qaroriga asosan berilishi mumkin.

Tuman hokimining fermer xo`jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to`g`risidagi qarori viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish masalalarini ko`rib chiquvchi viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi fermer xo`jligining boshlig`i va tuman hokimi tomonidan imzolanadi.

Qishloq xo`jaligi korxonasi, muassasasi va tashkiloti vakolatli organining hamda tuman hokimining yer uchastkasi berishni rad etish to`g`risidagi qarorlari ustidan, shuningdek yer uchastkalari berish masalalarini ko`rib chiquvchi viloyat komissiyasining tuman hokimining qarorini tasdiqlashni rad etish to`g`risidagi qarori ustidan sudga yoki bo`ysunuva tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdar shaxsga shikoyat qilish mumkin.

Fermer xo`jaligini yuritish uchun yer uchastkalari olgan va qishloq aholi punktida turar joyi bo`lgan shaxslarning tomorqa yer uchastkasi saqlanib qoladi.

Fermer xo`jaligining yer uchastkasi chegaralari naturada (joyning o`zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy budget mablag`lari hisobidan belgilanadi.

Fermer xo`jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o`lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg`ona va Xorazm viloyatlaridagi sug`oriladigan yerlarda kamida 0,3 hektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog`iston Respublikasidagi sug`oriladigan yerlarda kamida 0,45 hektarni, sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 hektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo`jaligi o`z zimmasiga qishloq xo`jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o`rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo`lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo`yiladi.

Fermer xo`jaligi ishlab chiqarish maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda yer uchastkalarini qo`shimcha ijaraga olishi mumkin.

Kreditlar olish uchun fermer xo`jaligi o`z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasiga bo`lgan ijara huquqini garovga qo`yishga haqli. Fermer xo`jaligi yer uchastkasiga bo`lgan ijara huquqlarini ijaraga beruvchining roziligesiz faqat qonunda yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda garovga qo`yishga haqli.

Fermer xo`jaliklari yer ijarachisi sifatida quyidagi huquqlarga ega:

- yer uchastkasida undan foydalanish maqsadiga muvofiq mustaqil xo`jalik yuritish;

- qishloq xo`jalik ekinzorlari va ko`chatzorlari hamda dov-daraxtlarga, yetishtirilgan qishloq xo`jalik mahsuloti va uni realizatsiya qilishdan olingan daromadga bo`lgan mulk huquqi;

- yerlarni sug`orish va ularning zaxini qochirish, agrotexnika va boshqa melioratsiya ishlari o`tkazish;

- qishloq xo`jalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sug`orish hamda boshqa maqsadlar uchun sug`orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;

- yer egalari bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa imorat va inshootlarni barpo etish;

- yer uchastkasi olib qo`ylgan taqdirda unga yetkazilgan zarar (shu jumladan, boy berilgan foyda)ning qoplanishini yoki yer uchastkasidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganida sarflangan xarajatlarning to`lanishini talab qilish.

Fermer xo`jaliklari yerdan foydalanuvchi ijarachi sifatida quyidagi majburiyatlarga ega:

- yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo`llash, o`z xo`jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo`l qo`ymaslik;

- yer uchastkasidan qonun hujjalarda va ijaraga olish shartnomasida ko`rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanishini ta'minlash;

- ekologik talablarga va atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etish;

- yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdarligini saqlab qolish va oshirish chora-tadbirlarini ko`rish, biznes-rejada shu maqsad uchun mablag`lar ajratilishini nazarda tutish;

- agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo`lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtadan e'tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishishi;

- yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etish.

Dehqon xo`jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) har bir a'zosining, boshqa qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari har bir xodimining oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o`qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarining oilalariga dehqon xo`jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo`shganda sug`oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o`lchamda, cho`l va sahro mintaqasida esa sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o`lchamda beriladi.

Qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat xo`jalik)lari a'zolarining, boshqa qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari xodimlarining, shuningdek uzlusiz besh yildan ortiq qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarida ishlagan va hamon ishlab kelayotgan o`qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarining oilalariga, ular yashayotgan aholi punktlari shahar tarkibiga o`tkazilgan taqdirda, ularning ish joylaridan, dehqon xo`jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga, imorat va hovli egallagan maydonni ham qo`shganda ana shu kooperativ (shirkat)lar, korxona, muassasa va tashkilotlarda belgilangan o`lchamda yer uchastkasi berilishi mumkin.

Dehqon xo`jaligini yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining o`lchamlari yer resurslarining mavjudligiga qarab belgilanadi. Dehqon xo`jaligini yuritish uchun yer uchastkalari berish to`g`risidagi qaror qonun hujjalarda belgilangan tartibda tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi.

Fuqarolarga dehqon xo`jaligi yuritish uchun 0,06 hektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Dehqon xo`jaligini yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo`limgan yoki ushbu qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi korxonasi, muassasasi hamda tashkilotida belgilanganidan kam o`lchamdagи tomorqa yer uchastkasiga ega bo`lgan fuqarolarga ana shu korxona, muassasa va tashkilotlarning egaligidagi yoki

foydanishidagi yerdan belgilangan normalar doirasida yakka tartibdagi polizchilik uchun foydanishga qo'shimcha yer uchastkalari beriladi.

Qishloq joylarda yashovchi va o'z mulkida chorva mollari bo'lgan fuqarolarga pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish uchun vaqtincha foydanishga yer uchastkalari berilishi mumkin.

#### **4.3. Yer solig'i, uni hisoblash va to'lash tartibi**

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlaridan qat'i nazar, yagona yer solig'ini to'laydilar. Yagona yer solig'i umum davlat va mahalliy darajada solinadigan bir qator soliq (foyda solig'i va mulk solig'i, yer solig'i va b.)lar o'rniga to'lanadigan yagona soliq turi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni yer solig'i solish obyekti hisoblanadi. Bugungi kunda yer solig'i bo'yicha bir qator soliq imtiyozlari belgilangan.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

- qishloq aholi punktlarining umumiyligi foydanishdagi yerlari;
- ihota daraxtzorlari egallagan yerlar (bularga yog' och-taxta olish maqsadida yetishtiriladigan terakzorlar kiritilmaydi);
  - sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriyl-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalarini egallagan yerlar;
  - ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari band etgan yerlar;
  - yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan, sug'oriladigan yerlar (loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga). Agar loyihada yerkarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan yoki yer uchastkasi boshqa muddatlarda topshirilgan bo'lsa, yer uchastkasi uchun soliq meliorativ ishlar va yangi yerkarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun to'lanmaydi, lekin u 5 yildan oshmasligi kerak;
  - fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirilayotgan yer qismida, tegishli loyihada nazarda tutilgan o'zlashtirish muddatiga, yerkarni o'zlashtirish boshlan paytdan boshlab 5 yil mobaynida;
  - yangi tut ko'chatlari ekilgan yerlar, qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda ekilgan tut ko'chatlari ekilgan yilni hisoblaganda uch yilga, kuzda ekilgan ko'chatlar esa ularni ekishdan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi;
  - yangi o'tqazilgan bog' va tokzorlar bilan band bo'lgan yer uchastkalari, qator oralariga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilishidan qat'i nazar, ularning maydonlari ana shu meva va uzum ko'chatlari o'tqazilgan oydan boshlab, ular meva bera boshlaydigan muddatgacha soliq solinadigan bazadan chiqariladi;
  - qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, ilmiy, tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv

maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo`jaligi ahamiyatiga molik va o`rmon fondidagi yerlari mazkur imtiyoz mavzu doirasi tasdiqlangan ilmiy maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladigan ekin va ko`chatlar band etgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Yangi barpo etilgan fermer xo`jaliklari davlat ro`yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga yagona yer solig`ini to`lashdan ozod etiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-yanvardagi 255-sonli “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo`yicha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida”gi Qaroriga muvofiq meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan shirkat xo`jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo`jaliklari yagona yer solig`i to`lashdan 5 yil muddatga ozod qilingan.

Qoraqalpog`iston Respublikasi va viloyatlar bo`yicha qishloq xo`jaligi yerlari uchun yagona yer solig`ining bazaviy stavkalari, ma`muriy tuman va shaharlar bo`yicha sug`oriladigan qishloq xo`jaligi yerlari uchun yagona yer solig`ining bazaviy stavkalari, shuningdek yagona yer solig`ining bazaviy stavkalari tuzatish koeffitsientlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Qishloq xo`jaligi yerlari uchun yagona yer solig`ining bazaviy stavkalari sifatida qabul qilingan:

- sug`oriladigan yerlar bo`yicha - 1 klass yerlari (bonitet bali 10 gacha);
- lalmikor yerlar bo`yicha - tekislik zonasi yerlari;
- pichanzor va o`tloqlar bo`yicha - "Cho`l" mintaqasi yerlari.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifati (ball-bonitet)ga bog`liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsientlariga tuzatiladi.

Yerlarning har bir turi bo`yicha yagona yer solig`i summasi quyidagi formula bo`yicha belgilanadi:

$$H = S_{yu} \times S_b \times K_p,$$

bu yerda:

$N$  - yagona yer solig`i summasi, so`mlarda;

$S_{yu}$  - yer uchastkasi maydoni, gektarlarda;

$S_b$  - soliqning bazaviy stavkasi, 1 hektar uchun so`mlarda;

$K_p$  - tuzatish koeffitsienti.

Yerning har bir turiga (sug`oriladigan yerlar, lalmikor yerlar, pichanzorlar, o`tloqlar va h.k.) tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsientlari qo`llanadi, ular to`lovchilarga O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Sug`oriladigan qishloq xo`jaligi yerlari bo`yicha bazaviy stavkalar uchun tegishli tuman va shahar bo`yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Lalmikor yerlar, shuningdek pichanzor va o`tloqlar bo`yicha bazaviy stavkalar uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi va viloyatlar bo`yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Jamoat binolari, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo`llar, shuningdek qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar band etgan yerlar bo`yicha

bazaviy stavkalar uchun tegishli tuman va shaharlarning sug`oriladigan yerlari uchun tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar yagona yer solig`i summasini mazkur Yo`riqnomalar ilovasiga binoan shakl bo`yicha hisoblab chiqaradilar va davlat soliq organlariga hisob-kitobni joriy yilning 1 fevraligacha taqdim etadilar. Fermer xo`jaliklari hisoblab chiqarilgan yagona yer solig`i umumiyligi summasining 97,5 y%ini maxsus tranzit hisobvarag`iga, 2,5 %ini Dehqon va fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasiga to`laydilar.

Yagona yer solig`i yiliga uch marta quyidagi tartibda to`lanadi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha - yillik soliq summasining kamida 20 %ini;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha - yillik soliq summasining kamida 30 %ini;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha - soliq summasining qolgan qismini.

Yil davomida yer mulklari tarkibi va maydoni o`zgargan taqdirda soliq to`lovchi davlat soliq organlariga hisobot yilining 1-dekabriga qadar yagona yer solig`ining yangi hisob-kitobini topshiradi, soliqning qolgan qismi uni hisobga olgan holda to`lanadi.

2004-yildan boshlab tajriba tariqasida O`zbekiston Respublikasining Toshkent va Surxondaryo viloyatlarda yagona yer solig`ini yerning qiymatidan kelib chiqib belgilash tajriba tariqasida sinab ko`rildi. Hozirgi kunga kelib respublikamizning barcha viloyatidagi fermer xo`jaliklari yagona yer solig`ini yerning normativ qiymatidan kelib chiqib to`lashga o`tkazilgan.

O`zbekiston Respublikasining har yili tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlarida yerning normativ qiymatiga nisbatan yagona yer solig`i stavkalarini o`rnatib boriladi.

O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 08.02.2005, 1324-1-son bilan ro`yxatga olingan “Qishloq xo`jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan yagona yer solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risida vaqtinchalik Nizom”ga ko`ra yagona yer solig`ining soliq solish obyekti bo`lib qishloq xo`jaligi maydonlari va jamoat qurilmalari va hovlilari bilan band bo`lgan yerlarning normativ qiymati hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligi yerlarining me`yoriy qiymati O`zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo`yicha davlat qo`mitasi tomonidan aniqlanadi va O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi bilan birgalikda har bir qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchisiga yagona yer solig`ini hisoblab chiqarish uchun yetkaziladi.

Qishloq xo`jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo`lgan yerlarning umumiyligi maydoniga soliq summasi, ularning me`yoriy qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib, quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$N_I = (N_I \times C/100),$$

bunda:

$N_I$  - qishloq xo`jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo`lgan yerlarning umumiyligi maydoniga soliq summasi;

$C$  - qishloq xo`jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo`lgan yerlarning me`yoriy qiymati;

*S* - soliq stavkasi, %larda.

Yerlarning me'yoriy qiymatidan kelib chiqib to`lashi lozim bo`lgan yagona yer solig`ining hisob-kitobi 12-jadvalda keltirilgan shakl bo`yicha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo`jaligi qonun hujjatlariga muvofiq yer solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solig`i to`laydi.

## 12-jadval

Yerlarning me'yoriy qiymatidan kelib chiqib to`lanishi lozim bo`lgan yagona yer solig`ining hisob-kitobi jadvali shakli

Yerlarning turlari	Maydoni, ga	Yerlarning me'yoriy qiymati, ming so`m		Soliq stavkasi, %	Soliq summasi, so`m
		1 ga	jamii maydon		
1. Jami yerlar					
Shu jumladan:				x	x
1.1. Haydaladigan yerlar:				x	x
- sug`oriladigan				x	x
- lalmi				x	x
1.2. Ko`p yillik daraxtzorlar				x	x
1.3. Bo`z yerlar:				x	x
- sug`oriladigan				x	x
- lalmi				x	x
1.4. Pichanzor va yaylovlari:					x
- sug`oriladigan					x
-sug`orilmaydigan				x	x
1.5. Jamoat imoratlari					
2. Soliq solinadigan yerlarning maydoni					
Shu jumladan to`lov muddatlari bo`yicha:	x	x	x	x	
1 iyulgacha (20%)	x	x	x	x	
1 sentabrgacha (30%)	x	x	x	x	
1 dekabrgacha (soliqning qolgan qismi)	x	x	x	x	

Dehqon xo`jaligidan yer solig`i tomorqa yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda undiriladi. Soliq solish tartibi hamda dehqon xo`jaligi to`laydigan yer solig`ining stavkalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo`jaliklaridan undiriladigan yer solig`ini hisoblab chiqarish chog`ida yer solig`i stavkalariga, yer sifatiga bog`liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 balgacha bo`lsa - 0,75;

- tuproq boniteti 41 dan 70 balgacha bo`lsa - 1,0;
- tuproq boniteti 70 baldan ortiq bo`lsa - 1,25.

#### **4.4. Fermer va dehqon xo`jaliklarida suv resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi**

Qishloq xo`jalik korxonalarining suv resurslaridan foydalanish tartibi (suv uchun to`lanadigan haq, suvdan foydalanishi limiti va boshqa me'yoriy cheklovlar) davlat tomonidan belgilab beriladi. O`zbekiston Respublikasining 6.05.1993 yildagi 837-XII sonli "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi Qonunida: "Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek bu sohada maxsus vakolati bo`lgan hamda suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga solib turuvchi davlat organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi", - deb belgilab qo`yilgan..

Qonunga muvofiq, suvdan qishloq xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar oldiga quyidagi majburiyatlar ham yuklangan:

- suvdan foydalanishning belgilangan limitlari, rejalar, qoidalari, me`yorlari va rejimlariga rioya etishlari, tik drenajni inobatga olgan holda foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari;
- ichki xo`jalik sug`orish, suv chiqarish va kollektor-drenaj tarmog`i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish quduqlarini texnika jihatidan ishga yaroqli holda saqlashlari;
- melioratsiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari va qishloq xo`jalik ekinlari hamda o`simliklarni sug`orish, shuningdek yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari;
- suvni tejaydigan texnologiyalar va ilg`or texnikani joriy etish orqali sug`orishning uslub hamda usullarini takomillashtirishlari;
- qishloq xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv monitoringi asosida salbiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini bartaraf etishlari;
- belgilab olingan aniq maqsadlarga muvofiq foydalanilayotgan suvlarning samaradorligini oshirishlari shart.

Qishloq xo`jaligida suvdan foydalanish fermer va dehqon xo`jaliklarining sug`oriladigan yerlarida qulay suv rejimi vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-con qarori bilan tasdiqlangan "Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududida o`zaro suv xo`jaligi munosabatlarini tartibga solish tartibi" qayta tashkil etilgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududida o`zaro suv xo`jaligi munosabatlarini tartibga solish shartlarini belgilaydi.

O`zaro suv xo`jaligi munosabatlarini tartibga solish - suvdan belgilangan limit bo`yicha foydalanish rejasini tuzish, suvdan foydalanuvchilarni suv bilan ta'minlash, suvni taqsimlash, suv aylanishini belgilash, suvdan foydalanish ustuvorligiga rioya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanilishini nazorat qilish, suv xo`jaligi obyektlaridan foydalanish ishlarini tashkil etish kabilarni o`z ichiga oluvchi ishlar majmuidir.

Suvdan foydalanuvchilar - muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqovaga chiqarish bilan bog`liq xo`jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar bo`lib, ular jumlasiga fermer va dehqon xo`jaliklari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kiradi.

Qayta tashkil etilgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududida suvdan foydalanish munosabatlarini Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi - muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqavaga chiqarish bilan bog`liq xo`jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan fermer xo`jaliklari va boshqa yuridik jismoniy shaxslar birlashmasi tartibga solib turadi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi qayta tashkil etilayotgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududida o`zaro suv xo`jaligi munosabatlarini tartibga solib borishni ta'minlash uchun tashkil qilinadi.

Umumiyl foydalanishdagi suv xo`jaligi obyektlariga sobiq xo`jalik hududidagi barcha suvdan foydalanuvchilarga xizmat ko`rsatadigan obyektlar, ya'ni meliorativ texnika va mol-mulk - ekskalatorlar, buldozerlar, skreperlar, drenaj yuvish agregatlari, yuk ko`tarish kranlari va qayta tashkil etilayotgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududidagi suv xo`jaligi obyektlariga xizmat ko`rsatuvchi boshqa mol-mulklar kiradi.

Suvdan foydalanish - suv xo`jaligi obyektlarining bir maromda ishlashini ta'minlovchi, obyektlarning texnik holatini kuzatish, tekshirish, ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarish va ularni rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etishni o`z ichiga oluvchi ishlar majmuidan tashkil topadi.

Suvdan foydalanish uchun limit, ya'ni suvdan amaldagi qoidalarga muvofiq maqsadli foydalanish uchun suv xo`jaligi organlari tomonidan belgilanadigan suv resurslarining cheklangan hajmi o`rnataladi. Suvdan foydalanuvchilarning barchasiga nisbatan suvdan limit bo`yicha foydalanish tartibi belgilanadi.

Suvdan foydalanish limitlari suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, magistral kanal (tizim)lar, irrigatsiya tizimlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va har bir suvdan foydalanuvchi bo`yicha belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari qishloq va suv xo`jaligi organlari tomonidan belgilanib, unga rioya etish idoraviy bo`ysunuvidan qat'i nazar, suvdan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiydir.

Suv tarmoqlarining, xizmat ko`rsatuvchi xodimlarning ta'minoti, suv obyektlarini asrash va tiklash uchun suvdan limit bo`yicha foydalanish bilan bir qatorda suvdan to`liq va qisman haq to`lab foydalanish joriy etiladi. Suv uchun to`liq yoki qisman haq to`lashni joriy etish, suvdan limit bo`yicha foydalanish, shuningdek bunga rioya etilishini nazorat qilish shartlari va tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Suvdan foydalanish uchun meliorativ fond - umumiyl foydalanishdagi suv xo`jaligi obyektlaridan foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar tomonidan ulush qo`shib qatnashish qoidasi bo`yicha ajratiladigan mablag`lar shakllantiriladi.

Suvdan foydalanish limiti bo`yicha suvdan foydalanish rejasi ishlab chiqiladi. Suvdan foydalanuvchi fermer va dehqon xo`jaliklarining suvdan foydalanish rejalarida quyidagi tadbirlar o`z aksini topmog`i lozim:

- qishloq xo`jaligi ekinlarini sug`orish uchun belgilangan sug`orish rejimlariga rioya etish va sug`orish usullarining optimal jihatlarini hisobga olgan holda belgilangan limit doirasida suvdan oqilona va tejab-tergab foydalanish;

- sug`orish tarmoqlari va ekin maydonlarida suvning isrof bo`lishini (yerga shimilib ketishi, bug`lanishi, belgilangan muddatdan ortiq oqishi, o`qariqlar va egatlarni yuvib ketishi) maksimal darajada kamaytirish va sug`orish texnikasini mukammallashtirish;

- sho`r yuvish orqali yerning meliorativ holati va unumдорligini muttasil oshirib borish;

- zovurlarni tozalab turish evaziga yer osti sizot suvlarining ko`tarilib ketishini oldini olish;

- sug`orishni mexanizatsiyalashtirish va sug`orishning ilg`or usullarini qo`llash orqali tuproqning hosildor zarralarini yuvilib ketishiga yo`l qo`ymaslik va boshqalar.

Suvdan foydalanish rejasi yiliga ikki marotaba, vegetatsiya davri (aprel-sentabr) va novegetatsiya davri (kuzgi-qishki va erta bahorgi, oktabr-mart) uchun tuziladi.

Suvdan foydalanish rejasi - suvni undan foydalanuvchilar o`rtasida taqsimlashning hisoblangan hajmi, ularning xo`jalik faoliyati ko`rsatkichlari asosida qabul qilingan gidromodulni, qishloq xo`jaligi ekinlarini joylashtirish rejasini, davlat yo`li bilan xarid qilinadigan mahsulot miqdorini, hududning irrigatsiya-meliorativ va tuproq sharoitlarini hamda suvdan foydalanish limitini hisobga olgan holda tuziladi. Suvdan foydalanish rejasi xo`jaliklar ishlab chiqarish-moliya rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Suvdan foydalanuvchilarni suv bilan ta'minlash ustuvorlik bo`yicha, «Suv va suvdan foydalanish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq va suvdan belgilangan limit bo`yicha suvdan foydalanish rejasi asosida amalgalashiriladi. Bunda xo`jaliklararo tarmoq va manbalardan barcha mavjud suv ayirgichlar saqlanib qolinadi va barcha suvdan foydalanuvchilar uchun teng suv ta'minoti yaratiladi.

Xo`jaliklararo tarmoqlar va manbalardan qo`shimcha suv ayirgichlar masalasi faqat O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi suv xo`jaligi departamentining tegishli mahalliy organlari bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda hal etiladi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi har yili ikki marta – vegetatsiya va novegetatsiya davrlarida o`z faoliyati hududidagi barcha suvdan foydalanuvchilarni suv bilan ta'minlash uchun suvdan belgilangan limit bo`yicha foydalanish rejasi hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O`zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish to`g`risida» 1993-yil 3-avgustdagagi 385-son qarori asosida tuman suv xo`jaligi organlari bilan suv olish yuzasidan shartnomaga tuzadi.

Suv xo`jaligi organlari bilan tuzilgan shartnomada har o`n kunda suv berish miqdori, suv olish manbalari ko`rsatiladi. Shartnomaning namunaviy shakli suv xo`jaligi organlari tomonidan belgilanadi.

Suvdan belgilangan limit bo`yicha foydalanish rejasi tarkibida suvdan belgilangan maqsadda foydalanishi, hech istisnosiz barcha suvdan

foydanuvchilarga har o`n kunda beriladigan suv miqdori, suv ayirgichlar va sug`orish manbalari ko`rsatiladi.

Suv berish uchun Uyushma yoki alohida suvdan foydanuvchilar tomonidan barcha (yer usti, yer osti) manbalardan (sug`orish tarmog`i, kollektorlar, suv omborlari, ko`llar, daryolardan o`z oqimi bo`yicha yoki mashina vositasida, yer osti manbalaridan, quduq va boshqalardan nasoslar vositasida suv olish faqat suv ayirgichlarning cuv xo`jaligi organlari tomonidan belgilab qo`yilgan va belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tkazilgan joylarda amalga oshiriladi. Suv ayirgichlarning ro`yxatdan o`tkazilmagan joylaridan suv olish noqonuniy hisoblanadi va aybdorlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Har bir suvdan foydanuvchining umumiy ravishda foydalaniladigan suv xo`jaligi obyektlaridan foydalanishda va Uyushma ta'minotida ulush qo`shib qatnashishini aniqlash uchun har yili amaldagi normativlar asosida, qimmatlashish indeksini hisobga olgan holda xarajatlar smetasi tuziladi. Suv xo`jaligi organlari bilan kelishilgan xarajatlar smetasi Uyushma a'zolarining umumiy yig`ilishida tasdiqlanadi.

Suvdan foydalanish samaradorligiga sug`orish usullari, ekinlarning biologik xususiyatlari, tuproqning suv o`tkazuvchanlik darjasini va relefi kabi bir qator omillar ta'sir ko`rsatadi. Mutaxassislarning fikricha, sug`oriladigan uchastka uzunligi 400 metrdan kam bo`lmasligi, har bir kartani hajmi yoppasiga ekiladigan ekinlar uchun 20-30 ga dan, qator oralari chopiq qilinadigan ekin dalalari 12-20 ga va sabzavot ekinlari maydoni 10-12 ga dan kam bo`lmasligi kerak. Dala uzunligi bo`ylama sxemada 1200 metrgacha, ko`ndalang sxemada esa 800 metr bo`lishi kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Artukmetov Z.A., Shodmanov M. Fermer xo`jaligida suvdan samarali foydalanish, sug`orishning ilg`or usullari hamda yerning meliorativ holatini yaxshilash. O`quv qo`llanma. -T.: TDAU, 2004, 5-b.

$F_1$  maydon uchun talab etiladigan suv miqdori ( $Q_{um}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{um} = F_1 \cdot m_1 \cdot m^3.$$

Bu yerda  $m_1$  – sug`orish me`yori,  $m^3/ga$ .

Har bir getkar ekin maydonini sug`orish uchun talab etiladigan suv miqdorini ( $Q_{nm}$ ) l/sek hisobida ham aniqlash mumkin:

$$Q_{nm} = \frac{Q_{um}}{t_1 \cdot 86,4}$$

Xuddi shu tarzda barcha ekin turlari bo`yicha dekadada talab etiladigan jami suv miqdorini ( $Q_{nm}^{um}$ ) hisoblab topish mumkin:

$$Q_{nm}^{um} = Q_{nm}^p + Q_{nm}^b + Q_{nm}^s + Q_{nm}^m$$

Bu yerda:  $Q_{nm}^p$ ,  $Q_{nm}^b$ ,  $Q_{nm}^s$ ,  $Q_{nm}^m$  – mos ravishda paxta, bug`doy, sabzavot va makkajo`xori kabi ekin maydonlari uchun talab etiladigan suv miqdori.

Suv resurslaridan unumli foydalanish ko`p jihatdan sug`orish tizimlarining qanday taraqqiy etganligiga ham bog`liq. Sug`orishning tejamli va ilg`or usullarini qo`llamaslik, sug`orish tizimlarining takomillashmaganligi, suv o`lchash va taqsimlash ishlarining qoniqarsiz ahvolda ekanligi oqibatida respublikamizda olinayotgan suvlarning 36-40 %i (yiliga 20-24  $km^3$ ) bekorga isrof bo`lmoqda.

Sug`oriladigan yerlarning amaldagi ehtiyoji 8-10 ming  $m^3$  (biologik ehtiyoji 6-8 ming  $m^3$ ) bo`lishiga qaramay hozirgi kunda har getkar maydonga 14-15 ming  $m^3$  suv sarflanmoqda.

Hozirgi kunda sug`orishning quyidagi usullaridan foydalanib kelinmoqda:

- egatlab, yo`laklab va chek olib bostirish orqali suvni yer sathidan taqsimlab sug`orish;

- sun`iy yomg`ir vujudga keltirib yomg`irlatib sug`orish;

- tomchilatgich apparatlar yordamida ekinlarni tomchilatib sug`orish;

- namiqtiruvchi quvurlar orqali suvni o`simlik ildizi tarqalgan qatlamga uzatish uchun tuproq orasidan sug`orish;

- yerga yaqin atmosfera harorati va namligini tiklash maqsadida aerozol namiqtirish (suvni juda mayda tomchilar holida dispers yomg`irlatib sug`orish).

Sug`orish usullariga bog`liq holda ekinlarni sug`orish me`yori o`zgaradi. Masalan, yo`laklab bostirib sug`orishda sug`orish me`yori 1400-1600  $m^3/ga$  ni tashkil etsa, egatlab sug`orishda – 1000-1200, yomg`irlatib sug`orishda – 500-600 va tuproq orasidan sug`orishda  $350-400 m^3/ga$  ga teng bo`ladi<sup>1</sup>.

O`zbekiston sharoitida sovuq tushgunga qadar g`o`zadan eng yuqori hosil olish uchun uni ob-havoning kelishiga qarab 1-4-1 va 1-5-0 tartiblar bo`yicha 6000 m.kub/ga me`yorida sug`orish maqsadga muvofiq. Qish va bahor seryog`in yozga nisbatan salqin kechgan yillarda sug`orish 1-4-0 tartibi bo`yicha amalga oshirilsa, yuqori hosildorlikka erishiladi. Bunda o`simliklar 5000-5500 m.kub/ga me`yorda sug`orilgani ma`kul.

---

<sup>1</sup>Artukmetov Z.A., Shodmanov M. Fermer xo`jaligida suvdan samarali foydalanish, sug`orishning ilg`or usullari hamda yerning meliorativ holatini yaxshilash. O`quv qo`llanma. -T.: TDAU, 2004, 13-b.

Sug`orish usullari va texnikasini tanlashda xo`jalik joylashgan hududning iqlimi, yer tuzilishi, tuproq tarkibi, gidrogeologik (sizot suvlarning joylashish chuqurligi va minerallashuvi, hududning zovurlashtirilganlik darjasи), gidromorfologik (tuproq yuzasining nishabi va qiyalik uzunligi), suv xo`jaligi tizimi va iqtisodiy kabi bir qator omillarni e'tiborga olish lozim. Shuningdek, xo`jalikning ixtisoslashuvi, ekiladigan ekinlarning rivojlanish xarakteri, vegetatsiya davri va yetishtirish texnologiyasi, almashlab ekish tizimi, suv ta'minoti va sug`orish rejimi, suv sifati, suv manbasining joylashish balandligi ham sug`orish usullarini tanlashga o`z ta'sirini o`tkazadi.

Xo`jalikning tabiiy-iqlim sharoitlarini e'tiborga olgan holda sug`orish usullarini tanlashda quyidagi tavsiyani e'tiborga olish mumkin.

### 5-chizma

#### Tabiiy-iqlim sharoitlariga ko`ra sug`orish usullarini qo`llash

Sug`orish usullari	Sho`riangan tuproq	Yengil qumoq tuproq	Og`ir tuproq	Murakkab relief	Katta nishablik	Minerallashgan sizot suvlari yaqin	Suv resurslari taqchil	Suv mineral-lashgan	Kuchli shamol
Yomg`irlatib	-	+	x	+	+	+	+	-	x
Yer sathidan	+	x	+	x	x	x	x	x	+
Tuproq orasidan		x	x	x	+	-	+	-	
Tomchilatib		x	+	+	+	-	+	-	
Aerozol	+	+	+	+	+	+	+	-	

Izoh: “+” – qo`llash mumkin, “-” – mumkin emas, “x” – qisman mumkin.

Suv resurslari va sug`orish usullaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun bir qator ko`rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

1. Sug`orish texnikasini joriy etishga sarflangan kapital sarflarning rentabellik koeffitsenti ( $R_{ks}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{ks} = \frac{\Delta SF}{K} .$$

Bu yerda:  $\Delta SF$  - sug`orish texnikasini joriy etganda sof foydaning o`sgan qismi, ming so`m/ga;

$K$  - sug`orish texnikasiga sarflangan kapital xarajatlar, ming so`m/ga.

2. Xo`jalikda suvdan foydalanish koeffitsenti ( $SFK$ ):

$$SFK = \frac{W_a \cdot Q_p}{W_p \cdot Q_a} .$$

Bu yerda:  $W_a$  va  $W_p$  – reja bo`yicha belgilangan va amalda sug`orilgan maydon, ga;

$Q_p$  va  $Q_a$  – reja bo`yicha va haqiqatda sarflangan suv miqdori,  $m^3/\text{sek.}$

Suvdan foydalanish koeffitsenti 0,9-1 atrofida bo`lishi maqsadga muvofiq.

3. Sug`orish rejasining bajarilishini (*SRB*) ma'lum bir sug`orish davri yoki dekada bo`yicha aniqlash mumkin:

$$SRB = \frac{W_a}{W_p}.$$

Bu yerda  $W_a$  va  $W_p$  – reja bo`yicha belgilangan va amalda sug`orilgan maydon, ga

4. Xo`jalikda suvdan foydalanishni tashkil etish samaradorligini ( $\gamma$ ) suv taqsimlash rejasining bajarilishini tahlil etish orqali aniqlash mumkin. Bu ko`rsatkich ma'lum bir sug`orish davri uchun yaxlit yoki dekadalar bo`yicha alohida aniqlanishi mumkin:

$$\gamma = \frac{Q_a}{Q_p}.$$

Bu yerda  $Q_a$  va  $Q_p$  – reja bo`yicha belgilangan va amalda taqsimlangan suv miqdori,  $m^3$ .

#### **4.5. Fermer va dehqon xo`jaliklarining mehnat resurslari, ulardan samarali foydalanish**

Fermer va dehqon xo`jaliklarining rivojlanishi omillaridan biri ularda mehnat resurslaridan unumli foydalanish masalalariga borib taqaladi. Mehnat resurslari deb, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo`lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo`lgan erkaklar tushuniladi. Ayrim ish tig`iz bo`lgan va mavsumiy davrlarda o`smlilar va qariyalar mehnatidan ham foydalanishga to`g`ri keladi.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanish jarayonida qishloq xo`jaligida mehnat resurslari bozorining o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim:

- qishloq xo`jaligidagi mehnat resurslariga bo`lgan talab va ishning qo`l mehnati sig`imi kamayib borishi qishloq xo`jaligidan mehnat resurslarining bo`shashiga va ortiqcha ishchi kuchining hosil bo`lishiga sabab bo`ladi. Natijada bo`shab qolgan ishchi kuchlarini boshqa tarmoqlarga jalgan etish zaruriyati tug`iladi;

- qishloq xo`jaligida mavjud mehnat resurslaridan yil mobaynida bir tekis foydalanib bo`lmaydi. Qishloq xo`jaligining mavsumiy xarakterga egaligi sababli ish tig`izligi ba`zan ortib, ba`zan pasayadi, bu holat ishchi kuchiga bo`lgan talabni belgilaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ekinlarni parvarishlash yoki hosilning yig`im-terim pallasida mehnat resurslariga bo`lgan talab oshadi, qish oyalarida ishchi kuchiga talab kamayadi;

- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi o`simlik va chorva mollari kabi jonli organizmlarga bog`liq bo`lib, tabiiy-biologik omillar mehnat resurslaridan foydalanishga o`z ta'sirini o`tkazadi;

- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida sanoat tarmoqlari kabi tor ixtisoslashuvning mavjud emasligi ishchi kuchining bir davrda bir nechta vazifalarni bajarishga majbur etadi va mahsulot yetishtirish ustidan bevosita nazorat yuritish imkonini bermaydi;

- qishloq xo`jaligidagi ayrim mehnat jarayonlarida (sug`orish, hosilni yig`ish) hanuzgacha qo`l kuchi ustunlikka ega, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik va avtomatlashganlik darajasi nisbatan past darajada qolmoqda.

Fermer va dehqon xo`jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga mehnatga layoqatli bir nafar erkak va ayolning bir yillik ish vaqtini fondidan foydalanish darajasi ham ta'sir ko`rsatadi. Bir yillik ish vaqtini fondi esa erkaklar uchun 260 kishi/kuniga, ayollar uchun 210-220 kishi/kuniga teng deb qabul qilingan.

Har bir xo`jalikning ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoji uning ixtisoslashuviga, tarmoq tarkibiga, mahsulot yetishtirish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasiga va mehnat sarfiga bog`liq. Masalan, 1 gektarda paxta yetishtirish uchun bevosita mehnat sarfi umumiylisobda 840-990 kishi/soatni, don yetishtirish uchun sug`oriladigan yerlarda 102-140, lalmi yerlarda 34-50 kishi/soatni, sabzavot yetishtirish uchun esa 1517-1929 kishi/soatni tashkil etadi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> “Qishloq xo`jaligi mahsulotlati yetishtirishga talab etiladigan mehnat va moddiy resurslari me`yorlari”.  
T.: O`zinformagroprom, 1996, 4-5 b.

. Shundan kelib chiqqan holda bir gektar paxta yetishtirishga o`rta hisobda 0,5, sug`oriladigan don ekinlarida 0,1, sabzavot ekinlarida 2,0 kishi mehnat qilishi yetarlidir. Mehnat resurslariga bo`lgan talabni aniqlashda ana shu ko`rsatkichlar hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 1997-2008-yillar oralig`ida iqtisodiyotda jami band bo`lganlarga nisbatan fermer xo`jaliklarida bandlar salmog`i 2,2 %dan 12,5 %ga o'sib borgan. Agar 1997-yili fermer xo`jaliklarida jami 188 ming kishi mehnat qilgan bo`lsa, 2008-yil boshiga kelib bu ko`rsatkich 1343 ming kishiga etgan, yoki 7,14 martaga oshgan Bu holatni shirkat xo`jaliklarining tugatilishi va fermer xo`jaliklari sonining keskin oshganligi bilan izohlash mumkin (13-jadval).

13-jadval

Fermer va dehqon xo`jaliklarida band bo`lgan mehnat resurslari

Ko`rsatkichlar	1997-yil	1998-yil	1999-yil	2000-yil	2001-yil	2002-yil	2003-yil	2004-yil	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil
ming kishida												
Iqtisodiyotda jami band bo`lganlar	8680	8800	8885	8983	9136	9333	9589	9911	10196	10467	10735	
Shu jumladan, qishloq va o`rmon xo`jaligida	3533	3467	3220	3093	3062	3046	3063	3043	2967	2936	2998	
Fermer xo`jaliklarida	188	173	247	279	352	458	574	734	810	1118	1343	
Dehqon xo`jaliklarida	1297	1313	1146	1181	1181	1206	1230	1253	1348	1430	1473	
Yakunga nisbatan, % hisobida												
Iqtisodiyotda jami band bo`lganlar	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan qishloq va o`rmon xo`jaligida	40,7	39,4	36,2	34,4	33,5	32,6	31,9	30,7	29,1	28,1	27,9	
Fermer xo`jaliklarida	2,2	2,0	2,8	3,1	3,9	4,9	6,0	7,4	7,9	10,7	12,5	
Dehqon xo`jaliklarida	14,9	14,9	12,9	13,1	12,9	12,9	12,8	12,6	13,2	13,7	13,7	

Manba: O`zbekistonning yillik statistik to`plami, 2008, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi, 2009

Dehqon xo`jaliklarida band bo`lganlar soni 1997-yilda 1297 ming kishidan 2007-yilda 1473 ming kishiga yoki 113,6 %ga oshgan bo`lishiga qaramay, ularning iqtisodiyotda jami band bo`lganlarga nisbatan salmog`i shu yillar oralig`ida 14,9 dan 13,7 %ga kamaygan.

Fermer xo`jaligi (ish beruvchi) va uning xodimlari o`rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi. Fermer xo`jaligidagi ish tartibi xo`jalik boshlig`i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo`jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo`jalik boshlig`i tomonidan tashkil etiladi.

Fermer xo`jaligi xodimlarining mehnatiga haq to`lash taraflarning kelishuviga ko`ra pul hamda natura tarzida, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo`lmagan miqdorda belgilanadi.

Fermer xo`jalingining boshlig`i va xodimlari davlat ijtimoiy sug`urtasidan o`tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug`urtasi bo`yicha nafaqa va pensiyalar tayinlash hamda to`lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo`jalingining faoliyati xo`jalik a`zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo`jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Dehqon xo`jalingining a`zolari dehqon xo`jaligi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga ixtiyoriy ravishda badallar to`langan taqdirda davlat ijtimoiy sug`urtasidan o`tkazilishi lozim. Dehqon xo`jalingining barcha a`zolari uchun O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga badallar to`lab borayotgan dehqon xo`jaligi a`zolarining mehnat faoliyati hisobini dehqon xo`jaligi boshlig`i yuritadi.

Dehqon xo`jaligida ishlangan vaqt davlat ijtimoiy sug`urtasi bo`yicha badallar to`langanligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tuman ijtimoiy ta'minot bo`limida mehnat daftarchasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan holda mehnat stajiga qo`shiladi. Dehqon xo`jaligi a`zolariga ijtimoiy sug`urta bo`yicha davlat nafaqlari va pensiyalar tayinlash hamda to`lash qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi.

Dehqon xo`jaligi boshlig`i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig`i yoki oilaning muomalaga layoqatli a`zolaridan biridir.

Dehqon xo`jalingining boshlig`i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo`qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo`lmaganda u o`z majburiyatharini bajarish vakolatini shu xo`jalik a`zolaridan biriga, dehqon xo`jalingining a`zosi bir kishidan iborat bo`lganda esa, shartnoma asosida - ushbu moddaning ikkinchi qismi talablariga javob beradigan har qanday shaxsga berishga haqlidir.

## **Qisqacha xulosalar**

Dehqon va fermer xo`jaliklari ishlab chiqarish faoliyatining asosini yer-suv va mehnat resurslari tashkil etadi.

Fermer xo`jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo`lgan, lekin o`ttiz yildan kam bo`lmagan muddatga beriladi. Fermer xo`jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo`jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar ustun huquqdan foydalanadilar.

Dehqon xo`jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining o`lchamlari yer resurslarining mavjudligiga qarab belgilanadi. Dehqon xo`jaligi yuritish uchun yer uchastkalari berish to`g`risidagi qaror qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolarga dehqon xo`jaligi yuritish uchun 0,06 hektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Fermer va dehqon xo`jaliklarida yerdan foydalanish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdarligini oshirish;
- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo`jaligi yerlarining unumdarligini oshirish, yerkarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerkarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;
- yerga va butun atrof-tabiiy-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- yerdan foydalanganlik uchun haq to`lash.

Qishloq xo`jalik korxonalarining suv resurslaridan foydalanishi tartibi (suv uchun to`lanadigan haq, suvdan foydalanishi limiti va boshqa me'yoriy cheklovlar) davlat tomonidan belgilab beriladi. Qishloq xo`jaligida suvdan foydalanish fermer va dehqon xo`jaliklarining sug`oriladigan yerlarida qulay suv rejimi vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi.

Fermer va dehqon xo`jaliklarining rivojlanishi omillaridan biri ularda mehnat resurslaridan unumli foydalanish masalalariga borib taqaladi. Fermer va dehqon xo`jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanish jarayonida qishloq xo`jaligida mehnat resurslari bozorining o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Har bir xo`jalikning ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoji uning ixtisoslashuviga, tarmoq tarkibiga, mahsulot yetishtirish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasiga va mehnat sarfiga bog`liq.

Fermer va dehqon xo`jaliklari (ish beruvchi) va uning xodimlari o`rtasidagi mehnatga oid munosabatlardan qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer va dehqon xo`jaliklariga yer ajratish tartibi qanday?
2. Yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi o`z ichiga nimalarni oladi?
3. Yer haqi qanday tartibda hisoblab chiqiladi va undiriladi?

4. Fermer va dehqon xo`jaliklarida suvdan foydalanish mexanizmi qanday?
5. Fermer va dehqon xo`jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanishning xususiyatlari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagи «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. //Xalq so`zi, 2004-yil 15-oktabr.
2. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. -T.: O`zbekiston, 2002.
3. O`zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi», «O`zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi va qishloq xo`jaligiga oid qonun hujjatlari». -T.: Adolat, 1999.
4. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N., O`zbekistonda fermer xo`jaligini yuritish asoslari. -T.: “Voris-nashriyot”, 2007.
5. Olimjonov O. va boshq. Fermer faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. -T., 2005.
6. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
7. Artukmetov Z.A., Shodmanov M. Fermer xo`jaligida suvdan samarali foydalanish, sug`orishning ilg`or usullari hamda arning meliorativ holatini yaxshilash. O`quv qo`llanma -T.: TDAU, 2004.
8. Husanov R.H., Qosimov M. Dehqon xo`jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. -T.: Cho`lpox, 2000.

## **V bob. FERMER XO`JALIGINING MULKI, ASOSIY VA AYLANMA FONDLARIDAN FOYDALANISH**

### **5.1. Fermer xo`jalignining mol-mulki, uning iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi**

Fermer xo`jaligi o`z ishlab chiqarish va boshqa xo`jalik faoliyatini amalgam shirish uchun ma'lum mol-mulkka ega bo`ladi. Binolar, inshootlar, qishloq xo`jaligi ekinzorlari va ko`chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalarga, yetishtirgan mahsulotiga, qishloq xo`jaligi texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag`lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek fermer xo`jalignining balansidagi boshqalar fermer xo`jalignining mol-mulkini tashkil etadi. Fermer xo`jalignining ushbu mulklarga bo`lgan mulk huquqi o`ziga tegishlidir va u bu mulkdan mutlaqo o`z ixtiyoriga ko`ra foydalanadi, unga egalik qiladi va uning natijalarini tasarruf etadi. Fermer xo`jalignining mulk huquqi davlat himoyasidadir.


Fermer xo`jaligi boshlig`ining pul va moddiy mablag`lari, tovarlarni realizatsiya qilish (ishlar bajarish, xizmatlar ko`rsatish) dan olingan daromad (foyda)lar, qimmatli qog`ozlardan kelgan daromadlar, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar fermer xo`jalignining mol-mulkini shakllantirish manbalari bo`lishi mumkin.

Fermer xo`jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, ko`paytirish, olish, ijara yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Fermer xo`jaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablag`larini saqlab turish uchun bank muassasasida hisobvaraqlar ochish va bu mablag`larni erkin tasarruf etish huquqiga ega. Fermer xo`jalignining hisob-kitob varag`idan mablag`larni faqat fermer xo`jaligi boshlig`ining roziligi bilan yoki sudning qaroriga binoan hisobdan chiqarish mumkin.

Fermer xo`jalignining mol-mulki qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo`jalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxo`rlar merosga bo`lgan huquq to`g`risidagi guvohnoma berilganligi uchun davlat boji to`lashdan ozod etiladilar.

Fermer xo`jalignining qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalilanligidan mol-mulk takror ishlab chiqarish jarayonida ishtiroy etish xususiyatlariga ko`ra **asosiy fondlar** va **aylanma fondlarga** bo`linadi. Asosiy va aylanma fondlarning yig`indisi xo`jalikning **ishlab chiqarish fondlarini** tashkil etadi (6-chizma).



6-chizma. Fermer xo'jaligi fondlarining turkumlanishi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni muomala sohasida yakunlanishi sababli ishlab chiqarishning asosiy va aylanma fonlaridan tashqari ***muomala fondlari*** ham mavjud bo'ladi. Asosiy fondlar xo`jalikning ***asosiy vositalarini***, aylanma va muomala fondlari esa ***aylanma vositalarini*** tashkil etadi

## 5.2. Fermer xo`jaligining asosiy fondlari, ularning tarkibi va foydalanish ko`rsatkichlari

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari talablaridan kelib chiqib, asosiy vosita (fond)lar tarkibiga:

- dastlabki qiymati belgilangan qiymatdan kam bo`lmagan (eng kam ish haqiga nisbatan belgilanadi);
- bir yildan ortiq xizmat muddatiga ega mehnat vositalari kiritilgan.


Qishloq xo`jaligida asosiy vositalar tarkibiga qiymatidan qat'i nazar qishloq xo`jaligi mashinalari va asboblari, voyaga yetgan ish hayvonlari va mahsuldor chorva mollari kiradi.

Fermer xo`jaligining asosiy fondlari ***ishlab chiqarishga taalluqli*** va ***noishlab chiqarishga taalluqli*** fondlarga bo`linadi. Ishlab chiqarishga taalluqli asosiy fondlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi (7-chizma).

Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish sohasida bevosita ishtirok etmaydigan noishlab chiqarish fondlaridan ham foydalaniladi. Ular fermer xo`jaligining dam olish xonalari, hammom va dush kabi maishiy xarakterdagи binoinshootlaridan tashkil topadi. Noishlab chiqarish fondlari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmasada, ular fermer xo`jaligida mehnat resurslarining ishchi kuchini qayta tiklash va mehnat unumdarligini oshirishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining barchasi ham qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida birdek ishtirok etmaydi. Traktorlar, kombaynlar, yuk avtomobilari, qishloq xo`jaligi mashina va uskunalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar bevosita asosiy ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, o'simlikchilik va chorvachilik

mahsulotlarini ko`paytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lsa, boshqa bir turdag'i ishlab chiqarish fondlari fermer xo`jaligining sanoat xarakteridagi ishlab chiqarishi (mahsulotni qayta ishlash sexlari, moyjuvoz, tegirmonlar va b.), qurilish, savdo yoki xizmat ko`rsatish kabi sohalarida ishtirok etadi.



7-chizma. Asosiy fondlarning tarkumlanishi

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarish fondlarini *qishloq xo`jaligiga taalluqli* va *qishloq xo`jaligiga taalluqli bo`lmagan* fondlarga bo`lish mumkin.

Fermer xo`jaligining asosiy vazifasi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog`liqligi tufayli qishloq xo`jaligiga taalluqli ishlab chiqarish fondlari asosiy o`rinni egallaydi. Uning tarkibiga imoratlar, inshootlar, o`tkazuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, uskuna (pribor)lar, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko`p yillik daraxtlar, ishlab chiqarish va xo`jalik inventarlari, shuningdek, yer unumdorligini tubdan yaxshilash (yerlarni quritish, sug`orish tizimlarini yaratish, sho`rini yuvish va boshqa meliorativ tadbirlar)ga yo`naltirilgan kapital quyilmalar kiradi.

**Imoratlar** o'simlikchilik tarmog`ida g`alla, sabzovot, poliz, meva va boshqa mahsulotlarni saqlash uchun omborxonalardan, texnika va mashinalarni saqlash uchun garajlardan iborat bo`ladi. Chorvachilikda unga molxonalar, zootexnik va veterinariya laboratoriyalari, em-xashakni saqlash omborlari va boshqalar kiradi.

**Inshooatlar** texnikaviy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. O'simlikchilikda unga suv minorasi, silos va senaj saqlash inshootlari, issiqxonalar, mahsulotlarni qisqa muddatda saqlash va tozalash maydonlari, sug`orish va quritish tarmoqlari kiradi. Chorvachilikda go`ng saqlash qurilmalari, suv chiqarish minorasi va qudug`li inshooatlar turkumiga kiradi. Bulardan tashqari unga ichki xo`jalik foydalanishida bo`lgan yo`l va ko`priklar ham kiradi.

**O'tkazuvchi moslamalar** fermer xo`jaligining gaz o'tkazish quvurlari, elektr va telefon tarmoqlarini o`z ichiga oladi.

**Mashina va asbob-uskunalariga** traktorlar, o`rim-yig`im kombaynlari, kuchlantirish mashinalari, turli dvigatellar va transformatorlar, generatorlar, ish mashinalari va asbob-uskunalar, shu jumladan ekish agregatlari, hosilni tozalash va quritish mashinalari, ekinlarga o`g`it solish, qishloq xo`jaligi ekinlarining kasalligi va turli zararkunandalariga qarshi kurashish uskunalar, traktor va mashinalarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko`rsatish bo`yicha garaj asbob-uskunalar, o`lchov va tartibga soluvchi uskunalar, moslamalar, hisoblash texnikasi hamda boshqa xil mashina va asbob-uskunalar kiradi. Chorvachilikda bu turkumga sut sog`ish uskunalar, muzlatgichlar, inkubatorlar, qo`ylarning junini qirqish agregatlari, ozuqa tayyorlash va tarqatish mashinalari ham kiradi.

**Transport vositalari** odamlar va yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirishga xizmat qiluvchi avtomashinalar, ot-aravalar, traktor pritseplari va boshqa vositalardan iborat bo`ladi.

**Mahsuldor va ishchi hayvonlar** voyaga yetgan barcha turdagি mahsuldor chorva mollari va qishloq xo`jaligi ishlariga jalb etiladigan ish hayvonlarini o`z ichiga oladi.

**Ko`p yillik daraxtlar** ishlab chiqarishga taalluqli mevali, dekorativ va ihota daraxtlaridan tashkil topadi.

**Ishlab chiqarish va xo`jalik inventarlari** ishlab chiqarish jarayonlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladigan xo`jalik va idora inventarlari, jihozlari, yozuv mashinalari, telefon apparatlari, dastgohlar, suyuq va sochiladigan qiymatliklarni saqlashga mo`ljallangan idish (bak, sandiq, quti)lar va boshqa buyumlardan iborat.

**Yerlarni yaxshilashga qaratilgan kapital sarflar** (inshootlardan tashqari) yerlarning sho`rini yuvish, quritish, shudgorga tayyorlash, suv havzalarini tozalash va boshqa meliorativ tadbirlarni o`z ichiga oladi.

Asosiy fondlar **natural va qiymat** ko`rsatkichlarda hisobga olinadi. Natural ko`rsatkichlar asosiy fondlarning miqdoriy va sifat tarkibi, ishlab chiqarish imkoniyatlari xizmat muddatlari to`g`risida ma'lumot beradi. Qiymat ko`rsatkichlari buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va umumtarmoq statistik ko`rsatkichlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Asosiy vosita (fond) larni baholashning quyidagi shakllari mavjud:

- *boshlang`ich qiymati* (*yoki to`liq qiymati*) *bo`yicha* – asosiy fondlarni sotib olish yoki qurish, hamda ularni olib kelish va o`rnatishga ketgan barcha xarajatlarni o`z ichiga oladi;

- *qayta tiklash qiymati bo`yicha* – bir xil vazifani bajaruvchi, lekin turli xil yillarda ishga tushirilgan asosiy fondlarni joriy yil baholarida aynan shu fondlarni takror ishlab chiqarish qiymati bo`yicha qayta baholash va taqqoslama ko`rinishga keltirish (hukumat qarorlariga asosan vaqtı-vaqtı bilan o`tkazib turiladi). Qayta tiklash qiymati asosiy fondlarning bozor qiymatiga ham mos keladi va tekinga olingan (sovg`a yoki boshqa tarzda) asosiy fondlarni hisobga olishda ham foydalanishi mumkin;

- *qoldiq qiymati bo`yicha* – asosiy fondlarning boshlang`ich yoki qayta tiklash qiymatidan hisoblangan eskirish summasi (amortizatsiya ajratmalarini ayirib tashlash orqali baholanishi;

- *balans qiymati bo`yicha* – asosiy fondlarning buxgalteriya balansida aks etadigan qiymati. Asosiy fondlar buxgalteriya balansida boshlang`ich qiymati bo`yicha, shuningdek, agar qayta baholash o`tkazilgan bo`lsa, qayta tiklash qiymati bo`yicha hisobga olinadi;

- *tugatish (likvidatsiya) qiymati bo`yicha* – tugatilayotgan (moddiy yoki ma`naviy eskirish va boshqa sabablarga ko`ra) asosiy fondlarning tugatish qiymatini baholashda ishlatiladi. Unga asosiy fondning tugatilayotgan davrdagi qoldiq qiymatiga tugatish bilan bog`liq xarajatlar (tugatishda ishtirok etgan ishchilarining ish haqi va unga hisoblangan ajratmalar, ketgan materiallar, transport xarajatlari va b.) qo`shilib, obyektni tugatishdan olingan materiallar (ehtiyyot qismlar, metallom, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va b.) qiymati chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalarni boshlang`ich balans qiymati bo`yicha hisobga olishda ularni qanday yo`1 bilan tasarrufga olinganligi ahamiyatga egadir. Xususan, ularni:

- o`z mablag`lari evaziga xarid qilish yoki qurish;
- kredit evaziga xarid qilish;
- boshqa mol-mulkka almashish orqali olish;
- boshqa subyektlardan hadya sifatida olish;
- shirkat a`zolididan chiqib fermer xo`jaligi tuzayotganda shirkatdagи pay ulushidan asosiy vositani hissa sifatida olib chiqish;
- tugatilayotgan shirkat xo`jaliklari bazasida tuzilayotgan fermer xo`jaligi shirkat mulkidan tegishli ulushini asosiy vosita sifatida olish.

Fermer xo`jaligi o`z mablag`i hisobiga asosiy vosita sotib olganda, uning balans qiymatiga asosiy vositani sotib olish, tashib keltirish, nosoz holda bo`lsa ta`mirlash, o`rnatish va ishga tushirish bilan bog`liq barcha xarajatlar kiritiladi. Shuningdek, uning qiymatiga asosiy vositani izlab topish va xarid qilish bo`yicha boshqa subyektlar tomonidan ko`rsatilgan axborot-maslahat xizmatlari uchun to`lovlari, uni ro`yxatga olish bilan bog`liq yig`imlar, davlat va bojxona to`lovlari hamda boshqa shu bilan bog`liq xarajatlar kiritiladi. Agar fermer xo`jaligining o`zi bino va inshootlarni qursa, yoki pudrat usulida qudirsa, uning qiymatiga zarur bo`lgan barcha xarajatlar - materiallar, mehnat haqi, ustama xarajatlarning bir qismi, qurilish arxitektorlariga mukofotlar, qurilish davridagi sug`urta xarajatlari, obyektni

qurish uchun olingan kreditning foiz to`lovlari, qurilish uchun ruxsat olish va uni foydalanishga topshirish bilan bog`liq barcha xarajatlar kiritiladi.

Kredit evaziga sotib olingan asosiy vositaning balans qiymatiga vositaning xarid bahosi, uni tashib keltirish, o`rnatish va ishga tushirish bilan bog`liq yuqorida keltirib o`tilgan barcha xarajatlardan tashqari kreditdan foydalanganlik uchun foiz to`lovlari ham kiritiladi.

Asosiy vositani fermer xo`jaligi o`zining boshqa bir mol-mulkiga (pul mablag`laridan tashqari) almashtirib olayotgan bo`lsa, balansga olinayotgan asosiy vosita almashtirilayotgan mol-mulkning buxgalteriya balansida aks etgan qiymati bo`yicha hisobga olinadi.

Davlat yoki boshqa subyektlardan tekinga olinayotgan asosiy vositalar uning kirim qilinayotgan sanadagi bozor narxi darajasida balansga olinadi.

Mustaqil fermer xo`jaligini yuritish uchun shirkatdan chiqayotgan a`zolar tegishli asosiy vositani paydagi ulushi sifatida olib chiqayotganda yoki tugatilayotgan shirkat xo`jaliklari mulkidan tegishli ulushini asosiy vosita sifatida olib chiqayotgan fermer xo`jaliklari asosiy vositalarni shirkat balansidan qoldiq qiymati bo`yicha qabul qiladilar.

Buxgalteriya balansida asosiy vositalarga tegishli uchta ko`rsatkich aks ettiriladi:

- asosiy vositalarning boshlang`ich balans qiymati;
- ularning shu sanaga bo`lgan eskirish summasi;
- qoldiq qiymati.

Bunda balansning yakuniy summasiga asosiy vositaning qoldiq qiymati qo`shiladi, dastlabki qiymati va eskirish summasi ma'lumot uchun ko`rsatib boriladi. Asosiy vositaning qoldiq qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$AV_{kk} = AV_{bk} - A.$$

Bu yerda:  $AV_{kk}$  – asosiy vositaning qoldiq qiymati;

$AV_{bk}$  – asosiy vositaning boshlang`ich balans qiymati;

$A$  – asosiy vositalarning shu oraliqdagi eskirish summasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoning tez o`zgarib turishi tufayli asosiy fondlarning qiymatini qisqaroq muddatlarda *qayta baholab* turishga to`g`ri keladi.

Asosiy vositalarni *qayta baholash* ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

- *indeks usuli* – bunda asosiy vositaning boshlang`ich balans qiymati statistika organi tomonidan o`rnataladigan koeffitsentga ko`paytiriladi:

$$AV_{kt} = AB_{bk} \times K.$$

Bu yerda:  $AV_{kt}$  – asosiy vositaning *qayta tiklash* qiymati;

$AV_{bk}$  – asosiy vositaning boshlang`ich balans qiymati;

$K$  – asosiy vositalarni *qayta baholash* koeffitsenti.

- *bevosita qayta baholash usuli* – bunda asosiy vositaning yangi qiymati shu turdag'i asosiy vositalarning qayta baholash sanasidagi bozor bahosi to`g`risidagi axborotlardan foydalanib o`rnataladi.

Ishlab chiqarish jarayonida barcha turdag'i asosiy vositalar eskirib, asta-sekin o`zining dastlabki tabiiy xususiyatlari va qiymatini yo`qotib boradi. *Eskirish*

jarayonida asosiy vositalarning iste'mol qiymati yangitdan yaratilayotgan mahsulot qiymatiga eskirish summasiga mutanosib ravishda ko`chirib boriladi.

Asosiy vositalarning eskirishi ikki xilda – *moddiy va ma'naviy* ko`rinishda bo`ladi. Moddiy eskirish asosiy vositadan foydalanish jarayonida texnik-texnologik va tabiiy omillar ta'sirida uning tarkibiy qismlari eskirib, ishdan chiqib borishini anglatadi. Asosiy vositalar foydalanilmay turganda ham tabiiy-iqlimiylar sharoitlar ta'sirida (metallarning zanglashi, yog`ochdan yasalgan asbob-uskuna, inshootlarning chirishi va b.) eskirib boradi.

Ma'naviy eskirish hali tabiiy jihatdan foydalanishga yaroqli bo`lgan asosiy vositalarni ishlatish iqtisodiy jihatdan o`zini oqlamay qolishi bilan bog`liq. Ma'naviy eskirish ikki xil yo`l bilan vujudga keladi:

- shu kabi asosiy vositalarni ishlab chiqarish xarajatlarining arzonlashuvi;
- shu turdag'i yangi va yuqori unumli vositalarning yaratilishi.

Asosiy vositalarning eskirib, asta-sekin ishdan chiqib borishi ularni qayta tiklab va yangilab borishni taqozo qiladi. Buning uchun ularning har oyda eskirish summasi yaratilgan mahsulot, ko`rsatilgan ish va xizmatlar tannarxiga o`tkazib boriladi va sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlardan kelib tushgan pul tushumi hisobidan qoplanib, bankdagi hisob raqamida to`planib boradi. Asosiy vositalarni qayta tiklash va yangilab borishga sarflanadigan bu ajratmalar xo`jalikning *amortizatsiya fondini* tashkil qiladi.

**Amortizatsiya ajratmalari** asosiy vositalarning balans qiymati va foydali xizmat muddatini hisobga olgan holda belgilanadigan yillik amortizatsiya me'yoriga nisbatan hisoblanadi. Amortizatsiya miqdorini hisoblashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- asosiy vositaning boshlang`ich balans qiymati;
- asosiy vositaning qoldiq qiymati;
- asosiy vositaning xizmat muddati;
- o`rnatilgan amortizatsiya me'yori.

Asosiy vositalarning **yillik amortizatsiya me'yorini** ( $A_m$ ) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$A_m = \frac{((AV_{bk} + T_x) - (M_k + AV_{kk})) \cdot 100}{AV_{bk} \cdot F_m}.$$

Bu yerda:  $AV_{bk}$  – asosiy vositaning boshlang`ich balans qiymati;

$AV_{kk}$  – asosiy vositaning qoldiq qiymati;

$T_x$  – asosiy vositalarni taxminiy tugatish xarajatlari;

$M_k$  – asosiy vositalarni tugatilishidan olinadigan materiallarning taxminiy qiymati;

$F_m$  – asosiy vositalardan foydalanish muddati.

Masalan, imoratning balans qiymati ( $AV_{bk}$ ) 25000000 so`m, taxminiy tugatish xarajatlari ( $T_x$ ) 1500000 so`m, asosiy vositalarni tugatilishidan olinadigan materiallarning taxminiy qiymati ( $M_k$ ) 500000 so`m, asosiy vositaning qoldiq qiymati ( $AV_{kk}$ ) 1000000 so`m va undan foydalanish muddati ( $F_m$ ) 20 yil deb faraz qilsak, yillik amortizatsiya me'yori ( $A_m$ ) 5 % ga teng bo`ladi.

$$A_m = \frac{((25000000 + 1500000) - (500000 + 1000000)) \times 100}{25000000 \times 20} = 5 \%$$

Asosiy vositaning **yillik amortizatsiya summasi** ( $A_s$ ):

$$A_s = \frac{AV_{bk} \times A_m}{100}$$

yoki  $A_s = \frac{((AV_{bk} + T_x) - (M_k + AV_{kk}))}{\Phi_m}$  formularidan foydalaniladi.

Ushbu formuladan foydalanib imoratning yillik amortizatsiya summasini ( $A_s$ ) topamiz.

$$A_s = \frac{25000000 \times 5}{100} = 1250000 \text{ so`m}$$

$$\text{yoki } A_s = \frac{((25000000 + 1500000) - (500000 + 1000000))}{20} = 1250000 \text{ so`m.}$$

Asosiy vositalar amortizatsiya summasini hisoblashning qiymatni bir tekisda (to`g`ri chiziqli) hisobdan chiqarish, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash, tezlashtirilgan (sonlar yig`indisi-kumulyativ va qoldiqni kamaytirish) usullari mavjud bo`lib, talaba ularni moliyaviy hisob kursining asosiy vositalarni hisobga olish qismida<sup>1</sup> bat afsil o`rganishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq, asosiy vositalar amortizatsiyasining yillik me`yorlari quyidagicha belgilangan (8-chizma).

Xo`jalik yurituvchi subyektlarga tasdiqlangan amortizatsiya me`yorlarini kerak bo`lganda kamaytirish yoki tezlashtirilgan (me`yorga nisbatan 2 barobardan yuqori bo`limgan) usulda hisoblashga ruxsat beriladi.

Yangi tartibga muvofiq qishloq xo`jaligining quyidagi asosiy vositalariga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- mahsuldor hayvonlar, qo`tos va xo`kizlar;
- hukumat qarori bilan konservatsiyaga o`tkazilgan asosiy vositalar;
- to`la amortizatsiya qilingan asosiy vositalar.

---

<sup>1</sup> Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. –T., Moliya, 2002, 97-178-b.

## Asosiy vositalar amortizatsiyasining yillik me'yorlari

Nº	Asosiy vositalar guruhi	Yillik amortizatsiya me'yori
1.	Imoratlar, inshootlar va qurilishlar	5 %
2.	Yengil avtomobillar, maxsus uskuna va jihozlar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarları	20 %
3.	Yuk avtomashinalari, maxsus avtomashinalar, qishloq xo`jaligi mashina va asbob-uskunalar, idora mebellari	15 %
4.	Elektr dvigatellar va dizel generatorlari, elektr o`tkazgich, gaz quvurlari va aloqa qurilmalari	8 %
5.	Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiyalanadigan asosiy vositalar	10 %

Fermer xo`jaligining asosiy fondlaridan foydalanish ko`rsatkichlarini shartli ravishda ikkiga bo`lish mumkin:

- asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik ko`rsatkichlari;
- asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlari.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik ko`rsatkichlariga *fond bilan ta'minlanganlik* va *fond bilan qurollanganlik* ko`rsatkichlarini keltirish mumkin.

**Fond bilan ta'minlanganlik** ( $F_t$ ) asosiy vositalar o`rtacha yillik qiymatining ( $AF_{yk}$ ) qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar maydoni ( $EM_{ya}$ ) yoki ekin maydoni ( $EM$ ) birligiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$F_m = \frac{AF_{yk}}{EM_{ya}} \text{ yoki } F_m = \frac{AF_{yk}}{EM}$$

**Fond bilan qurollanganlik** ( $F_k$ ) asosiy vositalar o`rtacha yillik qiymatining ( $AF_{yk}$ ) xo`jalik ishlab chiqarishida band bo`lgan o`rtacha yillik ishchilar soniga ( $IS$ ) nisbati bilan aniqlanadi.

$$F_k = \frac{AF_{yk}}{IS}$$

Fond bilan ta'minlanish va fond bilan qurollanish ko`rsatkichlari yirik qishloq xo`jaligi korxonalariga nisbatan ancha kichik hajmda bo`lgan respublikamiz fermer xo`jaliklari uchun boshqacharoq ahamiyatga ega. Yirik hajmli (o`rtacha 1500 – 2000 hektar va undan yuqori) qishloq xo`jaligi korxonalari ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan barcha asosiy vositalar bilan ta'minlangan bo`lishga intiladi va shundan kelib chiqib fond bilan ta'minlanish darajasi yuqori bo`lishidan manfaatdor bo`ladi.

Kichik hajmli fermer xo`jaliklari ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlarini bajarishga imkon beruvchi turli xil asosiy vositalarni sotib olish va saqlash iqtisodiy jihatdan manfaatli emas. Chunki, qishloq xo`jaligi mavsumiy

xarakterga egaligidan ko`pchilik mashina-uskunalar qisqa muddatda ishlatilib, ko`pincha bekor turib qoladi. Bu esa ularni saqlash bilan bog`liq unumsiz xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, hozirgi kunda bir qator texnologik jarayonlarni MTPlar, boshqa texnik xizmat ko`rsatuvchi korxonalar hamda fermerlar kooperativ (uyushma)lari bajarib berishi mumkin. Shu sabablarga ko`ra fermer xo`jaligi ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan hamda saqlanishi iqtisodiy jihatdan samarali bo`lgan asosiy fondlarnigina o`z tasarrufiga olishga intiladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini *fond qaytimi* va *fond sig`imi* ko`rsatkichlari orqali ifodalash mumkin.

**Fond qaytimi** (*FK*) fermer xo`jaligida etishtirilgan qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti qiymatini ( $YAM_k$ ) asosiy vositalarning o`rtacha yillik qiymatiga ( $AF_{yk}$ ) nisbati bilan aniqlanadi.

$$FK = \frac{YAM_k}{AF_{yk}}$$

Fond qaytimi qiymat ko`rinishida bir birlik asosiy fondlar hisobiga qancha yalpi mahsulot etishtirilganini anglatadi. Fond qaytimiga teskari bo`lgan **fond sig`imi** (*FS*) ko`rsatkichi ham mavjud bo`lib, asosiy vositalar o`rtacha yillik qiymatining ( $AF_{yk}$ ) etishtirilgan qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti qiymatiga ( $YAM_k$ ) nisbati bilan aniqlanadi.

$$FS = \frac{AF_{yk}}{YAM}$$

Ishlab chiqarish fondlarining (asosiy va aylanma fondlarning) iqtisodiy samaradorligi **rentabellik**, yoki **foyda me'yori** ko`rsatkichi orqali ifodalananadi. **Foyda me'yori** (*FM*) mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning (*YAF*) asosiy ( $AF_{yk}$ ) va aylanma fondlar ( $OF_{yk}$ ) o`rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi va foizda ifodalananadi.

$$FM = \frac{YAF}{AF_{yk} + OF_{yk}} \cdot 100$$

Foyda me'yorini asosiy faoliyatdan olingan foydaga (*AFF*) nisbatan ham hisoblash mumkin. Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda tarkibida moliyaviy faoliyat bo`yicha ko`rilgan foyda yoki zararlar ham hisobga olinishi tufayli ishlab chiqarishda band bo`lgan asosiy va aylanma fondlar samaradorligini aniqlashga imkon bermaydi.

### 5.3. Fermer xo`jaligining aylanma fondlari, ularning tarkibi va foydalanish ko`rsatkichlari

Fermer xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda asosiy fondlar bilan birgalikda aylanma fondlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan mehnat buyumlari va moddiy qiymatliklardan tashkil topadi. Ularning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida to`liq iste'mol qilinib, o`zining buyumlashgan ko`rinishini o`zgartiradi va qiymatini yangitdan yaratilayotgan

mahsulotga ko`chiradi. Masalan, yerga solingan urug`lik tabiiy, biologik va tuproq omillari ta`sirida o`simlik ko`rinishiga, mineral o`g`itlar esa o`simliklarni o`sishiga sharoit yaratuvchi oziqlantirish elementlariga aylanadi.

**Aylanma fondlar** o`ziga xos bo`lgan bir qator ijobjiy xususiyatlarga ega:

a) operatsion faoliyatning tovar va pul oqimlarini tartibga solish jarayonida ularni tezlik bilan bir shakldan ikkinchi shaklga aylanishtirish imkoniyati mavjud;

b) tovar va moliyaviy bozorlar konyunkturasidagi o`zgarishlarga tezda moslasha olishi natijasida ular korxonaning operatsion faoliyatini osonlik bilan o`zgartirish va yangilashga imkon yaratadi;

v) ularning yuqori likvidlikka egaligi – zarur bo`lganda korxonaning qisqa muddatli majburiyatlar bo`yicha to`lovlarni amalga oshirish uchun pul mablag`lariga aylantirish tezligi yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Aylanma fondlarga xos salbiy xususiyatlar quyidagilar bilan xarakterlanadi:

a) aylanma fondlarning pul mablag`lari va debtorlik qarzlari ko`rinishida bo`lgan qismlari inflyatsiya ta`sirida tezda o`zining qiymatini yo`qotish xususiyatiga ega;

b) vaqtinchalik bo`sh turgan aylanma fondlar foydani shakllantirish jarayonida ishtiroy etmaydi (qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalarga qo`yilishi mumkin bo`lgan pul mablag`laridan tashqari), ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar esa ularni saqlash bilan bog`liq qo`shimcha operatsion xarajatlarni amalga oshirishni talab etadi;


v) tovar-moddiy qiymatliklar zaxiralari tabiiy kamayish natijasida yo`qotishlarga olib keladi;

g) debtorlik qarzlari ko`rinishidagi aylanma fondlarning bir qismi tijorat sheriklarining sofdil emasligi oqibatida undirilmay qolib ketishi ham mumkin.

Aylanma fondlar ishlab chiqarish zaxiralaridagi, ishlab chiqarishdagi va muomala fondlarini o`z ichiga oladi (9-chizma).

**Ishlab chiqarish zaxiraları** — mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko`rsatishda ishlatiladigan xomashyo va materiallar, yonilg`i, ehtiyyot qismlari, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, em-xashak va ozuqa, o`g`itlar va o`simliklarni himoyalashning kimyoviy vositalari, qurilish materiallari, idish va idishbop materiallar, inventar va xo`jalik jihozlari, parvarish qilinayotgan va bo`rdoqiga boqiladigan hayvonlar, materiallarni tayyorlash va xarid qilish bo`yicha xarajatlari, materiallar qiymatidagi tafovutlarni o`z ichiga oladigan ishlab chiqarish zaxiralaridan iborat.

**Tugallanmagan ishlab chiqarish** — ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o`tib tayyor mahsulotga aylanmagan yarim tayyor mahsulotlar, texnik nazoratdan o`tmagan yoki buyurtmachi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlardan tashkil topadi. Masalan, joriy hisobot yilida kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlarni (kuzgi bug`doy dalalarini haydash, urug` sepish, o`g`itlash, yaxob suvi berish), chorvachilikda kelgusi yilga o`tadigan o`suvdagi va boquvdagi chorva mollariga, tuxumlarni inkubatsiyasiga va boshqa sarflar, yordamchi ishlab chiqarish sohalarida mahsulotlarni qayta ishslash uchun sarflanadigan xomashyo va materiallar, hozircha ishlab chiqarish jarayonida bo`lgan, ammo kelgusida mahsulot yetishtirish jarayoniga jalb etiladigan aylanma vositalarni o`z ichiga oladi.



9-chizma. Fermer xo`jaligining aylanma fondlari tarkibi

Muomala fondlariga sotishga tayyor mahsulotlar, xaridorlar bilan hisobblashishdagi pul mablag`lari, bankdagi hisob raqamida va kassada mavjud pul mablag`lari, debitorlik qarzları kiradi.

**Tayyor mahsulotlar** — ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o`tgan, davlat standarti yoki texnik talabga javob beradigan, texnik nazorat bo`limi tomonidan qabul qilingan, boshlang`ich hujjat bilan rasmiylashtirilgan va omborga topshirilgan mahsulotlarga aytildi.

**Debitorlik qarzları** bo`yicha muddati 12 oygacha yoki bir operatsion siklgacha korxonaga qarzdor bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslar, xaridor va buyurtmachilarning qarzları, alohida bo`linmalar qarzları, sho`ba va tobe xo`jalik jamiyatları qarzları, xodimlarga berilgan bo`naklar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo`naklar, budgetga soliqlar va yig`imlar bo`yicha bo`nak to`lovlari, davlat maqsadli jamg`armalariga va sug`urta bo`yicha bo`nak to`lovlari, ustav sarmoyasiga badallar bo`yicha ta`sischilarning qarzları, boshqa operatsiyalar

bo`yicha xodimlar qarzlari hamda boshqa debitor qarzlari summalarini aks ettirilishi kerak.

**Pul mablag`lari** — kassadagi naqd pul mablag`lari qoldig`i, hisob-kitob raqamidagi, valyuta hisob raqamidagi pul mablag`lari va boshqa pul mablag`lari (bankdagi maxsus hisob raqamlar, pul ekvivalentlari, yo`ldagi (o`tkaziladigan) pul mablag`lari) summalaridir.

**Qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalar** — ma`lum bir muddatgacha (bir yildan oshmaydigan muddatga) saqlash uchun sotib olingan, erkin muomalada bo`ladigan va muddati tugagach daromad ko`rish maqsadida yana qaytadan pul mablag`lariga aylantiriladigan qimmatli qog`ozlarga qilingan moliyaviy qo`yilmalardir. Qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini yoki korxonalar tomonidan chiqarilgan foizli obligatsiyalarini xarid qilish bunga misol bo`ladi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida aylanma fondlardan foydalanish o`ziga xos xususiyatlarga ega. Qishloq xo`jalingining mavsumiy xarakterga egaligi yilning turli davrlarida aylanma fondlarning ishlab chiqarishda notejis taqsimlanishiga olib keladi. Masalan, qish oylarida ko`p miqdordagi urug`lik va yem-xashak zaxiralari saqlansa, yoz oylarida neft mahsulotlari va ehtiyyot qismlarga talab ortadi. Shuningdek, yerlarni haydash, ekishga tayyorlash, ekinlar ekish, ularga ishlov berish va hosilni yig`ish davrlarida aylanma fondlarga bo`lgan talab keskin ortadi. Boshqa paytlarda ularga bo`lgan talab kamayadi.

Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish davrining uzunligi aylanma fondlar aylanish davrining davomiyligiga ham ta`sir o`tkazadi. Xususan, o`simlikchilikda mahsulot ishlab chiqarish davri ekinlarning vegetatsion davri oxiriga, chorvachilikda esa mahsuldor chorva mollarining voyaga yetish davriga (2 yildan kam bo`lmagan) to`g`ri keladi. Shuningdek, ishlab chiqarishga jalb etiladigan ayrim aylanma fondlar (urug`lik, yem-xashak, organik o`g`itlar, o`suvdagagi yosh chorva mollari va b.) bevosita xo`jalikning o`zida yetishtirilishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda, aylanma fondlarni ishlab chiqarishga jalb etish va ularning me'yoriy zaxiralarini optimallashtirish o`ziga xos yondoshuvlarni talab etadi.

Aylanma fondlar tarkibiga fermer xo`jalingining ixtisoslashuvi o`z ta`sirini o`tkazadi. O`simlikchilikka ixtisoslashgan xo`jaliklarda urug`lik, yonilg`i-moylash materiallari, mineral va organik o`g`itlar, ehtiyyot qismlari hissasi ko`p bo`lsa, chorvachilikka ixtisoslashgan xo`jaliklarda yem-xashak va ozuqa, o`stiruvdagagi yosh va boquvdagi chorva mollari asosiy o`rinni egallaydi.

Aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida uzlusiz harakatda bo`lib, ma`lum bir vaqt oralig`ida doiraviy aylanish hosil qiladi va bunda to`rt bosqichni bosib o`tadi (10-chizma).


Birinchi bosqichda pul mablag`lari (qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalar shaklidagi pul ekvivalentlarini ham qo`shib) ishlab chiqarish maqsadlari uchun tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kiruvchi aylanma vositalar (xomashyo va materiallar) xarid etishga sarflanadi.

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish jarayonidan iborat bo`lib, bu bosqichda xomashyo va materiallar ishlov berilishi natijasida tayyor mahsulotlar zaxirasiga aylantiriladi.

Uchinchi bosqichda tayyor mahsulot iste'molchilar va xaridorlarga sotilib, toki to'lov vaqtি kelguncha debtorlik qarzlari sifatida e'tirof etiladi.

To`rtinchi bosqichda undirilgan debtorlik qarzlari yana qaytadan pul mablag`lariga aylantiriladi. Pul mablag`larining ehtiyojdan ortiq bir qismi zarurat tug'ilgunga qadar qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar (qimmatli qog`ozlar) ko`rinishida saqlab turilishi mumkin.

Shakllanish manbalariga ko`ra ular xususiy aylanma fondlari va qarzga jalb etilgan aylanma fondlarga bo`linadi. Xo`jalikning xususiy aylanma fondlari mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish hamda boshqa turdagи faoliyat natijasida kelib tushgan pul tushumlaridan shakllanadi. Shuningdek, xo`jalikda yetishtirilgan o`simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining sotilmasdan, ishlab chiqarishda iste'mol qilingan aylanma fondlarning o`rnini qoplashga qoldiriladigan qismi ham xususiy aylanma fondlariga kiradi.



10-chizma. Aylanma fondlarning ishlab chiqarish ma muomala jarayonida doiraviy aylanishi

Xususiy aylanma fondlari ularning shu xo`jalikda ishlab chiqarish tannarxida baholanadi.

Qarzga jalgan etilgan yoki sotib olingen aylanma fondlar ularni sotib olish bahosi va iste'mol joyigacha tashib keltirish xarajatlari bilan baholanadi. Fermer xo`jaligi aylanma fondlarni shakllantirishga o`z mablag`laridan tashqari bank kreditlari, davlat tomonidan beriladigan imtiyozli kredit va boshqa mablag`lardan foydalanishi mumkin.

Aylanma fonlardan foydalanishda ularni sarflash me'yorlarini to`g`ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tegishli vazirliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishtirokida moddiy aylanma fondlarni ishlatish me'yorlari ishlab chiqiladi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qishloq xo`jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Bozor islohotlari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 1996-yilda «Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishga talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar me'yorlari» ishlab chiqilgan va unda bir qator moddiy aylanma fondlarni sarflash me'yorlari keltirilgan. Odatda bunday me'yorlar tavsiya xarakteriga ega bo`ladi va fermer xo`jaligi o`zining ishlab chiqarish xususiyailaridan kelib chiqib unga o`zgartirishlar kiritishi mumkin.

Aylanma fondlar aylanish davrinining qisqarishi mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Bu davr qanchalik qisqa bo`lsa, shunchalik sarflar kamayadi va yil davomida ko`proq mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo`ladi.

#### **5.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish**

Kuchli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklarining samaradorligini oshirishda asosiy va aylanma fondlardan foydalanish yo`nalishlarini takomillashtirish muhim rol o`ynaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o`zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli asarida fermer xo`jaliklarida asosiy va aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligiga alohida e'tibor bilan qarab: “Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo`lgan fermer xo`jaliklari o`zini zarur texnika, aylanma mablag` bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo`lish, eng asosiysi, o`z xarajatlarini qoplash va foyda ko`rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o`zi ko`rsatmoqda”<sup>1</sup>, - deb ta'kidlab o`tganlar.

Shundan kelib chiqib, inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” Davlat dasturida qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash,

---

Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009, 21-b.

ularga turli imtiyozlar berish, fermerlar manfaatini ishonchli himoya qilish masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan:

- fermer xo`jaliklarini investitsiyalar jalg etish, mahsulotlarni qayta ishlash va zamonaviy minitexnologiyalar olib kirish va yangi ish o'rnlari barpo etish sohalarida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish;
- qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini zarur texnikalar bilan ta'minlash;
- zotdor qoramollarni chetdan olib kirish evaziga zotli chorva mollari yaratish ishlarini kuchaytirish;
- ozuqa ekinlari maydonini kengaytirish orqali chorvachilikning ozuqa bazasini kengaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlarni respublikamiz qishloq xo`jaligida bartaraf etish uchun fermer xo`jaliklarining asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoq lozim bo`ladi. Xususan, ular quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- asosiy va aylanma fondlar tarkibini mukammallashtirish, ular bilan ta'minlanishning optimal nisbatlarini belgilash;
- asosiy fondlarni asrash va ularga texnik xizmat ko`rsatish sharoitlarini yaxshilash;
- ishlab chiqarishga arzon, ishonchli va ish unumi yuqori bo`lgan intensiv texnikalarni joriy etish;
- mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko`tarish;
- resurslarni tejovchi va chiqitsiz texnologiyalardan keng foydalanish;
- qishloq xo`jaligi ekinlarini yetishtirish va hosilni o`rib-yig`ib olish hamda chorva mollarini parvarishlash bo`yicha ilg`or texnologiyalarni joriy etish;
- eng yaxshi ekin navlari va chorva mollari zotlaridan foydalanish;
- mahsulotning material sig`imi va tannarxini kamaytirish;
- mahsulotlar, aylanma fondlar nobudgarchiligi va yo`qotishlarga yo`l qo`ymaslik, tejamkorlik va ehtiyyotkorlikka o`rganish;
- aylanma fondlarni me`yorlashtirishni takomillashtirish;
- aylanma fondlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash;
- aylanma fondlarning aylanish davrini qisqartirish va boshqalar.

Asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning tannarxini pasaytirishga, ishlab chiqarish rentabelligini ko`tarish va oxir-oqibat xo`jalikning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda **ishlab chiqarish vositalarining** mavjud bo`lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish vositalari **mehnat vositalari** va **mehnat buyumlaridan** tashkil topadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish xususiyatlariga ko`ra mehnat vositalari **asosiy fondlar**, mehnat buyumlari esa **aylanma fondlar** deb yuritiladi. Asosiy va aylanma fondlarning yig`indisi xo`jalikning **ishlab chiqarish fondlarini** tashkil etadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni muomala sohasida yakunlanishi sababli ishlab chiqarishning asosiy va aylanma fonlaridan tashqari ***muomala fondlari*** ham mavjud bo`ladi. Asosiy fondlar xo`jalikning **asosiy vositalarini**, aylanma va muomala fondlari esa **aylanma vositalarini** tashkil etadi

Fermer xo`jaligi faoliyatida ishlab chiqarish fondlari muhim rol o`ynaydi. Uning tarkibiga imoratlar, inshootlar, o`tkazuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, uskuna (pribor)lar, mahsuldar va ishchi hayvonlar, ko`p yillik daraxtlar, ishlab chiqarish va xo`jalik inventarlari, shuningdek, yer unumdarligini tubdan yaxshilashga (yerlarni quritish, sug`orish tizimlarini yaratish, sho`rini yuvish va boshqa meliorativ tadbirlarga) yo`naltirilgan kapital qo`yilmalar kiradi.

Aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan mehnat buyumlari va moddiy qiymatliklardan tashkil topadi. Ularning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida to`liq iste`mol qilinib, o`zining buyumlashgan ko`rinishini o`zgartiradi va qiymatini yangitdan yaratilayotgan mahsulotga ko`chiradi.

Asosiy va aylanma vositalar fermer xo`jalogining ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda muhim omillardan hisoblanadi. Asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning tannarxini pasaytirishga, ishlab chiqarish rentabelligini ko`tarish va oxir-oqibat xo`jalikning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer xo`jalogining asosiy va aylanma fondlari nimalardan iborat?
2. Fermer xo`jalogining asosiy fondlari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Asosiy fondlarni baholashning qanday shakllari mavjud?
4. Amortizatsiya ajratmalari deganda nimani tushunasiz va u qanday hisoblanadi?
5. Fermer xo`jalogining aylanma fondlari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Aylanma fondlarning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Aylanma fondlarning doiraviy aylanishi nechta bosqichdan iborat va u o`z ichiga nimalarni oladi?
8. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari qanday aniqlanadi?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo`nalishlari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagи «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. //Xalq so`zi, 2004-yil 15-oktabr.
2. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. -T.: O`zbekiston, 2002.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009.

4. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N., O'zbekistonda fermer xo'jaligini yuritish asoslari. -T.: "Voris-nashriyot", 2007.
5. Olimjonov O. va boshq. Fermer faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. -T., 2005.
6. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.

## **VI bob. FERMER XO`JALIKLARINI MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI BILAN TA'MINLASH**

### **6.1. Fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash tizimining xususiyatlari**

Moddiy-texnika resurslari takror ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha mehnat predmeti va mehnat vositalari yig`indisidan iborat. Qishloq xo`jaligining moddiy-texnika resurslari tarkibiga xomashyo, yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlari, urug`lik va ko`chat, mineral va organik o`g`itlar, yem-xashak va yosh chorva mollari, texnika vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida moddiy-texnika vositalaridan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari mavjud:

- qishloq xo`jaligida moddiy-texnika vositalaridan foydalanish mavsumiy xarakterga egaligi ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog`liq muammolarni keltirib chiqaradi (ayniqsa, o`rim-yig`im kombaynlari, seyalkalar va shu kabi boshqa texnika-mashinalar);

- moddiy-buyumlashgan ko`rinishdagi moddiy-texnika resurslari tabiiy sharoitlar ta'siriga uchraydi va ularni saqlash bo`yicha sarf-xarajatlar qilinishini talab etadi;

- qishloq xo`jaligida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslari tarkibiga jonli organizmlar, o`simliklar va chorva mollari ham kiradi;

- ishlab chiqarishda foydalaniladigan ayrim moddiy resurslar shu xo`jalikning o`zida yaratiladi (chorvachilikda foydalaniladigan yem-xashak, o`simlikchilikda urug`lik, organik o`g`itlar va b.).

Iqtisodiy nazariyaning asosiy qonuniyatlaridan biri moddiy resurslarning cheklanganligi bilan bog`liq. Shu munosabat bilan har bir xo`jalik yurituvchi subyekt o`z ixtiyoridagi kamyob resurslardan samarali foydalanishga, ya`ni ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan har bir birlik cheklangan resurlar hisobiga maksimal miqdorda mahsulot ishlab chiqarishga intiladi. Buning uchun esa, resurslarning to`liq bandligiga va ishlab chiqarishning to`liq hajmiga erishish lozim.

To`liq bandlik ishlab chiqarishga yaroqli barcha resurslardan foydalanish lozimligini ko`rsatadi. Bunda texnika va texnologiyalar bekor turib qolmasligi, kapital qo`yilmalar va boshqa resurslar harakatsiz yotmasligi zarur.

Ishlab chiqarishning to`liq hajmi resurslardan shunday samarali foydalanish lozimligini ko`rsatadiki, bunda ishlab chiqarishga jalb etilgan har bir birlik resurs yaratilayotgan umumiy mahsulot hajmiga imkon qadar ko`proq hissa qo`shtin.

Resurslar cheklanganligi ulardan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo`llarini izlab topishni talab qiladi. Buning uchun xo`jalik resurslar tejamkorligi va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha tashkiliy, iqtisodiy va texnik-texnologik tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Respublikamiz qishloq xo`jaligida shakllanib kelayotgan fermer va dehqon xo`jaliklarining mustahkam oyoqqa turishi va barqaror sur`atlar bilan rivojlanishi uchun ularning moddiy-texnika bazasini yuksaltirishga e'tibor qaratish lozim.

Fermer xo`jaliklarining mexanizatsiyalashganlik darajasi past darajada. Chorvachilikka ixtisoslashgan ko`pchilik fermer xo`jaliklarida chorva mollarini saqlash va parvarishlash uchun maxsus binolar, yem-xashak, mahsulotlar va moddiy resurslarni saqlash uchun maxsus omborlar, texnika vositalarini saqlaydigan yopiq saroylar yetishmaydi. Buning ustiga bu binolarning qurilishi loyihalashtirish talablariga javob bermaydi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish ko`p jihatdan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanishga bog`liq bo`lib bormoqda va bu holat fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash yo`nalishlarini takomillashtirish bilan uzviy bog`liqdir.

Fermer xo`jaliklarining moddiy-texnika resurslari tarkibida qishloq xo`jaligi texnikalari va mashinalari muhim rol o`ynaydi. Fermer xo`jaliklarining bir mapomda faoliyat ko`rsatishi uchun yer haydash, ekinlarga ishlov berish, yetishtirilgan hosilni o`rib-yig`ib olish va tashish uchun ular ixtiyorida hech bo`lmaganda bittadan universal traktor (barcha tirkama va moslamalari bilan) bo`lishi maqsadga muvofiq.

Fermer xo`jaliklarida mavjud traktorlar va boshqa qishloq xo`jalik\_mashinalari xo`jaliklarning tabiiy ishlab chiqarish sharoitlari va ixtisoslashuv darajasiga mos kelishi kerak. Faqat shundagina mavjud texnika vositalarini yil davomida optimal band bo`lib turishini ta'minlash va ularning ish unumdarligini oshirish mumkin.

## **6.2. Fermer xo`jaliklarini traktorlar va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlash yo`llari**

Hozirgi kunda fermer xo`jaliklari quyidagi yo`llar bilan texnika vositalarini sotib olishga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishlari mumkin:

1. Bevosita ishlab chiqaruvchi zavodlardan yoki vositachi ta'minot korxonalari orqali yangi texnikalarni sotib olish.
2. Qishloq xo`jaligi texnikalarini lizing asosida olish.
3. Korxona va tashkilotlarning eskirgan texnika vositalarini balans qiymatida yoki kim oshdi savodosida sotib olish.

Ko`pchilik fermer xo`jaliklari o`z texnika vositalariga ega bo`lishni xohlaydilar. Buning afzallik tomonlari shundaki, fermerlar ekinlarni belgilangan agrotexnika muddatlarida va o`zi xohlagandek sifatli ishlov berish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Agar respublikamizda faoliyat ko`rsatayotgan aksariyat fermer xo`jaliklarining yer maydonlari hajmi kichikligini e'tiborga oladigan bo`lsak, ularni texnika vositalari bilan ta'minlashda o`ziga xos bo`lgan davlat siyosatini ishlab chiqish lozimligini ko`ramiz.

Fermer xo`jaliklarining bundan buyon barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borishiga shart-sharoitlar yaratish uchun respublika miqyosida ularni texnik vositalari bilan ta'minlash borasida yirik tadbirlarni amalga oshirish lozim bo`ladi. Bunda, eng avvalo, respublikaning ichki imkoniyatlariga keng tayanilgan holda, kichik va o`rta quvvatli traktor va mashinalarni seriyali ishlab chiqarish dolzarb masalaga aylanmoqa.

Respublika qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga mashinalar texnologiyasini joriy etishni tezlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 25-fevraldagagi

84-sonli qaroriga muvofiq, O`zbekiston qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish ilmiy tadqiqot instituti tomonidan «Deqonchilikni mexanizatsiyalash bo`yicha 2001-2010-yillarga mo`ljallangan mashinalar va texnologiyalar tizimi» ishlab chiqilgan. Bu dasturda 2010-yilgacha tizimga kiritilgan texnik vositalarning umumiyligi turini 284 donaga yetkazish rejalashtirilgan bo`lib, 218 turi ishlab chiqarishda, 19 turi sinovda, 47 turini xorijdan keltirilish mo`ljallangan.

Qishloq xo`jaligini texnika vositalari bilan ta`minlash tizimini amalga oshirish jarayonida quyidagilarga e`tiborni qapatish maqsadga muvofiq:

1. Ishlab chiqarilishi mo`ljallanayotgan sinov texnika vositalari tizimida kichik hajmli fermer xo`jaliklari uchun mo`ljallangan traktor va mashinalar turlarining bo`lishi.

2. Fermerlar uchun mo`ljallangan kichik va o`rta quvvatli traktorlarni ko`p jarayonlarni bajarishga (universal traktorlar) moslashtirish.

3. Texnika vositalarining narxlarini arzonlashtirish imkoniyatlarini qidirib topish va bunda birinchi navbatda davlat ko`magiga tayanish.

4. «O`zqishloqxo`jalikmashxolding» birlashmasi tomonidan qishloq xo`jaligiga yetkazib berilayotgan texnika vositalariga qo`shilgan qiymat solig`ini qo`llamaslik.

Qishloq xo`jaligi texnikalarining narxlari yuqori bo`lgan hozirgi sharoitda fermer xo`jaliklarini texnika vositalari bilan ta`minlashning istiqbolli yo`nalishlaridan biri sifatida lizingni e`tirof etish mumkin.

O`zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi «Lizing to`g`risida»gi Qonuniga muvofiq: «Lizing ijara munosabatlарining alohida turi bo`lib, u bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchi)ning topshirig`iga binoan uchinchi taraf (sotuvchi)dan haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo`yish maqsadida mol-mulk (lizing obyekti)ni oladi».

Lizing oluvchi subyektlar (sh.j. fermer xo`jaliklari) uchun uning afzallikkali quyidagilarda ko`rinadi:

- sotib olinayotgan texnikaning umumiyligi qiymatini bir paytning o`zida emas, uzoq muddat davomida bo`lib-bo`lib to`lash imkoniyati tug`iladi;

- bir vaqtning o`zida ham zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb qilish mumkin, ham ishlab chiqarish ko`lamini kengaytirish mumkin bo`ladi;

- texnika va uskunalar uchun lizing to`lovlarini ularni ishlatish natijasida olinadigan daromad hisobidan to`lanadi;

- texnika va uskunalarini to`liq qiymati bo`yicha naqd pulga sotib olinmasligi aylanma mablag`larni to`ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag`larni ozod qilishga imkon beradi;

- lizingga olingan texnika vositalari nuqsonlari kafolatli muddat davomida lizing beruvchi tomonidan bartaraf etiladi.

O`zbekiston qishloq xo`jaligida lizing xizmatlari bozorini kengaytirish, unda raqobat muhitini yaratish hamda texnika vositalarini lizing shartlarida mashina-traktor parklariga va fermer xo`jaliklariga yetkazib berish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 486-sonli qarori bilan «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi tashkil etildi.

Qishloq xo`jaligiga lizing asosida yetkazib berilayotgan texnika vositalari uchun hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2000-yilning 2-noyabrida Vazirlar Mahkamasining 424-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo`jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq dastlab 2001-2007-yillar mobaynida, tajriba tariqasida, «O`zqishloqxo`jalikmashxolding» korxonasi korxonalari tomonidan, shu jumladan, yetakchi xorijiy korxonalar ishtirokida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy qishloq xo`jaligi texnikalari mashina-traktor parklariga, qishloq xo`jaligi shirkatlariga va fermer xo`jaliklariga 7 yil muddat bilan quyidagi shartlarda yetkazib berilishi ko`zda tutilgan edi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 12-dekabrdagi 254-sonli «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo`jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida” 2000-yil 2-noyabrdagi 424-son qaroriga o`zgartirishlar kiritish haqida»gi qaroriga ko`ra fermer xo`jaliklari uchun lizing muddati - 10 yil, Qoraqalpog`iston Respublikasi va Xorazm viloyati mashina-traktor parklari uchun - 10 yilgacha, qolgan lizing oluvchilar uchun - 7 yil deb belgilandi (11-chizma).

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan "O`zqishloqxo`jalikmashxolding" kompaniyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi texnikasini lizingga olish TARTIBI'ga muvofiq:

- traktor va o`rim-yig`im texnikasi qiymatining 15 %i avans sifatida mashina-traktor parklarining hududiy birlashmalari, qishloq xo`jaligi shirkatlari va fermer xo`jaliklari tomonidan o`z mablag`lari hisobiga to`lanadi;

- traktor va o`rim-yig`im texnikasining 85 %i «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan unga O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi «Qishloq xo`jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash jamg`armasi qarz asosida beradigan mablag`lar hisobiga mablag` bilan ta'minlanadi. Bunda «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» qishloq xo`jaligi shirkatlari va fermer xo`jaliklarining talabnomalari asosida joriy yil uchun lizingga beriladigan texnika miqdorining prognoz ko`rsatkichlarini ishlab chiqadi va Moliya Vazirligi huzuridagi Jamg`armaga texnika vositalari qiymatining 85 %ini moliyalashtirish uchun buyurtmalar kiritadi.

«O`zqishloqxo`jalikmashlizing» jamg`arma bergen kafolat xatlari orqali «O`zqishloqxo`jalikmashxolding» kompaniyasiga qarashli zavodlarga buyurtma beradi va lizingga oluvchi to`lagan texnika qiymatining 15 %i hamda jamg`arma tomonidan moliyalashtiriladigan mablag`lar (texnika qiymatining 85 %i) hisobidan texnikalarga pul o`tkazadi.

Tayyor bo`lgan texnikalar lizing oluvchilarga quyidagi shartlar bilan yetkaziladi:

- lizing oluvchilarga texnikani lizing shartnomasining butun davri uchun mulkiy tavakkalchiliklardan «O`zagrosug`urta»da sug`urtalanganini tasdiqlovchi sug`urta polisi mavjud bo`lganda berish;

- lizing kompaniyasi daromadi (marjasining imtiyozli stavkasi Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 %idan yuqori bo`lmasligi;

- lizing muddati 10 yildan iborat bo`lishi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagи «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni bilan 2002-yilning 1-sentabridan boshlab:


- lizing to`lovlar qo`shilgan qiymat solig`idan;

- lizingga berish uchun O`zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnikalar bojxona to`lovlar va qo`shilgan qiymat solig`idan;

- lizing oluvchi xo`jaliklar lizingga berilgan mol-mulkka soliq to`lashdan lizing shartnomasi muddatida ozod qilindi.

## 11-chizma

Fermer xo`jaliklarini «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan lizing asosida qishloq xo`jaligi texnikalari bilan ta'minlash tartibi<sup>1</sup>



<sup>1</sup> Ushbu chizma O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan "O`zqishloqxo`jalikmasholding" kompaniyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi texnikasini lizingga olish TARTIBI"ga asosida ishlab chiqilgan.

Lizing xizmatlari bozori rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda bir nechta kompaniyalar, tijorat banklari milliy va xorijiy valyutada lizing operatsiyalarini moliyalashtirish bilan shug`ullanmoqda. Ularning lizing obyektini moliyalashtirish shartlari turlicha bo`lib, fermer xo`jaliklari o`zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qaysi lizing kompaniyasi yoki tijorat banki orqali lizingga texnika olish masalasini hal etishi mumkin.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, hozirgi kunda fermer va dehqon xo`jaliklari uchun «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi ixtisoslashgan lizing xizmati ko`rsatuvchi kompaniya bo`lib qolmoqda. Fermer xo`jaliklari sonining o`sib borishi bilan ularga lizing xizmati ko`rsatish hajmi ham ortib bormoqda.

Hozirgi kunda fermerlarning texnikaga bo`lgan talabini qondirishda istiqbolli variantlardan biri fermerlarning texnikadan o`zaro hamkorlikda foydalanish bo`yicha uyushib faoliyat ko`rsatishidir. Agar fermerning xo`jaligidagi ishlab chiqarish hajmi texnika vositalariga yakka holda egalik qilish uchun imkon bermasa, bir necha fermerlar o`zaro uyushib qimmat turadigan unumli texnikani sotib olishi va birgalikda ishlatishi mumkin. Buning afzallik tomonlari ko`p bo`lib, uni quyidagilarda ko`rish mumkin:

- har bir fermer xo`jaligi ishlab chiqarish jarayonida qo`llanilishi zarur bo`lgan bir necha xil texnika vositalarini sotib olish zaruriyatidan qutuladi, bu bilan ular texnika xarid qilishda tejamga erishadilar va ularni ekspluatatsiya qilish bilan bog`liq xarajatlarni o`zaro taqsimlaydilar;

- qishloq xo`jaligida ba`zi bir texnika vositalaridan juda qisqa muddatlarda foydalanilishi tufayli alohida bir fermer uchun kombaynga o`xshagan sanoqli kunlarda ishlatiladigan bu xil texnikalarni sotib olish va saqlash samarali emas;

- fermer xo`jaliklarini qishloq xo`jaligi texnikalarining zarur turlari bilan jihozlash ishlari tezlashadi.

- texnikadan birgalikda foydalanish mashinalarni ish bilan bir maromda band etish orqali ulardan oqilona foydalanishga, kichik va o`rta xo`jalikda ham ishlab chiqarishni to`liq mexanizatsiyalashtirishga olib keladi.

Ammo bunda fermerlar orasida o`zaro ishonch bo`lishi va texnikadan birgalikda foydalanish jarayoni turli ixtiloflarni kelitirib chiqarmasligi kerak.

### **6.3. Fermer va dehqon xo`jaliklarini aylanma moddiy resurslar bilan ta'minlash**

Fermer va dehqon xo`jaliklarining aylanma moddiy-texnika vositalariga bo`lgan talabini qondirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulotlarni sotishning bozor tamoyillari va mexanizmlarini keng joriy etish, markazlashtirilgan taqsimlash tizimini tugatish, mulkchilik shakllaridan qat`i nazar barcha xo`jalik yurituvchi subyektlarning moddiy-texnika resurslari olishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish, bozor narxlari shakllantirilishi mexanizmini takomillashtirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagagi 57-sonli “Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to`g`risida”gi qaroriga asosan maxsus belgilanadigan tartib bo`yicha sotiladigan

moddiy-texnika resurslarining strategik turlari ro`yxati va moddiy-texnika resurslarining strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to`g`risidagi nizom tasdiqlangan. Ushbu qarorga ko`ra qishloq xo`jaligini ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy resurslardan elektr energiyasi, tabiiy gaz, avtomobil benzini, dizel yoqilg`isi, yoqilg`i mazuti, mineral o`g`itlar, polietilen, suyultirilgan gaz, sement va shifer maxsus belgilangan tartib bo`yicha sotiladi. Shuningdek, ushbu qarorga ko`ra chigit shulxasi, shrot (kunjara) va yem bo`ladigan don ham iste'molchilar o`rtasida maxsus limitlar bo`yicha taqsimlanadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagagi 57-sonli “Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to`g`risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Moddiy-texnika resurslari strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to`g`risida Nizom”ga muvofiq texnika resurslarining strategik turlarini sotishning maxsus tartibi belgilangan.

Amaldagi qonun hujjatlarida monopol mahsulot sifatida belgilangan mahsulotlarni birja (kimoshdi) savdolariga qo`yish qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan belgilangan narx darajasidagi boshlang`ich narx bilan amalga oshiriladi.

Mahsulotlar birja va kimoshdi savdolarida talab va taklifning bozor narxlari bo`yicha sotiladi. Birjalar har haftada ochiq matbuotda va Internet tarmoqlaridagi o`z sahifalarida sotilgan mahsulotning o`rtacha birja narxi kotirovkalarini (kimoshdi savdosi narxlarini) e`lon qilishlari shart.

Monopolist korxonalarining mahsulotlari to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha, shuningdek birja (kimoshdi) savdolarida sotiladi. Bunda mahsulotlar to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha oxirgi sanada e`lon qilingan birja (kimoshdi) savdolari kotirovkalarining o`rtacha narxlari bo`yicha sotiladi.

Moddiy balanslarga muvofiq birja (kimoshdi) savdolarida sotishga mo`ljallangan mahsulotlar to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha faqat birja (kimoshdi) savdolariga qo`yilgan vaqtidan boshlab bir oy mobaynida sotilmagan hajmlarda oldingi haftadagi birja savdolarida vujudga kelgan birja savdolari o`rtacha narxlari bo`yicha sotilishi mumkin.

Birja (kimoshdi) savdolarida va to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha sotib olingan mahsulotlar (elektr energiyasi va tabiiy gaz bundan mustasno) yuzasidan shartnomalar haqini oldindan to`liq to`lash yoki yetkazib beriladigan tovarlarning har bir turkumi uchun chaqirib olinmaydigan akkreditiv qo`yish shartlari bilan tuziladi.

Qarorda belgilangan shartlarda haqini to`lashni yoki akkreditiv qo`yishni rad etish «Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xaridor tomonidan sotuvchi foydasiga to`lanadigan jarima jazolari qo`llanishiga olib keladi.

Avtomobil benzinini ajratilgan limitlar bo`yicha davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlari uchun qishloq xo`jaligi iste'molchilariga, strategik davlat zaxirasini to`ldirish va yangilash uchun sotish iste'molchilar va neft bazalari o`rtasidagi shartnomalar bo`yicha belgilangan narxlarga binoan haqini 100 % oldindan to`lagan holda, dizel yonilg`isini esa haqining 30 %ini oldindan to`lab,

yetkazib berilgan resurslar uchun to`liq haqni 60 kun mobaynida to`lagan holda amalga oshiriladi.

Avtomobil benzini va dizel yonilg`isiga yopiq birja savdolari O`zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasida tashkil etiladi. Bozor fondi resurslari «O`zneftmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasining neft bazalari tomonidan ularning o`z brokerlik o`rinlari orqali savdoga qo`yiladi. Tegishli litsenziyalarga ega bo`lgan avtomobil yonilg`isi quyish shoxobchalari xaridorlar hisoblanadi.

Yopiq birja savdolarida boshlang`ich narx neft bazalarining e`lon qilinadigan cheklangan ustamalari qo`shilgan holda neftni qayta ishlash zavodlarining e`lon qilingan cheklangan narxlari darajasida belgilanadi. Savdo natijalari bo`yicha shartnomalar neft bazalari va avtomobil yonilg`isi quyish shoxobchalari o`rtasida haqi 100% oldindan to`lanish shartlari bilan tuziladi.

Avtomobil benzini va dizel yonilg`isi resurslari tovar-xomashyo birjalarining ochiq birja savdolariga "O`zneftmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining neft bazalari tomonidan ularning o`z brokerlik o`rinlari orqali qo`yiladi. Ochiq birja savdolarida avtomobil benzini va dizel yonilg`isini xarid qilish respublika iste'molchilarining barcha toifalari tomonidan tegishli brokerlar orqali amalga oshiriladi.

Ochiq birja savdolaridagi boshlang`ich narx neft bazalarining cheklangan ustamalari hisobga olingan holda neftni qayta ishlash zavodlarining e`lon qilinadigan cheklangan narxlari darajasida belgilanadi.

Ochiq birja savdolari natijalari bo`yicha shartnomalar neft bazalari va bevosita iste'molchilar o`rtasida haqi 100% oldindan to`lanish shartlari bilan tuziladi hamda yetkazib berish va iste'molchilarga xizmat ko`rsatish shartlarini o`z ichiga oladi.

Ochiq birja savdolarida sotib olingan avtomobil benzini va dizel yonilg`isi qayta sotilishi mumkin emas.

Mineral o`g`itlar:

- qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining balanslarda nazarda tutilgan hajmlarda davlat ehtiyojlari uchun shartnoma majburiyatlarini bajarishi uchun "Qishloqxo`jalikkimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatlarini orqali:

- davlat ehtiyojlari uchun shartnoma majburiyatlarini bilan qamrab olinmagan mahsulotlar yetishtirish uchun qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilariga "Qishloqxo`jalikkimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatlarini orqali bevosita birja savdolarida birja narxlari bo`yicha va mineral o`g`itlarni birja savdolarida sotib oluvchi ixtisoslashtirilgan ulgurji korxonalarga haqi 100% oldindan to`langan holda sotiladi.

Mineral o`g`itlarni sotishning mazkur tartibi davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish bo`yicha shartnoma majburiyatlarini bilan qamrab olinmagan qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga ammiakli selitra sotishga tatbiq etilmaydi

Davlat ehtiyojlari uchun shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun qishloq xo`jaligi korxonalariga mineral o`g`itlar sotish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarini o`zlarining tumanlararo va tuman filiallari orqali hudud bo`yicha real talabni o`rganadilar, buyurtmalar to`playdilar va mineral o`g`itlarning aniq turlarini yetkazib berish uchun

pirovard iste'molchilar qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan shartnomalar tuzadilar;

b) «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatları qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilarining buyurtmalarini umumlashtirish asosida har yili, 1-oktabrdan kechikmay respublika viloyatlari bo`yicha mineral o`g`itlarga bo`lgan ehtiyoj prognozini tuzadilar va uni mamlakatimizning ishlab chiqaruvchi korxonalarida mineral o`g`itlar ishlab chiqarish bo`yicha kelgusi yilga dasturni o`z vaqtida tayyorlash uchun «O`zkimyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasiga taqdim etadilar;

v) ishlab chiqaruvchi korxonalardan mineral o`g`itlarni xarid qilish «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatları tomonidan har yili o`tkaziladigan yarmarka savdolarida ishlab chiqaruvchi korxonalarining e'lon qilingan narxlari bo`yicha amalga oshiriladi;

g) mineral o`g`itlar yetkazib berish to`g`risidagi shartnomaga mahsulot uchun yetkazib berilgandan keyin 60 kun mobaynida uzil-kesil hisob-kitob qilgan holda mahsulotning yetkazib beriladigan har bir turkumi uchun oldindan 30% haq to`lash shartlarida yetkazib berishning oyma-oy jadvali ilova qilinadi;

d) «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatları mineral o`g`itlarni pirovard iste'molchilarga qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yetkazib berishni shartnomalarning ajralmas qismi hisoblangan yetkazib berishning oylik jadvallari asosida amalga oshiradilar. Yetkazib berish mahsulot uchun yetkazib berilgandan keyin 60 kun mobaynida uzil-kesil hisob-kitob qilgan holda yetkazib beriladigan mahsulotning har bir turkumi uchun oldindan 30 % haqini to`lash shartlarida amalga oshiriladi.

Avans to`lovi va (yoki) yetkazib berilgan mineral o`g`itlar uchun uzil-kesil hisob-kitob qilish kechikishining barcha hollarida mineral o`g`itlarni keyingi yetkazib berish qarz to`liq to`langungacha to`xtatiladi.

Davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish bo`yicha shartnoma majburiyatları bilan qamrab olingan qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga ammiakli selitra sotish «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatları tomonidan, yarmarka savdolari o`tkazilmasdan amalga oshiriladi.

Mineral o`g`itlarni ishlab chiqaruvchi zavodlar birja savdolarida sotuvchilar sifatida ish ko`radi. «Qishloqxo`jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatları xo`jaliklarning barcha toifalariga kiruvchi qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilar va mamlakatimiz qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilar uchun mineral o`g`itlar sotuvchi ixtisoslashtirilgan ulgurji korxonalar birja savdolarida xaridorlar sifatida ish ko`radi. Mineral o`g`itlarni birja savdolariga qo`yishdagi boshlang`ich narx belgilangan (e'lon qilinadigan) narx darajasida belgilanganadi.

Belgilangan narxlar bo`yicha to`g`ridan-to`g`ri shartnomalarga ko`ra xarid qilinagan mineral o`g`itlar resurslari qayta sotilishi mumkin emas.

Birja savdolarida sotib olingan mineral o`g`itlar resurslaridan faqat respublika hududida foydalilanadi va ular eksportga yetkazib berilishi mumkin emas.

Dehqon va fermer xo`jaliklariga, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinmaydigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun mineral o`g`itlar qishloq joylarda

ochilgan ixtisoslashtirilgan do`kon shoxobchalari, «O`zqishloqxo`jalikkimyo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining bazalari orqali, to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha tayyorlovchi zavodlardan, shu jumladan, fyuchers shartnomalari bo`yicha sotiladi.

Iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish iste'molchilar va energiya sotuvchi tashkilotlar o`rtasida kalendar yil uchun tuzilgan to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha, iste'molchilarning buyurtmalariga muvofiq choraklar bo`yicha taqsimlagan holda amalga oshiriladi.

Elektr energiyasini iste'molchilarning barcha toifalariga yetkazib berish belgilangan tariflarga muvofiq amalga oshiriladi. Elektr energiyasini iste'molchilarning barcha toifalariga (aholidan tashqari) navbatdagi oy uchun yetkazib berish tegishli oy uchun shartnomada nazarda tutilgan resurslar hajmining kamida 30 %i uchun haq avans tariqasida to`langandan keyin amalga oshiriladi.

Iste'molchilarning barcha toifalariga tabiiy gaz yetkazib berish gaz bilan ta'minlovchi tashkilotlar bilan tuzilgan to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha iste'mol qilish limitlarini belgilamasdan iste'molchilarning buyurtmalari asosida, budjetdan moliyalashtiriladigan iste'molchilar uchun esa ajratiladigan budget mablag`lariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tabiiy gazni iste'molchilarning barcha toifalariga yetkazib berish belgilangan narxlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Tabiiy gaz iste'molchilari berilgan tabiiy gaz haqini tuzilgan shartnomalarga muvofiq to`liq to`lagan holda shartnomalarda nazarda tutilgan resurslar hajmining kamida 30 %ining haqini navbatdagi kalendar oy boshlangungacha avans tariqasida to`laydilar.

Fermer xo`jaliklariga mineral o`g`itlar, yonilg`i-moylash materiallari, urug`lik, zotli chorva mollari va boshqa moddiy resurslar yetkazib berish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining ma'lumotlariga muvofiq, 2008-yil yakunlariga ko`ra respublikamizda "O`zneftmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining fermer xo`jaliklariga yonilg`i-moylash materiallari sotishga ixtisoslashtirilgan 1373 ta shoxobchalari faoliyat ko`rsatgan. Ular tomonidan fermer xo`jaliklari bilan qiymati 330593 mln. so`m bo`lgan jami 112837 ta shartnoma tuzilgan. Haqiqatda esa 108453 ta shartnoma yuzasidan qiymati 421514 mln. so`mlik yonilg`i-moylash materiallari yetkazib berilgan, ya`ni rejalashtirilgan ko`rsatkich 127,5 % ga bajarilgan (14-jadval).

Mineral o`g`itlar yetkazib berish bo`yicha «O`zqishloqxo`jalikkimyo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining 928 ta shoxobchalari faoliyat ko`rsatgan. Ular reja bo`yicha fermerlar bilan mineral o`g`itlar va o`simliklarni kimyoiy himoyalash vositalari yetkazib berish bo`yicha qiymati 334792 mln. so`m bo`lgan, 110870 ta shartnoma imzolashgan bo`lsa, haqiqatda 107303 ta shartnoma yuzasidan 404287 mln. so`mlik mineral o`g`itlar yetkazib berilgan. Bu rejalashtirilgan ko`rsatkichga nisbatan 120,8 %ni tashkil etgan (15-jadval).

Amalga oshirilayotgan ishlar ko`لامи kengligiga qaramay fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash borasida muayyan kamchiliklar mavjud. Hozirgi kunda fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash tizimini quydagilar bilan izohlash mumkin:

- moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bilan shug`ullanuvchi korxonalarning tumanlar miqyosida monopol yakka hokimligi (mineral o`g`itlar va YOMM bo`yicha) va ular tomonidan taklif etilayotgan resurslar narxlarining qimmatligi;

- yangidan tashkil topayotgan ko`pchilik fermerlarning moddiy resurslar sotib olish uchun o`z mablag`lari yetishmasligi va banklar tomonidan aylanma mablag`larni to`ldirishga beriladigan qisqa muddatli kreditlar olish shartlarining murakkabligi;

- davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan hosili uchun oldindan beriladigan 3 %li imtiyozli kreditning fermerlar tomonidan mustaqil ishlatish imkoniyati yo`qligi;

- moddiy-texnika resurslari bozorida kuchli raqobat muhiti mavjud emasligi.

Moddiy-texnika resurslari ta'minotida hamon ixtisoslashgan korxonalar hissasi yuqori bo`lib, xususiy sektor korxonalari hali yaxshi taraqqiy etmagan. Qolaversa, mineral o`g`itlar va yonilg`i materiallar bozorini monopoliyadan chiqarish va erkinlashtirish choralarini amalga oshirish talab etiladi.

**Fermer xo`jaliklariga yonilg`i-moylash materiallari sotish shoxobchalarining faoliyati (2008-yil)**

Hududlar	Jami shoxobchalar soni	Tuzilgan shartnomalar soni, dona	Tuzilgan shartnomalar qiymati, mln. so`mda	Haqiqatda soni, dona	Haqiqatda qiymati, mln. so`mda	Tuzilgan shartnomalarning bajarilishi, %da
<b>Qoraqalpog`iston</b>						
Respublikasi	128	6974	21180	6974	28214	133,2
Andijon	98	5489	24388	5489	25041	102,7
Buxoro	79	7459	38863	7458	30681	78,9
Jizzax	118	9490	27067	9490	35363	130,6
Qashqadaryo	185	16554	56766	14071	80987	142,7
Navoiy	52	3935	13902	3687	16624	119,6
Namangan	68	6337	29014	6337	47476	163,6
Samarqand	120	10470	32940	10470	23785	72,2
Surxondaryo	80	7340	23812	6239	38998	163,8
Sirdaryo	100	6691	25954	6691	28789	110,9
Toshkent	124	10273	33821	9967	27359	80,9
Farg`ona	112	8581	24282	8326	18453	76,0
Xorazm	109	13244	29218	13254	19744	67,6
<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>1373</b>	<b>112837</b>	<b>330593</b>	<b>108453</b>	<b>421514</b>	<b>127,5</b>

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari

**Fermer xo`jaliklariga mineral o`g`itlar sotish shoxobchalarining faoliyati (2008 yil)**

Hududlar	Jami shaxobchalar soni	Tuzilgan shartnomalar soni, dona	Haqiqatda soni, dona	Tuzilgan shartnomalarning bajarilishi, %da
		qiymati, mln. so`mda	qiymati, mln. so`mda	
Qoraqalpog`iston Respublikasi	103	6969	20631	18345
Andijon	67	7243	34702	36154
Buxoro	73	8291	33420	35564
Jizzax	20	6931	38079	30586
Qashqdaryo	126	17891	38927	66573
Navoiy	29	3654	8885	13714
Namangan	40	6457	19936	36214
Samarqand	91	11829	29271	26670
Surxondaryo	54	7519	35824	38337
Sirdaryo	52	7044	24584	30922
Toshkent	109	8712	33900	27595
Farg`ona	72	9015	10335	26793
Xorazm	92	9315	6299	16821
<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>928</b>	<b>110870</b>	<b>334792</b>	<b>404287</b>
			<b>107303</b>	<b>120,8</b>

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari

## **6.4. Fermer va dehqon xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish yo`llari**

Fermer xo`jaliklarining aylanma moddiy-texnika vositalariga bo`lgan talabini qondirish yo`nalishlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mineral o`g`itlar, yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar va urug`lik kabi resurslar bilan o`z vaqtida ta'minlanmaslik ishlab chiqarishning yakuniy natijasiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Qishloq xo`jaligi korxonalari uchun noqulay bo`lgan bir sharoitda narxlarning erkinlashtirilishi moddiy-texnika resurslari baholarining keskin oshib ketishiga olib keldi va bundan eng ko`p APK I va III soha korxonalari manfaat ko`rdi.

Garchi o`tgan davr mobaynida qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlari ham bir necha barobar o`sgan bo`lsada, bu o`sish sanoat mahsulotlarining narxlari o`sishiga nisbatan past darajada qolmoqda. Natijada sanoat va qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlari o`rtasida yirik nomunosiblik vujudga keldi. Natijada narxlarning erkinlashuvi qishloq xo`jaligi korxonalari daromadlarining oshishiga olib kelmadni, aksincha aksariyat xo`jaliklar tang iqtisodiy ahvolga tushib qolmoqdalar.

Bu holat qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish maqsadlarida xarid etiladigan moddiy-texnika resurslaridan yetarli miqdorda va o`z vaqtida foydalanishi imkoniyatlarini cheklandoqda.

Sanoat tovarlari narxlarining o`sishi qishloq xo`jaligi korxonalari uchun og`ir zarba bo`lib tushmoqda. Agar davlat yo`li bilan bu nomutanosiblikni bartaraf etish yuzasidan qat`iy choralar ko`rilmasa, qishloq xo`jaligi korxonalarining rivojlanishi u yoqda tursin, oddiy takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun ham muammo bo`lib qoladi.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini qo`llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan qishloq xo`jaligi mahsulotlari va sanoat tomonidan yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari o`rtasidagi “paritet” saqlab borish bo`yicha qonun qabul qilish va tumanlarda qayta ishlovchi, tayyorlovchi va moddiy texnik ta'minot bilan shug`ulanuvchi korxonalarining monopol mavqeini cheklovchi davlat dasturlarini amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

Narxlarni shakllantirish asosida mahsulot yetishtirishga sarflanadigan ijtimoiy xarajatlar asos qilib olinishi va u har bir regionning o`ziga xos sharoitlarini hisobga olishi lozim.

ASK I va III soha korxonalarining o`z mahsulotlariga o`rnatayotgan baholariga kelsak, hali bu sohada to`la yakkahokimlik hukm surayotgani va raqobat kurashining vujudga kelmaganini hisobga olgan holda moddiy-texnika resurslari narxlari ustidan davlat nazorati o`rnatish maqsadga muvofiq (toki bu sohada sog`lom raqobat kurashi vujudga kelgunga qadar).

Fermer xo`jaliklarining moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanishning ustivor yo`nalishlari quyidagilardan iborat bo`lishi maqsadga muvofiq:

- asosiy turdagи moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarish va ta'minlashga ixtisoslashgan korxonalarining monopol holatiga barham berish maqsadida ularga turdosh va raqobatbardosh bo`lgan tarmoqlarni fermer xo`jaliklariga yaqin va qulay joylarda tashkil etish va rivojlantirish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan fermerlarga ko`rsatilayotgan xizmat va yetkazib berilayotgan mahsulotlarning narxlari o`rtasidagi mutanosiblikka (paritetga) erishish va moddiy-texnik resurslar narxlarini davlat tomonidan tartibga solish;
- moddiy resurslar bozorida haqiqiy talab va taklif munosabatlarini shakllantirish;
- ayrim turdagи moddiy resurslarni o`zimizda ishlab chiqarilishini yo`lga qo`yish (bu turdagи resurslarni chetdan olib kelinishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining yuqori bo`lishiga sabab bo`ladi);
- moddiy-texnik resurslarni moliyalashtirishning zamonaviy bozor iqtisodiyotiga mos keluvchi turli shakllari (lizing, faktoring, veksel, tovar krediti, fyuchers, overdraft va boshq.)ni vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanish;
- har bir qishloq xo`jaligi hududiga mos va iqtisodiy samarali bo`lgan mexanizatsiya tizimini shakllantirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo`jaligi ekinlarini sug`orishda ilg`or texnologiyalarni qo`llash orqali suv resurslaridan samarali foydalanish;
- chorva mollarining zoti va mahsuldorligini yaxshilashga qaratilgan zooveterinariya tadbirlarini rivojlantirish;
- fermerlarni zararkunandalar va kasallikka chidamli, tezpishar va yuqori hosildor ekin navlarining urug`lari bilan ta'minlash;
- qishloq xo`jaligida mineral o`g`itlardan samarali foydalanish, zararkunandalarga qarshi biologik vositalardan foydalanish ko`lamini kengaytirish;
- ishlab chiqarishga taalluqli bino va inshootlar qurilishiga amaliy yordam ko`rsatish;
- xizmat ko`rsatish va ta'minot yo`nalishidagi korxona hamda tashkilotlarning samarali faoliyat ko`rsatishini ta'minlash;
- fermerlarning qishloq xo`jaligi texnikalari va mashinalardan hamkorlikda foydalanishiga imkon beruvchi kooperatsiyani rivojlantirish;
- moddiy-texnik resurslardan oqilona, samarali foydalanish, chiqimsiz va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish;
- ishlab chiqarishga intensiv texnologiyalar tizimini joriy etish.

### **Qisqacha xulosalar**

Moddiy-texnika resurslari takror ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha mehnat predmeti va mehnat vositalari yig`indisidan iborat.

Respublikamiz qishloq xo`jaligida shakllanib kelayotgan fermer va dehqon xo`jaliklarining mustahkam oyoqqa turishi va barqaror sur'atlar bilan rivojlanishi uchun ularning moddiy-texnika bazasini yuksaltirishga e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy fermer xo`jaligi ishlab chiqarish vositalari bilan yetarli darajada ta'minlangan bo`lishi va ilg`or texnika-texnologiyalar bilan qurollanganligi bilan xarakterlanishi lozim.

Iqtisodiy nazariyaning asosiy qonuniyatlaridan biri moddiy resurslarning cheklanganligi bilan bog`liq. Shu munosabat bilan har bir xo`jalik yurituvchi subyekt o`z ixtiyoridagi kamyob resurslardan samarali foydalanishga, ya`ni ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan har bir birlik cheklangan resurlar hisobiga maksimal miqdorda

mahsulot ishlab chiqarishga intiladi. Buning uchun esa, resurslarning to`liq bandligiga va ishlab chiqarishning to`liq hajmiga erishish lozim.

Fermer xo`jaliklariga mineral o`g`itlar, yonilg`i-moylash materiallari, urug`lik, zotli chorva mollari va boshqa moddiy resurslar yetkazib berish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, amalga oshirilayotgan ishlar ko`lamni kengligiga qaramay fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash borasida muayyan kamchiliklar mavjud.

Fermer xo`jaliklarining aylanma moddiy-texnika vositalariga bo`lgan talabini qondirish yo`nalishlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mineral o`g`itlar, yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar va urug`lik kabi resurslar bilan o`z vaqtida ta'minlanmaslik ishlab chiqarishning yakuniy natijasiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer xo`jaliklarini moddiy-texnika ta'minotining xususiyatlari qanday?
2. Fermer xo`jaliklarini texnika vositalari bilan ta'minlash yo`llari nimalardan iborat?
3. Fermer xo`jaliklarini aylanma moddiy resurslar bilan ta'minlash tizimi qanday shakllangan?
4. Moddiy resurslarning strategik turlarini birja savdolari orqali sotish tartibi qanday?
5. Moddiy-texnika ta'minotini qanday yo`nalishlarda takomillashtirish mumkin?

### **Adabiyotlar**

1. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi, 2004.
2. Jo`rayev F. Qishloq xo`jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. -T.: Istiqlol, 2004.
3. Samatov G`A. va boshq. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. -T.: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
4. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N., O`zbekistonda fermer xo`jagini yuritish asoslari, -T.: "Voris-nashriyot", 2007.
5. Olimjonov O. va boshq. Fermer faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. -T., 2005.
6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagagi 57-sonli "Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to`g`risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Moddiy-texnika resurslari strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to`g`risida Nizom".
7. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 424-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo`jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori.

## **VII bob. FERMER XO`JALIGIDA ISHLAB CHIQARISHNI MOLIYALASHTIRISH VA MOLIYAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI**

### **7.1. Fermer xo`jaligining moliyaviy resurslari mazmuni, tarkibi va manbalari**

Moliyaviy resurslar har bir xo`jalikning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash hamda o`z oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalarini amalgalashirish maqsadida pul jamg`armalari va boshqa moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog`liq iqtisodiy munosabatlarni o`zida aks ettiradi. Moliyaviy resurslar xo`jalikning o`z xodimlari, davlat va boshqa korxonalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish va ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish xo`jalikning moliya munosabatlari orqali ta'minlanadi. O`z mazmuniga ko`ra fermer xo`jaligi moliyasi uning moliyaviy resurslarini tashkil etuvchi maqsadli pul mablag`larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog`liq munosabatlarni aks ettiradi.

Fermer xo`jaligi moliyasi xo`jalikning quyidagi iqtisodiy subyektlar bilan vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarini aks ettiradi:

- tovar-moddiy qiymatliklarni xarid etish, mahsulot, ish va xizmatlarni sotish jarayonidagi fermer xo`jaligi va davlat (davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar bo`yicha), fermer xo`jaligi va boshqa korxonalar o`rtasidagi;


- markazlashgan va markazlashmagan pul mablag`lari jamg`armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish yuzasidan korxonalar bilan banklar, budgetdan tashqari jamg`arma va boshqa tashkilotlar o`rtasidagi;

- budget tizimiga soliqlar to`lash va xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida fermer xo`jaligi bilan davlat o`rtasidagi;

- ish haqidan turli ijtimoiy ajratmalar qilishda fermer xo`jaligi va nafaqa fondi, ish bilan ta'minlashga ko`maklashish fondi, ixtiyoriy tibbiy sug`urta fondi va boshqa fondlar o`rtasidagi;

- sug`urta holatlari vujudga kelganda zararlarni qoplash va sug`urta to`lovlarini amalgalashirishda fermer xo`jaligi va sug`urta organlari o`rtasidagi.

Fermer xo`jaligida moliyaviy resurslarning hosil bo`lish manbalari fermerning xususiy kapitali, muassislarning ulushli hissa qo`shishi, xo`jalikning mahsulot sotish, turli ish va xizmatlar ko`rsatishdan olgan pul tushumi, boshqa operatsion va moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan daromadlar, chetdan jalb etilgan qarz mablag`lari, boshqa subyektlarning xayriya va ehsonlari hamda moliyalashning boshqa manbalaridan tashkil topishi mumkin (12-chizma).



Fermer xo`jaligi moliyasining mohiyati birinchi navbatda qishloq xo`jalinining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qishloq xo`jaligida yer, chorva mollari va boshqa tabiiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoniga jalg etilgan bo`lib, bu uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqlanishiga sabab bo`ladi. Xususan qishloq xo`jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo`lgan yer boshqa asosiy vositalar singari eskirmaydi (amortizatsiya qilinmaydi) va shu tufayli mahsulot tannarxini shakllantirishda ishtirok etmaydi. Shu bilan bir vaqtda yer uchastkalarining tabiiy unumdarlik darajasi va joylashgan o`rni qishloq xo`jaligi korxonalarida differensial daromad (renta) hosil bo`lishiga sabab bo`ladi.

Fermer xo`jaligi asosiy ishlab chiqarish fondlarining ahamiyatli qismini mahsuldor va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Ammo, ularni takror ishlab chiqarish jarayoni bevosita qishloq xo`jalinining o`zida amalga oshiriladi. Yer singari, mahsuldor chorva mollariga nisbatan ham amortizatsiya hisoblanmaydi va u mahsulot tannarxini shakllanishida ishtirok etmaydi.

Fermer xo`jaligida ishlatiladigan ko`pgina xomashyo va materiallar bevosita xo`jalikning o`zida yaratiladi. Yaratilgan mahsulotning ma'lum bir qismi (podani to`ldirish uchun yosh mollar, urug`lik, chorva mollar uchun oziqa, mahalliy o`g`it sifatida go`ng va boshq.) sotilmay, xo`jalikning o`zida takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun olib qolinadi.

Chorva mollarini boqish va o`simliklarni yetishtirish ishlab chiqarish jarayoniga avanslangan aylanma mablag`larning uzoq vaqt davomida aylanishini talab etadi. O`simlikchilikda u bir yilgacha, chorvachilikda esa 9 oygacha davom etadi. Buning natijasida qishloq xo`jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yil oxirida (asosan IV chorakda) sotiladi va pul tushumining bir maromda aylanishiga imkon bermaydi. Bu esa xo`jalikning yakuniy moliyaviy natijalarini faqatgina yil yakuniga ko`ra aniqlashni talab etadi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimi shart-sharoitlarga bog`liqligi hosilsizlik, suv toshqini, qurg`oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar ta'siriga qarshi korxonalarining moddiy va pul zaxira fondlarini yaratishni talab etadi.

## **7.2. Fermer xo`jalinining o`z moliyaviy resurslaridan foydalanish**

Fermer xo`jaligi korxonalari tashkil topishining dastlabki bosqichida korxonani tashkil etayotgan mulkdor yoki agar ular bittadan ortiq bo`lsa muassislarning sarmoyalari tayaniladi. Odatda fermer xo`jaligi mulkdorlari uning tashkil topishi jarayonida to`lanishi lozim bo`lgan turli to`lovlarini o`z sarmoyalari hisobidan amalga oshiradilar.

Tadbirkorlar ishlab chiqarishni tashkil etishga mablag`lar jalg etishda birinchi navbatda o`zlarida mavjud mol-mulk va jamg`armalarga murojaat etishga harakat qiladilar. Chunki, bu xo`jalik mustaqilligini ta'minlashning eng maqbul yo`lidir.

Xo`jalik faoliyatining keyingi yillarida ishlab chiqarishni moliyalashtirishda xo`jalikning o`z mablag`laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, buning uchun xo`jalik joriy ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashdan tashqari ma'lum miqdordagi foyda olishga ham erishmog`i lozim. Dastlabki yillarda fermer xo`jaligi o`z quvvatlarini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida

foydaning aksariyat qismini ishlab chiqarishga qayta moliyalashtirishga harakat qiladilar.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanishi to`g`risidagi Nizom»ga muvofiq korxonalarda moliyaviy mablag (pul mablag`) larning hosil bo`lish manbalari quyidagilardan iborat:

- mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko`rsatishdan pul tushumi;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromad (operatsion daromad)lar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- favqulodda daromadlar.

Mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko`rsatishdan tushgan sof pul tushumi xo`jalik daromadlarining asosini tashkil etadi. Agar fermer xo`jaligining yordamchi tarmoqlaridan sanoat xarakteridagi mahsulotlar sotilsa, sotilgan mahsulot qiymatiga qo`shilgan qiymat yoki aksiz solig`i ham qo`shilgan bo`ladi, Bunda sof pul tushumi qo`shilgan qiymat yoki aksiz solig`ini chegirib tashlash orqali hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklari moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalarini kengaytirish maqsadida asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini ham olib borishga intiladi. *Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga* quyidagilar kiritiladi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e`tirof etilgan jarimalar, peniyalar, vaqtida to`lanmagan qarzlar va xo`jalik shartnomalarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari (masalan, fermer xo`jaligining boy berilgan foydasini to`lash yoki yetkazilgan ma`naviy zararni qoplash);
- hisobot yilida aniqlangan o`tgan yillar foydasi;
- mol-mulkni qisqa muddatga (bir yilgacha) ijaraga berishdan renta daromadi;
- yordamchi tarmoqlardan ko`rilgan daromadlar;
- xo`jalikning ortiqcha asosiy fondlari va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar;
- da`vo muddati o`tgan kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar-moddiy boyliklarni qayta baholashdan ko`rilgan daromadlar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

Hozirgi kunda fermer xo`jaliklari bozor iqtisodiyotining muhim elementi hisoblanadigan moliya va qimmatli qog`ozlar bozorida ham faol ishtirok etib, daromad olishlari mumkin.

*Moliyaviy faoliyatdan oladigan daromadlarga* quyidagilarni kiritish mumkin:

- boshqa korxonalar sarmoyasiga ulush qo`yish natijasida keladigan daromadlar;
- aksiyalar bo`yicha dividendlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog`ozlardan daromadlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to`lovini olish);

- valyuta hisob raqamidagi kursning ijobiylari farqlanishi va sarflangan mablag`larning qayta baholanishidan olingan daromadlar.

Ayrim holatlarda favqulodda holatlar (sel, jala, yong`in, zilzila va h.k.) natijasida ko`rilgan zararni qoplash yuzasidan ham daromad olish mumkin va uni *favqulodda daromadlar* deb ataladi.

Ammo, moliyaviy mablag`larning ushbu hosil bo`lish manbalari hali korxona ixtiyorida qoladigan yakuniy daromad (sof foyda)ni aks ettirmaydi. Chunki, kelgusi yilda takror ishlab chiqarishga jalb etish mumkin bo`lgan mablag` faqatgina yilning sof foydasi hamda amortizatsiya ajratmalari hisobiga ta'minlanishi mumkin.

Hozir amalda qo`llanilayotgan nizomga ko`ra, fermer xo`jaligi faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishda foydaning quyidagi ko`rsatkichlari qo`llaniladi:

**1. *Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.*** Bu mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi.

$$YAF = SST - IT$$

Bu yerda:  $YAF$  – yalpi foyda;

$SST$  – sotishdan olingan sof tushum;

$IT$  – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

**2. *Asosiy faoliyatdan ko`rilgan foyda.*** Bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o`rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

$$AFF = YAF - DX + BD - BZ .$$

Bu yerda:  $AFF$  – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

$DX$  – davr xarajatlari;

$BD$  – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

$BZ$  – asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa zararlar.

**3. *Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda.*** Bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko`rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

$$UF = AFF + MD - MX .$$

Bu yerda:  $UF$  – umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda;

$MD$  – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

$MX$  – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

**4. *Soliq to`langungacha olingan foyda.*** Bu umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko`zda tutilmagan) vaziyatlardan ko`rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

$$STF = UF + FF - FZ .$$

Bu yerda:  $STF$  – soliq to`langungacha bo`lgan foyda;

$FF$  – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

$FZ$  – favqulodda vaziyatlarda ko`rilgan zarar.

**5. *Yilning sof foydasi.*** Bu soliq to`lagandan keyin xo`jalik yurituvchi subyekt, ya`ni korxona (firma) ixtiyorida qoladigan hamda xo`jalik subyekti mustaqil tasarruf etadigan foyda. Uni soliqlar to`langunga qadar bo`lgan foydadan, daromaddan soliqni

hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq va to`lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi.

$$SF = STF - DS - BS .$$

Bu yerda:  $SF$  – sof foyda;

$DS$  – daromad (foyda)dan to`lanadigan soliqlar;

$BS$  – boshqa soliq va to`lovlar.

Fermer xo`jaligi sof foydasining bir qismini ishlab chiqarishni kengaytirishga, ikkinchi qismini esa iste'mol uchun yo`naltirishi mumkin. Sof foydaning ishlab chiqarishni kengaytirishga yo`naltiriladigan qismini kapitallashtirilgan foyda deb ataladi va u:

- asosiy fondlar qiymatini o`stirishga;
- aylanma fondlar qiymatini o`stirishga;
- uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishga;
- zaxira jamg`armasini yaratishga yo`naltirilishi mumkin.

Sof foydaning bir qismi fermer xo`jaligi a'zolariga daromad tarzida taqsimlanishi va turli ijtimoiy maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Fermer xo`jaligini moliyalashtirishda xo`jalikning ichki zaxiralari, ya`ni o`z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonaning ichki moliyaviy resurslaridan unumli foydalanish birinchi navbatda korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va mavjud resurslardan tejamkorlik bilan, oqilona foydalanishni nazarda tutadi.

Fermer xo`jaligining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda pul oqimlarini to`g`ri rejorashtirish va boshqarish muhim rol o`ynaydi. Pul oqimlar xo`jalikning bir yil davomidagi barcha sarflangan va kirim qilingan pul mablag`lari harakatini ifodalaydi. Pul oqimlarini to`g`ri rejorashtirish va boshqarish nisbatan murakkab vazifa bo`lib, u endigina amaliyatga kirib kelmoqda.

Fermer xo`jaligining pul oqimlaridan unumli foydalanish quyidagi vazifalarni yechishga yordam beradi:

- u xo`jalikning «moliyaviy qon aylanish tizimi» bo`lib, samarali tashkil etilganda moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi;
- pul oqimlarini oqilona shakllantirish xo`jalik operatsion faoliyatining bir maromda va doimiy amal qilishini ta'minlaydi;
- pul oqimlarini samarali boshqarish qarz mablag`lariga ehtiyojni qisqartiradi;
- pul oqimlarini to`g`ri boshqarish xo`jalik kapitalining aylanishini tezlashtiruvchi moliyaviy dastak hisoblanadi;
- pul oqimlaridan samarali foydalanish xo`jalikning to`lovga qobiligini oshiradi va maqsadli foyda miqdoriga erishishga yordam beradi.

Fermer xo`jaligining pul oqimlari operatsion faoliyat, moliyaviy faoliyat va investitsion faoliyat natijasida shakllanadigan pul oqimlaridan iborat bo`ladi (13-chizma).


Operatsion faoliyat bo`yicha pul oqimlari ishlab chiqarishda ishlatilgan moddiy resurslar qiymati, ish haqi va undan ijtimoiy ajratmalar, asosiy vositalarning amortizatsiyasi, turli ish va xizmatlar uchun to`langan pul mablag`lari, ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar, xo`jalikni boshqarish xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlari, budjetga turli soliqlar


va boshqa to`lovlarga sarflangan pul mablag`larini aks ettiradi. Shu bilan birga bu turdag'i pul oqimlariga mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko`rsatishdan kelib tushgan va operatsion faoliyat bilan bog`liq boshqa pul tushumlari hisobga olinadi.

Investitsion faoliyat bo`yicha pul oqimlari fermer xo`jaligining ishlab chiqarishga sarflagan real investitsiyalari bo`yicha, ortiqcha asosiy vositalarni sotish bilan bog`liq va boshqa investitsion xarakterdagi kirim va chiqimlarni o`z ichiga oladi.

Moliyaviy faoliyat bo`yicha pul oqimlari xo`jalikning boshqa korxonalar sarmoyasiga ulush qo`shish, aksiyalar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalar natijasida, mol-mulkni ijaraga berish (lizing to`lovi), valyuta hisob raqamidagi kursning ijobiylari va salbiy farqlanishi hamda sarflangan mablag`larning qayta baholanishi tufayli yuzaga kelgan chiqimlar va pul tushumlarini, shuningdek qisqa va uzoq muddatli qarzlarni jalb etish bo`yicha kelib tushgan pul mablag`lari va ular bo`yicha to`lanadigan foizlar xarajatini o`z ichiga oladi.

### Fermer xo`jaligining turli faoliyati natijasida hosil bo`ladigan pul mablag`lari oqimi





14-chizma. Bank krediti turlari

Fermer xo`jaligi pul oqimlarining shakllanishida ichki va tashqi omillar o`z ta`sirini o`tkazadi. Tashqi ta`sirlarga tovar va fond bozorlaridagi vaziyat, xo`jalik yurituvchi subyektlar orasidagi o`zaro hisob-kitoblar tartibi, kreditlar bilan ta`minlash, soliq va bojxona tizimlari kirsa, ichki omillarga ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi va mavsumiylik xarakteri, xo`jalikning amortizatsiya siyosati, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tizimi va boshqalar misol bo`ladi.

### **7.3. Ishlab chiqarishni moliyalashtirishga tijorat banklarining kreditlarini jalg etish tamoyillari, turlari va mexanizmi**

Fermer xo`jaligi faoliyatini moliyalashtirishda o`z mablag`lari yetarli bo`lmasa holatlarda chetdan qarzga mablag` jalg etishga to`g`ri keladi.

Kredit bank tizimi va ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari orqali ssuda jamg`armasining harakatini ifodalaydi. Kredit (lot. Creditum - qarz, credo - ishonaman) – pul mablag`lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to`lab qaytarib berish sharti bilan ma`lum muddatlarga qarzga berish ma`nosini anglatadi. Kreditning mohiyatini yanada mukamalroq yoritishda uning ba`zi muhim tomonlariga e`tibor beramiz. Qarzga mablag` beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va b.), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi – qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o`rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo`la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag` qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to`lanishi, muddatli, ma`lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta`minlangan bo`lishi, maqsadli ishlatilishi shart.

Qarz beruvchi tomonidan pul mablag`larini qarzga berish, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag`larni olish bo`yicha qiziqish tug'ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi. Kredit munosabatlari ishtirokchilari tomonidan manfatlarning mos kelishi kredit shartnomalari tuzilishini ta`minlaydi. Kredit munosabatlarini rivojlatirishda banklar kreditning asosiy xarakterli belgilari va ularning harakatida muhim shart va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonlarini amalga oshirishlari zarur.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash ular faoliyatini moliyalashtirishning eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. U korxona va kredit tashkiloti o`rtasida tegishli shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish orqali o`rnataladigan moliyaviy munosabatdir.

Bu munosabatlarning markaziy bo`g`ini kredit shartnomasi bo`lib, u ssudaning ta`minlanganligi, kreditlarni o`z vaqtida foizi bilan qaytarilishining huquqiy asoslarini ta`minlaydi.

Bank kreditlarining bir qancha turlari mavjud (14-chizma). Xususan:

- aylanma mablag`lar va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ajratiladigan odatdagi imtiyozsiz tijorat krediti;
- tijorat banklarining “imtiyozli jamg`armasi” hisobidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar;
- ipoteka krediti;

- boshlang`ich sarmoyaga ajratiladigan mikrokreditlar;
- ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratiladigan mikrokreditlar;
- davlat buyurtmasi bo`yicha paxta va g`allani moliyalashtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar bunga misol bo`ladi.

Tijorat banklari tomonidan kredit berish **muddatlilik, qaytarishlik, to`lovilik** va **ta'minlanganlik** tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

**Muddatlilik** tamoyili shuni bildiradiki, kreditlar taqdim etish muddatiga ko`ra qisqa, o`rta va uzoq muddatliga ajratiladi. Qisqa muddatli kreditlar odatda joriy ishlab chiqarishni aylanma mablag`lar bilan ta'minlash maqsadida, nisbatan yuqori foizlarda va bir yilgacha muddatda qaytarish sharti bilan beriladi.

O`rta muddatli kreditlar 1 yildan 5 yilgacha muddatga, ishlab chiqarishning xususiyati sarflangan investitsiyalarni shu muddat ichida to`la qoplash imkonini beradigan sohalarga beriladi.

Uzoq muddatli kreditlar 5 yildan ko`p muddatga, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun, odatda ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, qayta qurish va kapital ta'mirlash maqsadlariga beriladi.

**Qaytarishlik** tamoyili qarzdorning kreditni to`liq hajmda kreditorga qaytarilishi bo`yicha javobgarligini anglatadi.

**To`lovilik** tamoyiliga ko`ra kreditlar qarzdorga ma'lum bir foiz to`lovlarini to`lash sharti bilan beriladi. Qarzdorning kreditdan foydalanganlik uchun to`laydigan foiz to`lovlar kredit muassasasining daromadini tashkil etadi.

**Ta'minlanganlik** tamoyili kreditlash shartlariga ko`ra qarzdor kreditorga kreditni qaytarish kafolatini ta'minlashi lozimligidan kelib chiqadi. Chunki, qarzdor kreditni qaytarishdan bosh tortganda, kreditor qarzdorning (yoki unga kafolat, kafolatlik bergen yuridik shaxsning) mol-mulkidan tegishli miqdoridagi mablag`larni o`z tasarrufiga olish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. Banklar o`zлari bilan doimiy aloqaga ega bo`lgan, bank hisobraqamida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro` va kredit tarixiga ega qarz oluvchilarga, bu ta'minot turlarini talab qilmay, blanka (ishonch)li kredit berishlari mumkin. Bank kreditlarini ajratishning bir qator shartlari mavjud. Masalan, ajratilayotgan kreditning maksimal summasi, foiz stavkasi darajasi, asosiy qarzni va foiz to`lovlarini qaytarish jadvali, ajratiladigan imtiyozli davr, kredit berilayotgan muddat kabi bir qator shartlar kredit shartnomasining asosini tashkil etadi (**15-chizma**).

Loyihaning xususiyatiga ko`ra imtiyozli yoki imtiyozsiz shartlarda berilishi mumkin. Imtiyozli kreditlar ustuvor yo`nalishlar uchun, odatda davlat dasturlari doirasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o`rtasidagi o`zaro kelishuvga ko`ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Olingan kreditni qaytarmaslik xatarini oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo`lishi kerak. Qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarining birini taqdim etish huquqiga ega:

- mulk yoki qimmatli qog`ozlar garovi;
- bank yoki sug`urta tashkiloti kafolati;
- uchinchi shaxsning kafolatligi;

- sug`urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmaslik xatarini sug`urta qilgani to`g`risidagi sug`urta polisi.

- fuqarolar yig`inlarining mahalla, qishloq, ovul Kengashlari kafolatligi.

Kreditlarni qaytarilish ta'minoti shakllaridan biri sifatida mol-mulk garovi xizmat qiladi. O`zbekiston Respublikasining «Garov to`g`risida»gi Qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquq (talab)lar, qimmatbaho buyumlar, zargarlik buyumlari, erkin ayirboshlanadigan valyuta va boshqalar garov predmeti bo`lishi mumkin. Kredit hisobiga sotib olingan mulk, uning qiymatining 80 %i miqdorida, mazkur kredit bo`yicha garov predmeti bo`lib xizmat qilish mumkin.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o`rtasidagi o`zaro kelishuvga ko`ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Kreditlarni olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlar (kredit paketi)ni taqdim etadilar:

- kredit buyurtmasi;


- qarz oluvchining bank hisob varag`idagi pul tushumlari taxmini (pul oqimi) ko`rsatilgan biznes-rejasи;

- oxirgi hisobot sanasiga davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-son shakl);

- moliyaviy natijalar haqida hisobot (2-son shakl);

- debtorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnama, shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirma dalolatnomalari;

- ta'minot shakllaridan birini.



**15-chizma. Kredit shartlarining asosiy tarkibiy qismlari**

O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7-martda 907-son bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash TARTIBI” tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga hamda kichik biznes boshqa subyektlariga, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil etgan dehqon xo`jaliklariga kreditlar berilishi tartibini muvofiqlashtiradi.

Tijorat banklari qarz oluvchilarga kreditlarni shartnomaviy asosda beradi. Kreditlar berilishi kreditlanayotgan tadbirning o`zini qoplashiga bog`liqdir, xususan:

- kichik biznes subyektlariga oborot mablag`larini to`ldirish uchun kreditlar 1 yilgacha muddat bilan beriladi;

- fermer xo`jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil etgan dehqon xo`jaliklariga qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini tashkil etishga oborot mablag`larini to`ldirish uchun kreditlar, odatda, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- kichik biznesnnng barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxsni tashkil etgan fermer va dehqon xo`jaliklariga investitsiya loyihamalarini moliyalash uchun kreditlar to`lash muddatini uzaytirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini tashkil etishga mo`ljallangan oborot mablag`larini to`ldirish uchun dehqon va fermer xo`jaliklariga berilgan kreditlarni so`ndirishning eng ko`p muddati, uni uzaytirish hisobga olingan holda, kutilmagan (fors-major) holatlardan tashqari, 30 oydan oshishi mumkin emas. Qishloq xo`jalik faoliyati bilan bog`lanmagan fermer va dehqon xo`jaliklarining oborot mablag`larini to`ldirishga berilgan boshqa kreditlar bo`yicha, bu muddatni uzaytirish hisobga olingan holda, ulardan foydalanishning eng ko`p muddati 12 oy qilib belgilanadi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasining miqdori qarz oluvchi bilan bank o`rtasida kredit shartnomasiga asoslanilgan o`zaro kelishuv bo`yicha belgilanadi.

Qarzdor tomonidan kredit bo`yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda, bank mazkur qarzlarni qaytarishni qarzdorlarning likvidli mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, kompyuter hamda korxona va tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrdagi 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklarni kreditlari bo`yicha qarzdorlik o`z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi"ga muvofiq amalga oshirish huquqiga ega.

Fermer xo`jaliklarini moliya-kredit tizimi orqali qo`llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo`llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-may 195-sonli «Tijorat banklarining kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag`batlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori bilan tijorat banklarining kichik va o`rta biznesni rivojlantirishga faol qatnashishlarini ta'minlash maqsadida «*Imtiyozli kredit berish maxsus jamg`armasi*» tashkil etiladi. Banklar foydasining 25 %gacha miqdorini ajratish hisobiga jamg`arma mablag`lari shakllantiriladi.

Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg`armasi resurslarini ko`paytirishiga yo`naltiriladigan va jamg`armaning berilgan kreditlari hisobiga olingan daromadlari daromad (foyda) solig`idan 5 yil muddatga ozod qilinadi. Tijorat banklarining daromad (foyda) solig`ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza jismoniy shaxslarning muddatli omonat (denozit)larining ko`paygan summasiga kamayadi, bunda bo`shaydigan mablag`larda ko`rsatilgan omonatlar bo`yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo`naltirilishi shart.

Imtiyozli kredit berish jamg`armasi mablag`lari hisobidan qishloq xo`jaligiga kreditlar berish faqatgina yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo`jaligi va fermer xo`jaliklariga, muddatlari kredit berilayotgan tadbirlarning o`zini qoplashga muddatiga bog`liq holda beriladi, chunonchi:

- qishloq, xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablaglarni to`ldirishga kreditlar fermer xo`jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs bo`lgan dehqon xo`jaliklariga, qoidaga ko`ra, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- investitsiya loyihamalarini mablag` bilan ta'minlash uchun kreditlar yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan fermer va dehqon xo`jaliklariga to`lov muddatini kechiktirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Jamg`arma mablag`lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo`yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 %idan ortiq bo`lmagan miqdorda belgilanadi.

Qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini moliyalashtirishni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash borasida yana bir qator imtiyozlar joriy etilgan (16-chizma). Xususan, tijorat banklarining xo`jalik yurituvchi subyektlarga ajratayotgan imtiyozsiz (tijorat) kreditining yillik fooiz stavkalari 25-30 % va undan ham yuqori bo`layotgan bir paytda, fermer xo`jaliklariga ular va budjetdan tashqari jamg`armalar tomonidan ajratayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkalari 4-6 baravar past bo`lmoqda. Bu esa o`z navbatida qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash siyosatining natijasidir va bu korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

## Fermer xo`jaliklariga tijorat banklari va budjetdan tashqari jamg`armalar hisobidan beriladigan kreditlar

Kreditlash shartlari	Kredit beradigan moliya muassasalarining kreditlash turlari					
	Tijorat krediti	«Imtiyozli jamg`arma»dan	Davlat buyurtmasi (paxta va g`allaga)	Boshlang`ich sarmoya	Mikrokredit	Mikrokredit
Kredit ajratadigan moliya muassasalari	Tijorat banklari	Tijorat banklari	O`zR Moliya Vazirligi huzuridagi Jamg`arma	Mikrokreditbank	Budjetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari orqali	Mikrokreditbank
Nizom raqami va sanasi	O`zR AV*, 07.03. 2000. № 907	O`zR VM*, 19.05.2000. 195-son qarori	O`zR AV*, 11.08.2005. № 1508	O`zR VM*, 06.05.2006. 78-son qarori	O`zR AV*, 08.08.2006. № 1548-1	O`zR VM*, 06.05.2006. 78-son qarori
Kredit shakli	imtiyozsiz	imtiyozli	imtiyozli	imtiyozli	imtiyozli	imtiyozli
Kredit beriladigan faoliyat turlari va muddati	-aylanma mablag`lar uchun -2 yilga; -investitsion loyi-halarni oliyalashga-5 yilgacha	-aylanma mablag`lar uchun -2 yilga; -investitsion loyi-halarni oliyalashga - 5 yilgacha	davlat buyurtmasi asosida mahsulot yetishtirishga: - g`allaga 12 oygacha, - paxtaga 18 oygacha	dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga 18 oygacha	ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatni rivojlantirishga, kamida 2 yil	ishlab chiqarishni kengaytirish va aylanma mablag`larni to`ldirish uchun, 24 oygacha
Beriladigan kredit summasi	O`zaro kelishuv asosida	O`zaro kelishuv asosida	Xarid qilinadigan paxta va g`alla qiyma-tining 50 %igacha	Eng kam ish haqining 200 baravarigacha	10 000 AQSH dollarining so`mdagi ekvivalenti	Eng kam ish haqining 500 baravarigacha
Kredit foizlari	kelishuv asosida, 25-30 % atrofida	Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 %ga teng, (hozir 7% atrofida)	3 %	5 %	Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi, (hozir 5% atrofida)	Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan yuqori emas (14% gacha)
Garov ta'minoti	Kredit qiymatining 120 % miqdorida, kafolatlik xati	Kredit qiymatining 120 % miqdorida, kafolatlik xati	Banklar hisobidan sug`urtalanadi	Kredit qiymatinihg 120 % miqdorida, kafolatlik xati	Kredit qiymatining 120 % miqdorida, kafolatlik xati	Kredit qiymatini 120 % miqdorida, kafolatlik xati

\* O`zR AV – O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, \*O`zR VM - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

## **7.4. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga mikrokreditlar jalb etish tartibi**

Kredit berish shakllaridan biri mikrokreditdir. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-maydagi 78-sod qarori bilan tasdiqlangan «Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko`rsatish tartibi to`g`risidagi vaqtinchalik nizom»ga ko`ra “Mikrokreditbank”ning kredit liniyalari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar berish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish yo`li bilan yangi ish o`rnlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Foydalanish yo`nalishlariga ko`ra mikrokreditlar:

- boshlang`ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun;
- biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag`larni to`ldirishga beriladi.

Boshlang`ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikrokredit yiliga 5 % stavka bo`yicha 18 oy muddatgacha:

- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda yuridik shaxs maqomiga ega bo`lмаган tadbirkorlik subyektlari uchun;
- eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrofirmalar va dehqon xo`jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan);
- eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda fermer xo`jaliklari uchun beriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit boshlang`ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kundan boshlab 6 oy mobaynida buyurtma taqdim etilganda beriladi.

Mikrokreditlar biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag`larni to`ldirish uchun kichik tadbirkorlik subyektlari (mikrofirma, kichik korxona, dehqon va fermer xo`jaliklari)ga O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo`lмаган foiz stavkasi bo`yicha, 24 oy muddatgacha, eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda beriladi.

Imtiyozli mikrolizing bo`yicha xizmatlar kichik biznes subyektlariga 3 yilgacha muddatgacha, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan yuqori bo`lмаган stavka bo`yicha, eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda ko`rsatiladi.

Kredit qo`mitasi, shu jumladan joyiga borgan holda, qarz oluvchining kredit buyurtmasini va to`lovga qodirligini, shuningdek mikrokredit maqsadlarining faoliyat xarakteriga muvofiqligini o`рганади. Kredit paketini tahlil qilish, shuningdek qarz oluvchining kredit tarixini va uning rahbari obro`sini baholashga asoslanadi.

Kredit qo`mitasi buyurtmani ko`rib chiqqandan keyin tegishli qaror chiqaradi, qaror kredit qo`mitasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Mikrokredit berish to`g`risidagi ijobjiy qaror kredit qo`mitasi a`zolarining kamida uchdan ikki qismi

tomonidan ma'qullanishi kerak. Kredit qo`mitasining ijobiy qarori asosida qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuziladi.

Kredit qo`mitasi tomonidan salbiy qaror qabul qilingan taqdirda qarz oluvchi bu haqda rad etish sabablari ko`rsatilgan holda yozma ravishda xabardor qilinadi.

Tadbirkorlik subyekti kredit qo`mitasi qarori yuzasidan sudga belgilangan tartibda shikoyat bildirishga haqlidir.

Mikrokredit berish to`g`risidagi qaror kredit qo`mitasi tomonidan bankka zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit buyurtmasi tushgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qabul qilinadi.

Mikrokreditlar ta'minlanish, shuningdek ishonch asosida beriladi.

Mulk garovi mikrokreditni ta'minlashning asosiy shakli bo`lib xizmat qiladi. Har qanday mulk, shu jumladan buyumlar va "Garov to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mulkiy huquq (talab)lar garov predmeti bo`lishi mumkin.

Qarz oluvchining o`zi, shuningdek uchinchi shaxs ham garov qo`yuvchi bo`lishi mumkin.

Ko`chmas mulk garovi to`g`risidagi shartnama "Yergeodezkadastr" davlat qo`mitasining tegishli tuman (shahar) xo`jalik hisobidagi kadastr va ko`chmas mulk xizmatida ro`yxatdan o`tkazilgan bo`lishi kerak.

Beriladigan mikrokredit summasi garovga qo`yilgan mol-mulk qiymatining 80 %idan ortiq bo`lishi mumkin emas. Garov buyumlari - transport vositalari va ko`chmas mulk obyektlari - yo`qotish va ziyon yetkazilishi hodisalaridan qarz oluvchi hisobiga sug`urta qilinishi kerak.

Yuqori likvidlikka ega bo`lgan qimmatli qog`ozlar ham garov buyumi bo`lishi mumkin. Garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar tegishli shartnama bilan rasmiylashtiriladi va qarz to`liq qaytarilgunga qadar saqlash uchun bankka o`tkazilishi kerak.

Mikrokreditni ta'minlash uchun likvidli tovarlar, xorijiy valyuta va garov shaklida rasmiylashtiriladigan valyuta boyliklarining boshqa turlari qabul qilinishi mumkin.

Bank foydasiga rasmiylashtirilgan uchinchi shaxslarning kafolatligidan qo`shilgan foizlar hisobga olingan holda qarz summasi miqdorida mikrokreditni ta'minlash sifatida foydalaniishi mumkin. Faqat benuqson to`lov qobiliyatli subyekt obro`siga ega bo`lgan yuridik shaxslar kafolat beruvchi bo`lishi mumkin.

Kafolatlik kafolat beruvchining moliyaviy holati tahlili asosida bank tomonidan qabul qilinishi kerak. Budget tashkilotlari kafolat beruvchi bo`lishi mumkin emas.

Mikrokreditlar faqat qoniqarli kredit tarixiga ega bo`lgan va oldin olingan uchta kreditni o`z vaqtida to`lagan qarz oluvchilarga ishonch asosida berilishi mumkin.

Kredit ishonch asosida berilganda bo`lajak to`lovlar bo`yicha ta'minlash sifatida qarz oluvchilar tomonidan kredit qiymatining 20 %igacha miqdordagi summada majburiy jamg`ariladigan depozit joylashtiriladi, unga bank tomonidan foiz to`lovlari qo`shiladi.

## **7.5. Fermer xo`jaliklarining davlat buyurtmasi bo`yicha paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash tartibi**

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo`jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g`alla va paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlari uchun kredit ajratish masalasida respublikamiz hukumati tomonidan alohida e'tibor berib kelinmoqda. Hech shubhasiz, "Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda iqtisodiyotimizdagi har qaysi subyektning imkon qadar ko`proq manfaatdor bo`lishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini ta'minlash maqsadida qo`shimcha rag`batlantirish choralarini izlab topish katta ahamiyat kasb etadi"<sup>1</sup>.

Tijorat banklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g`alla va paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlari uchun kredit ajratish uch bosqichda amalga oshirildi (17-chizma):

**Birinchi bosqichda** - mustaqilligimizning dastlabki yillarda qishloq xo`jaligi korxonalarining moliyaviy axvoli beqarorligi sababli, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tayyorlov korxonalari orqali bo`naklash orqali moliyalashtirish mexanizmi barpo qilindi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 31-dekabrdagi Farmoniga muvofiq, joriy etilgan davlat ehtiyojlari uchun yetishtirladigan qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalari orqali bo`naklash mexanizmi:

- qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi tarmoq korxonalarini ishlab chiqarish potensialini saqlab qolishga xizmat qildi;
- xo`jaliklarning kredit olish qobiliyati o`ta past bo`lgan sharoitda, paxta xomashyosi va don yetishtirishni tizimli asosda moliyalashtirib borishga imkon yaratdi.

Shu bilan bir vaqtda, qishloqda haqiqiy mulkdorlarni, mulk egalarini shakllantirish yo`lida olib borilayotgan siyosat natijasida, fermer xo`jaliklar soni va ular tomonidan yetishtiriladigan mahsulot hajmi keskin o'sib bormoqda.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009, 36-b.

BOSQICHLAR	DAVR	MOLIYALASH MEXANIZMI
I bosqich	1999-2002-yillar	Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tayyorlash korxonasi orqali bo`naklash (transh ajratish) mexanizmi
II bosqich	2003-2004-yillar	2003-yildan Buxoro, Namangan, Farg`ona va Xorazm, 2004- yildan boshlab, Andijon, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida fermer xo`jaliklarni bo`naklashning (transh ajratishning) amaldagi mexanizmi o`rniga, xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlash mexanizmi sinov tariqasida joriy etish
III bosqich	2005-2007-yillar	Respublika miqyosida 2005-yil hosilidan paxta va 2006-yil hosilidan boshlab g`alla yetishtirish xarajatlarini to`liq hajmda imtiyozli kredit ajratish yo`li bilan moliyalashtirish

17-chizma. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalash tizimini takomillashtirish bosqichlari

Shuningdek, fermer xo`jaliklar soni keskin oshib borish sharoitida, ularni bo`naklash mexanizmiga muvofiq moliyalashtirish jarayonida bir qator muammolar vujudga keldi.

**Ikkinchchi bosqichda** – yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, tashkil etilgan fermer xo`jaliklarining mulkdor sifatida faoliyat ko`rsatishlarida erkinlik yaratish va ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarida ularning moddiy manfaatdorliklarini oshirish maqsadida, amaldagi moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 7-noyabrdagi 383-sonli qaroriga muvofiq, 2003-yil hosilidan boshlab Buxoro, Namangan, Farg`ona va Xorazm viloyatlarida fermer xo`jaliklarini bo`naklashning amaldagi mexanizmi o`rniga, ularga xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmi sinov tariqasida joriy etildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qaroriga muvofiq, Moliya vazirligining 2004-2005-yillarda respublikadagi barcha fermer xo`jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g`alla yetishtirish xarajatlarini ularga xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklari orqali to`g`ridan-to`g`ri imtiyozli kreditlash mexanizmiga o`tish to`g`risidagi taklifi qabul qilindi hamda 2004-yil hosilidan boshlab, Andijon, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ham ushbu mexanizm joriy etildi.

2003-2004-yillarda joriy etilgan fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlarni ajratish mexanizmi, amalda bo`lgan bo`naklash mexanizmiga nisbatan bir qator afzalliliklarga ega ekanligini ko`rsatdi. 2003-2004 yillarda qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatining avvalgi yillarga nisbatan samarali tashkil etilishi natijasida g`alla va paxtadan sezilarli darajada yuqori hosil olindi. Pirovardida, past rentabelli, zarar ko`rib faoliyat ko`rsatayotgan xo`jaliklar soni sezilarli darajada kamaydi. Bu holat, amaldagi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlov korxonalari orqali bo`naklash mexanizmi o`rniga, ularga xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmiga o`tishga imkon yaratdi.

**Uchinchi bosqichda** – tatbiq etilgan mexanizm o`z samaradorligi hamda afzalligini isbotlagandan so`ng Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-dekabrdagi “Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishni mablag` bilan ta`minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga ko`ra:

- paxta xomashyosi yetishtirishni moliyalashtirish – 2005-yil hosilidan boshlab;
- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan g`alla hosilini yetishtirishni moliyalashtirish – 2006-yil hosilidan boshlab, tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmiga o`tkazilishi belgilab berildi.

Ushbu holatni inobatga olgan holda hamda fermer xo`jaliklarini mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq xarajatlarini moliyalashtirishda kredit resurslariga bo`lgan talabini to`liq qondirish hamda ularga qulayliklar yaratish maqsadida 2007-yildan boshlab:

- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g`alla hosilini kreditlash miqdori 50 %dan 60 %gacha ko`paytirildi;

- fermer xo`jaliklariga ajratilayotgan mablag`lar faqat bitta maxsus hisob raqami (23210 yoki 23220) orqali amalga oshirilmoqda. Bunda, mablag`larni maxsus hisob-raqamlariga (23204, 23222, 23218) yo`naltirish qishloq xo`jaligi korxonasiga emas, xizmat ko`rsatuvchi korxonaga to`langach amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmasi bo`yicha qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo`jaliklarga O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirlida 2007-yilning 14-aprelda 1675-raqam bilan ro`yxatga olingan “Qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to`g`risida Nizom”ga asosan imtiyozli kreditlar ajratiladi (18-chizma).

Kreditlar davlat ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot qiymatining 60 %igacha miqdorlarda yillik 3 %lik ustama haq to`lash sharti bilan (2 %lik qismi bank marjası) g`alla uchun 12 oygacha, paxta xomashyosi uchun 18 oygacha bo`lgan muddatga beriladi.

Bunda, kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda, quyidagi tartibda ajratiladi:

- paxta xomashyosi uchun yilning 1 yanvariga qadar paxta xomashyosi qiymatining 10 %igacha, 1 apreliga qadar 25 %gacha, 1 iyulga qadar 50 %igacha, 1 sentabrga qadar 60 %igacha;

- g`alla uchun yilning 1 yanvariga qadar g`alla qiymatining 35 %igacha, 1 aprelga qadar 50 %gacha, 1 iyunga qadar 60 %gacha;

Bundan, ta'kidlab o'tish lozimki, umumiy g`alla hosilining 50%i davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadi va ushbu hajmdagi g`alla qiymatining 60% miqdorida kreditlar ajratiladi.

Kredit miqdori tayyorlov korxonalari tomonidan fermer xo`jaliklariga yetkazib beriladigan urug`lik qiymatiga kamaytiriladi. Kredit shartnomasini tuzish uchun xarid narxlari asos qilib olinadi.

Mazkur kreditlar faqatgina quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to`lash uchun;

- mineral o`g`it va o`simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;

- yoqilg`i-moylash mahsulotlarini xarid qilish uchun;

- MTPlar, muqobil MTPlar, SFUlar (suvdan foydalanuvchilar uyushmalari) va qishloq xo`jalik texnikasi mavjud bo`lgan boshqa xo`jalik subyektlarining xizmatlari uchun to`lovlariga;


- xo`jalik ixtiyoridagi texnikalarga ehtiyyot qismlarni sotib olish uchun;

- lizing (moliyaviy ijara)ga berilgan texnika vositalarining lizing va sug`urta to`lovlar uchun;

- foydalanilgan elektr energiyasi uchun to`lovlariga;

- plyonka ostiga ekiladigan paxta uchun polietilen plyonkasi xarid qilishga;

- yagona yer solig`i to`lovlariga (muddati o`tgan yer solig`i. Muddatli yer solig`i to`lovlar qonunchilikda belgilangan muddatlarda to`lanadi).



**18-chizma. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kreditlar orqali moliyalash tartibi**

Shuningdek, ajratiladigan kreditlarning 5 %i doirasida paxta va g`alla yetishtirish bilan bog`liq bo`lgan xo`jaliklarining boshqa zaruriy ehtiyojlar, shu jumladan, sug`urta mukofoti uchun to`lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko`ra, 1998-2008-yillar oraliq`ida Moliya vazirligi huzuridagi "Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg`armasi" mablag`lari hisobidan fermer xo`jaliklariga paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar qiymati yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, 1998-yilda ajratilgan kredit miqdori 151,0 mlrd. so`mni tashkil etgan bo`lsa, 2007-yilda bu ko`rsatkich 1 683 mlrd. so`mga etgan yoki 11,16 martaga oshgan (1-diagramma).

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi xarid narxlari asos qilib olinadi. Yangi xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori kredit oluvchining talabiga ko`ra qayta hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo`jaligi korxonasi tomonidan yetkazib beriladigan mahsulot hajmining qiymati "O`zpaxtasanoatsotish" va "O`zdonmahsulot" DAKlar bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda o`rnataladi. Mazkur tavsiya etilayotgan xarajatlarning agrotexnika me`yorlari qishloq xo`jaligi korxonalariga biznes-reja ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

## **7.6. Fermer xo`jaliklarining yer ijarasi huquqini va bo`lg`usi hosilini garovga olgan holda kreditlash tartibi**

O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirlida 2004-yilning 30-aprelida 1345-raqam bilan ro`yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarining yer uchastkasini ijara olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to`g`risidagi Nizom" tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarining yer uchastkasini ijara olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibini belgilaydi.

Tijorat banklari qarz oluvchilarga kredit berishni shartnoma asosida, garovga yer uchastkasini ijara olish huquqini garovga taqdim etgan holda, amalga oshiradi. Bunda yer uchastkasini ijara berish muddati kredit shartnomasida belgilangan, ta'minlanishi uchun u garovga qo`yilayotgan kreditni qaytarish muddatidan kamida besh yilga ko`p bo`lishi kerak.

Kredit berish muddatlari kreditlanayotgan tadbirning qoplanish muddatlariga bog`liq bo`ladi, xususan:


- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga doir aylanma mablag`larni to`ldirishga kredit odatda 2 yildan kam bo`limgan muddatga beriladi;

- fermer xo`jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar muddatni kechiktirish huquqisiz 5 yilgacha bo`lgan muddatga berilishi mumkin.

Qishloq xo`jaligi faoliyati bilan bog`lanmagan fermer xo`jaliklarining aylanma mablag`larini to`ldirishga doir boshqa kreditlar bo`yicha, ularning kreditlardan foydalanishi eng ko`p muddati, uzaytirishni hisobga olganda, 12 oydan ortiq qilmasdan belgilanadi.

1-diagramma

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg`armasi tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar, (mlrd. so`mda)



Investitsiya maqsadlari uchun berilgan kreditlar bo`yicha banklar kreditlashning imtiyozli davrini belgilashi mumkin. Kreditdan foydalanish uchun foiz stavkasining miqdori qarz oluvchi bilan bankning o`zaro kelishuvi bo`yicha kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Kredit olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlar (kredit paketi)ni taqdim etadilar:

- kredit buyurtmanomasi;

- qarz oluvchining bank hisobvarag`iga pul tushumlari (pul oqimi)ning prognози albatta ko`rsatilgan biznes-reja;

- Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan, oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansining nusxasi (1-son shakl) hamda debtorlik va kreditorlik qarzlari to`g`risida ma'lumotnomasi (2a-son shakl), shuningdek 90 kundan ortiq bo`lgan qarzga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to`g`risida hisobot (2-son shakl);

- fermer xo`jaligi tomonidan yer uchastkasi uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasining notarial tasdiqlangan nusxasi;

- yer uchastkasining chizmasi.

«Yer Kodeksi», O`zbekiston Respublikasining “Fermer xo`jaligi to`g`risida”, “Garov to`g`risida”gi Qonunlariga muvofiq, shuningdek mazkur Nizomga muvofiq tuziladigan, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yish kredit qaytarilishining ta`minoti bo`lib hisoblanadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash Markaziy bank Boshqaruvining 2004-yil 13-martdagи 6/17-son qarori bilan tasdiqlangan Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to`g`risida nizomga muvofiq amalga oshiriladi hamda garov beruvchi va garov oluvchining kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi. Beriladigan kreditning summasi yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatining 80 %idan oshishi mumkin emas.

So`ralayotgan kredit summasining qaytarilishini ta`minlash sifatida yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymati yetarli bo`Imagan taqdirda qarz oluvchi yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yishga qo`shimcha tarzda ta`minotning boshqa shakllarini taqdim etishga haqlidir. Kredit qaytarilishining qo`shimcha ta`minoti sifatida mol-mulk va qimmatli qog`ozlarning garovi, olingan kreditning qaytarilmaslik xatarini sug`urtalash, uchinchi shaxslarning kafolatligi, shuningdek ta`minotning boshqa turlari taqdim etilishi mumkin.

Fermer xo`jaligi buyurtmanomasining bank tomonidan ko`rib chiqilish muddati, barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit olish uchun ariza topshirilganidan keyin 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

Bankning kredit qo`mitasi tomonidan kredit berish to`g`risida ijobjiy qaror qabul qilinganidan keyin, bank kredit qo`mitasi qaror qabul qilganidan keyingi kundan kechiktirmay qarz oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Agar garovga yer uchastkasining bir qismini ijaraga olish huquqi berilsa, bu holda fermer xo`jaligining rahbari tuman yer resurslari va davlat kadastro bo`limiga garovga taklif qilinayotgan yer uchastkasining rejasini tuzish uchun murojaat qiladi. Tuman yer resurslari va davlat kadastro bo`limi o`n kun ichida butun yer uchastkasini

suratga olib, garovga beriladigan qismini ajratadi. Ishlar buyurtmachining mablag`lari hisobiga bajariladi.

Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo`yish shartnomasiga, uning ajralmas qismi sifatida, tuman yer resurslari va davlat kadastro bo`limining boshlig`i tasdiqlagan, uning garovga qo`yilayotgan qismi kiritilgan yer uchastkasining chizmasi ilova qilinadi.

Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo`yish shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Kredit shartnomasi notarial tasdiqlangan taqdirda yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yish shartnomasi ham albatta notarial tasdiqlanishi kerak. Garov yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yish shartnomasi ro`yxatdan o`tkazilgan paytdan boshlab yuzaga keladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi boshqa shaxsga meros qolish tartibida o`tganda garov o`z kuchini saqlab qoladi. Bunda yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yish shartnomasi qo`shimcha ravishda ro`yxatdan o`tkaziladi.

Ijaraga olish huquqi garovga qo`yilgan yer uchastkasi faqat garov tutuvchining barcha talablari qanoatlantirilganidan keyingina davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqaga berilishi mumkin.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan “Yer Kodeksi”ga muvofiq yer uchastkasini ijaraga olish huquqini bekor qilish masalasi ko`tarilganda, bank qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnomaga ko`ra, shu jumladan qarz oluvchi tomonidan garovga qo`yilgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ommaviy savdolarda belgilangan tartibda sotish yo`li bilan, berilgan kreditlar va ular bo`yicha hisoblab yozilgan foizlar va jarimalarni muddatidan oldin so`ndirish choralarini ko`rishga haqlidir.

Ijaraga olish huquqi garovga qo`yilgan yer uchastkasini olib qo`yishda, bank o`z talabini qarz oluvchiga yetkazilgan zararlarni qoplash hisobiga kelib tushgan summadan qanoatlantirish uchun ustuvor huquqqa egadir.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati mobaynida doimiy monitoringni amalga oshiradi. Garovga qo`yilgan yer uchastkasidan foydalanish, kredit shartnomasida ta`kidlangan shartlarda samarali va maqsadli foydalanishning holati joyning o`zida o`rganiladi.

Ekinlar mavjud emasligi yoki ular qarovsiz holdaligi aniqlanganda, bank berilgan kreditlarni va ular bo`yicha hisoblab yozilgan foizlar, jarimalarni muddatidan oldin so`ndirish choralarini ko`radi. Bu chora-tadbirlarning hammasi kredit shartnomasida ta`kidlanishi kerak.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo`yan fermer xo`jaligi tugatilganda garov tutuvchi yer uchastkasini ijaraga olishning garovga qo`yilgan huquqini undirishga muddatidan oldin qaratish huquqini oladi. Undirish qaratilgan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning qarz oluvchi tomonidan garovga qo`yilgan huquqlarining amalga oshirilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy savdolarni tashkil etish yo`li bilan bajariladi.

Ommaviy savdolarda o`z zimmasiga yer uchastkasiga doir bevosita belgilangan huquqlar olinganidan keyin undan foydalanish majburiyatini qabul qiladigan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Yer uchastkasini ijara olish huquqini ommaviy savdolarda oladigan yuridik va jismoniy shaxslar huquqlarining ijara muddati tugashiga qadar to`xtatilishiga favqulodda hollarda, faqat unga yetkazilgan zararlar (shu jumladan, boy berilgan foyda) to`la qoplanganidan keyin yo`l qo`yiladi.

O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirlida 2004-yilning 16-aprelida 1337-raqam bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga bo`lg`usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to`g`risida Nizom” tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga bo`lg`usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibini belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg`armasi (keyingi o`rinlarda - Jamg`arma) kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan fermer xo`jaliklariga g`alla yetishtirish uchun "O`zdonmahsulot" tayyorlov korxonalari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi summasining 30 %igacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo`jaliklariga kontraktatsiya shartnomasi summasining 80 %igacha miqdorida kredit berilishi mumkin.

Jamg`arma kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan paxta xomashyosi yetishtiradigan fermer xo`jaliklariga ushbu kredit kontraktatsiya shartnomasi summasining 20 %gacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo`jaliklariga beriladigan kredit miqdori kontraktatsiya shartnomasi summasining 70 %igacha miqdorda beriladi.

Kreditlar kreditni qaytarishga qodir bo`lgan qarz oluvchilarga shartnomasi asosida 1,5 yilgacha (18 oy) bo`lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag`i joylashgan manzil bo`yicha beriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o`rtasidagi o`zaro kelishuvga ko`ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Tijorat banklari ushbu kreditlar bo`yicha imtiyozli foiz stavkalari belgilash borasida qaror qabul qilish huquqiga egalar.

Kreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- qishloq xo`jaligi texnikasi, ehtiyyot qismlari va uskunalarini xarid qilish;
- yonilg`i-moylash materiallarini xarid qilish;
- mineral o`g`it, o`simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari, veterinariya dori-darmonlari sotib olishga;
- MTP, muqobil MTP, shirkat xo`jaliklari, SFU (Suvdan foydanuvchilar uyushmasi), boshqa xo`jalik subyektlari xizmatlaridan foydalanganlik uchun to`lovlar;
- g`alla hosilini o`rish va paxta xomashyosi yig`im-terimi xarajatlari uchun to`lovlar;
- bevosita g`alla va paxta xomashyosi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog`liq bo`lgan boshqa xarajatlar uchun.

Kredit olish uchun fermer xo`jaligi uning asosiy depozit hisobvarag`iga xizmat ko`rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- kredit olish uchun ariza;

- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nuxxalar;
- pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko`rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma'lumotnomasi (2a-shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagisi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl);
- kreditni qaytarish ta'minoti.

Olinadigan kreditning qaytarish ta'minoti sifatida qarz oluvchi bankka o`ziga uzoq muddatga ijara berilgan yerdan joriy yilda olinadigan bo`lg`usi hosilni ta'minot sifatida taqdim etadi.

Bunda bank va fermer xo`jaligi o`rtasida bo`lajak hosilni garovi shartnomasi imzolanadi. Shartnomada garovga qo`yilgan hosilni «O`zdonmahsulot» va «Paxtasanoat» tayyorlov korxonalariga va boshqa xo`jalik subyektlariga sotishdan tushgan barcha pul mablag`lari birinchi navbatda ushbu kreditlar va ular bo`yicha hisoblangan foizlarni to`lashga yo`naltirilishi to`g`risidagi shartlar belgilab qo`yiladi.

Shuningdek, garov shartnomasiga fermer xo`jaligi tomonidan bo`lg`usi hosilni kredit bergen bank-benefitsiar foydasiga ixtiyoriy sug`urta qilinganligi to`g`risidagi sug`urta polisini ilova etishi shart.

Kredit so`rab berilgan arizaning bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu ariza bo`yicha bank tomonidan kredit berish yoki rad qilish haqida xulosa berish muddati 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

Bank va fermer xo`jaligi o`rtasida kredit shartnomasi imzolanib, u amalga kiritilganidan keyin, bank fermer xo`jaligi uchun alohida ssuda hisobvarag`ini ochadi va undan qarz oluvchining to`lov topshiriqnomalari asosida faqat naqd pulsiz shaklda to`lovlarni amalga oshirish yo`li bilan beriladi.

Bunda ekinlarni yetishtirish xarajatlarining har bir turini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning eng ko`p miqdorini O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi hamda Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tomonidan har yilgi hosil uchun tasdiqlangan agrotexkartalardan kelib chiqqan holda belgilash tavsiya etiladi.

Tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi. Monitoring jarayonida fermer xo`jaligi tomonidan yetishtirilayotgan ekinlar holati va ularni parvarishlash bo`yicha zarur agrotexnika ishlarining o`tkazilishi va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanish bo`yicha joylarga borib o`rganishlar o`tkazib turiladi. Ekinlar (to`liq yoki qisman) mavjud bo`lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan, agrotexnika tadbirlarining muddatida amalga oshirilmasligi, ekin maydonini begona o`tlar bosib ketgani, sug`orilmaganlik natijasida ekinlarni nobud bo`lish xavfi vujudga kelgani va shunga o`xshash holatlar sababli yetarli hosil to`planmasligi xavfi vujudga kelsa, bank kreditlashni to`xtatadi hamda berilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirib oladi. Ushbu holatlar kredit shartnomasida kelishib olingan bo`lishi lozim.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ularni undirish oyda bir marta, kredit shartnomasida kelishilgan sanada amalga oshiriladi.

Fermer xo`jaliklari kredit bo`yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatdan oldin qaytarish huquqiga egalar.

Agar qarzdor tomonidan yetishtirilgan hosilni sotishdan tushgan mablag`lar va uning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag`laridagi mablag`lari bank kreditini va hisoblangan foizlar bo`yicha to`lovlarni amalga oshirishga yetarli bo`Imagan taqdirda, bank bo`lg`usi hosilni sug`urtasi to`lovidan olingen mablag`larni kreditni va hisoblangan foizlar to`lovini amalga oshirishga yo`naltiradi.

Hosilni sotishdan hamda sug`urta to`lovlardan tushgan mablag`lar hisoblangan foizlar va kreditni qaytarishga yetmagan taqdirda bank tomonidan kredit va hisoblangan foiz qoldig`i O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabridagi 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklarning kreditlari bo`yicha qarzdorlik o`z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi"da belgilangan tartibda undirib olinadi.

## **7.7. Fermer xo`jaliklarini budgetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash**

Keyingi yillarda kichik biznes korxonalarini kreditlash bilan ta'minlash manbalari kengayib, **budgetdan tashqari jamg`arma (fond)lar** rivojlanmoqda. Bunday jamg`armalar o`z oldiga kredit berish orqali yuqori daromad olishni maqsad qilib qo`ymaydi, aksincha, ular iqtisodiyotning ustuvor yo`nalishlarini imtiyozli shartlarda kreditlash maqsadida shakllantiriladi. Budgetdan tashqari jamg`armalar ishlab chiqarishni aylanma mablag`lar bilan ta'minlashga yo`naltiriladigan qisqa muddatli kreditlar berishni amalga oshirmaydi. Ular, asosan, o`rta va uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etadilar.

O`zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligida 2006-yilning 8-avgustda 1548-1-sun bilan ro`yxatga olingen "Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga budgetdan tashqari jamg`armalar va Mikrokreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to`g`risidagi nizom"ga ko`ra yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarga dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar berish va qaytarilishining shartlari asosida beriladi.

Dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar sobiq "Biznes-Fond"ga tegishli kredit liniyalari mablag`larini Mikrokreditbankka qaytarilishi natijasida shakllanadigan imtiyozli kredit resurslari hamda Dehqon va fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi mablag`lari hisobidan beriladi.

Dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar faqat yangidan ochilgan va davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan davr mobaynida kredit olish uchun tegishli xizmat ko`rsatuvchi bankka buyurtma bergen yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan dehqon xo`jaliklari, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag`larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olish uchun beriladi.

Dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan dehqon xo`jaliklari va mikrofirmalarga eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha miqdorda hamda kichik korxonalar va

fermer xo`jaliklariga eng kam oylik ish haqining 300 baravarigacha bo`lgan miqdorda beriladi.

Dastlabki (boslang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismini tashkil etadi.

Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan dastlabki (boslang`ich) sarmoyani shakllantirishga kreditlar qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz 3 yilgacha bo`lgan muddatga beriladi.

Dastlabki (boslang`ich) sarmoyani shakllantirish uchun berilgan mikrokreditlar bo`yicha foizlar ushbu kreditlar berilgan kundan boshlab hisoblanadi va 12 oy muddat o`tgach undiriladi.

Ish bilan ta'minlashga ko`maklashuvchi davlat jamg`armasi kredit liniyalari hisobidan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar berishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj quyidagi qatlamlari ustuvorlikka ega bo`ladilar:

- kam ta'minlangan oilalar;

- tarkibida nogironlar, shu jumladan, Ko`zi ojizlar jamiyati a'zolari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan kasalliklar bilan og`igan shaxslar bo`lgan oilalar;

- tarkibida ikki va undan ortiq ish bilan band bo`lмаган a'zolari mavjud oilalar;

- boquvchisini yo`qotgan oilalar.

Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar tijorat banklari tomonidan Bandlik jamg`armasi kredit liniyasi hisobidan beriladi.

Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga beriladigan mikrokreditlar miqdori eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha bo`lgan miqdorini tashkil etadi va ular 2 yilgacha muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun mikrokreditlardan foydalanganligi uchun foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/4 qismini tashkil etadi.

Tijorat banklari tomonidan budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar O`zbekiston Respublikasi rezidentlari bo`lgan kichik biznes subyektlariga berilishi mumkin. Bunda xodimlarining 50 %`i va undan ortig`ini nogironlar, shu jumladan, Ko`zi ojizlar jamiyati a'zolari tashkil etgan kichik biznes subyektlari, ushbu kredit liniyalari hisobidan mikrokredit olishda ustuvorlikka ega bo`ladilar.

Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlar yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs maqomiga ega bo`lмаган dehqon xo`jaliklariga 5000 AQSH dollarining so`mdagi ekvivalentidan hamda yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga 10000 AQSH dollarining so`mdagi ekvivalentidan ko`p bo`lмаган miqdorda beriladi.

Aholi bandligini ta'minlashning hududiy va maqsadli dasturlariga xizmat ko`rsatuvchi banklar bilan kelishilgan holda kiritilgan yuridik shaxslarga Ish bilan ta'minlashga ko`maklashish davlat jamg`armasi mablag`lari hisobidan yangi ish o`rinlarini yaratishga maqsadli kreditlar 50000 AQSH dollarining so`mdagi ekvivalentigacha bo`lgan miqdorda beriladi.

Budgetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari hisobidan beriladigan ushbu mikrokreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan investitsiya loyihibalarining yo`nalishidan kelib chiqqan holda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- dehqon va fermer xo`jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo`jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida;

- bevosita ishlab chiqarish sohasi, ya`ni mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallarini ishlab chiqarish va qurilish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 40 %i miqdorida;

- aholiga tibbiy xizmat ko`rsatishni tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko`rsatish, turizm sohasini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 %i miqdorida.

Aholi bandligini ta'minlashning hududiy va maqsadli dasturlariga kiritilgan yuridik shaxslarga Ish bilan ta'minlashga ko`maklashish davlat jamg`armasi mablag`lari hisobidan 10000 AQSH dollarining so`mdagi ekvivalentidan ortiq miqdordagi kreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 %i miqdorida.

Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan berilayotgan ushbu mikrokreditlar bo`yicha bank marjasи imtiyozli foiz stavkasining 50 %i miqdorida belgilanadi. Bunda bank marjasи o`rnatilgan imtiyozli foiz stavkalari miqdorining oshishiga olib kelmaydi.

Imtiyozli davr o`rnatilib berilgan mikrokreditlar bo`yicha foizlar ular berilgan kundan boshlab hisoblanadi va imtiyozli davr tugaganidan keyin undiriladi.

Dehqon va fermer xo`jaliklariga qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga beriladigan mikrokreditlar, qoida tariqasida, 2 yildan kam bo`lmagan muddatga beriladi.

Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan beriladigan boshqa barcha mikrokreditlar 3 yilgacha bo`lgan muddatga beriladi. Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning qaytarish muddatini uzaytirishga ruxsat berilmaydi.

Dehqon va fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi tomonidan ochilgan kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar faqat Fermer xo`jaliklari uyushmasi a`zolariga hamda dehqon xo`jaliklariga, boshqa budgetdan tashqari jamg`armalar tomonidan ochilgan kredit liniyalari hisobidan, kreditlar esa barcha kichik biznes subyektlariga ma'lum muddatlilik, qaytarishlik va to`lovililik tamoyillari asosida beriladi.

Kichik biznes subyektlari budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan kredit olish uchun o`zlariga xizmat ko`rsatuvchi bankka murojaat qilishlari lozim. Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlar olish haqidagi buyurtmada budgetdan tashqari jamg`arma nomi va so`ralayotgan kredit summasi ko`rsatiladi.

Kredit so`rab, ko`rsatilgan barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda, berilgan kredit buyurtmasi bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu arizani bank tomonidan ko`rib chiqib, rozilik bildirishi yoki yozma ravishda asoslantirilgan rad javobini berish muddati quyidagicha belgilanadi :

- oilaviy tadbirkorlik subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan dehqon xo`jaliklarining hamda yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan dehqon xo`jaliklari, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar berish borasidagi kredit buyurtmasini ko`rib chiqish muddati 5 ish kunidan;

- boshqa mikrokreditlarni berish to`g`risidagi kredit buyurtmalarini ko`rib chiqish muddati 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

Tijorat banki filiali kredit qo`mitasining qarori uzil-kesil bo`lib budgetdan tashqari jamg`arma kredit liniyasi hisobidan kreditlar berishni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Tijorat banki kredit qo`mitasi tomonidan kichik biznes subyektining investitsiya loyihasi ma`qullanganidan keyin budgetdan tashqari jamg`armaning kredit liniyasida mablag` mavjud bo`lmasa, bank bo`limi shu kunning o`zida Bosh bankka yoki ushbu bankning viloyat bo`limiga mazkur kredit liniyasi bo`yicha qo`shimcha mablag`lar ajratish haqidagi buyurtmani yo`llaydi.

Budgetdan tashqari jamg`armalar hisobidan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish holatini tahlil etish shuni ko`rsatadiki, hozirgi kunda bu jamg`armalarning kredit resurslari yetarli emasligidan aksariyat tadbirkorlar kreditlar olish imkoniyatiga ega emaslar.

## **7.8. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati va bu jarayonning barqarorligi ko`p jihatdan ishlab chiqarishni moliyalashtirish tizimiga borib taqaladi. Shuni e'tiborga olgan holda fermer xo`jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo`yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to`la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirish yo`nalishida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyalashtirish manbalarini tahlil etish shuni ko`rsatadiki, tijorat banklarining kredit liniyalarini hisobidan ajratilayotgan kreditlarning jami qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyalashtirishdagi ulushi unchalik salmoqli emas. O`zbekiston Respublikasi Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumotlariga qaraganda, tijorat banklari va budgetdan tashqari jamg`armalar kredit resurslari hisobidan 2007-yilda 546 fermer xo`jaliklariga 42 157,0 mln. so`mlik kreditlar ajratilgan (16-jadval). Bu o`rtacha bir fermer xo`jaligiga 1 956,6 ming so`mdan to`g`ri keladi. Garchi 2003-2007-yillar oraliq`ida tijorat banklari va budgetdan tashqari jamg`armalar hisobidan fermer xo`jaliklariga ajratilgan kreditlar qiymati 158,8 %ga o`sgran bo`lsada, fermer xo`jaliklari sonining keskin oshishi yuz berayotgan hozirgi kun talablariga bu javob berolmaydi.

Jumladan, shu yillar oralig`ida fermer xo`jaliklari soni 87552 tadan 217100 taga yoki 247,9 %ga oshgan. Shu yillar oralig`ida jami fermer xo`jaliklariga nisbatan kredit olgan fermer xo`jaliklari ulushi 15,1 %dan 9,9 %gacha yoki 1,5 martaga kamaygan.

Fermer xo`jaliklari faoliyatini kreditlashtirish hajmi yildan-yilga oshib borayotgani ijobiy holdir. Ammo, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish kredit olishni istovchi barcha kichik korxonalarga ham birdek imkoniyat kredit olish imkoniyati mavjud emasligini ko`rsatadi. Aslida, viloyatlar miqyosida barcha kichik tadbirkorlik subyektlarining yiliga 8-10 %igina kredit olish imkoniga ega bo`lmoqda.

Hozirgi kunda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini Moliya Vazirligi huzuridagi maxsus jamg`arma orqali imtiyozli kreditlash mexanizmining joriy etilgani fermerlar uchun qulay imkoniyatlar ochmoqda.

Fermer xo`jaliklariga tijorat banklari va budjetdan tashqari jamg`armalar tomonidan 2003-2007-yillar  
oralig`ida ajratilgan kreditlar soni va qiymati

Nº	Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	2003-yil	2004-yil	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2007-yil 2003 yilga nisbatan, %da
1.	Fermer xo`jaliklari soni	dona	87 552	103 921	125 669	189 235	217 100	247,9
	sh.j. kredit olgan fermer xo`jaliklari soni	dona	13 270	14 602	15 196	18 609	21 546	162,4
2.	Kredit olgan fermer xo`jaliklari-ning jami fermer xo`jaliklariga nisbatan salmog`i	% da	15,1	14,05	12,1	9,8	9,9	65,5
2.	Berilgan kreditlar qiymati	mln. so`m	26 539,0	29 204,0	30 392,0	37 219,0	42 157,0	158,8

Manba: O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumoti asosida tayyorlangan

Prezident I.A. Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar” nomli asarida bu masalaga alohida e’tibor qaratib: “Yurtimizda fermer xo`jaliklarini moddiy-texnik ta’minlash va moliyalash bo`yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to`la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatmoqda. Har yili fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag`lar ajratilmoqda. Faqat o`tgan 2008-yilning o`zida qishloq xo`jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trillion so`m, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so`m, g`alla yetishtirishga 200 milliard so`m mablag` avans tariqasida berildi. 2009-yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so`m yo`naltiriladi<sup>1</sup>, - deb ta’kidlab o`tganlar.

Ushbu joriy etilgan mexanizm mavjud mablag`lardan samarali va oqilona foydalanish imkonini berdi. Bo`nak mablag`lari barcha xo`jaliklarga bir vaqtida ajratilganda, mahalliy sharoit hamda rentabelli faoliyat yuritayotgan, o`z aylanma mablag`iga ega bo`lgan aksariyat fermer va shirkat xo`jaliklarining moddiy-texnik resurslarga bo`lgan ehtiyoji inobatga olinmas, natijada, bo`nak mablag`larining katta qismi rentabelli xo`jaliklar va fermerlar tomonidan ularga ehtiyoj bo`lmasada, moddiy-texnik resurslar uchun oldindan to`lovlargaga yo`naltirilib, kreditorlik qarzları paydo bo`lishiga olib kelar edi.

Avvalgi mexanizmda, ushbu oldindan to`lovlanri amalga oshirgan qishloq xo`jalik korxonalarining ehtiyojlari bo`lmasada, ularga ham bo`nak mablag`lari ajratilar edi. Yangi mexanizmda, aksincha, ushbu tejab qolningan mablag`larni moddiy-texnik resurslar uchun to`lovlargaga ehtiyoji bo`lgan shirkat va fermer xo`jaliklarini kreditlash uchun resurs sifatida ajratish imkonini yaratiladi.

Ikkinchidan, mablag`lar shirkat va fermer xo`jaliklariga ularning o`z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ajratib boriladi. Bu esa o`z navbatida kredit mablag`laridan mustaqil va oqilona foydalanish natijasida yonilg`i-moylash materiallari va mineral o`g`itlarni samarali ishlatish bo`yicha ularning manfaatdorliklarini oshiradi.

Xo`jaliklarni to`g`ridan-to`g`ri imtiyozli kreditlash mexanizmining afzalliklari quyidagilarda ko`rinadi:

- mablag`lar fermer xo`jaliklariga ularning o`z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ajratib borildi, bu esa o`z navbatida mablag`larning muvaqqat hisob raqamlarida ishlatilmasdan qolib ketishi hollariga chek qo`yadi;

- moliyaviy mablag`larni mustaqil ishlatish imkonining yaratilishi, olingan kreditlardan samarali foydalanishga olib keladi;

- moddiy-texnik resurslarga ehtiyoji bo`limgan holda asossiz oldindan to`lovlanri amalga oshirish holatlariga chek qo`yiladi, buning natijasida xizmat ko`rsatuvchi tarmoq korxonalarining qishloq xo`jaligi korxonalari oldida katta miqdorda kreditorlik qarzları vujudga kelishi oldi olinadi;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009, 21-22 b.

- xo`jaliklar tomonidan kredit mablag`laridan mustaqil va oqilona foydalanishi natijasida yonilg`i-moylash materiallari va mineral o`g`itlarni samarali ishlatish bo`yicha manfaatdorliklari oshadi;

- tijorat banklari va xo`jaliklarning ajratilgan kredit mablag`larini o`z vaqtida qaytarilishida mas`uliyati va manfaatdorligini yanada oshirdi.

Tatbiq etilgan mexanizmda fermer xo`jaliklarining paxta xomashyosi va g`alla yetishtirish xarajatlarining ayrim turlari bo`yicha to`lovlarga ehtiyoji bo`lmagan holda, ular mazkur mablag`larni texnologik kartalarda belgilangan boshqa xarajatlarni qoplash uchun ishlatishi mumkin. Bunda, uzoq masofada joylashgan xo`jaliklarning transh mablag`larini yo`naltirish uchun har oyda bir necha marta bankga kelishlariga ehtiyoj qolmaydi va ularning ixtiyoriga qarab mavsumiy to`lovlarni har oyda bir marta o`tkazilishi imkoniga ega bo`linadi.

Joriy qilingan mexanizmning yana bir afzalligi shundaki, u tijorat banklarining ajratgan kreditlarini o`z vaqtida qaytarilishida mas`uliyatini va manfaatdorligini yanada oshiradi va moliyalashtirishning amaldagi tartibi sharoitlaridagi tayyorlov korxonalari tomonidan ajaratilgan bo`nak mablag`larining bir qismi xo`jaliklar tomonidan mahsulot yetkazib berish bilan qoplanmay qolishi muammosi echiladi.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g`alla yetishtirish xarajatlarining bir qismini imtiyozli kreditlash tizimi bir qator afzalliklarga ega bo`lishiga qaramay, bu tizimning o`ziga xos kamchiliklari ham ko`zga tashlanmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlar ajratishda va yakuniy to`lovlarda hisob-kitoblarni bir-necha hisob raqamlari orqali amalga oshirilishi aksariyat fermer xo`jaliklari rahbarlarining fikriga ko`ra, xo`jaliklar uchun noqulay bo`lib, ular tomonidan ortiqcha vaqt va mablag` sarflanishiga sabab bo`lgan.

Fermer xo`jaliklarini imtiyozli kreditlash yo`nalishlarida davlat tomonidan yaxshi sharoitlar yaratilgan. Ammo, tijorat banklari va budgetdan tashqari jamg`armalarning imtiyozli kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati ko`pchilik fermerlar uchun ochiq emas. Kuzatishlarning ko`rsatishicha bunga quyidagi omillar ta'sir ko`rsatadi:

- ko`pchilik tijorat banklarida “imtiyozli jamg`arma” resurslari yetarli emas;

- fermer xo`jaliklarida kreditni olishda talab etiladigan 120 %lik kafolat uchun mol-mulk yoki mablag` yetishmaydi;

- kreditlar asosan qisqa muddatga beriladi, turli inshootlar, binolar qurish va asbob-uskunalar sotib olishga ajratilayotgan uzoq muddatli kreditlar hajmi yetarli emas;

- kreditlarni kafolatlovchi sug`urta tizimida davlat kafolati tizimi shakllanmagan;

- budgetdan tashqari jamg`armalar, ayniqsa “Dehqon va fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi” moliyaviy jihatdan baquvvat emas, uning resurslari hozirgi kun talablariga javob bermaydi;

- kredit olish shartlari nisbatan murakkabligicha qolmoqda;

boshlang`ich sarmoyaga beriladigan kredit qiymatining ishlab chiqarishni tashkil etish uchun kamligi;

- xorijiy kredit liniyalari talablarining ko`pchilik kichik tadbirkorlik subyektlari uchun og`irligi va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan moliya-kredit tizimi orqali qo`llab-quvvatlashda:

- tijorat banklari hamda budjetdan tashqari jamg`armalarning kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga yo`naltirayotgan kredit resurslarini ko`paytirishni har tomonlama rag`batlantirish;

- kredit tavakkalchilagini sug`urtalovchi institutsional tuzilmalarni keng rivojlantirish;

- budjetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari bo`yicha kreditlash jarayonini yo`lga qo`yishda boshlang`ich sarmoya va mikrokreditlarning ulushini oshirish;

- davlat buyurtmasi bo`yicha mahsulot yetishtirishni “qisqa muddatli imtiyozi kredit” orqasi moliyalashtirish jarayonida hisob-kitoblarni o`z vaqtida amalga oshirish va kreditni ishlatish mexanizmini to`liq erkinlashtirish;

- davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan mahsulotlar uchun beriladigan imtiyozi kreditlarni o`z vaqtida berish;

- keyinchalik qisqa muddatli imtiyozi kredit o`rniga “fyuchers bitimlari” mexanizmini qo`llash, ya’ni shartnomadagi mahsulot qiymatining 50 % ini oldindan, hosilni garovga qo`ygan holda avans tariqasida berish va undan foydalanishni fermer ixtiyoriga berish;

- “imtiyozi kreditlash” tizimidan bosqichma-bosqich “fyuchers shartnomalari” tizimiga o`tish.

- yerlarni uzoq muddatli ijara olish huquqini kredit kafolati uchun qabul qilishga imkon beruvchi “ipoteka krediti” tizimi uchun huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratish va yerning qiymatini davlat yer tuzish, kartografiya, geodeziya va kadastir idorasini belgilagan qiymatda garovga qo`yish mexanizmini rivojlantirish;

- fermerlik inshootlari, binolar qurish, texnika vositalari, asbob-uskunalar va yangi texnologiyalarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan, muddati 5 yildan 10 yilgacha bo`lgan va foizi yiliga 8-10 foizdan oshmaydigan uzoq muddatli kreditlar berishni yo`lga qo`yish va uni kredit risklaridan kafolatlaydigan maxsus “kafolat jamg`armasi”ni tashkil etish.

### **Qisqacha xulosalar**

Moliyaviy resurslar – har bir xo`jalikning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta’minlash hamda o`z oldiga qo`yilgan maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida pul jamg`armalari va boshqa moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog`liq iqtisodiy munosabatlarni o`zida aks ettiradi. Moliyaviy resurslar xo`jalikning o`z xodimlari, davlat va boshqa korxonalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish va ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Fermer xo`jaligi faoliyatini moliyalashtirishda o`z mablag`lari yetarli bo`lмаган holatlarda chetdan qarzga mablag` jalb etishga to`g`ri keladi. Bank kreditlari loyihaning xususiyatiga ko`ra **imtiyozi** yoki **imtiyozsiz shartlarda** berilishi mumkin. Imtiyozi kreditlar ustuvor yo`nalishlar uchun, odatda davlat

dasturlari doirasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining joriy etilishi bilan korxonalarini moliyalashtirish manbalari kengayib, moliyalashtirishning yangi, noan'anaviy turlari shakllanib kelmoqda. Xususan, lizing, fyuchers, faktoring va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati va bu jarayonning barqarorligi ko`p jihatdan ishlab chiqarishni moliyalashtirish tizimiga borib taqaladi. Shuni e'tiborga olgan holda fermer xo`jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo`yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to`la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirish yo`nalishida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer xo`jaliklarining moliyaviy resurslari nimalardan iborat va ular qanday shakllanadi?
2. Fermer xo`jaligining o`z moliyaviy resurslaridan foydalanish xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Fermer xo`jaligini kreditlash shakllari va tamoyillarini izohlab bering?
4. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga mikrokreditlar jalg etish qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga boshlang`ich sarmoya sifatida kreditlar jalg etish qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Fermer xo`jaliklarini davlat ehtiyojlari uchun paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash mexanizmi nimalardan iborat?
7. Fermer xo`jaliklarining yer ijerasi huquqi va bo`lg`usi hosilni garovga qo`yib kreditlash tartibi qanday?
8. Fermer xo`jaliklari faoliyatini budgetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash shartlari nimalardan iborat?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer va dehqon xo`jaliklarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo`llari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. - T.: O`zbekiston, 2009.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-may 195-sonli «Tijorat banklarining kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag`batlantirishga doir qo`srimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanishi to`g`risidagi nizom».

4. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7- martda 907- son bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi”.

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-maydag`i 78-son qarori bilan tasdiqlangan «Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko`rsatish tartibi to`g`risida” gi vaqtinchalik Nizom.

6. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-yilning 14-aprelida 1675-raqam bilan ro`yxatga olingan “Qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to`g`risida” Nizom.

7. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yilning 30-aprelida 1345-raqam bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to`g`risida” gi Nizom.

8. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yilning 16-aprelida 1337-raqam bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga bo`lg`usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to`g`risida” Nizom.

9. O`zbekiston Respublikasining Adliya vazirligida 2006-yilning 8-avgustda 1548-1-son bilan ro`yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga budjetdan tashqari jamg`armalar va Mikrokreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to`g`risida”gi Nizom.

## **VIII bob. INFRA TUZILMALAR VA SERVIS XIZMATLARINI TASHKIL ETISH**

### **8.1. Infratuzilmaning mohiyati va turlari**

Respublikamizda dehqon va fermer xo`jaliklarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko`p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Fermerchilik rivojiga qulay imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar ichida infratuzilma xizmatini alohida ajratib ko`rsatish lozim.

Fermer xo`jaliklarida ishlab chiqarishning kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, agrokimyo va zooveterinariya, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, kommunikatsiya va aloqa, mahsulot va axborot kabi bir qator xizmat turlariga bo`lgan talabi ortib boraveradi. Chunki fermer xo`jaliklariga kerakli yer maydonini ajratib berish va ularga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish bitmaydi. Ularning to`laqonli faoliyatini faqatgina mukammal tashkil etilgan infratuzilma bo`linmalari orqali tasavvur etish mumkin.

Infratuzilma iqtisodiy tizimning bir bo`lagini tashkil qilib, u ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat ko`rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

«Infratuzilma» so`zi lotin tilidan (infrastructure) tarjima qilinganda «tuzilmadan tashqarida» ma`nosini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan infratuzilma mohiyatiga quyidagi izoh ko`proq mos keladi: «inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvini ta`minlovchi tovar va xizmatlar yaratishda o`ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi».

Keyingi yillarda infratuzilma yuksak sur`atlар bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari infratuzilmalar rivojidan oldinda bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o`z ta`sirini o`tkazmoqda. G`arb iqtisodiy adabiyotlarida bu jarayonni «iqtisodiyotning servislashuvi (inglizcha «service» xizmat) degan atama bilan nomlanmoqda. Ishlab chiqarishning servislashuviga quyidagi omillar ham o`z ta`sirini o`tkazadi: ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kredit resurslariga bo`lgan talabning kengayishi, ITT sur`atlarining oshishi, ishlab chiqarishning divyversifikatiyasi, resurslarni tejashga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanishi va boshqalar.

Infratuzilma juda keng qamrovli tushuncha bo`lib, bu eng avvalo ishlab chiqarish jarayoniga kompleks xizmat ko`rsatadigan xizmat turlarini yaratish bilan bog`langan. Fermer xo`jaligida ishlab chiqarishning yakuniy natijalari nafaqat bevosa xo`jalikning o`z imkoniyatlariga bog`liq bo`ladi, balki unga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham o`z ta`sirini o`tkazadi.

Infratuzilma bo`linmalarining rivojlanib borishidan fermer xo`jaliklari katta manfaat ko`radi, negaki bu fermerlarni ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan ishlardan ozod etib, ularning kuch-g `ayratini asosiy faoliyatiga qara-tishga imkon yaratadi.

Shu paytga qadar infratuzilmani **ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar** yig`indisidan iboratdir deb qarab kelingan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizimning kirib kelishi bilan infratuzilmaning ko`lami kengayib, «bozor

**infratuzilmasi» va «institutsional infratuzilma» (19-chizma) so`zlari iste'molga kirib kelmoqda.**

**Ishlab chiqarish** infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlarni o`z ichiga oladi. Uning tarkibiga:

- moddiy-texnika ta'minoti;
- mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash;
- agrokimyo va zooveterinariya xizmati;
- texnik xizmat ko`rsatish;
- suv va elektr ta'minoti kabi bo`linmalar kiradi.

**Bozor infratuzilmasi** bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko`rsatmasada, xo`jalikning umumiy faoliyatini ta'minlashga xizmat ko`rsatadi. Masalan, marketing va reklama, axborot-maslahat, auditorlik, moliya-kredit tizimi, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo`jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko`rsatadi.


**Institutsional infratuzilma** iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo`llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o`z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalar kiradi.

**Ijtimoiy infratuzilma** ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatlarga me'yoriy mehnat faoliyatini yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish uchun, shuningdek fermerlarning turli maishiy xizmat turlariga bo`lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

Infratuzilmaning har bir turi ham fermerlik rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi, ammo respublikamizda fermer xo`jaliklarini shakllantirishning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor shubhasiz ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini yaratish va takomillashtirishga qaratilgan bo`lmog`i lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida xizmat ko`rsatishning u yoki bu sohasida korxonalarning monopol mavqeini qo`lga kiritishni inkor etib, faqatgina sog`lom raqobat kurashiga tayanib rivojlanuvchi ko`p sonli korxonalarning vujudga kelishini rag`batlantiradi. Shu bilan birga mavjud infratuzilma tizimlari yangidan shakllanib kelayotgan xo`jaliklarning xizmat turlariga bo`lgan ehtiyojlarini to`liq qondirishi lozim.

## Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalar tizimi



## **8.2. Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalarini shakllantirish**

Ko`pchilik fermer va dehqon xo`jaliklarining agrotexnika ishlarini o`z muddatida amalga oshirish uchun o`z xususiy texnika vositalari yo`q. Bu holat fermerlarga texnik xizmat ko`rsatadigan korxonalar ishini yanada jonlantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko`rsatadi.

Fermer xo`jaliklariga texnik xizmat ko`rsatish va mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarishda mashina-traktor parklari (MTP) katta rol o`ynaydi. Mashina-traktor parklari Davlat aksiyadorlik jamiyatları (MTP DAJlar) yerlarni ekishga tayyorlash, qishloq xo`jalik ekinlariga ishlov berish va hosilni yig`ib-tyerib olishga doir mexanizatsiyalashgan ishlarni xo`jaliklar bilan shartnomalar bo`yicha bajarishga ixtisoslashtirilgan holda Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-martdagি 95-sonli “Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish-texnika xizmati ko`rsatish sohasida shartnomaviy munosabatilarni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga asosan tashkil etilgan. MTP DAJlarga qishloq xo`jaligi ishlarini bajarish bilan birga, xo`jaliklaring texnika vositalariga xizmat ko`rsatish va ta`mirlash, ularga texniklarni ijara berish va yangi texnikalar keltirib sotish ishlarini ham bajarish huquqi berilgan.

MTP DAJlarning asosiy qishloq xo`jaligi texnikalari chet el krediti hisobiga xarid etilgan qimmatbaho “Magnum” va “Keys” rusumli texnikalar bo`lib, ularni kichik hajmli fermer va dehqon xo`jaliklari yer maydonlarida ishlatish iqtisodiy va texnik jihatdan yuqori samarali emas. Qiymati baland bo`lgan bu texnikalarning amortizatsiya ajratmalari balandligi, chet el krediti uchun belgilangan grafik bo`yicha foiz to`lovleri va asosiy qarzni qaytarish shartlari murakkabligi va texnik xizmat ko`rsatish qiymatining ortib borayotganligi natijasida MTP DAJlar tomonidan ko`rsatilayotgan texnik xizmatlar narxlari fermer xo`jaliklari uchun nihoyatda qimmat bo`lmoqda. Buning natijasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxining ko`tarilib ketish holatlari yuz bermoqda.

Keyingi yillarda MTPlarni rivojlantirish yo`nalishida bir qator muhim qarorlar qabul qilindi va amalga oshirilmoqda. Xususan, mavqjud MTP DAJlarning tumanlardagi monopol mavqeini cheklash, texnik xizmatlar bozorida raqobat muhitini shakllantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-martdagи 106-sonli “Mashina-traktor parklarining moddiy-texnika asosini yanada mustahkamlash va ularning xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga binoan har bir tumanlarda muqobil mashina-traktorlar shakllantirish ishlari yo`lga qo`yildi. Fermer xo`jaliklari sifatida qayta tashkil etilayotgan qishloq xo`jaligi korxonalari hududida tashkil etilayotgan muqobil mashina-traktor parklari soliq solish shartlari va qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga ko`rsatilayotgan xizmatlar (yer haydash, ekish, ishlov berish, hosilni yig`ishtirish va boshqalar) uchun hisob-kitoblar bo`yicha «O`zagromashservis» uyushmasi viloyat birlashmalarining mashina-traktor parklariga tenglashtirildi.

Muqobil MTPlar turli mulkchilik shakllariga asoslangan texnik xizmatlar ko`rsatish korxonasi sifatida quyidagi yo`llar bilan tashkil etilishi mumkin:

1. Qishloq xo`jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi korxonalarining texnik markazlari negizida.
2. Dilerlik shoxobchalari qoshida.
3. Tugatilayotgan shirkat xo`jaliklari mashina-traktor parklari yoki ta'mirlash ustaxonalari negizida.
4. Xususiy shaxslar tomonidan.
5. Fermerlarning texnikadan birgalikda foydalanishiga asoslangan kooperativlar shaklida.

Keyingi yillarda zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo`jaliklarini fermer xo`jaliklariga aylantirish borasida amalga oshirilgan yirik davlat dasturlari natijasida tugatilayotgan shirkatlarning mashina-traktor parklari yoki ta'mirlash ustaxonalari negizida muqobil MTP tuzish ishlari keng ko`lamda amalga oshirildi. Tugatilayotgan shirkat xo`jaliklarining mashina-traktor parklari yoki ta'mirlash ustaxonalari negizida muqobil MTP tuzishning bir qator qulayliklari mavjud. Jumladan:

- shirkat xo`jaligida mavjud traktorlar, qishloq xo`jaligi mashinalari va bino-inshootlarning muqobil MTP balansiga berilishi ularning moddiy-texnika asosini qisman bo`sada mustahkamlashga imkon yaratadi;
- muqobil MTPlarning tashkil etilishi mexanizatsiya va texnik xizmatlar tizimida mulkchilik munosabatlarining tubdan isloh qilinishiga va raqobat muhitining shakllanishiga imkon yaratadi;
- endigina shakllanib kelayotgan fermerlar uchun nisbatan arzon texnik xizmatlardan foydalanishga yo`l ochadi;
- xizmatlar uchun baho bozor mexanizmlari asosida, talab va taklifdan kelib chiqib belgilanadi;
- raqobat muhitining shakllanishi texnik xizmatlar sifatini oshirishga majbur qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko`ra 2008-yil yakuniga kelib, respublikamizda fermer va dehqon xo`jaliklariga texnik xizmat ko`rsatuvchi jami 1777 ta muqobil MTPlar faoliyat ko`rsatgan. Ular tomonidan qiymati 129602,2 mln. so`mga teng bo`lgan 77864 ta shartnomalar imzolangan bo`lib, haqiqatda 76604 ta shartnomalar bo`yicha 123680,3 mln. so`mlik xizmatlar ko`rsatilgan (17-jadval).

**17-jadval**

**Fermer va dehqon xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi muqobil MTPlarning faoliyati**

2008-yil

Hududlar	Jami muqobil MTPlar soni	Tuzilgan shartnomalar		Haqiqatda ko`rsatilgan xizmatlar	
		soni dona	qiymati mln. so`mda	soni dona	qiymati mln. so`mda
Qoraqalpog`iston Respublikasi	134	6085	9189,2	6085	8729,7
Andijon	183	5453	14438	5453	12524,9
Buxoro	145	10059	11908,5	8885	12045
Jizzax	5	170	101,6	170	92,8
Qashqadaryo	197	14697	23665	14697	23665,9
Navoiy	52	1754	2548,0	1668	2030,0
Namangan	139	3417	5448,8	3417	5226,2
Samarqand	241	6707	10563,8	6707	9833,8
Surxondaryo	118	4435	6119,5	4435	5852,8
Sirdaryo	91	4659	324,7	4659	310,5
Toshkent	193	8524	9684,5	8524	8716
Farg`ona	171	6073	7536,6	6073	6578,7
Xorazm	108	5831	28074	5831	28074
<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>1777</b>	<b>77864</b>	<b>129602,2</b>	<b>76604</b>	<b>123680,3</b>

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 7-apreldagi “Qishloq xo`jaligi mashinasozligini modernizatsiyalash va rivojlantirishning chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-247-sonli qarorida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan mashinalar va texnikalarni ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiyalash masalalariga keng e'tibor berilgan.

Ishlab chiqarish infratuzilmasida texnika vositalarini ta'mirlash va ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash xizmati muhim o`rin tutadi. Chunki yil davomida texnika vositalarini ish holatida saqlab turish, ularni ehtiyyot qismlar bilan o`z vaqtida ta'minlash va kerakli ta'mirlash ishlarini sifatlari bajarish, fermer xo`jaliklarining normal faoliyat yuritishga yordam beradi. Fermer xo`jaliklar rivojlanib borishi bilan ularning texnika vositalari bilan ta'minlamaganlik darajasi ham o'sib boradi. Bu esa kelgusida fermerlarga texnika xizmati ko`rsatuvchi ko`plab servis xizmatlari tarmog`ini yaratishni talab etadi.

Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalaridan biri ularni neft mahsulotlari bilan ta'minlovchi “O`zneftmahsulot” kompaniyasi va uning joylardagi bo`linmalaridir. Fermerlarga ularning ekin maydoni hajmi va

agrotexnik tadbirlarning texnologik kartasida belgilangan miqdorda limit asosida neft mahsulotlari yetkazib beriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim zvenosi (bo`g`ini) agrokimyo xizmatidir. Agrokimyo xizmati qishloq xo`jaligi korxonalarini o`g`itlar va o`simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta`minlash, kimyo vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish va tavsiyanomalar berish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2004-2006-yillarda Fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi” va bu konsepsiyanı amalga oshirish maqsadida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 476-sonli va 2004-yil 24-dekabrdagi «2005-2007-yillarda fermer xo`jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 607-sonli qarorlariga muvofiq 2004-2007-yillarda fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish bo`yicha yirik dastur qabul qilingan edi. Ushbu dastur hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 17-apreldagi “O`zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish to`g`risida”gi 325-sonli qarorida fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatish bo`yicha infratuzilma obyektlari tarmog`i kengaytirish, qishloqda mahsulot tayyorlash, uni qayta ishlash va sotish, shuningdek fermer xo`jaliklariga servis xizmati ko`rsatish bo`yicha infratuzilmalarni keng ko`lamda rivojlantirish, qishloq xo`jalik fani, texnikasi va agrotexnologiyalarning eng yangi yutuqlari bo`yicha fermerlar keng foydalana oladigan zamonaviy axborot tizimini barpo etish vazifalari belgilab berilgan.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalari soni muttasil oshib bormoqda. O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasining ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda davlat dasturlari asosida shakllantirilgan muqobil MTPlar soni 1777 taga, mineral o`g`itlar va o`simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari sotish shoxobchalar 928 taga, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari 1373 taga, chorva mollari sotish va zooveterinariya xizmati ko`rsatish shoxobchalar 2278 taga, transport xizmati ko`rsatish shoxobchalar 82 taga, agrofirmalar 193 taga yetdi (18-jadval).

Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalarning rivojlanib borishi

<b>Infratuzilma xizmatlari</b>	<b>2005-yil</b>	<b>2006-Yil</b>	<b>2007-yil</b>	<b>2008-Yil</b>
Minibanklar	628	895	1207	1276
Muqobil MTPlar	972	1562	1779	1777
Mineral o`g`itlar sotish shoxobchalari	821	1051	891	928
Neft mahsulotlari sotish shoxobchalari	867	1271	1676	1676
Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari	796	1110	1340	1373
Qishloq xo`jaligi mahsulotlari sotish shoxobchalari	300	581	443	424
Chorva mollari sotish va zooveterinariya xizmati ko`rsatish shoxobchalari	252	381	2180	2278
Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko`rsatish shoxobchalari	202	317	295	300
Transport xizmati ko`rsatish shoxobchalari	-	77	82	82
Tara, idishlar va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shoxobchalari	-	73	78	78
Argofirmalar	-	195	203	193

Manba: O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumotlari

### **8.3. Fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi bozor va institutsional infratuzilmalarini shakllantirish**

Respublikamiz qishloq xo`jaligini rivojlantirishning hozirgi bosqichida bozor infratuzilmalarining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, mahsulotlarni sotishda marketing va reklama xizmati, axborot-maslahat, auditorlik, moliya-kredit muassasalari, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo`jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko`rsatadi.

Fermer xo`jaliklari rivojlanishining hozirgi bosqichida ishlab chiqarishni moliyalashtirish masalasi o`ta muhimdir. Negaki, ko`pchilik fermer xo`jaliklarining tashkil topganiga hali ko`p vaqt bo`lgani yo`q va shu sababli chetdan moliyaviy mablag`lar jalb etishga ehtiyoj sezadi. Bugungi kunda fermer xo`jaliklari faoliyatini kreditlar bilan ta'minlovchi keng tarmoqli banklar tizimi yetarlicha shakllanmagan. Shu bilan birga fermerlarga qulayliklar yaratish maqsadida bevosita fermerlar joylashgan hududlarda tijorat banklari filiallarini yoki minibanklarni tashkil etishga

keng e'tibor qaratilmoqda. Qishloq joylarda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari natijasida minibanklar soni muttasil oshib borib, 2007-yil birinchi choragida 1276 taga yetdi. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki yoki uning filialini mustaqil tanlash huquqi berilgan.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni muomala sohasida yakunlanadi. Shu tufayli uning rivojlanish darajasi xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda fermerlar uchun mahsulot sotishga ko'mak beruvchi bir nechta yo'nalishdagi infratuzilmalar mavjud, ya'ni ular mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalariga, tadbirkor xususiy shaxslarga yoki bozorda sotish mumkin.

Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, hozirda fermerlarning davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilgan paxta va g'alla mahsulotlarini "O'zpaxtasanoat" va "O'zdonmahsulot" kompaniyalari xarid qilmoqda. Davlat buyurtmasidan tashqari yetishtirilgan mahsulotlar tayyorlov tashkilotlariga va qayta ishlash korxonalariga, shuningdek bozorda sotilmoqda. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarni erkin sotishga ko'maklashuvchi 424 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish shoxobchalari va 193 ta agrofirmalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan fermer xo'jaliklari mahsulotlarini sotib berish bo'yicha qiymati 4895,3 mln. so'mlik jami 11730 ta shartnoma amalga oshirilgan (19-jadval).

Fermer xo'jaliklari uchun mahsulot sotishga ko'maklashuvchi infratuzilmalar ichida fermer bozorlari katta ahamiyat kasb etadi. Mahsulotni bevosita bozorlarda sotishning fermer uchun manfaatli tomonlari ko'p. Chunki bunda u mahsulotini o'zi istagan narx bo'yicha (talab va taklifdan kelib chiqib) sotish imkoniyatiga ega bo'ladi, shu bilan birga bozorda u mahsulotni naqd pulga sotishi mumkin.

Keyingi yillarda fermerlarni ehtiyyot qismlar, urug'lik, ko'chatlar va konsentrat ozuqlari kabi moddiy resurslar bilan ta'minlashda qishloq joylarda tashkil topayotgan do'konlar faoliyatidan foydalanish tajribaga kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan dunyodagi ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fermerlarni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashda tovar va xomashyo birjalarining ahamiyati kattadir. Birjalar fermerlarga o'z mahsulotlarini bozor konyunkturasi va talab-takliflardan kelib chiqib sotish, shuningdek o'zlariga zarur bo'lgan texnika vositalari va moddiy resurslarni xarid qilishga imkon yaratadi.

**Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish shoxobchalarining  
faoliyati**

2008-yil

Hududlar	Jami shoxob-chalar soni	Tuzilgan shartnomalar		Haqiqatda ko`rsatilgan xizmat	
		soni, Dona	qiymati, mln. so`mda	soni, dona	qiymati, mln. so`mda
Qoraqalpog`iston Respublikasi	37	408	72,8	408	72,8
Andijon	40	54	2,6	44	1,6
Buxoro	52	2291	2927,0	2227	2927,0
Jizzax	20	2676	813,0	1781	750,0
Qashqadaryo	53	4900	886,4	3540	581,0
Navoiy	12	209	7,5	73	16,6
Namangan	6	19	31,1	17	32,2
Samarqand	53	764	12,7	550	7,6
Surxondaryo	24	956	62,7	450	50,1
Sirdaryo	8	201	37,9	120	23,4
Toshkent	51	1136	269,4	850	156,1
Farg`ona	51	140	35,0	110	22,3
Xorazm	17	2585	417,9	1560	254,6
<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>424</b>	<b>16339</b>	<b>5576,0</b>	<b>11730</b>	<b>4895,3</b>

Manba: O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumotlari

Respublikamizda fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi O`zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi (O`zRMXB) va respublika ko`p tarmoqli agrosanoat birjasi (RKTASB) faoliyat olib bormoqda. Bu birjalar fermer va dehqon xo`jaliklari yetishtirgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda elektron savdo orqali sotishga ko`maklashish bilan birga tovar va moddiy xomashyolarni xarid etishga imkon yaratadi.

Bozor munosabatlari takomillashib borishi bilan, fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilma tarkibida birjalar, yarmarka va bozorlarning ahamiyati tobora o`sib borishi shubhasiz. Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida yarmarkalarning roli oshib boradi. Respublikamizda keyingi yillarda qishloq xo`jaligi mini texnikalari va texnologiyalari sohasida yarmarka va ko`rgazmalar o`tkazish an'anaga aylanmoqda. Imkoniyat darajasida har bir tumanda tez-tez yarmarkalar tashkil etib turilishi lozim.

Bozor infratuzilmasi tarkibida axborot va maslahat xizmati muhim o`rin tutadi. Chunki yetarli axborotga ega bo`lmay turib, xo`jalik samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilib bo`lmaydi. Shuningdek axborot xizmati ishlab

chiqarishni fan va texnikaning eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ilg`orlar tajribasi bilan ta'minlab turishga yordam beradi.

Hozirgi kunda fermerlar har qachongidan ham ko`ra axborot va maslahat xizmatiga ko`proq ehtiyoj sezadi. Fermer xo`jaliklarining hajmi kichikligidan ularda agronom, zootexnik kabi bir qator kerakli mutaxassislarni saqlab turish o`zini oqlamaydi. Har bir tumandagi fermer xo`jaliklari uyushmasi qoshida ularni zarur ma'lumot va maslahatlar bilan ta'minlovchi malakali mutaxassislardan iborat xizmat guruhi shakllantiriladi. Bugungi kunda fermerlarga maslahat xizmati ko`rsatuvchi 300 ta axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko`rsatish shoxobchalari faoliyat ko`rsatmoqda. Ular fermer xo`jaliklariga umumiy qiymati 289,3 mln. so`m bo`lgan 11354 ta axborot va konsalting xizmatlari ko`rsatish bo`yicha shartnomani amalga oshirganlar (20-jadval).

20-jadval

### **Konsalting va marketing xizmati tarmoqlarining faoliyati**

2008-yil

Hududlar	Jami shoxobchalar soni	Tuzilgan shartnomalar		Haqiqatda ko`rsatilgan xizmat	
		soni, Dona	qiymati, mln. so`mda	soni, dona	qiymati, mln. so`mda
Qoraqalpog`iston Respublikasi	19	358	18,4	358	18,4
Andijon	23	50	3,5	42	3,1
Buxoro	38	1406	60,0	1406	59,8
Jizzax	12	6877	16,6	3645	13,4
Qashqdaryo	34	304	15,4	268	15,4
Navoiy	15	81	8,3	49	7,3
Namangan	12	149	4,9	149	3,7
Samarqand	17	113	4,1	91	3,5
Surxondaryo	25	1086	32,6	879	28,1
Sirdaryo	4	169	39,0	141	31,5
Toshkent	18	595	33,0	529	25,5
Farg`ona	48	3813	43,9	2555	37,5
Xorazm	35	1613	48,7	1242	42,1
<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>300</b>	<b>16614</b>	<b>328,4</b>	<b>11354</b>	<b>289,3</b>

Manba: O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi ma'lumotlari

Istiqlolda fermer xo`jaliklarini har tomonlama rivojlantirish uchun bozor infratuzilmalarini rivojlantirishning quyidagi yo`nalishlari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan:

- fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi bozor infratuzilmalari sonini keskin oshirish;

- tijorat banklari hamda budgetdan tashqari jamg`armalarning fermerlikni rivojlantirishga yo`naltirayotgan kredit resurslarini ko`paytirishni har tomonlama rag`batlantirish;

- kredit tavakkalchilagini sug`urtalovchi institutsional tuzilmalarni keng rivojlantirish;

- qishloqda fermer xo`jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko`sata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini jadal rivojlantirish;

- ilg`or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

- mahsulotlarini sotishning eng maqbul yo`llarini ishlab chiqish.

Institutsional infratuzilma iqtisodiyot rivojlanishining qulay makroiqtisodiy nisbatlarini qo`llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o`z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalar kiradi.

Fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini tartibga solib turuvchi davlat organlari safiga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, hokimiyatlar va boshqa davlat boshqaruvi organlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga fermer xo`jaliklari faoliyatini qo`llab-quvvatlab turuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar, uyushmalar, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa subyektlar faoliyati diqqatga sazovor. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, Raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlat qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasi, Adliya vazirligi va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

#### **8.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo`llari**

Tahlillar qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatadigan infratuzilma subyektlari faoliyatida ma'lum bir kamchiliklar mavjudligini ko`rsatadi. Jumladan, fermer xo`jaliklariga turli xizmatlar, ayniqsa konsalting, axborot-maslahat, moliyaviy xizmatlar, mahsulot sotishga ko`maklashish yo`nalishlaridagi infratuzilmalar soni hamda ular bilan amalga oshirilayotgan shartnomalar qiymati hanuzgacha yetarli emas. Ularning xizmat ko`rsatish ko`lami hozirda faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklarining ko`p qismini qamrab olmagan. Bularidan tashqari yana quyidagi muammolar mavjudligiga e'tiborni qaratish lozim:

- infratuzilma subyektlari va fermer xo`jaliklari o`rtasida shartnomalarda tomonlar o`rtasida o`z majburiyatlarini bajarilishiga mas'uliyatsizlik bilan qaralishi;

- infratuzilma subyektlarida sarf-xarajatlar ustidan doimiy monitoring olib borilmasligi;

- infratuzilma subyektlarida ko`rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo`yicha aniq hisob-kitobni yuritilmasligi natijasida debitor va kreditor qarzdorlikning mavjudligi;

- infratuzilma subyektlari rahbarlari tomonidan debitor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish borasida aniq tadbirlarni (inkassaga qo`yish, oldindan pul tushirilishini talab qilish va boshqalar) amalga oshirilmasligi;

- infratuzilma subyektlari rahbarlari va bosh mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish, zaxira kadrlarni tayyorlash borasida aniq tadbirlar ishlab chiqilmaganligi;

- joylarda infratuzilma subyektlarining samarali faoliyat ko`rsatishiga (zarur bino-inshootlar bilan ta'minlash, boshlang`ich moliyaviy yordam ko`rsatish, kadrlar bilan ta'minlash va boshqalar) mahalliy hokimiyatlar tomonidan amaliy yordamning ko`rsatilmasligi va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o`zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar” nomli asarida qishloq joylarda infratuzilmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor bilan qarab: “Qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani yana bir bor tanqidiy baholab, uni kengaytirish bo`yicha qo`shimcha mablag` va imkoniyatlar topish zarur. Bu qishloqlarda aholini, ayniqsa, yoshlardan bandligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanini unutmasligimiz darkor”<sup>1</sup> - deb ta`kidlab o`tganlar.

O`zbekiston Respublikasining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi keltirib chiqargan oqibatlarni respublikamiz sharoitida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlari dasturida hamda “2009-yil – Qishloq taraqqiyoti va farovonligi Davlat dasturi”ga muvofiq qishloq qurilishi bo`yicha hududiy bo`limlarga ega ixtisoslashgan bank tashkil etildi. Bu dasturning asosiy vazifalaridan biri – qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva-sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo`yicha zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarini tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat.

Prezidentimiz tomonidan bu borada keng miqyosdagi vazifalar qo`yilgan – ya’ni, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobidan qishloqda ixcham texnologiyalar bilan jihozlangan yangi, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini shakllantirish va ularning keng ko`lamda faoliyat yuritishi uchun har tomonlama mustahkam xomashyo asosini tashkil etish zarur.

Bunday ishlab chiqarish quvvatlari har bir viloyat, tuman va qishloqda barpo etilishi belgilangan. Bu nafaqat ishlab chiqarishning yangi hajmlari va yalpi ichki mahsulotni oshirish, avvalo oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko`paytirish imkonini berishi zarur.

Istiqbolda fermer xo`jaliklarini ta’mnot, xizmat ko`rsatish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash sohalaridagi infratuzilmalarni quyidagi yo`nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq:

- muqobil mashina-traktor parklarini samarali faoliyat ko`rsatishini ta'minlash, ularning moddiy-texnika asosini mustahkamlash va moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqib, ularni bajarilishiga amaliy yordam ko`rsatish;

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtosodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. - T.: Ўзбекистон, 2009.

- zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatini ko`rsatishga ixtisoslashgan infratuzilma obyektlarini nafaqat yangidan tashkil etish, balki oldindan faoliyat ko`rsatib kelayotgan shoxobchalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan qayta jihozlash ishlariga mahalliy budget, homiylar va tijorat banklarining kredit mablag`lari ajratilishiga amaliy yordam ko`rsatish;

- tuman markazlari va qishloq hududlarida faoliyat ko`rsatayotgan resurs markazlarining ishlarini kuchaytirish maqsadida ularni zamonaviy orgtexnika, yetuk kadr va tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlashga amaliy yordam ko`rsatish;

- qishloqda bozor infratuzilmasi subyektlari bo`lgan «maslahat-axborot» markazlari, sug`urta, marketing, moliyaviy uyushmalar va jamg`armalarni tashkil etish hamda boshlang`ich faoliyatlarini iqtisodiy rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash;

- qishloq hududlaridagi infratuzilma obyektlarida mehnat qilayotgan ishchi-mutaxassislar, shuningdek kollejlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ularning kasbiy malakasini oshirish maqsadida qisqa muddatli ko`rgazmali o`quv seminarlarini doimiy o`tkazib borilishini tashkil qilishga amaliy yordam ko`rsatish.

### **Qisqacha xulosalar**

«Infratuzilma» so`zi lotin tilidan tarjima qilinganda «tuzilmadan tashqarida» ma`nosini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai-nazardan infratuzilma mohiyatiga quyidagi izoh ko`proq mos keladi: «inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvini ta'minlovchi tovar va xizmatlar yaratishda o`ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi».

Infratuzilma to`rt qismga, ishlab chiqarish, bozor, ijtimoiy va institutsional infratuzilmaga bo`linadi.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlarni o`z ichiga oladi. Uning tarkibiga:

- moddiy-texnika ta'minoti;
- mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash;
- agroximiya va zooveterinariya xizmati;
- texnik xizmat ko`rsatish;
- suv va elektr ta'minoti, turli mahsulotlar va informatsiya xizmati kabi bo`linmalar kiradi.

**Bozor infratuzilmasi** bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko`rsatmasada, xo`jalikning umumiyligi faoliyatini ta'minlashga xizmat ko`rsatadi. Masalan, marketing va reklama, axborot-maslahat, auditorlik, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo`jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko`rsatadi.

**Ijtimoiy infratuzilma** ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatlarga normal mehnat faoliyati yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish uchun, shuningdek mehnatkashlarning turli maishiy xizmat turlariga bo`lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

**Institutsional infratuzilma** iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo`llab-quvvatlovchi makroiqtisodiy tartibga soliuvchi sohalar va faoliyat

turlarini o`z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, moliya-kredit tuzilishi va boshqalar kiradi.

Infratuzilma bo`linmalarining rivojlanib borishidan fermer xo`jaliklari katta manfaat ko`radi, negaki bu fermerlarni ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan ishlardan ozod etib, ularning kuch-g`ayratini asosiy faoliyatiga qaratishga imkon yaratadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Infratuzilma deganda nimani tushunasiz?
2. Infratuzilma qanday turlarga bo`linadi?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi qanday vazifalarni bajaradi?
4. Bozor va institutsional infratuzilmalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Respublikamizda ishlab chiqarish, bozor va institutsional infratuzilmalarni rivojlantirish borasida qanday dasturlar amalga oshirilmoqda?
6. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida infratuzilmalarni qanday yo`nalishlarda takomillashtirish lozim?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A., Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. - T.: O`zbekiston, 2009.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi to`g`risida”gi Qarori, //Xalq so`zi gazetasi, 2008-yil 27-yanvar.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 17-apreldagi 325-sonli “O`zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish to`g`risida”gi Qarori.
4. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi, -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi. 2004.
5. Jo`rayev F. Qishloq xo`jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. - T.: Istiqlol, 2004.
6. Samatov G`A. va boshq. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, -T.: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.

## **IX bob. MAHSULOT SOTISH YO`NALISHLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH**

### **9.1. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi**

Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish jarayoni muomala sohasida yakunlanadi. Shu tufayli uning rivojlanish darajasi xo`jalik faoliyatining yakuniy natijalariga bevosita ta`sir ko`rsatadi. «Fermer xo`jaligi to`g`risida”gi qonunda fermer o`zi yetishtirgan mahsulotni tasarruf etish va uni iste`molchilarga sotishda mustaqildir deb belgilab qo`yilgan. Mahsulotlarni sotish yo`llarini tanlashdagi erkinlik fermerlarga o`zlarining manfaatlariga mos keluvchi xaridorlarni izlab topish va o`zaro foydali savdo bitimlarini tuzishga imkon berishi lozim.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tayyorlov va sotuv kanallari quyidagilardir:

1. Ishlab chiqaruvchilar – Davlat – Iste`molchilar;
2. Ishlab chiqaruvchilar – Dehqon bozori – Iste`molchilar;
3. Ishlab chiqaruvchilar – Xususiy tadbirkorlar – Dehqon bozori – Iste`molchilar;
4. Ishlab chiqaruvchilar – Vositachilar – Tovar xomashyo birjalari – Ulgurji (xususiy) tayyorlov tashkilotlari – Chakana savdo – Iste`molchilar;
5. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishslash korxonalari – Ulgurji savdo korxonalari – Chakana savdo – Iste`molchilar;
6. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishslash korxonalari – Chakana savdo – Iste`molchilar.

Dehqon bozorlarida xaridor va sotuvchilarning erkinliklarini ta`minlagan holda, o`z moddiy-texnika asosiga (shu jumladan o`z transporti, saqlash omborxonalari, muzlatkichlari, yopiq vitrinalari) ega bo`lgan tayyorlov guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu qilinadigan xarajatlar tez orada o`zini qoplaydi. Chunki ayni paytda ko`pchilik savdogarlar mahsulot qoldiqlarini kun yakunida uylariga olib borib, ertangi kunda qaytib bozorga olib keladilar. Yirik shaharlarda to`la infratuzilma xizmatlari majmuiga ega bo`lgan ulgurji qishloq xo`jaligi mahsulotlarining bozorini tashkil etilishi va ularning o`zlarini mahsulot tayyorlash, saqlash hamda ulgurji (yoki chakana) savdo bilan shug`ullanishlari yuqori samara berishi mumkin. Bunday bozorlarda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qadoqlash, navlarga ajratish va nostandart tovarlarni qayta ishslashini yo`lga qo`yishi ularning samaradorligini yanada oshiradi.

Eng muhimi qadoqlash natijasida mahsulotni qayta ishslash va saqlanishi kulaylashadi. Mazkur bozordagi mahsulotni qayta ishslash va boshqa chiqindilarni chorvachilik fermerlariga sotish yoki bozorning yonida o`z chorvachilik yordamchi xo`jaliklarini tashkil etish ham ijobjiy samara berishi muqarrardir.

Dunyo mamlakatlarining ilg`or tajribasi qishloq xo`jaligi mahsulotlarining realizatsiyasini ulgurji savdo birjalarida tuziladigan fyuchers va boshqa shartnomalar orqali amalga oshirilishi samaradorligini ko`rsatmoqda.

## **9.2. Davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi**

Respublikamizda strategik ahamiyatga ega bo`lgan ayrim qishloq xo`jaligi mahsulotlari, ya`ni paxta va g`allaga davlat buyurtmasi joriy etilgan. Garchi erkin bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o`z mahsulotlarini raqobatli bozorlarda erkin sotishlari lozim bo`lsada, respublikamizning g`alla mustaqilligini qo`lga kiritishi zarurati hamda valuta tushumining salmoqli qismini ta`minlab berayotgan paxta tolasi hozircha bu mahsulotlarning davlat buyurtmasi bo`yicha xarid etilishiga sabab bo`lmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, mavsumiy tebranishlar va tabiiy-iqlimi shart-sharoitlar ta`siriga chalinuvchan bo`lganligi tufayli qishloq xo`jaligi mahsulotlari kafolatlangan narxlar orqali sotib olinishi fermerlar uchun manfaatli ham bo`lishi mumkin. Ya`ni bu holat fermerlarni narxlar pasayib ketishidan yoki ortiqcha mahsulot bozorga kirishi oqibatida ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlardan saqlaydi. Aslida esa “... davlat buyurtmasi bo`yicha sotib olinadigan mahsulotlar muayyan turlarining umumiyligi zarurligi iqtisodiy munosabatlar takomillashmaganligini bildiradi. Bozor munosabatlarining kengayishi va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sayin davlat dehqonning teng huquqli hamkoriga aylanib, ular o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar obyekti faqat yagona yer solig`i hisoblanadi. Natijada, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash uchun davlat buyurt masi dehqon uchun foydali bo`lib, davlat xarid narxlari davlat buyurtmasini bajarishda qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini rag`batlantiruvchi bo`lib, yangicha mazmun kashf etadi”<sup>2</sup>.

Strategik ahamiyatga ega bo`lgan qishloq xo`jaligi mahsulotlaridan paxta va g`alla uchun davlat buyurtmasi joriy etilgani tufayli ushbu mahsulotlarning davlat xarid narxlari fermer xo`jaliklari uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Erkin bozor munosabatlari amal qilib turgan barcha mamlakatlarda davlat xarid etadigan mahsulotlarga narx belgilashda bozordagi talab va taklif nisbati asos qilib olinadi. Ammo, qishloq xo`jaligi tarmog`iga xos bo`lgan xususiyatlardan kelib chiqqan holda, bozordagi muvozanat narxga tegishli tuzatishlar kiritish amaliyotda keng qo`llaniladi.

Eng muhimi qishloq xo`jaligi mahsulotlarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qismi uchun belgilanadigan davlat xarid narxlari rag`batlantiruvchi kuchga ega bo`lishi va korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini qoplab ma'lum bir miqdorda foyda ko`rshiga ham imkoniyat yaratishi lozim.

Davlat strategik ahamiyatiga ega bo`lgan qishloq xo`jaligi, mahsulotlar-paxta va g`alla (bug`doy doni), sholi uchun qishloq xo`jaligi korxonalariga davlat buyurtmalari beradi.

Davlat buyurtmalari hajmi qishloq xo`jaligi mahsulotlari turlari bo`yicha quydagicha o`rnatilgan:

- bug`doy uchun rejalahtirilgan hosilning 50 % miqdorida;
- paxta uchun rejalahtirilgan hosilning 70 % ini davlat xarid narxlarda va qilgan 30 % ini erkin shartnomaviy narxlarda sotish.

<sup>2</sup> Yo`ldoshev R. Paxtachilik quyi majmuasidagi iqtisodiy munosabatlar va ularni iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida takomillashtirish. i.f.n. dissertatsiya avtoreferati. - T.: O`zBIITI, 2000, 14-б.

Davlat buyurtmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 31-dekabrdagi PF-2165-sonli Farmoni bilan tashkil etilgan “Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg`armasi” mablag`lari hisobidan amalga oshiriladi .

Davlat buyurtmalari fermer xo`jaliklari bilan tuziladigan shartnomalar orqali rasmiylashtiriladi. Shartnomani davlat tomonidan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob jamg`armasi”ning tijorat agentlari hisoblanadigan subyektlar:

- g`alla bo`yicha “O`zdonmahsulot” Davlat Aksiyadorlik jamiyatining joylaridagi bo`linmalari;
- paxta bo`yicha “O`zpaxtasanoatsotish” Assotsiatsiyasining tumanlardagi paxta tozalash zavodlari orqali rasmiylashtiradilar.

Jamg`arma, shuningdek davlat buyurtmasi bo`yicha mahsulot yetishtiruvchi xo`jaliklarini o`z vaqtida moliyalashtirish uchun “Agrobank” RATBni moliya agenti sifatida yo`llaydi. Fermer xo`jaligining mahsulotni realizatsiya qilish bo`yicha tayyorlov tashkilotlari va boshqa korxonalar bilan munosabatlari shartnomada asosida amalga oshiriladi.

Paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajargan fermer xo`jaliklariga zavod narxlarida yog`, sheluxa va kunjara sotilmoqda. Agar xo`jalik paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajarmasa, bu imtiyozdan mahrum bo`ladi, davlat buyurtmasidan ortiqcha paxta tolasini (davlat buyurtmalari narxidan yuqoriq narxlarda) xo`jaliklar «Paxtasanoat» hududiy birlashmalariga sotmoqdalar. Buning sababi:

- respublikada paxta davlat monopoliyasi bo`lib, uning erkin bozori mavjud emas;
- davlat buyurtmasi bo`yicha o`rnatalayotgan xarid narxlari darajasi hozirgacha pastligicha qolmoqda va bu holat ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirishga olib kelmoqda;
- ayni paytda fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi korxonalar xizmatlari narxi, fermerlar tomonidan ishlab chiqarish maqsadlarida xarid qilinadigan moddiy-texnika resurslari baholari qimmatligicha qolmoqda va buning natijasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari baholari bilan qishloq xo`jaligida ishlatiladigan sanoat tovarlari baholari o`rtasida yirik nomutanosiblik, ya`ni “disparitet” vujudga kelmoqda;
- ko`p hollarda paxta va g`alla bo`yicha davlat ehtiyojlari uchun mahsulot xarid etishda davlatning tijorat agentlari vazifasini o`tayotgan “O`zdonmahsulot” DAJ va “O`zpaxtasanoat” uyushmasi fermerlar bilan o`zaro hisob-kitoblarini amalga oshirishda sustkashlikka yo`l qo`yib, hisob-kitob muddatlarini asossiz cho`zib yuboradilar va bu bilan fermerlarning pul mablag`lariga ehtiyoj sezadigan mavsumlarda aylanma vositalar bilan ta`minlash holatiga salbiy ta`sir ko`rsatadilar;
- davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan paxta xomashyosi bo`yicha xo`jalik ixtiyoriga qaytarilishi lozim bo`lgan paxta chigit, yog`i, shrot va sheluxa mahsulotlari o`z vaqtida fermer xo`jaliklariga qaytarilmasdan, turli sarsongarchiliklar oqibatida cho`zib yuboriladi;
- ayrim holatlarda bozor iqtisodiyoti qonuniyatini yaxshi anglab yetmagan hokimiyat organlari rahbarlari rejadan ortiqcha mahsulotni ham davlatga topshirishga majbur qilishi holatlari uchraydi.

### **9.3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini erkin sotish mexanizmi**

Paxta va g`alladan tashqari boshqa mahsulotlarni fermerlar sotishning bir nechta yo`nalishi mavjud, ya`ni ular mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalariga, boshqa muassasalarga, tadbirkorlarga, xususiy korxonalarga yoki bozorda sotishi mumkin.

Hozirda fermerlar mahsulotini asosan tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalariga shuningdek bozorda sotmoqda. Fermerlar uchun mahsulot sotish kanali faqat bitta emas, ular bir vaqtning o`zida mahsulotning bir qismini tayyorlov tashkilotlariga yoki qayta ishlash korxonalariga bir qismini esa bozorlarda yoki boshqa xarididlarga sotishi mumkin.

Qishloq xo`jaligida ko`p sonli fermer xo`jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko`rsatishi sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishiga undamoqda. Chunki qishloq xo`jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga talafotsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo`lgan mahsulotlarning qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozoriga xizmat ko`rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

Texnik xizmat ko`rsatish va moddiy- texnika ta'minoti sohalarida bo`lgani kabi mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash shug`ullanuvchi korxonalar ham ozchilikni tashkil qilib, o`z mahsulotlarida yakka hokimliklarni (monopoliya mavqeini) qo`lga kiritib olganlar. Masalan, deyarli ko`pchilik tumanlarda paxta, don, sut, sabzavot va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash sohasida 1 tadan korxonalar faoliyat ko`rsatadi.

Qishloq joylarida infratuzilma tarmog`i - savdo-sotiq va tayyorlov tizimi taraqqiy etmagan. Tayyorlovchilar yakkahokimchilik mavqeidan foydalanib, zimmalariga olingan shartnomalarini bajarmaslik hollarini uchratish mumkin.

Eng yomon tomoni shundaki, sut, sabzavot kabi bir qator qishloq xo`jaligi mahsulotlari tez buziluvchanligidan ularni uzoq saqlab bo`lmaydi. Tumanda ularni qabul qilish va qiluvchi korxonalar yagona ekanligidan, ba`zida mavsumiy paytlarida ularni o`z vaqtida qabul qilib olishning iloji bo`lmaydi. Qolavyersa, bunday mahsulotlarni uzoq masofadan tashib kelish imkoniyatlari chegaralangan, mahsulot sifati ham buzilishi mumkin.

Fikrimizcha har bir tuman miqyosida qayta ishlash korxonalari tarmog`ini ko`paytirish bo`yicha jiddiy tadbirlarni amalga oshirish zarur. Mahsulotlarni qayta ishlovchi yangi sexlarni ishga tushirish yoki mavjud korxonalarning bir necha joyda mahsulot qabul qiluvchi shoxobchalarini ochish kerak.

Hozirgacha bizda xo`jalik mahsulotlarini ma'lum haq evaziga saqlab beradigan sovitkich ko`rsatkichiga ega omborlar tarmog`i shakllanmagan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko`rsatishning bu turi keng tarqalgan. Maxsus sovitkichlarga ega omborlar tarmog`ini barpo etish bozorni yil davomida qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan bir maromda ta'minlab berish imkonini beradi. Shuningdek, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hosilni yig`ib olish davrida bozorlarga talabdan oshiqcha mahsulot pasayib ketishdan o`zlarini bir qadar himoya qila olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Fermerlar uchun mahsulotning bir qismini qayta ishlab sotishning ahamiyati shundaki, odatda tayyor mahsulotga nisbatan xomashyo narxi ancha past bo`ladi. Mahsulotni xomashyo sifatida sotishdan yil davomida tyer to`kib mehnat qilgan fermer emas, balki arzimagan haq evaziga uni xarid qilib, qayta ishlab sotadigan korxonalar katta foyda ko`radi. Xuddi shunday holatni deyarli barcha mahsulot turlari bo`yicha kuzatish mumkin.

Fermer xo`jaliklari uchun mahsulot sotish yo`nalishlari ichida bozorlari katta ahamiyat kasb etadi. Mahsulotni bevosita bozorlarda sotishning fermer uchun manfaatli tomonlari ko`p. Chunki bunda u mahsulotini o`zi istagan narxda (talab va taklifdan kelib chiqib) sotish imkoniyatiga ega bo`ladi, shu bilan birga bozorda u mahsulotni naqd pulga sotishi mumkin.

#### **9.4. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish va ularga narx belgilash tizimini takomillashtirish**

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida har bir korxona o`zi ishlab chiqarayotgan mahsulotni manfaatli narxlarda sotish va shu orqali daromadi, ayniqsa foydasini ko`paytirishga intilishi shubhasiz. Bunda mahsulotlarning narxlari (shu jumladan davlat xarid narxlari) barqaror bo`lishiga, ayniqsa mahsulot tannarxini arzonlashtirish va resurs tejamkorligiga e'tiborni kuchaytirish o`ta muhim vazifalardan hisoblanadi. Jumladan, “qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag`batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008-yili xo`jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma’qullanganini qayd etish lozim”<sup>3</sup>.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, fermer xo`jaliklari o`zлari yetishtirgan mahsulotlarni sotishda har doim ham to`liq mustaqillikka ega emaslar. Bu ayniqsa, eng ko`p miqdorda yetishtiriladigan paxta va g`alla mahsulotlarini sotish jarayoniga o`z ta’sirini ko`rsatmoqda.

Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan mahsulotlarga o`rnatilgan davlat xarid narxining erkin bozor narxlardan keskin pastligi fermer xo`jaliklarining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko`rsatmoqda.

Paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajargan fermer xo`jaliklariga zavod narxlarida yog`, sheluxa va kunjara sotilmoqda. Agar xo`jalik paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajarmasa, bu imtiyozdan mahrum bo`ladi, davlat buyurtmasidan ortiqcha paxta tolasini (davlat buyurtmalari narxidan yuqoriroq narxlarda) xo`jaliklar «Paxtasanoat» hududiy birlashmalariga sotmoqdalar. Buning sababi:

- respublikada paxta davlat monopoliyasi bo`lib, uning erkin bozori mavjud emas;

- davlat buyurtmasi bo`yicha o`rnatilayotgan xarid narxlari darajasi hozirgacha pastligicha qolmoqda va bu holat ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirishga olib kelmoqda;

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. - T.: O`zbekiston, 2009, 34-6.

- ayni paytda fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi korxonalar xizmatlari narxi, fermerlar tomonidan ishlab chiqarish maqsadlarida xarid qilinadigan moddiy-texnika resurslari baholari qimmatligicha qolmoqda va buning natijasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari baholari bilan qishloq xo`jaligida ishlatiladigan sanoat tovarlari baholari o`rtasida yirik nomutanosiblik, ya`ni “disparitet” vujudga kelmoqda;

- ko`p hollarda paxta va g`alla bo`yicha davlat ehtiyojlari uchun mahsulot xarid etishda davlatning tijorat agentlari vazifasini o`tayotgan “O`zdonmahsulot” DAJ va “O`zpaxtasanoat” uyushmasi fermerlar bilan o`zaro hisob-kitoblarini amalgalashirishda sustkashlikka yo`l qo`yib, hisob-kitob muddatlarini asossiz cho`zib yuboradilar va bu bilan fermerlarning pul mablag`lariga ehtiyoj sezadigan mavsumlarda aylanma vositalar bilan ta`minlash holatiga salbiy ta`sir ko`rsatadilar;

- davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan paxta xomashyosi bo`yicha xo`jalik ixtiyoriga qaytarilishi lozim bo`lgan paxta chigit, yog`i, shrot va sheluxa mahsulotlari o`z vaqtida fermer xo`jaliklariga qaytarilmasdan, turli sarsongarchiliklar oqibatida cho`zib yuboriladi;

- ayrim holatlarda bozor iqtisodiyoti qonuniyatini yaxshi anglab yetmagan hokimiyat organlari rahbarlari rejadan ortiqcha mahsulotni ham davlatga topshirishga majbur qilishi holatlari uchraydi.

Tumanda ularni qabul qilish va qiluvchi korxonalar yagona ekanligidan, ba`zida mavsumiy paytlarida ularni o`z vaqtida qabul qilib olishning iloji bo`lmaydi. Qolavyersa, bunday mahsulotlarni uzoq masofadan tashib kelish imkoniyatlari chegaralangan, mahsulot sifati ham buzilishi mumkin. Fikrimizcha har bir tuman miqyosida mahsulotlarni qayta ishlovchi yangi sexlarni ishga tushirish yoki mavjud korxonalarning bir necha joyda mahsulot qabul qiluvchi shoxobchalarini ochish kerak.

Fermerlar uchun mahsulotning bir qismini qayta ishlab sotishning ahamiyati shundaki, odatda tayyor mahsulotga nisbatan xomashyo narxi ancha past bo`ladi. Mahsulotni xomashyo sifatida sotishdan yil davomida tyer to`kib mehnat qilgan fermer emas, balki arzimagan haq evaziga uni xarid qilib, qayta ishlab sotadigan korxonalar katta foyda ko`radi. Xuddi shunday holatni deyarli barcha mahsulot turlari bo`yicha kuzatish mumkin.

Keyingi yillarda ko`pchilik qayta ishslash va tayyorlov korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Ammo paxta va g`allani xarid etishga ixtisoslashlashtirilgan korxonalar aksiyalarining nazorat paketi davlatga tegishlidir. Fikrimizcha, qayta ishslash va tayyorlov korxonalarining yakka hokimligini tugatish va xo`jaliklarning ularga bog`liqligini bartaraf etish uchun, bunday korxonalar aksiyalarining katta qismini birinchi navbatda shu korxonalarga mahsulot yetkazib beruvchi xo`jaliklarga sotish kerak (hech bo`limganda nazorat paketi miqdorida). Qishloq xo`jaligi korxonalari o`zlari mahsulot sotadigan qayta ishslash yoki tayyorlov korxonalarining aksiyalariga ega bo`lsa, ular ham shu korxonalar foydasining bir qismiga sherik sifatida ularni rivojlantirishdan manfaatdor bo`ladi, ham boshqarishda sezilarli ta`sir ko`rsatib qishloq xo`jaligi mahsulotlarining arzon baholarda sotib olinishiga chek qo`yiladi.

Xorijiy mamlakatlar birjalarida fyuchers savdosi, ya`ni bo`lg`usi hosil uchun oldindan shartnoma asosida haq to`lab qo`yish keng tarqalgan. Bunday bitimlar

fermerlarga yil davomida ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish uchun oldindan moddiy resurslarni xarid qilib qo`yishga imkon beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Qishloq xo`jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xo`jaliklari qatorida ko`p sonli aholi, dehqon va fermer xo`jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko`rsatishi bu sohada mahsulot tayyorash tizimini ham tubdan yangilanishga undamoqda. Chunki qishloq xo`jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga talafotsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo`lgan mahsulotlarning qishloq xo`jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko`rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

Mahsulotlarni sotish yo`llarini tanlashdagi erkinlik fermerlarga o`zlarining manfaatlariga mos keluvchi xaridorlarni izlab topish va o`zaro foydali savdo bitimlarini tuzishga imkon berishi lozim.

Davlat strategik ahamiyatiga ega bo`lgan qishloq xo`jaligi, mahsulotlari-paxta va g`alla (bug`doy doni), sholi uchun qishloq xo`jaligi korxonalariga davlat buyurtmalari beradi.

Paxta va g`alladan tashqari boshqa mahsulotlarni fermerlar sotishning bir nechta yo`nalishi mavjud, ya`ni ular mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari va qayta ishslash korxonalariga, boshqa muassasalarga, tadbirkorlarga, xususiy korxonalarga yoki bozorda sotishi mumkin.

Qishloq joylarida infratuzilma tarmog`i - savdo-sotiqa va tayyorlov tizimi taraqqiy etmagan. Tayyorlovchilar yakkahokimchilik mavqeidan foydalanib, zimmalariga olingan shartnomalarini bajarmaslik hollarini uchratish mumkin.

Fikrimizcha har bir tuman miqyosida qayta ishslash korxonalari tarmog`ini ko`paytirish bo`yicha jiddiy tadbirlarni amalga oshirish zarur. Mahsulotlarni qayta ishlovchi yangi sexlarni ishga tushirish yoki mavjud korxonalarning bir necha joyda mahsulot qabul qiluvchi shoxobchalarini ochish kerak.

Dunyo mamlakatlarining ilg`or tajribasi qishloq xo`jaligi mahsulotlarining realizatsiyasini ulgurji savdo birjalarida tuziladigan fyuchers va boshqa shartnomalar orqali amalga oshirilishi samarali ekanligini ko`rsatmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi qanday xususiyatlarga ega?
2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotish tizimini qanday yo`llar bilan takomillashtirish mumkin?
3. Davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish tizimi qanday shakllangan?
4. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini erkin sotish tizimining afzallikkari nimalardan iborat?
5. Global iqtisodiy inqiroz sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish va ularga narx belgilash tizimini takomillashtirish yo`nalishlari nimalardan iborat?

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari, - T.: O`zbekiston, 2009.
2. . O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi to`g`risida”gi Qarori, //Xalq so`zi gazetasi, 2008-yil 27-yanvar.
3. Salimov B.T.va boshq., Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi, -T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi», 2004.
4. Jo`rayev F, Qishloq xo`jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish, - T.: Istiqlol, 2004.
5. Samatov G`A. va boshq., Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, - T.: O`zbekiston Milliy endavropediysi, 2005.
6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagagi 57-sonli “Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to`g`risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Moddiy-texnika resurslari strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to`g`risida nizom”.

## **X bob. FERMER XO`JALIKLARINING DAVLAT VA BOSHQA KORXONALAR BILAN IQTISODIY ALOQALARINING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY ASOSI**

### **10.1. Qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlarning mohiyati, turlari va amal qilish xususiyatlari**

Bugungi kunda qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki bozor sharoitida xo`jalik yuritish subyektlari orasidagi munosabatlar asosan shartnomalar orqali tartibga solinadi. Qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlarni quyidagi qonunchilik hujjatlari tartibga solib turadi:

1. O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi”.

2. O`zbekiston Respublikasining “Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asosi to`g`risida”gi qonuni.


3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 383-sonli qarori.

4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 476-sonli qarori.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro`yxatdan o`tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to`g`risida nizom» qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish va ularni bajarishda paydo bo`ladigan munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ularni tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limlarida ro`yxatdan o`tkazish hamda ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibini belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro`yxatdan o`tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish artibi to`g`risida nizom»ga muvofiq qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosan uchta turdagи shartnomalarni tuzadi (20-chizma):

- kontraktatsiya shartnomalari;
- moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo`yicha shartnomalar;
- xizmat ko`rsatish bo`yicha shartnomalar.



20-chizma. Qishloq xo`jaligi korxonalari tomonidan tuziladigan shartnomalarning turlari

**Kontraktatsiya shartnomasi bo`yicha** xo`jalik bunday mahsulotlarni qayta ishslash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa muayyan narx bo`yicha kelishilgan muddatlarda haq to`lab ushbu mahsulotlarni sotib olish majburiyatini oladi.

**Moddiy-texnika resurslari** (ehtiyyot qismlar, urug`lik, o`simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg`i-moylash materiallari, mineral o`g`it va boshqalar) **yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnomasi bo`yicha** yetkazib beruvchi tashkilot xo`jalikka o`zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo`jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo`yicha haq to`lash majburiyatini oladi.

**Xizmatlar ko`rsatish** (ishlarni bajarish) **yuzasidan tuzilgan shartnomasi bo`yicha** bajaruvchi tashkilot xo`jalik buyurtmasiga binoan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog`liq boshqa xizmatlar ko`rsatishni ta`minlash majburiyatini oladi, xo`jalik esa ushbu ishlar (xizmatlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo`yicha haq to`lash majburiyatini oladi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish mavjud bo`lgan taqdirda tayyorlov tashkilotlari O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg`armasi bilan qishloq xo`jaligi mahsulotlari xarid qilishni mablag` bilan ta`minlash to`g`risida belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi.

Xo`jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari sotish, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan barcha turdagilari shartnomalar tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limlarida ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

Shartnomalarni tuzish va bajarishda tomonlardan har biri o`z majburiyatlarini eng yuqori tejam bilan, boshqa tomonlarning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilgan holda bajarishi, majburiyatlarning zarur darajada bajarilmasligi natijasida paydo bo`lishi mumkin bo`lgan zararning oldini olish bo`yicha zarur chora-tadbirlarni ko`rishi va boshqa tomonni ushbu chora-tadbirlar to`g`risida o`z vaqtida xabardor qilishi, shuningdek unga majburiyatlarni bajarishda ko`maklashishi lozim.

Tuziladigan shartnomalarda quyidagi shartlar mustahkam bo`lishi shart:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo`yicha);
- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning huquqlari va o`zaro majburiyatlari;
- mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) punktlari va davrari (muddatlari);
- idishga, markirovka qilishga, o`rash-joylashga qo`yiladigan talablar;

- hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to`lov, pochta va yuklab jo`natish rekvizitlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- nizolarni, fors-major holatlarini hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

## **10.2. Shartnomalarni tuzish va ro`yxatdan o`tkazish tartibi**

Shartnomalarni tuzishda tomonlar O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asosi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi qonuniga, ushbu nizomga va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish va ularni ro`yxatdan o`tkazish bosqichlari 21-chizmada keltirilgan.

Kontraktatsiya shartnomalari, shuningdek moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnomalar xo`jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan hajmlardan kelib chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan bir oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishidan kechikmay tuziladi.

Shartnomalarda quyidagilar ko`rsatiladi:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo`yicha);
- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning huquqlari va o`zaro majburiyatlari;
- mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) punktlari va davrari (muddatlari);
- idishga, markirovka qilishga, o`rash-joylashga qo`yiladigan talablar;
- hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to`lov, pochta va yuklab jo`natish rekvizitlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar o`rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro`yxatdan o`tkazish bosqichlari

<b>Bosqichlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Mas'ullar</b>
1-bosqich	Shartnomalar tuzishga tayyorgarlik ko`rish	Agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin	Tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
2-bosqich	Shartnomalarni ko`rib chiqish va imzolash	7 kun mobaynida	Qishloq xo`jaligi korxonalari
3-bosqich	Shartnomalarni ro`yxatdan o`tkazish uchun berish	3 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
4-bosqich	Shartnomalarni ro`yxatdan o`tkazish	3 ish kuni mobaynida	Qishloq va suv xo`jaligi bo`limlari
5-bosqich	Shartnomalarni ro`yxatdan o`tkazgandan so`ng tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga berish	Ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo`jaligi bo`limlari
6-bosqich	Ro`yxatdan o`tkazilgan shartnomalarni xo`jaliklarga berish	Ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin 2 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
7-bosqich	Shartnomalarni saqlash	Barcha shartnoma shartlari bajarilgandan keyin 3 yil mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko`rsatuvchi va boshqa tashkilotlar, qishloq va suv xo`jaligi bo`limlari, qishloq xo`jaligi korxonalari

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo`jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning navi va miqdori ham ko`rsatiladi.

Shartnomaga qishloq xo`jaligi mahsulotlari, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish) muddatlari, miqdori va assortimentini belgilovchi, ikkala tomonning imzosi bilan tasdiqlangan hamda shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadigan jadval ilova qilinadi.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining bevosita joylashgan joyidagi tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari agrotexnika chora-tadbirlarini amalga oshirishdan bir oy oldin shartnomada tuzish uchun xo`jalikka o`zining vakolatli vakilini yuborishi kerak.

Xo`jalik shartnomada loyihasi tayyorlov yoki xizmat ko`rsatish tashkiloti vakilidan olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni ko`rib chiqishi va e'tirozlar bo`lmagan taqdirda loyihani imzolashi va tayyorlovchiga qaytarishi shart.

Xo`jalikda shartnomada loyihasi shartlari bo`yicha e'tirozlar paydo bo`lgan taqdirda xo`jalik yuqorida ko`rsatilgan muddatlarda kelishmovchiliklar to`g`risida bayonnomada tuzadi va uni tayyorlov yoki xizmat ko`rsatish tashkilotiga jo`natadi, bu to`g`rida tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limini xabardor qiladi.

Xo`jalikning shartnomada xulosasiga shartnomada loyihasida ilgari nazarda tutilganlardan boshqacha shartlarda roziligi mavjud bo`lgan javobi aksept (akseptlash) hisoblanmaydi. Bunday javobga akseptlashni rad etish va ayni bir vaqtida yangi taklif (ofyerta) sifatida qaraladi.

Tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkiloti kelishmovchiliklar to`g`risidagi bayonnomada olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni (zarurat bo`lganda tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi vakili bilan birligida) ko`rib chiqishi va ko`rib chiqish natijalari bo`yicha takliflarni shartnomada loyihasiga kiritishi yoxud hal etilmagan kelishmovchiliklarni xuddi shu muddatlarda ko`rib chiqish uchun tegishli xo`jalik sudiga berishi shart. Kelishmovchiliklar to`g`risidagi bayonnomada qabul qilinmaganda yoki uni ko`rib chiqish natijalari to`g`risida o`z vaqtida xabardor qilinmaganda xo`jalik nizoni sudda ko`rib chiqishga berishga haqlidir.

Shartnomada tomonlardan har biri va tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi uchun bir nusxadan tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga ega bo`ladi. Tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari xo`jaliklar bilan shartnomalarning o`z vaqtida tuzilishi uchun javob beradi. Tuzilgan shartnomada imzolangan vaqtdan boshlab, 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko`rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limiga ro`yxatdan o`tkazish uchun taqdim etiladi.

Ro`yxatdan o`tkazish uchun taqdim etilgan shartnomalarni ko`rib chiqish tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Shartnomalarni ro`yxatdan o`tkazishda qo`shimcha hujjatlar yoki to`lov talab qilinishiga yo`l qo`yilmaydi.

Shartnomada qo`yiladigan talablarga muvofiq bo`lgan taqdirda tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi uni belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tkazadi. Shartnomaning barcha nusxalariga ro`yxatdan o`tkazganlik to`g`risida belgi qo`yiladi, tuman qishloq

va suv xo`jaligi bo`limi xodimi tomonidan imzolanadi, imzo muhr bilan tasdiqlanadi. Tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi xodimlari ro`yxatdan o`tkazishning to`g`riliqi uchun javob beradi.

Shartnoma belgilangan talablarga muvofiq bo`lmagan taqdirda ro`yxatdan o`tkazishni rad etish to`g`risida qaror qabul qilinadi. Asoslangan holdagi rad etish aniq sabablar ko`rsatilgan holda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Shartnomani ro`yxatdan o`tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari shartnoma puxtalashtirilgandan keyin 3 kun muddatda uni takroran taqdim etishlari shart.

Tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limlarida shartnomalarini ro`yxatdan o`tkazish daftarlari yuritiladi, ularda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo`ladi:

- shartnomaning ro`yxatdan o`tkazish tartib raqami;
- shartnoma tuzilgan sana;
- shartnoma ro`yxatdan o`tkazilgan sana;
- shartnomaning tomonlari;
- yetkazib beriladigan mahsulotlar va ko`rsatiladigan xizmatlar (bajarilgan ishlar) turlari va miqdori (hajmlari);
- shartnoma summasi;
- ro`yxatdan o`tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana.

Shartnoma ro`yxatdan o`tkazilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari shartnoma ro`yxatdan o`tkazilgan kundan boshlab ikki kun muddatda xo`jaliklarga ro`yxatdan o`tkazilgan shartnomaning bir nusxasini jo`natishlari shart.

Shartnomani ro`yxatdan o`tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari bu haqda xo`jalikni rad etish sabablarini ko`rsatgan holda rad etish hujjati olingan kundan boshlab 2 kun muddatda xabardor qilishi shart.

Shartnomaning tomonlarda hamda tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limida qoladigan nusxalari tomonlar shartnoma majburiyatlarining hammasini bajargan vaqtidan boshlab uch yil mobaynida saqlanadi.

### **10.3. Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari**

Tuziladigan shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlari qat'iy belgilab qo`yiladi. Shartnoma yuzasidan fermer va dehqon xo`jaliklarining huquqlari quyidagilardan iborat:

- shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug` va ekish materiallari bilan ta'minlashni talab qilish;
- mahsulotni topshirishda, uning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to`lovnini talab qilish;
- tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to`lanishini talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo`lgan boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotidan mahsulot xo`jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlari qoplanishini talab qilish;

- xizmat ko`rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmaga binoan tegishli sifatdagi, assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berish va xizmatlar ko`rsatishni (ishlarni bajarishni) talab qilish;

- tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Yetkazib berilgan tovarlar yoki bajarilgan ishlар va xizmatlar sifati talabga javob bermasa xo`jalik o`z xohishiga ko`ra:

- zarur sifatdagi ana shunday tovar (ishlar, xizmatlar)ga almashtirish;

- tovar (ishlar, xizmatlar)ning nuqsonlarini bepul bartaraf etishni yoki nuqsonlarni tuzatish uchun sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan qilingan xarajatlari to`lanishi;

- narxlarning mutanosib ravishda kamaytirilishini talab qilishga haqlidir.

Xo`jalik amaldagi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`ladi.

Shu bilan birga qishloq xo`jaligi korxonalari o`z zimmalariga ma'lum bir majburiyatlarni ham oladi:

- mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish;

- ilova qilinayotgan hujjatlarni to`g`ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo`yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg`alash va boshqalarga) rioya etish;

- mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o`z vaqtida tayyorlash;

- yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko`rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlар) uchun to`lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko`rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o`z vaqtida amalga oshirish.

Fermer xo`jaligi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o`z zimmasiga olishi mumkin.

Shartnomada yuzasidan tayyorlov tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat:

- tasdiqlangan jadvalga muvofiq shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlarini belgilangan miqdorlarda va assortimentda, tegishli sifat bilan o`z vaqtida topshirishni talab qilish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari avans summasida nazarda tutilgan hajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablag`lari qoplanishini xo`jaliklardan talab qilish.

Tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin.

Shu bilan birga tayyorlov tashkilotining zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

- qonun hujjatlariga muvofiq xo`jaliklar bilan tomonlar kelishgan hajmlarda o`z vaqtida shartnomalar tuzish;

- xo`jaliklarga shartnomada belgilangan davrarda, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiyomatining kamida 50

foizi miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo`yicha - shartnomalarda ko`rsatilgan hajmlar qiyomatining 25 foizi miqdorida) avans mablag`lari to`lash;

- xarid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to`g`ri aniqlash;

- xo`jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdor va muddatlarda xarid qilish, ularning uzluksiz qabul qilib olinishini ta'minlash;

- xo`jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash hamda ularning holati to`g`risida xo`jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish;

- xo`jaliklar ixtiyorida qoldiriladigan mahsulotlar sifatining yomonlashishi oqibatida xo`jaliklarga yetkazilgan zararni qoplash;

- agar shartnomada o`zgacha xol nazarda tutilmagan bo`lsa, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kelishilgan jadvalga muvofiq qabul qilib olish va tashishni ta'minlash;

- xarid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standart talablariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va qayta ishslashda ular nobud bo`lishini oldini olish;

- mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq qayta ishslash, sotishga tayyorlash va ularni sotishga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish;

- xo`jaliklarni idishlar o`rash materiallari va me`yoriy-texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarning ayrim turlarini xarid qilish, qabul qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomalarga muvofiq ta'minlash;

- shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo`jaliklarni urug`lik va ekish materiallari bilan ta'minlash;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko`rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo`jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish.

Tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o`z zimmasiga olishi mumkin

Shartnoma ma'lum bir xizmat turini ko`rsatish yuzasidan tuzilsa, xizmat ko`rsatish tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega bo`ladi:

- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va ko`rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan haq to`lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni talab qilish;

- taqdim etilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy- texnika resurslari va ko`rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo`jaliklardan talab etish.

Xizmat ko`rsatuvchi tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`ladi.

Xizmat ko`rsatish tashkilotlarining majburiyatlari:

- xo`jaliklar bilan qonun hujjatlariga muvofiq o`z vaqtida shartnomalar tuzish va shartnoma majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

- xo`jaliklar buyurtmalariga binoan shartnomaga muvofiq muddatlarda, miqdorda va sifatda moddiy-texnika resurslari yetkazib berish hamda xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish);

- yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari, ko`rsatiladigan xizmatlar sifatining shartnomada belgilangan talablarga, shuningdek amaldagi standartlar va me`yorlarga muvofiqligini ta'minlash;

- shartnomani bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida xo`jalikka yetkazilgan zararni qoplash.

Xizmat ko`rsatuvchi tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o`z zimmasiga oladi.

Mahsulotni tashish va tushirish bo`yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari zimmasida bo`ladi. Mahsulot xo`jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari xo`jalikka mahsulotni tashish xarajatlarini haqiqiy vazni (idishni ham qo'shib) bo`yicha qoplaydi.

Mahsulotni tashish xarajatlari butun masofa uchun qoplanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo`yicha xarajatlar mahsulot xo`jalikdan jo`natilgan joydan boshlab (saralash punkti, brigada, bo`lim, chorvachilik fermasi, yaylov, markaziy ombor, xo`jalikning markaziy qo`rg`oni va hokazolar) shartnomada nazarda tutilgan qabul qilish punktigacha qoplanadi. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish shartnomalari bo`yicha xarajatlar mahsulotni qabul qilish punktidan shartnomada nazarda tutilgan yetkazib berish joyigacha qoplanadi.

Xo`jaliklarning transportda tashish va tushirish xarajatlari qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan me`yorlar va tariflar bo`yicha yoxud tomonlarning kelishuviga ko`ra belgilanadi. Tayyorlov tashkilotining qo`shimcha talablariga riox qilgan holda mahsulot jo`natish bilan bog`liq shartnomada belgilanmagan xarajatlar tegishli ravishda tayyorlovchi hisobiga to`lanadi.

Tayyorlov tashkiloti tomonidan standart talablariga muvofiq bo`limgan, shuningdek konditsiyaga muvofiq bo`limgan mahsulot qabul qilingan taqdirda qo`shimcha ravishda navlarga ajratish tayyorlovchi tomonidan bajariladi, ishlarni bajarish bo`yicha xarajatlar esa qo`shimcha bitim bo`yicha qoplanadi.

Xo`jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida oldindan haq to`lash va yakuniy hisob-kitoblar shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, shaklda va muddatlarda amalga oshiriladi.

#### **10.4. Tuzilgan shartnomalarning bajarilishi**

Shartnomalar shartnoma shartlari va talablariga hamda qonun hujjatlariga riox qilingan holda zarur darajada bajarilishi kerak. Agar tomonlar o`z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o`zgartirishga yo`l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollar bundan mustasno.

**Kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishi.** Shartnomada mahsulotni yetkazib berishning davrari belgilanishi bilan birgalikda tovarlarni yetkazib berish jadvallari ham (o`n kunlik, sutkalik va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada bunday jadval nazarda tutilmagan taqdirda, xo`jalik tayyorlov tashkiloti mahsulotni shartnomada nazarda tutilgan assortimentda realizatsiya qilish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda mo`ljallanayotgan hajmlar va topshirish muddatlari to`g`risida xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada bunday muddat ko`rsatilmasa, mahsulot topshirilgunga qadar 30 kunlik muddatda (mavsumiy mahsulotlar bo`yicha - 15 kundan kechikmay) topshirishi va mahsulotni kalendar (sutka bo`yicha) topshirish jadvalini tayyorlov tashkiloti bilan kelishishi kerak.

Xo`jalik tomonidan mahsulot tayyorlov tashkilotiga jo`natilganda (yetkazib berilganda) mahsulotga belgilangan shakldagi hujjatlar ilova qilinishi, mahsulot tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo`jalikning o`zida qabul qilib olingan taqdirda - qabul qilish - topshirish hujjatlari ilova qilinishi kerak.

Xo`jalik tomonidan tayyorlov tashkilotiga shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari davlat standartlari talablariga, texnik shartlarga, veterinariya va sanitariya nazorati qoidalariga muvofiq bo`lishi kerak.

Tayyorlov tashkiloti xo`jaliklardan shartnomada nazarda tutilgan hajmlardan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotni faqat qo`shimcha bitim asosida qabul qilishi mumkin. Xo`jalik bilan tuziladigan qo`shimcha bitim yozma shaklda rasmiylashtirilishi va tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limida ro`yxatdan o`tkazilishi kerak.

Tayyorlov tashkiloti bilan kelishgan holda xo`jalik mahsulotni keyingi topshirish davri hisobiga o`tkazgan holda muddatidan oldin topshirishi mumkin.

Shartnomada nazarda tutilgan hollarda xo`jalikning o`zida qayta ishlangan mahsulot tayyorlov tashkiloti tomonidan xarid hajmlarining amaldagi ekvivalentlari (koeffitsientlari) bo`yicha bajarish hisobiga qabul qilinadi.

Mahsulotni tayyorlov punktlariga jo`natishda mahsulotni transportga yuklash va qaytariladigan idishni bo`shtish xo`jalikning kuchi va mablag`lari hisobiga amalga oshiriladi, qabul qilish punktida mahsulotni, xo`jalikka jo`natish uchun idishni tushirish tayyorlov tashkilotlarining kuchlari hisobiga amalga oshiriladi.

Agar tomonlardan biri yuklash yoki tushirish bo`yicha boshqa tomonning majburiyatlarini bajarsa, o`z majburiyatlarini bajarmagan tomon belgilangan tariflar asosida, bunday tariflar mavjud bo`lmagan taqdirda esa - o`zaro kelishuvga ko`ra bajarilgan ishlar qiymatini unga to`laydi.

Shartnomada yetkazilgan mahsulotni tayyorlov punktiga yoki tayyorlovchi korxonaga yetkazib berish nazarda tutilgan hollarda, yetkazib berilganligi uchun mahsulotning haqi to`lanishi bilan birgalikda tayyorlov tashkiloti tomonidan to`lanadi.

Tomonlar shartnomani bajarish davomida o`zaro kelishuvga ko`ra mahsulotni yetkazib berish jadvali va joyini o`zgartirishga haqlidir.

Qabul qilish - topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana xo`jalik tomonidan shartnomasi bo`yicha majburiyatlar bajarilgan kun deb hisoblanadi, mahsulot

oluvchining manziliga yuklab jo`natilgan taqdirda esa - mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar bajarilgan kun deb hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatidagi bank muassasasi shtampida ko`rsatilgan sana mahsulotga haq to`lash bo`yicha tayyorlov tashkilotining majburiyati bajarilgan sana deb hisoblanadi. Tayyorlov tashkilotlari va xo`jaliklar tovar-transport yuk xatida transport vositasi kelgan va mahsulot tushirib (ortib) bo`lingan vaqtini ko`rsatishlari shart.

Shartnoma majburiyatlarini bajarishda xarid qilinayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotining sifati va miqdorini baholash, uning uchun haq o`z vaqtida va to`g`ri to`lanishi bo`yicha tomonlar o`rtasida nizoli masalalar va kelishmovchiliklar paydo bo`lgan taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi tomonidan sudgacha bo`lgan tartibda yoki xo`jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Mahsulot qabul qilinishi rad etilganda tayyorlov tashkiloti rad etish holati to`g`risida xo`jalikni yozma shaklda xabardor qilishi shart (tovar-transport yuk xatiga belgi qo`yish, telegraf orqali va boshqalar). Agar tayyorlov tashkiloti mahsulotni qabul qilish rad etilishi to`g`risida yozma ariza berishdan bosh tortsa, u holda xo`jalik tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi vakili ishtirokida rad etish holatini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzadi.

Tayyorlov tashkiloti shartnomaga va topshirish-qabul qilishning kelishilgan jadvaliga muvofiq tayyorlovchiga taqdim etilgan tez buziladigan mahsulotni qabul qilishni rad etgan taqdirda, xo`jalik ushbu mahsulotni o`z ixtiyoriga ko`ra boshqa shaxslarga sotishi mumkin. Bunda tayyorlov tashkilotlari mahsulotni qabul qilish rad etilganligi uchun mulkiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo`jalikning o`zida qabul qilingan mahsulot (kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva va rezavor mevalar, uzum) xo`jalik hududida vaqtincha saqlanganligi uchun qo`shimcha haq shartnoma shartlariga muvofiq to`lanadi.

Xo`jalik tomonidan shartnomada belgilangan davrda (muddatlarda) topshirilmagan mahsulot tomonlar o`rtasida kelishilgan muddatlarda va shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda topshirish hisobiga o`tkazish yo`li bilan topshirilishi kerak. Agar tuzilgan shartnomada mahsulot idishda yoki o`ramda yetkazib berilishi nazarda tutilgan bo`lsa, tayyorlov tashkiloti xo`jalikni shartnomada belgilangan miqdorda va muddatlarda zarur idish, o`rash materiallari bilan ta'minlaydi. Agar shartnomada o`zgacha hol nazarda tutilmagan bo`lsa, xo`jalik tayyorlovchilardan oladigan tovar tushgan ko`p aylanadigan idish va paketlash vositalari egasiga qaytariladi. Boshqa idish va o`rash materiallari faqat shartnomada nazarda tutilgan hollarda qaytarilishi kerak.

Mahsulotlarning ayrim turlari uchun mo`ljallangan idish va o`rash materiallaridan foydalanish xususiyatlari, shuningdek ularni qaytarish tartibi va muddatlari mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo`riqnomalar, qoidalarda yoki tuzilgan shartnomalarda nazarda tutiladi.

Tuzilgan shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo`jaligi mahsulotining amaldagi miqdori xo`jaliklar bilan tayyorlov tashkilotlari o`rtasida

mahsulot yetkazib berish yakunlari bo`yicha tuziladigan qiyosiy dalolatnama asosida belgilanadi.

Xo`jaliklar tasarrufida qoladigan va qayta ishlanadigan mahsulot tayyorlov tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi. Ushbu mahsulot standart talablariga va texnik shartlarga muvofiq qayta ishlanishi va saqlanishi kerak hamda faqat xo`jaliklarning buyurtmasi bo`yicha yuklab jo`natiladi.

Xo`jaliklar tasarrufida qoladigan mahsulotni saqlash, qayta ishlash, sotishga tayyorlash va yuklab jo`natish masalalari shartnomaga muvofiq alohida me`yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Xo`jaliklar tasarrufida qoladigan qayta ishlangan qishloq xo`jaligi mahsuloti alohida hisobga olinadi va xo`jaliklar tomonidan amaldagi tartibga muvofiq o`z xohishlariga ko`ra sotiladi.

### **Moddiy-texnika resurslariga xizmat ko`rsatish va yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalarning bajarilishi:**

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yoki xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish) to`g`risida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana shartnomaga bo`yicha majburiyatlar bajarilgan sana deb hisoblanadi, mahsulot oluvchining manziliga yuklab jo`natilgan taqdirda esa - mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko`rsatilgan sana xo`jaliklarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga haq to`lash bo`yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Xo`jaliklarning roziligi bilan moddiy-texnika resurslari muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. Yetkazib berilgan va xo`jaliklar tomonidan qabul qilingan moddiy-texnika resurslariga haq to`lanadi va keyingi davrarda yetkazib berilishi kerak bo`lgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hisobiga o`tkaziladi. Xo`jalik muddatlar buzilgan va zarur sifatga muvofiq bo`lmagan holda yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini qabul qilishni rad etishga haqlidir.

Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomdagi tovarlar yetkazib berilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi yetkazib berilmagan tovarlar o`rnini to`ldirish sifatida qaralmaydi va yetkazib bermasliklar o`rni to`ldirilishi kerak, bunday yetkazib berishlar xo`jalikning oldindan berilgan yozma roziligi bo`yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

Yerni mexanizatsiya vositasida shudgorlash bo`yicha bajarilgan ishlar va boshqa xizmatlar xo`jaliklarning bevosita mas`ul xodimlari tomonidan dalolatnomaga bo`yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan ishlar (xizmatlar) miqdori, ularning sifati, shudgorlar chuqurligi va boshqa agrotexnika ko`rsatkichlari ko`rsatiladi.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish, shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni (ishlarni) ko`rsatish xo`jaliklarning yozma buyurtmasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar xo`jaliklarning buyurtmalarini ro`yxatdan o`tkazish daftarini yuritadilar. Ushbu daftarlarda taqdim etilgan buyurtmaga muvofiq mahsulot yetkazib berilishi, xizmatlar ko`rsatilishi (ishlar bajarilishi) to`g`risidagi axborot bo`lishi kerak.

Buyurtmanoma mahsulot yetkazib berishning, tegishli xizmatlar ko`rsatishning (ishlarni bajarishning) taxmin qilinayotgan sanasidan kamida besh kun oldin chopar, pochta orqali yoki boshqa tarzda beriladi.

Xo`jalik ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoxud mahsulot yetkazib berish, tegishli xizmatlar ko`rsatish (ishlarni bajarish) sanasini o`zgartirishga haqlidir, tayyorlov va xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar bu haqda buyurtmada ko`rsatilgan sana boshlanishidan kamida bir kun oldin xabardor qilinadi.

### **10.5. Shartnoma shartlarining buzilishi yuzasidan moddiy javobgarlik**

Shartnoma bo`yicha tomonlarning javobgarligi O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga muvofiq belgilanadi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz bo`yin tovlagan xo`jalik tayyorlovchiga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to`laydi. Jarima miqdori o`tgan davr (oy, chorak, yil)da mahsulotning shakllangan o`rtacha narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to`lashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan, jarima bilan qoplanmagan qismi ham to`lanadi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo`jalikka belgilangan ustamalar to`lashni hisobga olmasdan shakllangan o`rtacha narxdan kelib chiqib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to`laydi, tez buziluvchi mahsulot bo`yicha esa - uning to`liq qiymatini to`laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilish rad etilganligi tufayli xo`jalik ko`rgan zararning jarima bilan qoplanmagan qismi ham to`lanadi.

Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan (yuklab jo`natilgan) qishloq xo`jaligi mahsuloti uchun haq to`lashdan asossiz bosh tortilganda (xo`jalikka tegishli summalarini, belgilangan ustamalarni ham qo`shib, o`z vaqtida hisoblab o`tkazmaganlik, hisob-kitoblarning aksept shaklida esa to`lov topshirig`i akseptini asossiz to`liq yoki qisman rad etganda) tayyorlov tashkiloti xo`jalikka to`lanmagan summani, o`zi to`lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarimani to`laydi. Tayyorlov tashkiloti jarimadan tashqari xo`jalikka muddati o`tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to`lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o`tkazib yuborilgan summalarining 50 foizidan ortiq bo`lmagan ustama to`laydi.

Tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilsa yoki noto`g`ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to`laydi.

Yuklab jo`natilgan tovarlarga to`lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovarlar yuklab jo`natilganligi to`g`risida boshqa axborot taqdim etilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to`laydi.

Xo`jalikni standart talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo`riqnomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va o`rash

materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun tayyorlov tashkiloti xo`jalikka yetkazib berilmagan idish, o`rash matyerallarining yetkazib berish vaqtida amalda bo`lgan qiymatining 2 baravari miqdorida jarima to`laydi. Tayyorlovchi xo`jalikni idish bilan ta'minlamaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki tez buziluvchi mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo`lsa, tayyorlov tashkiloti xo`jalikka ko`rilgan zararning jarima bilan qoplanmagan qismini ham to`laydi. Bunda xo`jalik sifatsiz qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

Tomonlar o`rtasida kelishilgan jadvalga muvofiq kelgan transportning belgilangan muddatdan ortiqcha bekor turib qolganligi bois aybdor tomon xarajatlarni to`laydi. Bekor turib qolish vaqtı tomonlar o`rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Tashkilot tomonidan tayyorlov yoki xizmat ko`rsatish mahsulot va ko`rsatilayotgan xizmatlarning sifati, miqdori va qiymati noto`g`ri aniqlanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda, qayta hisob-kitob qiladilar hamda ushbu hisoblangan summadan tashqari xo`jalikka noto`g`ri hisoblangan summaning 20 foizi miqdorida jarima to`laydilar.

Mahsulot uchun hisob-kitob qilishda tayyorlovchi tomonidan ortiqcha olingan pul summalar qaytarib berilmagan taqdirda (ayni bir mahsulotning o`ziga takroran haq to`langanda, mahsulot narxi noto`g`ri qo`llanilganda, tovarsiz to`lov talabnomasiga haq to`langanda va boshqalarda) tayyorlovchi ushbu summani qaytaradi va boshqa tomonga ushbu pul mablag`laridan foydalanilgan butun vaqt uchun O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida ortiqcha olingan summa uchun jarima to`laydi.

Agar yuklab jo`natilgan mahsulot (bajarilgan ishlari yoki ko`rsatilgan xizmatlar)ning sifati, assortimenti, navi standart talablariga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermasa, aybdor tomon mahsulot (bajarilgan ishlari, ko`rsatilgan xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to`laydi.

Moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish va xizmatlar ko`rsatish bo`yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun xizmat ko`rsatuvchi tashkilot xo`jalikka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilmagan moddiy-texnika resurslari yoki ko`rsatilishi kerak bo`lgan xizmatlar qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to`laydi. Xizmat ko`rsatuvchi tashkilot jarimadan tashqari xo`jalikka moddiy-texnika resurslari yetkazib berilmaganligi, ishlari bajarilmaganligi yoki xizmat ko`rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni to`laydi.

Yetkazib berish muddati kechiktirilgan, tovar yetkazib berilmagan, ishlari bajarilmagan yoki xizmatlar ko`rsatilmagan taqdirda xizmat ko`rsatuvchi tashkilot xo`jalikka muddati o`tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida ustama to`laydi, biroq ustamaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlari yoki ko`rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo`lmasligi kerak. Ustama to`lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va yetkazib berish kechiktirilganligi, tovarlar to`liq yetkazib

berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko`rsatilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod qilmaydi.

Tomonlarning kelishuviga ko`ra shartnomada shartnomalari majburiyatlarini bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo`lmagan boshqa choralar ham nazarda tutilishi mumkin.

Zilzila, qurg`oqchilik, suv toshqini, yong`in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko`rish va bartaraf etish mumkin bo`lmagan holatlar (fors-major holatlar) munosabati bilan ularning irodasi va xohishiga bog`liq bo`lmagan sabablar bo`yicha o`z zimmalariga olgan shartnomalari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi.

Xo`jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari zarur darajada bajarilmaganligi uchun ularni javobgarlikka tortishda shuningdek xatti-harakatlari (harakatsizligi) natijasida kontraktatsiya shartnomalari bo`yicha shartnomalari xo`jaliklar tomonidan bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) uchun xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlarning javobgarligi ham ko`rib chiqiladi.

Xizmat ko`rsatish tashkilotlarining aybi bilan xo`jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar ushbu tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

## **10.6. Respublika qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlar amal qilishining hozirgi holati va ularni takomillashtirish yo`llari**

Respublikamiz iqtisodiyotining asosiy qismini qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi tashkil etishi hamda aholining aksariyat qismi qishloq joylarda yashayotgani va ular qishloq xo`jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bilan band ekanligidan kelib chiqib, hukumat tomonidan iqtisodiyotning ushbu sohasidagi shartnomaviy munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2009-yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi to`g`risida to`xtalar ekanlar: “Qishloqda turmush darajasini oshirish, qishloq aholisining manfaatlarini yanada to`liq ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoni mustahkamlash, shu masalalar bilan bog`liq amaldagi qonun hujjatlarini bugungi kun nuqtai nazaridan qayta ko`rib chiqish zarur<sup>1</sup>”- deb, qayd etdilar.

Kuzatishlarning ko`rsatishicha respublikamizdagi ayrim fermer xo`jaliklari davlat tomonidan uzoq muddatli ijara berilgan yer maydonlaridan foydalanishda shartnomalari va o`z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarmay, qonunbuzarliklarga yo`l qo`ymoqdalar. Ammo, Adliya vazirligi va prokuratura tomonidan olib borilayotgan tushuntirish ishlari hamda intizomiylarini, ma`muriy va jinoiy choralar tufayli yer ijerasi shartnomasi sohasidagi qonunbuzarliklar soni kamayib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudining ma'lumotlariga qaraganda, 2007-2008-yillarda respublikamizda yer munosabatlariga tegishli qonun

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar, - T.: O`zbekiston, 2009.

buzilishlar bo`yicha yer ijarasi shartnomasini bekor qilishga oid ko`rilgan ishlar 433 tadan 268 taga kamaygan. Buning natijasida davlat zaxirasiga 2007-yili 18763,11 hektar, 2008-yilda 12301,28 hektar yer maydonlari qaytarib berilgan (21-jadval).

21-jadval

**Respublika Oliy xo`jalik sudi va uning bo`linmalarida yer ijarasi shartnomasiga tegishli qonun buzilishlar bo`yicha nizolarga  
oid ko`rilgan ishlar**

Nº	Nizolar ko`rilgan ishlarning turlari	bo`yicha ishlarning turlari	O`lchov birligi	2007-y.	2008-y.	2008-yil 2007- yilga nisbatan, %da
1.	Yer ijarasi shartnomasini bekor qilishga oid ko`rilgan ishlar	dona		433	268	61,9
2.	Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni	hektar		18763,11	12301,28	65,6
3.	Noqonuniy olingan yer maydonlarini fermer xo`jaliklariga qayta- rishga oid ko`rilgan ishlar	dona		140	50	35,7
4.	Fermerlarga qaytarib berilgan yer maydoni	hektar		5981,3	1172,46	19,6

Manba: O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi ma'lumotlari

Ammo, amaliyotda tuman hokimligi tomonidan fermerlarning yer ijarasi shartnomasi shartlarini buzish holatlari, ya`ni yer maydonlarini noqonuniy tortib olib qo`yish kabi salbiy holatlar uchraydi. 2-jadval ma'lumotlarini tahlil etish shuni ko`rsatadi, Oliy xo`jalik sudlarida yer maydonlarini fermer xo`jaliklaridan noqonuniy olib qo`yishga oid 2007-yili 140 ta, 2008-yili 50 ta da`vo arizasi ko`rib chiqilib, qondirilgan va fermerlarga 2007-yili 5981,3 hektar, 2008-yili 1172,46 hektar yer maydoni qaytarib berilgan.

Davlat buyurtmalari fermer xo`jaliklari bilan tuziladigan shartnomalar orqali rasmiylashtiriladi. Shartnomani davlat tomonidan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob jamg`armasi”ning tijorat agentlari hisoblanadigan subyektlar:

- g`alla bo`yicha “O`zdonmahsulot” Davlat Aksiyadorlik jamiyatining joylaridagi bo`linmalar;

- paxta bo`yicha “O`zpaxtasanoatsotish” Assotsiatsiyasining tumanlardagi paxta tozalash zavodlari orqali rasmiylashtiriladilar.

Quyidagi 22-jadvalda 2006-2008-yillar oralig`ida respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g`alla yetishtirish bo`yicha “O`zdonmahsulot” Davlat Aksiyadorlik jamiyati va “O`zpaxtasanoatsotish” Assotsiatsiyasi bilan tuzilgan shartnomalar soni va qiymati keltirilgan.

## 22-jadval

Respublikada davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bo`yicha tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari

Nº	Mahsulot turi	O`lcho v bir- ligi	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2009-y. 2007-y.ga nisb, %da
Paxta xomashyosi yetishtirish bo`yicha						
1.	Tuzilgan shartnomalar soni	dona	90 747	92 435	40 842	45,0
2.	Shartnomalar miqdori	ming tonna	3 600,0	3 612,0	3 464,0	96,2
G`alla yetishtirish bo`yicha						
1.	Shartnomalar soni	dona	82 120	100 401	51 824	63,1
2.	Shartnomalar miqdori	ming tonna	2 742,0	2 966,0	3 075,0	112,1

Manba: O`zbekiston Respublikasi Qishloq xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, 2007-2009-yillar oralig`ida davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtirish bo`yicha tuzilgan shartnomalar soni 90747 tadan 40842 taga, ya`ni 55 %ga kamaygan. Bunga asosiy sabab, 2008-yilning oxirida fermer xo`jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarini optimallashtirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida fermer xo`jaliklari sonining keskin kamayishidadir. Ammo, davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi yetkazib berish hajmi ko`p qisqarmagan, ya`ni 3 600 ming tonnadan 3 464 ming tonnaga tushgan.

2007-2009-yillar oralig`ida davlat ehtiyojlari uchun g`alla yetishtirish bo`yicha tuzilgan shartnomalar soni 82120 tadan 51824 taga, ya`ni 26,9 %ga kamaygan. Bu ham optimallashtirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasidir. Davlat ehtiyojlari uchun g`alla yetkazib berish hajmi 2 742 ming tonnadan 3 075 ming tonnaga yoki 112,1 % ga oshgan.

O`zbekiston Oliy xo`jalik sudi, respublika prokuraturasi va Adliya vazirligi Fermer xo`jaliklari uyushmasi bilan hamkorlikda fermer xo`jaliklarining tayyorlov va qayta ishlash korxonalari bilan shartnomada munosabatlarini to`g`ri yo`lga qo`yish maqsadida muntazam tekshiruvlar o`tkazmoqda.

Shartnomalar taraflari har doim ham o`z majburiyatlarini lozim darajada bajarishga yondashmaydilar. Har qanday shartnomada javobgarlik mezoni ko`rsatilishi tomonlardan birida shartnomada shartlarini buzish ehtimoli mavjud bo`lganida, uni o`z majburiyatlarini bajarishga undaydi.

“Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asosi to`g`risida”gi Qonunda shartnomada majburiyatlarini bajarmaganlik uchun ma`muriy, intizomiy va jinoiy javobgarliklar belgilangan.

Davlat ehtiyojlari uchun g`alla yetishtirish kontarktatsiya shartnomalarining bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan nizolar bo`yicha respublika xo`jalik sudlarida 2007-yilda 9297 ta ish ko`rilib, qoplanmagan kreditorlik qarzlari va zararlar

hisobidan fermer xo`jaliklaridan 4 912,8 mln. so`m undirilgan bo`lsa, 2008-yilda 27 898 ta ish ko`rilib, 38 855,3 mln. so`m undirilgan (23-jadval).

23-jadval

**Davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va boshoqli donni sotishga oid  
kontraktatsiya shartnomasini bajarmasligi yuzasidan  
xo`jalik sudlarida ko`rilgan ishlar**

№	Ko`rilgan ishlar turlari	O`lcho v bir- ligi	Paxta xomashyosi sotish bo`yicha		Boshoqli don sotish bo`yicha	
			2007-y.	2008-y.	2007-y.	2008-y.
1.	Kontraktatsiya shartnomalari bajarilmasligiga oid ko`rilgan ish soni	dona	32927	57 262	9 297	27 898
2.	Qoplanmagan kreditorlik qarzlari va zararlarni undirish	mln. so`m	69 684,3	129 066,6	4 912,8	38 855,3
3.	Yer ijerasi shartnomasini bekor qilishga oid ko`rilgan ishlar soni	dona	183	115	32	485
4.	Davlat zaxirasiga qaytarilgan yerlar	ga	6 608	4 580,5	779,1	24 038,1

Manba: O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi ma'lumotlari

Davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtirish kontarktatsiya shartnomalarining bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan nizolar bo`yicha respublika xo`jalik sudlarida 2007-yilda 32927 ta ish ko`rilib, qoplanmagan kreditorlik qarzlari va zararlar hisobidan fermer xo`jaliklaridan 69 684,3 mln. so`m undirilgan bo`lsa, 2008-yilda 57 262 ta ish ko`rilib, 129 066,6 mln. so`m undirilgan.

O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va prokuraturasi tomonidan qishloq xo`jaligidan shartnomaga intizomiga rivoja etish ustidan doimiy monitoring olib boriladi.

Moddiy resurslar yetkazib beruvchi va xizmat ko`rsatuvchi korxonalarning fermer xo`jaliklari bilan tuzilgan shartnomalari monitoringini o`rganish shuni ko`rsatadiki, tuzilayotgan shartnomalar bo`yicha yetkazib berilishi lozim bo`lgan moddiy resurslar va ko`rsatilishi lozim bo`lgan ish va xizmatlar hajmi shartnomadagiga nisbatan kam bo`lmoqda. Bunday holatlar fermerlarning ishlab chiqarish ko`rsatkichlariga salbiy ta`sir ko`rsatishi muqarrar. Fikrimizcha, shartnomalarning bajarilishini ta'minlash ustidan Adliya vazirligi, Oliy xo`jalik sudi va prokuraturasi orqali kuchli monitoring olib borish, bu shartnomalarda fermerlarning manfaatlarini ustuvor himoyalash maqsadga muvofiq.

Fermer xo`jaliklarini mineral o`g`itlar va yoqilg`i-moylash materiallari bilan yanada yaxshiroq ta'minlash maqsadida infratuzilmalar tashkil etilayotgan bo`lsada, ular yuridik shaxs maqomiga ega emas. Shuning uchun fermerlar mahsulot (mineral o`g`itlar, yoqilg`i moylash materiallari) olishga shartnomaga tuzish hamda tegishli

hujjatlarni (hisobvaraq-faktura, ishonchnoma, yuk xati) rasmiylashtirish uchun ortiqcha mablag` va vaqt sarflab tuman markazlariga qatnashga majbur bo`lmoqdalar.

Ushbu jarayonlarni soddalashtirish, ya`ni yoqilg`i va mineral o`g`itlar sotish shoxobchalariga yuridik shaxs maqomi berilishi va ushbu shoxobchalar to`g`ridan-to`g`ri fermer xo`jaliklari bilan shartnomaga asosida faoliyat yuritishi lozim. Shuningdek, bu sohada raqobatni rivojlantirish uchun fermerlarga yoqilg`i va mineral o`g`itlar yetkazib beruvchi nodavlat shakldagi infratuzilmalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida fermer xo`jaliklarining davlat ehtiyojlari bo`yicha qishloq xo`jaligi mahsulotlar yetishtirish bo`yicha shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g`alla sotish kontraktatsiya shartnomalarini bajarishda quyidagi kamchiliklar mavjud:

- fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi korxonalar xizmatlari narxi, fermerlar tomonidan ishlab chiqarish maqsadlarida xarid qilinadigan moddiy-texnika resurslari baholari qimmatligicha qolmoqda va buning natijasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari baholari bilan qishloq xo`jaligida ishlatiladigan sanoat tovarlari baholari o`rtasida yirik nomutanosiblik, ya`ni “disparitet” vijudga kelmoqda;

- davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan paxta xomashyosi bo`yicha xo`jalik ixtiyoriga qaytarilishi lozim bo`lgan paxta chigit, yog`i, shrot va sheluxa mahsulotlari o`z vaqtida fermer xo`jaliklariga qaytarilmasdan, turli sarsongarchiliklar oqibatida cho`zib yuboriladi;

- ayrim holatlarda bozor iqtisodiyoti qonuniyatini yaxshi anglab yetmagan hokimiyat organlari rahbarlari rejadan ortiqcha mahsulotni ham davlatga topshirishga majbur qilishi holatlari uchraydi.

Fikrimizcha shartnomaga majburiyatlarini bajarish tizimini takomillashtirishda quyidagilarga alohida e`tibor qaratish lozim:

1. Shartnomatuzishda tomonlarning mas`uliyat bilan yondashishiga erishish.
2. Mahsulot yetkazib beruvchilarining yetishtirgan qishloq xo`jaligi mahsulotini talab va taklifdan kelib chiqqan holda qayerga va qanday usulda realizatsiya qilishni o`rganib chiqmasdan turib tovar ishlab chiqarishini oldini olish.
3. Shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishda yuridik xizmat tizimi rolini oshirish.
4. Yuridik xizmat xodimlarining talabnomasi va da`vo ishlarini o`z vaqtida ko`rib chiqish.
5. Shartnomatuzish madaniyatiga erishish, xo`jalik yurituvchi subyektlarining shartnomaga mohiyatini anglashi va bu sohadagi hujjatlarini o`rganishi hamda ularga amal qilishiga erishish.
6. Joylarda shartnomasi ijrosini ta`minlash va mavjud muammolar yechimini topishda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda doimiy seminar-treninglar o`tkazib borish.

7. Shartnoma majburiyatlari ijrosini ta'minlashda marketing xizmatidan foydalanish tizimini rivojlantirish hamda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanishni yo`lga qo`yish.

Shartnomalarni tuzish jarayonida yo`l qo`yilgan qonunbuzarlikarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ta'sir choralar qo'llanilmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Qishloq xo`jaligida shartnomaviy munosabatlarni quyidagi qonunchilik hujjatlari tartibga solib turadi:

1. O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolik Kodeksi”.
2. O`zbekiston Respublikasining “Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asosi to`g`risida”gi qonuni.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4- sentabrdagi «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 383-sonli qarori.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30- oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 476-sonli qarori.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4- sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro`yxatdan o`tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to`g`risida Nizom”ga muvofiq qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosan uchta turdagи shartnomalarni tuzadi:

- kontraktatsiya shartnomalari;
- moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo`yicha shartnomalar;
- xizmat ko`rsatish bo`yicha shartnomalar.

**Kontraktatsiya shartnomasi bo`yicha** xo`jalik bunday mahsulotlarni qayta ishslash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa muayyan narx bo`yicha kelishilgan muddatlarda haq to`lab ushbu mahsulotlarni sotib olish majburiyatini oladi.

**Moddiy-texnika resurslari** (ehtiyyot qismlar, urug`lik, o`simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg`i-moylash materiallari, mineral o`g`it va boshqalar) **yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo`yicha** yetkazib beruvchi tashkilot xo`jalikka o`zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo`jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo`yicha haq to`lash majburiyatini oladi.

**Xizmatlar ko`rsatish** (ishlarni bajarish) **yuzasidan tuzilgan shartnoma bo`yicha** bajaruvchi tashkilot xo`jalik buyurtmasiga binoan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog`liq boshqa xizmatlar ko`rsatishni ta'minlash

majburiyatini oladi, xo`jalik esa ushbu ishlar (xizmatlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo`yicha haq to`lash majburiyatini oladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qishloq xo`jaligi korxonalarining boshqa korxona va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarining shartnomaviy-huquqiy asosi nimalardan iborat?
2. Korxonalarning shartnomaviy aloqalarini qaysi qonun hujjatlari tartibga soladi?
3. Kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi qanday?
4. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo`yicha shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi qanday?
5. Xizmat ko`rsatish bo`yicha shartnomalarni tuzish va amalga oshirish tartibi qanday?
6. Shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatları qanday?
7. Shartnomalarini buzganlik uchun qanday moddiy javobgarlik yuklatiladi?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolik Kodeksi». -T.: Sharq, 2002.
2. O`zbekiston Respublikasining “Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asosi to`g`risida”gi qonuni. -T.: Sharq, 2002.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4- sentabrdagi «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 383-sonli Qarori.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30- oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 476-sonli Qarori.
5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4- sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko`rsatish tashkilotlari o`rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro`yxatdan o`tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish artibi to`g`risida Nizom”.

## **XI bob. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOTLAR TANNARXINING SHAKLLANISHI**

### **11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi, uning tarkibi va elementlari**

Har bir xo`jalik mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalar eskirishi, urug`lik, o`g`it, yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

Xo`jalikning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa xo`jalik-moliyaviy faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin (22-chizma):

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko`ra:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlari.

2. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan:

- bevosita xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar.

3. Xo`jalikning umumiyligi ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa xo`jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar.


Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog`liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`limgan xarajat turlari noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog`liq xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajat va zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar kiradi.

Ayrim turdag'i ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to`g`ridan-to`g`ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.



**22-chizma. Xo'jalik xarajatlarining turkumlanishi**

Ikkinci bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, o'simlikchilikda yer haydash traktorlarining amortizatsiyasi), ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Xo`jalikning ishlab chiqarish, operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagicha turkumlanadi (23-chizma):

1. **Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini** hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagi elementlar bo`yicha ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlashda hisobga olinadigan **davr xarajatlari** elementlari:

- boshqaruv xarajatlari;
- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Xo`jalikning umumxo`jalik faoliyatidan olingan foydasini aniqlashda hisobga olinadigan **moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar**:

- foizlar bo`yicha to`lovlar;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga (lizingga) olish to`lovları;
- xorijiy valuta bilan operatsiya bo`yicha salbiy kurs tafovutlari;
- qimmatli qog`ozlarga qo`yilgan mablag`larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

4. Xo`jalikning odadagi faoliyatiga mos kelmaydigan, bir necha yillar davomida takrorlanib turmaydigan va fermer xo`jaligi boshlig`ining (mulk egasining) qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog`liq bo`lmagan holda vujudga keladigan voqeа va hodisalar (suv toshqini, yong`in, jala, do`l kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligi o`zgarishi) natijasida ko`rilgan favqulodda zararlar.

## Xarajat turlari elementlari va ularning tarkibi<sup>1</sup>

<b>I.</b>	<b>MAHSULOTNING ISHLAB CHIQARISH TANNARXI (MT):</b>
<b>1.1.</b>	<p><b>Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o`zi ishlab chiqargan va sotib olingen xomashyo materiallari;</li> <li>- yordamchi ishlab chiqarish uchun xomashyo va materiallar;</li> <li>- tashqi subyektlar tomonidan asosiy faoliyat turiga oid bo`lmagan, ammo - ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlarni bajarish xarajatlari;</li> <li>- o`z kuchi bilan ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni texnik ko`rik, joriy, oraliq va kapital ta'mirlashiga sarflangan moddiy resurslar sarfi;</li> <li>- korxonaning o`z texnikalari bilan bajaradigan ishlab chiqarish ishlariga sarflanadigan moddiy resurslar sarfi;</li> <li>- tabiiy kamayish me'yorida moddiy qiymatliklar kamomadi va mahsulotlarning buzilishidan ko`rilgan zararlar;</li> <li>- boshqa moddiy xarajatlari.</li> </ul>
<b>1.2.</b>	<p><b>Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarishda korxona a`zolari va yollanma ishchilar mehnatiga haq to`lash xarajatlari (ish haqiga har xil ustamalar, tungi smenada va dam olish kunlari ortiqcha ishlagani uchun qo`shimchalar, naturada to`langan mahsulotlar qiymati va boshqalarni ham qo`shib);</li> <li>- amaldagi qonunchilik bo`yicha navbatdagi yoki qo`shimcha (oldin foydalanal-magan) mehnat ta`tili uchun haq to`lash;</li> <li>- majburiy ta`tilda bo`lgan xodimlarga ishlanmagan vaqt uchun ish haqini qisman saqlagan holda haq to`lash;</li> <li>- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig`inlar, favqulodda vaziyatlar bo`yicha yig`inlar va boshqalar) haq to`lash.</li> </ul>
<b>1.3.</b>	<p><b>Ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mehnat haqidan ijtimoiy sug`urta, nafaqa va bandlik fondiga majburiy ajratmalar;</li> <li>- ixtiyoriy asosda nodavlat nafaqa fondi, tibbiy sug`urta va boshqa ko`ngilli sug`urta fondlariga ajratmalar;</li> </ul> <p><b>Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi:</b></p>
<b>1.4.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiya ajratmali (lizingga olingen vositalarning lizing to`lovleri ham kiradi).</li> </ul> <p><b>Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar:</b></p>
<b>1.5.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tashqi subyektlar tomonidan ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash xarajatlari;</li> <li>- tashqi subyektlar tomonidan korxonaning asosiy vositalarini ish holatida saqlab turish uchun bajarilgan ta'mirlash xarajatlari;</li> <li>- ekinlar, chorva mollari va ishlab chiqarish vositalarini majburiy sug`urtalash xarajatlari;</li> <li>- yong`inga qarshi, ekinzorlar, asosiy vositalarni qo`riqlash xarajatlari;</li> <li>- ishlab chiqarishga oid asosiy vositalarni joriy ijara olish xarajatlari;</li> <li>- ishlab chiqarishda olgan jarohati natijasida mehnat qobiliyatini yo`qotganlik uchun sud qarori bilan to`lanadigan nafaqalar;</li> <li>- chiqarish ahamiyatiga ega boshqa xarajatlari.</li> </ul>
<b>II.</b>	<b>DAVR XARAJATLARI (DX):</b>

<sup>1</sup> («Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chuqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizom» asosida qisqartirib ishlangan).

2.1	<p><b>Boshqaruv xarajatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- assotsiatsiya, kooperativ yoki boshqa boshqaruv organlari uchun ajratmalar;</li> <li>- boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to`lash va unga nisbatan ijtimoiy ajratmalar (har xil ustamalar, mukofotlar va boshqalarni ham qo`sib);</li> <li>- boshqaruv xarakteridagi asosiy vositalarni saqlash va ta'mirlash;</li> <li>- boshqaruv xodimlarining xizmat safari xarajatlari;</li> <li>- boshqaruv xodimlarining texnik ta'minoti va transport xizmati xarajatlari;</li> <li>- kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish xarajatlari;</li> <li>- boshqaruvga tegishli mol-mulkni majburiy sug`urtalash xarajatlari va boshqalar.</li> </ul> <p><b>Mahsulotni sotish xarajatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mahsulotni o`rash, qadoqlash, saqlash, ortish va tashish xarajatlari;</li> <li>- belgilangan me'yorda reklama uyushtirish, ko`rgazma va yarmarkalarda qatnashish xarajatlari;</li> <li>- bozorni o`rganish xarajatlari (marketing xarajatlari):</li> <li>- sotish bilan bog`liq boshqa xarajatlari.</li> </ul> <p><b>Boshqa operatsion xarajatlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- chetga xizmat ko`rsatish va yordamchi tarmoqlarni saqlash bo`yicha xarajatlar;</li> <li>- maslahat, auditorlik, bank xizmati va boshqa xizmatlar uchun to`lovlar;</li> <li>- asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotish bo`yicha zararlar;</li> <li>- o`quv muassasalari va boshqa jamoat tashkilotlari, jamiyatlarga bepul xizmat ko`rsatish va xayriya tadbirlari xarajatlari;</li> <li>- xodimlarning davolanishi, dam olishi hamda ekskursiyaga chiqishi bilan bog`liq xarajatlarni qoplash;</li> <li>- xodimlarga ko`rsatiladigan kompensatsiya va moddiy yordamlar;</li> <li>- xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa narsalarni bepul berish;</li> <li>- amaldagi qonunchilik bilan amalga oshiriladigan budgetga majburiy to`lovlar hamda maxsus nobudjet fondlarga yig`imlar, ajratmalar;</li> <li>- suddashuv chiqimlari, da`vo muddati o`tgan hamda shubhali debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan ko`rilgan zararlar;</li> <li>- korxona shartnomalarini buzganligi uchun turli jarimalar hamda yetkazilgan zararlarni qoplash xarajatlari;</li> <li>- daromad yoki soliqqa tortish obyektlarini yashirganligi (kamaytirib ko`rsatilganligi) uchun jarimalar;</li> <li>- hisobot yilda aniqlangan o`tgan yillar operatsiyalaridan ko`rilgan zararlar;</li> <li>- aybdorlari aniqlanmagan o`g`irlilik va suiste`mollikdan ko`rilgan zararlar;</li> <li>boshqa operatsion xarajatlar.</li> </ul>
III.	<p><b>MOLIYAVIY FAOLIYAT BO`YICHA XARAJATLAR (MFX):</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bank kreditlari va boshqa qarzlarning foizlari uchun to`lovlar;</li> <li>- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) to`lovları;</li> <li>- valuta operatsiyalari va valuta schyotidagi mablag`lar kursning salbiy farqlanishidan ko`rilgan zararlar;</li> <li>- qimmatli qog`ozlar chiqarish hamda tarqatish bilan bog`liq xarajatlar;</li> <li>- moliyaviy qo`yilmalarning qayta baholanishidan ko`rilgan zararlar;</li> <li>- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.</li> </ul>
IV.	<p><b>FAVQULODDA ZARARLAR (FZ).</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- suv toshqini, yong`in, jala, do`l kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligi o`zgarishi natijasida ko`rilgan zararlar va boshqalar.</li> </ul>

## **11.2. Mahsulot tannarxining kalkulyatsiya moddalari va ularni hisoblash usullari**

Korxona ishlab chiqarish faoliyatining tannarxdagi sifat ko`rsatkichlari – ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, korxonaning tejamkorlik bilan va oqilona yuritish omillari o`z aksini topadi.

Mahsulot tannarxi korxona xarajatlari tushunchasidan farq qiladi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy-xo`jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan barcha xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmaydi. Mahsulotning (ishning, xizmatning) ishlab chiqarish tannarxiga uni bevosita ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo`ladi:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnat xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan bilvosita ustama xarajatlar.

Bu xarajatlarning ko`pchiligi naturada, ya`ni dona, kg, metr va boshqa ko`rinishlarda hisobga olib borish va rejalashtirish mumkin. Ammo, mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlarni birgalikda hisobga olish uchun ularni yagona o`lchov birligiga - qiymat-pul ko`rinishiga keltirish talab etiladi.

Ayrim turdag'i ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to`g`ridan-to`g`ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarining ish haqini va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari bevosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Ikkinci bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, bir necha xil ekinlarga o`g`it tashigan traktor amortizatsiyasi), ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to`g`ri keladi. Bunday xarajatlar bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari yoki ishlab chiqarishga tegishli ustama xarajatlar deb yuritiladi.

Mahsulot tannarxi bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo`lish orqali topiladi:

$$MT = \frac{MX + IX + ST + A + BIX}{M}$$

Bu yerda:  $MT$  – mahsulot tannarxi so`m/dona, so`m/kg va boshqa;

$MX$  – ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so`m;

$IX$  – ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to`lash xarajatlari, so`m;

$ST$  – ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urta to`lovleri, so`m;

$A$  – ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizatsiyasi, so`m;

$BIX$  – boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so`m;

$M$  – mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna va hokazo.

Korxonada rejadagi (biznes-rejada belgilangan) va haqiqiy (hisobot bo`yicha haqiqatda erishilgan) tannarx hisoblab borilishi mumkin. Rejadagi tannarx korxonaning mavjud texnik, texnologik va kadrlar salohiyati doirasida mahsulot ishlab chiqarishga sarflanishi mumkin bo`lgan xarajatlarning kutilayotgan maksimal darajasini aks ettiradi. Rejadagi tannarx moddiy resurslarni sarflash me'yorlari asosida hisoblanadi.

Haqiqiy tannarx korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda sarflagan bevosita ishlab chiqarish xarajatlaridan tashkil topadi. Haqiqiy tannarx rejadagi tannarxdan farq qilishi mumkin. Agar u rejadagi tannarxdan yuqori bo`lsa, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishidan, past bo`lsa, kapital, mehnat va moddiy resurslardan oqilona foydalanish natijalarini aks ettiradi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari xarajat elementlari va moddalari bo`yicha guruhlarga ajratiladi. Bunday guruhlash:

- rejallashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishning moddiy va mehnat sarflariga ehtiyojni aniqlash;

- xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko`ra taqsimlash;

- umumiy ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida u yoki bu xarajat elementlarining ulushini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, buxgalteriya hisobida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuni va umumiylig xususiyatlariga ko`ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar.

Iqtisodiy hisob-kitoblarda mahsulot tannarxini rejallashtirish va hisoblashda xarajatlarni hisoblash moddalari bo`yicha guruhlash qabul qilingan. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajat elementlari va hisoblash moddalari orasidagi o`zaro bog`liqlik mavjud (24-jadval).

Korxonaning qaysi tarmoqqa mansubligidan kelib chiqib, mahsulot tannarxini hisoblash moddalari farq qiladi. Masalan, qishloq xo`jaligida tannarxni hisoblash moddalari quyidagicha turkumlanadi (26-jadval).

**«Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari»**ga korxonada qabul qilingan mehnatga haq to`lash shakllari va usullariga muvofiq qo`llaniladigan tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan:

- ishlab chiqarish xususiyatidagi amalda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo`yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag`batlantiruvchi tusdagi to`lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;

- ish tartibi va mehnat sharoitlari bilan bog`liq bo`lgan kompensatsiya tusidagi to`lovlar, shu jumladan, tungi smenada, ishdan tashqari vaqtida, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo`shimcha haq;

- ko`p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni birga qo`shib olib borganlik va xizmat ko`rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro`yxati bo`yicha og`ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish stoji uchun ustamalar;

24-jadval

Bevosita va bilvosita xarajat moddalarining tannarxga ta'siri

Xarajat moddalarli	Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan	
	bevosita	bilvosita
Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari	+	
Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar	+	
Urug`lik va ko`chat materiallari	+	
Mineral va organik o`g`itlar	+	
O`simliklar va chorva mollarini himoya qilish vositalari	+	
Yem-xashak va ozuqa	+	
Qayta ishslash uchun xomashyo	+	
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	+	+
Ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar	+	+
Moddiy qiymatliklar kamomadi va mahsulotlarning buzilishidan ko`rilgan zararlar	+	
Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari	+	+

25-jadval

Xarajat elementlari va hisoblash moddalarining o`zaro bog`liqligi

Hisoblash moddalarli	Xarajat elementlari				
	Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari	Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari	Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari
Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari		+			
Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar			+		
Urug`lik va ko`chat materiallari	+				
Mineral va organik o`g`itlar	+				
O`simliklar va chorva mollarini himoya qilish vositalari	+				
Yem-xashak va ozuqa	+				
Qayta ishslash uchun xomashyo	+				
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi				+	
Ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar					+
Moddiy qiymatliklar kamomadi va mahsulotlar buzilishidan zararlar					+
Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari					+

- qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo`lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko`chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- mehnatga haq to`lashning rayonlar bo`yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho`l, suvsiz va yuqori tog` joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to`lovlar;

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo`shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo`shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko`riklardan o'tish bilan bog`liq vaqt uchun haq to`lash;

- majburiy ta'tilda bo`lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to`lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig`inlar, favqulodda vaziyatlar bo`yicha yig`inlar va boshqalar) mehnat haqi to`lash;

- korxona shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo`yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to`lash, agar hisob-kitob bajarilgan ish uchun xodimlar bilan korxonaning o`zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumлага kiradi;


- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to`lash fondiga kiritiladigan to`lovlarining boshqa turlari.

**«Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar»** moddasida qonun hujjatlari bilan belgilangan me'yorlar bo`yicha mehnatga haq to`lash fondiga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg`armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug`urtaga va ixtiyoriy sug`urtaning boshqa turlariga ajratmalar aks ettiriladi.

**«Xomashyo va asosiy materiallar»** moddasida mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko`rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar, shuningdek, bir maromdagi texnologiya jarayonini ta'minlash, mahsulotlarni o`rash yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o`tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan), xarid qilinadigan materiallar o`z aksini topadi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xomashyo va materiallar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish o`rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirish qilinishi narxi bo`yicha chiqarib tashlanadi.

## Xarajatlarning moddalar bo`yicha guruhlanishi



«**Ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar**» moddasiga tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki bo`linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo`lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ishlar va xizmatlar kiradi. Unga mahsulot tayyorlash bo`yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o`tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo`ladi.

Korxona ichida tashqi subyektlarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, yuklarning boshqa turlarini ombordan sexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga tashish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan xizmatlarga tegishli bo`ladi.

Korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog`liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumлага kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatta haq to`lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

**«Mineral va organik o`g`itlar»** moddasida ekinlarga solingan mineral va organik o`g`itlar qiymati hisobga olinadi. Bunda korxonaning o`zida mavjud organik o`g`itlar (go`ng va boshqa) ularni ishlab chiqarish tannarxida, chetdan sotib olinganlari esa sotib olish bahosida hisobga olinadi. Ushbu o`g`itlarni ekinlarga solish (transportga yuklash, tashish, tushirish, sepish va boshqalar) bu moddada aks etmay, tegishli moddalar bo`yicha (mehnatga haq to`lash, asosiy vositalarni saqlash, ish va xizmatlar va boshqa) hisobga olinadi.

**«O`simliklar va chorva mollarini himoyalash vositalari»** moddasida ekinlar va chorva mollarini kasalliklar, zararkunandalardan himoyalash va begona o`tlardan tozalashda ishlatilgan vositalar: gerbitsidlar, pestitsidlar, defoliantlar, kimyoviy va biologik vositalar, biopreparatlar, tibbiy va dezinfeksiya vositalari hamda boshqa himoya vositalarini sotib olish bilan bog`liq xarajatlar o`z aksini topadi.

Ushbu himoya vositalari bilan ekinlarga ishlov berish xarajatlari (sepish, changlatish, defolyatsiya qilish va boshqalar) bu moddada aks etmay, tegishli moddalar bo`yicha (mehnatga haq to`lash, asosiy vositalarni saqlash, ish va xizmatlar va boshqa) hisobga olinadi. Chorvachilikda bu moddaga biopreparatlar, tibbiy va dezinfeksiya vositalarini ishlatish bilan bog`liq xarajatlar ham hisobga olinadi.

**«Yem-xashak va ozuqa»** moddasida chorva mollarini oziqlantirishda ishlatilgan korxonaning o`zida yetishtirilgan hamda chetdan sotib olingan yem-xashak va boshqa ozuqa turlari qiymati o`z aksini topadi. Bunda ozuqalarni korxona ichida daladan omborga, ombordan mollarga berish joyiga tashish xarajatlari, shuningdek, ularni ozuqaga tayyorlash bilan bog`liq xarajatlar ushbu moddada aks etmay tegishli moddalarda (mehnatga haq to`lash, asosiy vositalarni saqlash, ish va xizmatlar va boshqa) hisobga olinadi.

**«Urug`lik va ko`chat materiallari»** moddasida korxonaning o`zida ishlab chiqarilgan hamda sotib olingan ekish uchun mo`ljallangan urug`lik va ko`chatlar hisobga olinadi. Bunda korxonaning o`zida yetishtirilgan urug`lik va ko`chatlar ularni ishlab chiqarish tannarxida, chetdan sotib olinganlari esa sotib olish bahosida hisobga olinadi. Ushbu urug`lik va ko`chatlarni ekishga tayyorlash (transportga yuklash, tashish, tushirish, ekish va boshqalar) bu moddada aks etmay, tegishli moddalar bo`yicha (mehnatga haq to`lash, asosiy vositalarni saqlash, ish va xizmatlar va boshqa) hisobga olinadi.

**«Qayta ishlash uchun xomashyo»** moddasida korxonaning yordamchi tarmoqlarida mahsulotlarni qayta ishlashda ishlatilgan va yaratilayotgan mahsulotning asosini yoki tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadigan xomashyo va materiallar sarfi o`z aksini topadi:

- aralash ozuqa (kombikorm) tayyorlashda – don, don aralashmasi, o`t uni, suyak uni va boshqa mikro va mineral qo`shimchalar qiymati;
- tegirmonda – bug`doy qiymati;
- sabzavot va mevalarni qayta ishlashda – sabzavotlar, mevalar, turli xil qo`shimchalar va konservantlar qiymati;
- qassobxonada – so`yiladigan chorva mollari qiymati;
- sut mahsulotlari tayyorlashda – sut, sut mahsulotlari, shakar, vanilin, achitqi va boshqa qo`shimchalar qiymati.

**«Asosiy vositalarni saqlash»** muddasida aynan shu ekin yoki chorva mollari turiga taqsimlanadigan, asosiy vositalarning balans qiymatidan kelib chiqib o`rnatilgan me'yorda hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari hisobga olinadi. «Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi»ga asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar bo`yicha dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (lizing bo`yicha va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham) kiradi.

Asosiy vositalarni saqlash va ishlatishga hamda korxonaning o`zi tomonidan amalga oshirilgan joriy, oraliq va mukammal ta'mirlashga tegishli:

- asosiy vositalarga xizmat ko`rsatuvchi xodimlarning ish haqi;

- ularning ish haqidan ijtimoiy ajratmalar qilish;

- yonilg`i-moylash materiallariga qilingan xarajatlar;

- asosiy vositalarni barcha turdag'i ta'mirlash va texnik xizmat ko`rsatish xarajatlari;

- ta'mirlashda ishtirok etgan ishchi va mutaxassislar ish haqi va ish haqidan ijtimoiy ajratmalar;

- asosiy vositalarni ta'mirlashga sarflangan ehtiyoj qismlar, qurilish materiallari va boshqa materiallar, ta'mirlash va undan so`ng sinab ko`rish chog`ida sarflangan yonilg`i-moylash materiallari qiymati tannarxni hisoblashning tegishli muddalarida (xomashyo va asosiy materiallar, sotib olingan butlovchi qismlar va yarimfabrikatlar, texnologik maqsadlar uchun ishlatilgan yoqilg`i va energiya, ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari, ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar) hisobga olinadi.

O`simlikchilik tarmog`ida ishlatiladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari alohida ekin turlari mahsulotlari va tugallanmagan ishlab chiqarish turlari tannarxiga quyidagi tartibda qo`shiladi:

- tor ixtisoslashuvdagi asosiy vositalarniki (masalan, sholi o`rvuchi kombaynlar va paxta terish mashinalari) - bevosita shu ekin mahsulotlari tannarxiga;

- traktorlar – ular tomonidan ekin turlari bo`yicha bajargan ishi hajmiga (shartli etalon gektarda) mutanosib ravishda;

- tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar – ekin turlari bo`yicha ishlov berilgan maydon hajmiga mutanosib ravishda;

- ekish agregatlari – ekin turlari bo`yicha ekilgan maydon hajmiga mutanosib ravishda;

- hosilni o`rib-yig`uvchi kombaynlar – ekin turlari bo`yicha o`rilgan maydon hajmiga mutanosib ravishda;

- mineral o`g`it soluvchi mashinalar – ekinlarga solingan o`g`itlarning fizik hajmiga mutanosib ravishda;

- bir necha turdag'i chorva mollari joylashtirilgan binolar – har bir chorva moli turining binoda egallagan joyi hajmiga (metr-kvadratda) mutanosib ravishda;

- bir turdag'i chorva mollari joylashtirilgan binolar – to`g`ridan-to`g`ri shu chorva mollari tannarxiga olib boriladi;

- mahsulotlarni saqlash omborlari - har bir mahsulot turining omborda egallagan maydoni hajmiga mutanosib ravishda.

**«Ish va xizmatlar»** moddasida korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko`rsatilgan ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar uchun haq to`lash xarajatlari, shuningdek, korxonaning yordamchi ishlab chiqarish bo`linmalari bajargan ish va xizmatlarning xarajatlari aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarish bo`linmalariga ot-arava, yuk avtotransporti, traktorlar tomonidan bajariladigan yuk tashish ishlari, ta'mirlash ustaxonasi, mahsulotlarni qayta ishlash bo`linmalari (tegirmon, moyjuvoz, sabzavot va mevalarni qayta ishlash sexlari, ozuqa tayyorlash sexi) va boshqalar kiritiladi. Bu moddaga tashqi subyektlar tomonidan qishloq xo`jaligi ishlarini (yer haydash, yerni ekishga tayyorlash, ekinlarni ekish, tuproqqa ishlov berish, o`g`it solish, kimyoviy himoya vositalari bilan ishlov berish, hosilni o`rib-yig`ib olish, omborlarga tashish, veterinariya va zootexnika xizmatlarini ko`rsatish va boshqa) bajarish, turli xizmatlar ko`rsatish, asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning moddiy resurslari, suv, gaz, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta`minlash xarajatlari ham kiritiladi.

**«Moddiy qiymatliklar kamomadi va mahsulotlarning buzilishidan ko`rilgan zararlar»**da ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo`qolish me`yorlari doirasida va ulardan ortiqcha yo`qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi hisobga olinadi. Masalan, mahsuldor chorva mollari, parranda, ish hayvonlari, asalarilarning nobud bo`lishidan ko`riladigan yo`qotishlar (aybdorlardan undiriladigan va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo`lganlardan tashqari) aks ettiriladi.

**«Boshqa xarajatlар»** moddasiga yuqorida keltirilgan moddalarda aks etmagan, ammo ishlab chiqarishga taalluqli bo`lgan quyidagi boshqa xarajatlар kiritiladi:

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg`i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta`minlash xarajatlari;
- chetdan jalb etilgan korxonalar tomonidan amalga oshirilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik qarov, o`rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari);
- ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo`lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog`liq xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog`liq mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta`minlash xarajatlari;
- ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo`qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to`lanadigan nafaqalar;
- xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog`liq xarajatlari;
- ekinlar, chorva mollari va ishlab chiqarish vositalarini majburiy sug`urtalash xarajatlari;
- yong`inga qarshi, ekinzorlar, asosiy vositalarni qo`riqlash xarajatlari;
- ishchilarga bepul beriladigan maxsus kiyim-bosh (xalat, kurtka, etik, fartuk va boshqa), oziq-ovqat xarajatlari;
- mollarning tagini quruqlashga sepiladigan somon, qirindi va boshqa material xarajatlari;
- fermalar atrofini devor bilan o`rash, chorva mollari uchun yozgi soyabon va otarlar qurish xarajatlari;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boshqa xarajatlar.

Qishloq xo`jaligi korxonalarida ayrim turdag'i mahsulotlar, o'simchilikda don, paxta, sholi va h.k.lar, chorvachilikda sut, o'stirilgan vazn, jun, tuxum hamda tirik vazn tannarxi aniqlanadi. Shuning uchun qishloq xo`jaligida mahsulotlar tannarxini hisoblash, kalkulyatsiya qilish uchun xarajatlar qabul qilingan elementlar va moddalarga muvofiq ekinlar turi yoki guruhi, chorvachilikda esa chorva mollari turi va guruhlari bo`yicha hisoblab beriladi.

Mahsulot tannarxini aniqlash uchun xarajatlarni ayrim guruhlar va turlar bo`yicha alohida-alohida hisoblab borilishiga tannarxni kalkulyatsiyalash, deyiladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda hisoblash obyektlarini bilish muhimdir. Qishloq xo`jaligida bir qator ekinlar va chorva mollaridan asosiy mahsulot bilan birga qo`shimcha va tutash mahsulotlar olinadi. Shundan kelib chiqib tannarx obyektlari belgilanadi.

O'simlikchilikda:

- g`alla ekinlarida – don, don chiqitlari v a somon;
- paxtada - paxta xomashyosi;
- sabzavot, poliz va kartoshkada – tegishli sabzavot, poliz va kartoshka mahsuloti;

- mevali daraxtlarda – mevalar;

- ozuqa ekinlarida – ko`k massa, pichan, senaj, silos, ildizmevalar.

Chorvachilikda:

- chorva mollarida – har bir chorva moli turi va guruhi (asosiy poda, o'suvdag'i yosh va boquvdagi katta yoshli mollar) bo`yicha olinadigan sut, nasl, tirik vazn o`sishi, jun, tirik vazn;

- parrandachilikda – tuxum, tirik vazn o`sishi, tirik vazn;

- pillachilikda – pilla mahsuloti.

Ularga qilingan xarajatlarni alohida hisobga olish mumkin bo`lmaganligidan, umumiyl ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash obyektlari bo`yicha to`g`ri taqsimlash muhimdir. Ishlab chiqarish xarajatlarini tannarx obyektlari bo`yicha taqsimlash tartibi buxgalteriya hisobi kursida batafsil yoritilgan.

Qishloq xo`jalingining o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida alohida kalkulyatsiya obyekti hisoblangan ekin turlari va chorva guruhalidan biologik xususiyatlarga ko`ra, bir emas, bir necha mahsulot olinishi mumkin. Ularni ishlab chiqarish maqsadi va xo`jalikda tutgan o`rni va ahamiyatiga ko`ra:

- asosiy mahsulotlarga;
- yondosh mahsulotlarga;
- qo`shimcha mahsulot yoki chiqindilarga bo`lish mumkin.

Asosiy mahsulot – ishlab chiqarish maqsadini ifoda qiladigan mahsulot va aynan shu mahsulotni yetishtirish uchun ishlab chiqarish, hatto, korxona tashkil etilgan bo`ladi.

Yondosh mahsulot – asosiy mahsulotdan keyingi o'rinda turadigan ma'lum tovarlik ahamiyatga ega bo`lgan yoki korxonada biror maqsadda foydalanish imkoniga ega bo`lgan mahsulot.

Qo`shimcha mahsulot yoki chiqindilar – asosiy va yondosh mahsulotlar bilan birga shakllanadigan, korxona uchun unchalik ahamiyatga ega bo`lmagan, ammo

biror maqsadda foydalaniladigan, shunga ko`ra qiymatga ega bo`lgan mahsulotlar. Masalan, katta hajmda boshoqli ekinlarni parvarish etuvchi korxonada shu boshoqli ekinlardan pirovardida – don, don chiqindilari, somon yoki poxol yetishtiriladi. Bunda don (to`la saralab, talab darajasiga keltirilishi) – asosiy mahsulot, don chiqindilari yondosh mahsulot, somon yoki poxol qo`shimcha yoki chiqindi hisoblanadi.

Shu kabi sut qoramolchiligidagi sigirlardan – sut, buzoq hamda go`ng olinadi. Bunda sut asosiy mahsulot, buzoq yondosh mahsulot, go`ng esa chiqindi hisoblanadi.

Ekin turini va chorva guruhini ifoda etuvchi kalkulyatsiya obyektida jamlangan hamma xarajatlarni asosiy, yondosh va chiqindilar o`rtasida taqsimlash hamda shu mahsulotlar tannarxini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- xarajatlarni ma'lum texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan koeffitsientlarga binoan taqsimlash. Bunda mahsulotlardan birining bir birligi bir-biriga, qolganlarining birligi shu birlikka nisbatan koeffitsiyentda ifodalanadi. Masalan, boshoqli ekinlar donining bir birligini 1,0 koeffitsiyentga, somonni 0,08 koeffitsiyentga teng deb olsak, somonni shu koeffitsiyentlarga ko`ra, to`la ahamiyatli shartli don miqdoriga aylantirish mumkin (24-jadval).

- xarajatlarning u yoki bu turdagи mahsulotga sarf bo`lishini ekspert yo`li bilan baholash va shunga ko`ra, xarajatlarning ayrim mahsulotdagi salmog`ini belgilash.

#### 26-jadval

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va qo`shimcha mahsulotlariga taqsimlash koeffitsiyentlari (1 sentnerdan)

Mahsulot turlari: 1. O`simlikchilikda	Koeffi- tsiyent	Mahsulot turlari: 2. Chorvachilikda	Koeffitsiyent
Paxta xomashyosi	1	Chorva mollarining o`sish vazni	1
G`o`zapoya	0,05	Sut (qo`y va echkiniki)	0,22
Don	1	Jun	5
Somon	0,08	Tuxum (1000 dona)	0,8
Makka doni (qurigan)	1	Asal	1
Makka poyasi	0,17	Vosk (asalari mumi)	2,5
Qand lavlagi ildizmevasi	1	Roi	0,6
Qand lavlagi poyasi	0,2	Sut (yirik shohli qoramol)	0,9
Bir yillik beda xashagi	1	Buzoq 1 bosh	0,1
Bir yillik beda urug`i	0,9		
Bir yillik o`tdan ko`k massa	0,25		
Ko`p yillik o`tlardan beda	1		
Ko`p yillik beda urug`i	0,75		
Ko`p yillik o`tdan ko`k massa	0,3		

Manba: Jo`rayev F. Qishloq xo`jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. - T.: Istiqlol, 2004, 315- b.

Masalan, fermer xo`jaligida kuzgi bug`doy yetishtirishga 1 hektar maydonga sarflangan jami xarajatlar – 462,72 ming so`mni tashkil qiladi. Bir hektar yerdagi somonni yig`ib, ortib, xirmonga eltish xarajatlari 38 560 so`mga teng. Umumiy xarajatlar 501,28 so`mga teng bo`ladi. Bir hektardan olingan hosil: don - 48 sentner, somon - 50 sentner. Somonni 0,08 koeffitsiyentga ko`paytirib, shartli donga aylantiramiz:

$$50 \text{ ts.} \times 0,08 = 4 \text{ sentner}$$

Jami shartli don 52 sentnerga (48 + 4) teng bo`ladi. Don yetishtirishga sarflangan jami xarajatlarni shartli don hajmiga bo`lib, 1 sentner shartli don tannarxini topamiz:

$$501280 : 52 = 9640 \text{ so`m.}$$

Endi bir sentner shartli donning tannarxini aylantirish koeffitsiyentlariga ko`paytirib don va somon tannarxini topamiz:

$$\text{Don tannarxi: } 9640 \text{ so`m} \times 1,0 = 9640 \text{ so`m/sentner;}$$

$$\text{Somon tannarxi: } 9640 \text{ so`m} \times 0,08 = 771,2 \text{ so`m/sentner.}$$

Chorvachilikda mahsulot tannarxini aniqlashning o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Xususan, sut yo`nalishidagi ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va yondosh mahsulotga bo`lish uchun sutga jami ishlab chiqarish xarajatlarining 90 foizini (0,9 koeffitsiyent) va tug`ilgan buzoqlarga 10 foizini (0,1 koeffitsiyent) olib borish mumkin.

Misol uchun, fermer xo`jaligida 2007-yilda jami 5 bosh sigirning har biridan 2000 litrdan jami 100 sentner sut va 5 bosh buzoq olish rejalashtirilgan. Sut yo`nalishidagi qoramollarga sarflanadigan 1825 ming so`m ishlab chiqarish xarajatlarining 90 foizini yoki 1 642,5 ming so`mini ishlab chiqarilgan 100 sentner sutga olib borganda 1 sentner sut tannarxi 16 425 so`mni tashkil etadi. Qolgan 10 foizi yoki 182,5 ming so`mni 5 bosh buzoqlarga bo`lish orqali bir bosh buzoqning tannarxi 36 500 so`mdan to`g`ri kelishini topish mumkin.

Go`sht yo`nalishidagi chorvachilikda mahsulot tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini tirik vaznning o`sishiga nisbati orqali aniqlanadi.

### **11.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish imkoniyatlari**

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida har bir korxona o`zi ishlab chiqarayotgan mahsulotni manfaatli narxlarda sotish va shu orqali daromadi, ayniqsa foydasini ko`paytirishga intilishi shubhasiz. Bunda mahsulotlarning narxlari (shu jumladan davlat xarid narxlari) barqaror bo`lishiga, ayniqsa mahsulot tannarxini arzonlashtirish va resurs tejamkorligiga e`tiborni kuchaytirish o`ta muhim vazifalardan hisoblanadi. Jumladan, “qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag`batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008-yili xo`jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot

tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganini qayd etish lozim”<sup>2</sup>.

Qishloq xo`jaligida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish omillaridan biri sifatida mahsulotlar tannarxining tarkibiy elementlaridan bo`lgan moddiy-texnika resurslaridan unumli va samarali foydalanish yuzaga chiqmoqda. Keyingi yillarda qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxining asosiy qismini moddiy xarajatlar tashkil etmoqda va moddiy resurslar narxining to`xtovsiz oshib borishi mahsulotlar tannarxining ham qimmatlashib borishiga ta'sir ko`rsatmoqda. Ayniqsa, chorvachilikda oziqa va konsentrat oziqalar narxining keskin ko`tarilishi go`sht va sut mahsulotlari, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlarining narxlari oshib ketishiga olib keldi. O`simlikchilik tarmog`ida esa mineral o`g`itlar, ish va xizmatlar uchun haq to`lash, neft mahsulotlari va urug`lik qiymatining qimmatlashib ketayotganligi o`z ta'sirini o`tkazmoqda.

Har bir xo`jalik yurituvchi subyekt uchun mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Chunki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo`lsa, shunchalik xo`jalik oladigan foyda miqdori oshib boradi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish yo`llari quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- qishloq xo`jaligi ekinlarini yetishtirish va chorva mollarini boqishda mehnat sarfini kamaytirish;
- ishlab chiqarishga yuqori unumli, ishonchli va arzon ishlab chiqarish vositalarini joriy etish;
- yer, asosiy va aylanma fondlardan oqilona va samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning material sig`imini kamaytirish va tejamkorlikka erishish;
- mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko`tarish;
- resurslarni tejovchi va chiqitsiz texnologiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg`or shakllaridan foydalanish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish;
- mahsulotlar sifatini oshirish va nobudgarchilik, yo`qotishlarga yo`l qo`ymaslik;
- eng yaxshi ekin navlari va chorva mollari zotlaridan foydalanish.

### **Qisqacha xulosalar**

Har bir xo`jalik mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalar eskirishi, urug`lik, o`g`it, yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar, - T.: O`zbekiston, 2009, 34-b.

**Ishlab chiqarish xarajatlari** bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog`liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`limgan xarajat turlari **noishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Xo`jalikning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa xo`jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlari quyidagicha guruhanladi:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar.

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasidan farq qiladi. Mahsulot tannarxi shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan barcha moddiy va mehnat resurslarining qiymat ko`rinishida ifodalanishidir va bir birlik mahsulotni yetishtirish xo`jalikka qanchaga tushganligini ko`rsatadi. Buxgalteriya hisobida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuni va umumiylig xususiyatlariga ko`ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar.

Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajat elementlari va hisoblash moddalari orasidagi o`zaro bog`liqlik mavjud. Korxonaning qaysi tarmoqqa mansubligidan kelib chiqib, mahsulot tannarxini hisoblash moddalaridan farq qiladi.

Har bir xo`jalik yurituvchi subyekt uchun mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Chunki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo`lsa, shunchalik xo`jalik oladigan foyda miqdori oshib boradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xarajatlar deganda nimani tushunasiz va u qanday turlarga bo`linadi?
2. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari nima bilan farq qiladi?
3. Fermer xo`jaligining ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa faoliyatlari natijasida yuzaga keladigan xarajat turlarini izohlab bering.
4. Mahsulot tannarxi qanday hisoblanadi va uning tarkibiga nimalar kiradi?
5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulot tannarxini pasaytirish yo`llari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5- fevraldag`i 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizom (qo`shimchalar va o`zgartirishlar bilan birga).
3. Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A.A. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi. 2004.
4. Jo`rayev F. Qishloq xo`jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. -T.: Istiqlol, 2004.
5. Петранова Г.А. Экономика и управление в сельском хозяйстве. -М.: Академия, 2003.
6. Hamdamov Q.S. Qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2004.
7. Salimov B.T.va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.

## **XII bob. QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH**

### **12.1. Qishloq xo`jaligida narxning mohiyati, vazifalari va unga ta'sir etuvchi omillar**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona uchun narx tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Chunki, korxonaning xarajatlarni qoplashi va daromad olishi narxga bog`liq bo`ladi. Narx iqtisodiy dastak sifatida ma'lum bir vazifalarni bajaradi:

**1. O`lchash vazifasi** – narxning pul shaklida mahsulot qiymatini o`lchash va shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo`ladigan ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlarini aniqlash imkonini beradi.

**2. Tartibga solish vazifasi** – narxning talab va taklif muvozanatini o`rnatish va bozordagi mahsulotlar miqdorini tartibga solish xususiyati bilan bog`liq.

**3. Taqsimot vazifasi** – narxning o`sishi yoki kamayishi korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashga olib keladi.

**4. Nazorat vazifasi** – narxning moddiy resurslar sarfi, harakati va ulardan foydalanishning hisobini yuritish va nazorat qilish quroli sifatidagi vazifasini anglatadi.

**5. Rag`batlantirish vazifasi** – narxning ishlab chiqarish hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani maksimallashtirishga rag`batlantiruvchi xususiyati bilan bog`liq.

Raqobatli bozor sharoitida mahsulot narxi talab va taklif muvozanati asosida o`rnataladi. Mahsulot narxining shakllanishiga quyidagi bir qancha omillar ta'sir ko`rsatadi:

- mahsulotga bo`lgan talab darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- bozordagi taklif darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- bozor konyunkturasi va raqobat muhiti;
- mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, tannarxi va foyda me'yori;
- taklif etilayotgan mahsulotning sifati, dizayni va foydalilik darajasi;
- narxlarni davlat tomonidan tartibga solib turilishi va boshqalar.

Mahsulotga talab qanchalik yuqori va taklif qanchalik kam bo`lsa, mahsulot narxi shuncha yuqori bo`ladi. Xuddi shuningdek, taklif hajmining o`zgarishiga ishlab chiqarish texnologiyasi, foydalaniladigan resurslar narxi, ishlab chiqarishni moliyalashtirish sharoitlari, soliqlar va dotatsiyalar, bozordagi ishlab chiqaruvchilar soni va boshqa mahsulotlar narxi kabi omillar ta'sir ko`rsatadi. Bozorda ushbu omillar ta'sirida talab va taklif hajmining o`zgarishi, bozor muvozanatining o`zgarishi va oqibatda mahsulot narxining o`zgarishiga olib keladi.

Bulardan tashqari qishloq xo`jaligiga xos bo`lgan xususiyatlar ta'sirida fermer mahsulotlari narxining shakllanishiga quyidagi omillar kuchli ta'sir ko`rsatadi:

1. Qishloq xo`jaligining tabiiy-iqlimi sharoitlarga bog`liqligi bu tarmoqda narxlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi narxning pasayishiga olib kelishi yoki ob-havoning noqulay kelishi (qurg`oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning oshib ketishiga sabab bo`lishi mumkin.

2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining biologik jarayonlar bilan bog`liqligi tufayli tez buziluvchan bo`ladi va ularni uzoq muddatda saqlash yoki olis masofalarga tashish imkoniyatlari chegaralangan. Natijada sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt saqlab bo`lmaydi. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o`tgandan so`ng o`zining iste'mol qiymatini yo`qotishi mumkinligi sababli, fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo`ladilar.

3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida bir-biriga bog`liq bo`limgan ko`p sonli ishlab chiqaruvchilar mavjud bo`ladi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon mahsulotlariga o`zaro kelishib narx belgilay olmaydilar. Bir turdag'i mahsulotni juda ko`p sonli ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarganligi sababli, shu mahsulotning bozorda vujudga keladigan narxini alohida olgan korxona o`zgartira olmaydi.

4. Talab qonuniga asosan iste'molchilar narx arzonlashuvi ta'sirida ko`proq mahsulot xarid qilishga moyil bo`ladilar. Ammo, iste'molchilar talabining narx o`zgarishiga nisbatan sezuvchanligi mahsulotning xususiyatiga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. Ayrim mahsulotlar narxining o`zgarishiga nisbatan iste'molchilarning sezuvchanligi yuqori bo`ladi va narxdagi ozgina o`zgarishlar ta'sirida mahsulotga bo`lgan talab miqdori sezilarli darajada o`zgaradi. Bunday mahsulotlarga bo`lgan talab ***o`zgaruvchan talab*** (elastik talab) deb ataladi.

Ikkinci tur mahsulotlar narxining o`zgarishi ularga bo`lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko`rsatmaydi. Ko`pincha, kundalik va zarurat buyumlari narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi past bo`ladi. Bunday mahsulotlarga bo`lgan talab nisbatan ***o`zgaruvchan bo`limgan talab*** (noelastik talab) deb ataladi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talabning o`zgaruvchanligi (elastikligi) unchalik katta bo`lmaydi. Ya`ni, iste'molchilar daromadlarining o`sishi qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talabning o`sishiga unchalik ta'sir etmaydi va bu qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxini o`sishiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

Talab qonuniga asosan iste'molchilar narx arzonlashuvi ta'sirida ko`proq mahsulot xarid qilishga moyil bo`ladilar. Ammo, iste'molchilar talabining narx o`zgarishiga nisbatan sezuvchanligi mahsulotning xususiyatiga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. Ayrim mahsulotlar narxining o`zgarishiga nisbatan iste'molchilarning sezuvchanligi yuqori bo`ladi va narxdagi ozgina o`zgarishlar ta'sirida mahsulotga bo`lgan talab miqdori sezilarli darajada o`zgaradi. Odatda, dabdaba va hasham buyumlari narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi yuqori bo`ladi. Masalan, yengil avtomobillar narxining oshishi unga bo`lgan talabning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Bunday mahsulotlarga bo`lgan talab o`zgaruvchan talab (elastik talab) deb ataladi.

Ikkinci tur mahsulotlar narxining o`zgarishi ularga bo`lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko`rsatmaydi. Ko`pincha, kundalik va zarurat buyumlari narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi past bo`ladi. Masalan, uy-joy, non, tuz, dori-darmon, gugurt kabi mahsulotlar narxining o`zgarishi ularga bo`lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko`rsatmaydi. Bunday mahsulotlarga bo`lgan talab nisbatan o`zgaruvchan bo`limgan talab (noelastik talab) deb ataladi.

Narxga nisbatan talab o`zgaruvchanligini (elastikligini) quyidagi formula orqali o`lchash mumkin:

$$Ed = \frac{\Delta Q, \%}{\Delta P, \%} \quad \text{yoki} \quad Ed = \frac{Q_2 - Q_1}{Q_1} \times 100 \quad \frac{P_2 - P_1}{P_1} \times 100 = \frac{\Delta Q \times P}{\Delta P \times Q}$$

Bu yerda:

$Ed$  – talab elastikligi koeffitsiyenti;

$\Delta Q$  – talab etilgan mahsulot miqdorining oshgan qismi, foizda;

$\Delta P$  – narxning o`sgan qismi, foizda;

$Q_1$  va  $Q_2$  – mahsulotga dastlabki va narx o`zgargandagi talab hajmi;

$P_2$  va  $P_1$  – mahsulotning dastlabki va o`zgargan narxi.

Talab o`zgaruvchanligi mahsulot narxining bir foizga o`zgarishi unga bo`lgan talab hajmining necha foizga o`zgarishini aniqlashga imkon beradi. Agar yuqorida keltirilgan formulaga asosan hisoblangan o`zgaruvchanlik koeffitsiyenti ( $Ed$ ) birdan katta bo`lsa ( $Ed > 1$ ) mahsulotga bo`lgan talab o`zgaruvchan, birdan kichkina bo`lsa ( $Ed < 1$ ) o`zgaruvchan emas, birga teng bo`lsa ( $Ed = 1$ ), barqaror deb hisoblanadi (27-chizma).

Mahsulotga talab o`zgaruvchan bo`lganda uning narxini oshirish sotishdan keladigan pul tushumlari miqdorini kamaytirib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham talab o`zgaruvchan bo`lgan mahsulotlardan pul tushumlari oqimini ko`paytirish uchun uning narxini pasaytirish tadbirlari ko`riladi. Talab o`zgaruvchan bo`limganda mahsulot narxining oshishi pul tushumlarining ko`payishiga, mahsulot narxining pasayishi esa pul tushumlarining qisqarishiga sabab bo`ladi. Talab o`zgaruvchanligining bu qonuniyatlarini bilish tadbirkorlarga korxonaning narx siyosatini to`g`ri belgilashga imkon yaratadi.

5. Qishloq xo`jaligining mavsumiylik xarakteri natijasida ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmining yilning bir davrida talabdan ortib ketishiga yoki ikkinchi bir davrida talabdan kamayib ketishiga olib keladi. Masalan, pomidor va bodring ishlab chiqarish yoz oylarida ko`payib, qish va erta bahorda keskin kamayib ketadi. Natijada bunday mahsulotlar narxi yil davomida tebranib turadi.

### Talab elastikligining narx va yalpi pul tushumiga ta'siri

Elastiklik koeffitsiyenti Miqdori	Talabga nisbatan	Mohiyati	Narxning umumiyl pul tushumiga (iste'molchilar xarajatiga) ta'siri	
			Narxning o'sishi	Narxning pasayishi
Birdan katta $(E_d > 1)$	«Elastik» yoki «nisbatan elastik»	Talab etilgan mahsulot miqdorining o'sish foizi narxning o'sish foizidan yuqori	Umumiyl pul tushumi kamayadi	Umumiyl pul tushumi oshadi
Birga teng $(E_d = 1)$	Barqaror	Talab etilgan mahsulot miqdorining o'sish foizi narxning o'sish foiziga teng	Umumiyl pul tushumi o'zgarmaydi	Umumiyl pul tushumi o'zgarmaydi
Birdan kichkina $(E_d < 1)$	«Noelastik» yoki «nisbatan noelastik»	Talab etilgan mahsulot miqdorining o'sish foizi narxning o'sish foizidan kam	Umumiyl pul tushumi oshadi	Umumiyl pul tushumi kamayadi

Manba: Xodiyev B.YU.va boshq. Kichik tadbirkorlik menejmenti. -T.: Konsauditinformnashr, 2004, 86- b.

## **12.2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlarining turlari, narx belgilash bosqichlari va usullari**

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida narxning bir qancha turlari amal qiladi (28-chizma).

Korxona mahsulotiga o`rnatiladigan narx darajasini belgilashda tadbirdorlar o`zaro bog`liqlikda amal qiluvchi narxlar tizimi va ularning turlarini yaxshi bilishi kerak.

Narxlar tizimini ularning ma`lum bir xususiyatlariga muvofiq turkumlarga ajratish qabul qilingan:

### **1. Tovar aylanmasi va xizmat ko`rsatish (ish bajarish) hajmiga ko`ra:**

- ishlab chiqarish narxi – ishlab chiqaruvchi tomonidan katta hajmdagi mahsulotlarni buyurtma bo`yicha korxonalarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotish narxlaridan tashkil topadi. Bu narx mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi va uni sotish bilan bog`liq (shu jumladan, tegishli boshqaruv xarajatlari) davr xarajatlariga tegishli foyda miqdorini qo`shib hisoblanadi;

- ulgurji narxlar – ulgurji savdo korxonalari tomonidan chakana savdo bilan shug`ullanuvchilarga yoki boshqa korxonalarga yirik miqdordagi mahsulotlarni sotish narxlaridan iborat bo`ladi. Ulgurji narx ishlab chiqarish narxiga savdo korxonasining barcha muomala xarajatlarini hamda tegishli foyda miqdorini qo`shib belgilanadi;

- chakana narxlar – sotuvchi tomonidan mahsulotlarni chakana savdo tarmog`i orqali kichik miqdorlarda yoki donalab (kilolab, grammlab, litrlab, metrlab va hokazo) sotish narxlaridan tashkil topadi. Bu narx ulgurji narxga chakana savdo korxonasining barcha muomala xarajatlarini hamda tegishli foyda miqdorini qo`shib belgilanadi;

- xarid narxlari – davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga davlat tomonidan o`rnatiladigan narx;

### **2. Davlat tomonidan tartibga solinishi yoki erkinligi darajasiga ko`ra:**

- erkin narxlar – ishlab chiqaruvchi va xaridor o`rtasida o`zaro manfaatdorlik asosida talab va taklifdan kelib chiqib o`rnatiladi;

- tartibga solinadigan narxlar – asosan talab va taklifdan kelib chiqib o`rnatiladigan, ammo, o`sish sur`atlari yoki quyi va yuqori chegaralari davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlarni o`z ichiga oladi (aholi iste`moli uchun zarur bo`lgan un, shakar va o`simlik yog`i kabi mahsulotlar narxlari);

- qat`iy o`rnatiladigan narxlar – davlat tomonidan ayrim turdag'i muhim ahamiyatga ega bo`lgan mahsulotlarga nisbatan qat`iy belgilanadigan narxlardan iborat bo`ladi (strategik ahamiyatga ega bo`lgan neft mahsulotlari, mineral o`g`itlar va boshqa resurslar narxlari);

- kafolatlangan narxlar – mahsulotning bozor narxi uning tannarxini qoplamaydigan holatlarda ayrim toifadagi ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida mahsulotni minimal daromad

## Qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlarining turlari va mohiyati

### Bozor sharoitida qishloq xojaligi mahsulotlarining baho tizimi

**Erkin (shartnomaviy) narxlar** – ishlab chiqaruvchi va xaridor o`rtasida o`zaro manfaatdorlik asosida talab va taklifdan kelib chiqib o`rnataladi

**Tartibga solinadigan narxlar** – darajasi, o`sish sur’atlari va hisoblash tatibi davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar

**Ulgurji narxlar** – ishlab chiqaruvchi tomonidan katta hajmdagi mahsulotlarni buyurtma bo`yicha sotish narxlaridan tashkil topadi

**Chakana narxlar** ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotlarni chakana savdo tarmog`i orqali sotish narxlaridan tashkil topadi

**Xarid narxlari** – davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga davlat tomonidan o`natilgan narx

**Kafolatlangan narxlar** – davlat tomonidan **fermerlarni himoyalash** maqsadida mahsulotlarning bozor narxi tannarx darajasidan pastga tushganda minimal daromad ko`rishga imkon beradigan narxlarda davlat zaxiralari uchun sotib olish narxlaridan tashkil topadi

**Taqqoslama narxlar** – bir necha yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini o`lchash hamda ularni taqqoslama holda solishtirish maqsadida qo`llaniladigan narxlar

**Garov narxi** – mahsulotni garov ostida sotib olishda qo`llaniladigan narxlar

**Bazis narxi** – kelgusida yetkazib beriladigan mahsulotni fyuchers shartnomasi bo`yicha sotib olishda qo`llaniladigan narxlar

ko`rishga imkon beradigan narxlarda davlat zaxiralari uchun sotib olish narxlaridan tashkil topadi (fermerlardan g`alla yoki paxtani tegishli foydalilikni ta'minlaydigan narxlarda davlat ehtiyojlari uchun sotib olish).

### **3. Asoslanishi nuqtai nazaridan:**

- bazis narxi – xaridor va sotuvchi o`rtasidagi muzokalar vositasida o`rnatilib, muayyan miqdor va sifatdagi (sortdag) mahsulotlarni ma`lum bir muddatlarda yetkazib berish shartlaridan kelib chiqib belgilanadi. Unga binoan, haqiqatda yetkazib berilgan mahsulot miqdori, sifati (sorti) va muddatlari shartnomada belgilanganidan farqlansa, bazis narxiga nisbatan ma`lum bir chegirma yoki ustamalar ko`zda tutilishi mumkin;

- haqiqiy narx – bazis narxga nisbatan turli ustama yoki chegirmalar qo`llanilgandan keyingi haqiqiy bitim narxi;

- ma`lumot beradigan narxlari – kataloglar, jurnallar, gazetalar, bukletlar, preyskurantlar va boshqa savdo xabarnomalarida chop etiladigan hamda mutaxassislar tomonidan shu turdag'i tovarlarga narx belgilashda mo'ljal bo`lib xizmat qiladigan narxlarni anglatadi;

- preyskurant narxlari – ma`lumot beradigan narx turlaridan biri bo`lib, ishlab chiqaruvchi korxonaning yoki sotuvchi firmaning chop etiladigan preyskurantlarida aks ettiriladi;

- taqqoslama narxlari – bir necha yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini aniqlash hamda ularni taqqoslama holda solishtirish maqsadida qo`llaniladi (davlat tomonidan statistik hisobot shakllari uchun o`rnatiladi).

### **4. Amal qilish muddati bo`yicha:**

- doimiy (qat'iy) narxlari – mahsulotni yetkazib berish shartnomasi amal qiladigan davr mobaynida o`zgarmaydi;

- joriy narxlari – aynan mahsulot sotilayotgan davrda amal qilayotgan narxlari darajasini ifodalaydi va bozor konyunkturasiga qarab o`zgarib turishi mumkin;

- mavsumiy narxlari – yilning ma`lum bir davri uchun o`rnatiladigan narxlari darajasi (masalan, qishloq xo`jaligi mahsulotlariga yilning turli mavsumlarida turlicha narx o`rnatiladi);

- o`zgaruvchi narxlari – bozordagi talab va taklif muvozanati hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqib o`sib yoki kamayib borish xususiyatga ega. Bunda sotuvchi va xaridor kelishuviga asosan bazis narxi o`rnatilib, turli omillar ta'sirida narxda yuz berishi mumkin bo`lgan o`zgarishlar shartnomada kelishib olinadi.

### **5. Oldi-sotdi shartnomasi kelishuviga ko`ra:**

- shartnomalar (faktura) narxi – shartnomada belgilangan mahsulotni yetkazib berish shartlaridan kelib chiqib sotuvchi va xaridor o`rtasida kelishuv asosida o`rnatiladi va uning quyidagi turlari mavjud:

- SIF (qiymat, sug`urta, fraxt - yukni tashish haqi) – sotuvchi yuk tashuvchi transport vositasini yollash, ma`lum bir joygacha yukni tashish xarajatlarini to`lash va uni buzilish hamda yo`qotishlardan sug`urtalash xarajatlarini o`z hisobidan amalgalashadi, xaridor esa belgilangan chegarada bojxona to`lovlarini to`lash va yukni o`z omboriga tashish bilan bog`liq xarajatlarni bo`yniga oladi;

- FOB (bortda erkin) – sotuvchi o`z hisobidan tovarni yuk kemasi bortigacha eltish, sug`urtalash, bojxona to`lovlarini to`lash va yuklash bilan bog`liq xarajatlarni

amalga oshiradi, xaridor esa kemani yollash, yukni kemada tashish va sug`urtalash xarajatlarini o`z bo`yniga oladi;

- FOR (relda erkin) – sotuvchi o`z hisobidan tovarni temir yo`l stansiyasigacha eltish, sug`urtalash va vagonga yuklash bilan bog`liq xarajatlarni amalga oshiradi, xaridor esa undan keyingi xarajatlarini o`z bo`yniga oladi;

- Franko – sotuvchi o`z hisobidan tovarni yuklash, kelishilgan joygacha eltish, sug`urtalash va bojxona to`lovlarini to`lash bilan bog`liq barcha xarajatlarni amalga oshiradi va ular mahsulot narxiga qo`shiladi.

Korxona mahsulotiga narx belgilash murakkab va ko`p bosqichli jarayon hisoblanadi (29-chizma).

***Magsadni belgilash.*** Har qanday korxona o`z faoliyatini amalga oshirish jarayonida muayyan bir maqsadga intilishi lozim. Agar korxonaning maqsadi va bozorda egallagan mavqeい aniq bo`lsa, narx siyosatini shakllantirish ham osor kechadi. Narx siyosatini belgilashning uchta asosiy maqsadi mavjud: korxonaning yashovchanligini ta`minlash, foydani maksimallashtirish va bozordagi mavqeini ushlab turish (30-chizma).

***Yashovchanlikni ta'minlash.*** Bozorda aynan shu mahsulotni taklif etuvchi ko`p sonli korxonalar kuchli raqobat muhitida faoliyat olib borganda, korxonaning asosiy maqsadi bozordagi yashovchanligini saqlab qolishdan iborat bo`ladi. Bu maqsadni korxona quyidagi holatlarda tanlaydi:


- mahsulotga bo`lgan talab o`zgaruvchan (***Ed >I***);
- korxona mahsulotning bir birligidan keladigan daromadni (narxni) qisman pasaytirish orqali umumiyl pul tushumini va sotuvlar hajmini oshirishga intiladi;
- sotuvlar hajmining oshishidan ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini pasaytirish imkoniyati kutiladi;
- arzon narxlar raqobatchilarni kuchsizlantiradi;- katta hajmdagi iste'mol bozori mavjud bo`ladi.

Bunday sharoitda bozorning katta ulushini egallah va sotuvlar hajmini oshirish maqsadida pasaytirilgan narxlar – «suqilib kirish narxi» o`rnataladi.


***Bozordagi mavqeni ushlab qolish.*** Korxona asosiy e'tiborni bozorda egallagan mavqeini saqlab qolishga va o`zi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratadi. Buning uchun u mahsulot sotish hajmini saqlab qolish va raqobat muhitiga bardosh berish choralarini ko`radi.

Bu vaziyatda narxlarni keskin ko`tarish yoki tushirish o`zini oqlamaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish va davr xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlash lozim.

### Narxni shakllantirish bosqichlari



### Korxona narx siyosatining maqsadlari



Manba: Xodiyev B.Yu. va boshq. Kichik tadbirdorlik menejmenti. - T.: Konsauditinformnashr. 2004, 94 -95- b.

**Foydani maksimallashtirish.** Foydani maksimallashtirishga intilish bozorga yangi kirib kelgan korxonalarga ham, ma'lum bir mavqega ega barqaror korxonalarga ham xos. Foydani maksimallashtirishga qaratilgan narx siyosatida korxona uzoq muddatli davrda investitsiyalar qaytimini oshirish, keyingi bir necha yillar davomida o'rtacha foyda miqdorini ta'minlash, kapital qo'yilmalar hajmini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini va foyda miqdorini oshirish tadbirlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Mahsulotga bo`lgan talabni aniqlash** narxni belgilashga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Talabni aniqlamay turib narxni to`g`ri hisoblab bo`lmaydi. Talabni tahlil etish usullari ushbu bobning oldingi paragrafida yoritilgan.

**Ishlab chiqarish xarajatlarni tahlil etish** narxni shakllantirishning keyingi bosqichi hisoblanadi. Xarajatlar tarkibida umumiyligi, doimiy va o`zgaruvchan xarajatlar ulushi va salmog`ini bilish muhim. Chunki, muayyan bozor konyunkturasida zararsizlikni ta'minlash uchun korxona hech bo`lmaqanda doimiy xarajatlarni qoplaydigan minimal sotuvlar hajmini aniqlab olishi lozim. Shu bilan birga o'rtacha umumiyligi, o'rtacha doimiy, o'rtacha o`zgaruvchan va chegaraviy xarajatlarning mahsulot narxiga ta'sirini tahlil etish zarur bo`ladi.

**Raqobatchilar narxini tahlil etish.** Narxga bozordagi raqobatchilarning xatti-harakati va shu turdagidan mahsulotga belgilagan narxlari darjasini sezilarli ta'sir ko`rsatadi. Har bir korxona o`z raqobatchilarining narx siyosati va uning xususiyatlarini chuqur tahlil etishi lozim. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlardan korxonaning narx siyosatini belgilashda foydalanish mumkin.

**Narxni belgilash usullarini tanlash.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik tadbirkorlik korxonalari mahsulotlariga narx belgilashning quyidagi usullari mavjud.

«**Bozorga suqilib kirish**» usuli yordamida korxona bozorga kiritilayotgan yangi tovarlar uchun raqobatchilarning shu turdagidan mahsulotlariga nisbatan past narx belgilaydi. Bundan ko`zda tutilgan asosiy maqsad keng iste'molchilar qatlamlarini jalgan etish va bozorning imkon qadar katta qismini egallashdir. Narx belgilashning bu usuli mahsulot ishlab chiqarish hajmi yirik bo`lgan taqdirdagina o`zini oqlashi mumkin. Buning uchun mahsulotga bo`lgan talab o`zgaruvchanligi yuqori va sotuvlar hajmining oshishi xarajatlarni qoplab, ma'lum miqdorda foyda olishga imkon yaratishi lozim.

**Mahsulotga talab va taklif muvozanatidan kelib chiqib belgilanadigan bozor narxi.** Bu usulda korxonalar o`z mahsulotiga bozorda tarkib topgan talab va taklif muvozanati va uning o`zgarishidan kelib chiqib narx belgilaydi. Bozor narxining shakllanishi asosida ishlab chiqarish xarajatlari emas, mahsulotning iste'mol qiymati va xaridorlarning munosabati hal qiluvchi rol o`ynaydi.

**Bozorning iste'mol segmentlariga mos narx belgilash.** Bu usulda aynan bir turdagidi tovar yoki xizmatlar uchun iste'molchilarning daromadi, yoshi, jinsi, tabaqasi, didi va boshqa belgilariga ko`ra turli darajadagi narxlardan belgilanadi. Bundan ko`zda tutilgan maqsad iste'molchilarning turli segmentlari talablarini hisobga olish va unga mos taklif bilan chiqishdir.

Raqobatchilar o`rnatgan narxlarga nisbatan narx belgilashning quyidagi shakllari mavjud:

**Raqobatchilarga nisbatan past narx belgilash.** Bunday usulda narx belgilash orqali bozordagi yirik hajmli mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda mahsulot birligiga kam xarajat sarflovchi korxonalarining raqobatiga bardosh berish mumkin. Past narxlar natijasida zarar ko`rmaslik uchun:

- tovar aylanmasini tezlashtirish orqali sotuvalar hajmini oshirish;
- ishlab chiqarishni o`zlashtirishga katta xarajatlar talab etmaydigan kichik seriyali tovarlarga e'tiborni qaratish;
- yirik korxonalar uchun foydali bo`lmagan ishlab chiqarish usullarini o`zlashtirishga intilish lozim bo`ladi.

**Raqobatchilarga yuqori narx belgilash** siyosati iste'molchilar uchun narx darajasi emas «tovarning qimmati» katta ahamiyat kasb etadigan, yuqori kategoriyali tovarlarga nisbatan qo`llaniladi. Bunday narx belgilash asosida tovarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari emas, uni xaridorlar tomonidan «qabul qilish» darajasi yotadi va quyidagi omillarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- mijozga sifatli xizmat ko`rsatish va qo'shimcha qulayliklar yaratish (tovarni tezda uyga eltid berish, chiroqli o'ramda sotish, kreditga xarid etish imkoniyatini yaratish, ma'lum muddatga kafolatlar berish, sotuvdan keyingi xizmat ko`rsatish va boshqa);
- kamyob tovarlarni ishlab chiqarish;
- iste'molchilar dididagi ozgina o`zgarishlarni ham ilg`ab olish;
- xaridorlarga xushmuomala bo`lish va ular uchun qulay bo`lgan joyda savdoni uyushtirish.

**«Yetakchi raqobatchiga ergashish»** usuli asosida raqobatchilarning shu turdagи mahsulotiga belgilagan narxi yotadi. Bunda bozordagi eng yuqori mavqega ega bo`lgan yirik raqobatchining shu turdagи mahsulotiga o'rnatgan narxi asos qilib olinadi va o`z mahsuloti tannarxi hamda talab darajasi e'tiborga olinmaydi. Korxona o'rnatgan narx darajasi yetakchi raqobatchining narxidan yuqori bo`lmasligi kerak.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini qoplanishi jihatidan narx belgilashning quyidagi usullari farq qiladi:

**O`rtacha xarajatlarga foya miqdorini qo'shib narx belgilashda** mahsulot tannarxiga tegishli foya ustamasini qo'yish asosida narx hisoblanadi. Bu eng sodda va keng tarqalgan usul bo`lib, mahsulot tannarxiga olinishi rejalashtirilgan foya foizini qo'yib narx belgilanadi.

$$B = MT + DX + U \times (MT + DX)$$

Bu yerda:

*B* – mahsulot narxi,

*MT* – mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi,

*DX* – davr xarajatlari,

*U* – xarajatlarga nisbatan belgilangan foydaning ustama foizi.

Uning kamchiligi shundaki, bu usulda ishlab chiqarish xarajatlari asos sifatida olinib, bozorda mahsulotga bo`lgan talab va taklif darajasi hamda raqobat muhitini e'tiborga olinmaydi. Shunga qaramasdan, bu usul quyidagi uchta sababga ko'ra keng qo`llaniladi.

Birinchidan, sotuvchilar iste'molchilarning talabi va bozor konyunkturasini har qancha chuqur o'rganmasinlar, ular uchun ishlab chiqarish va davr xarajatlarini aniq

hisoblash imkoniyati yuqoriroq. Xarajatlarga asoslanib narx belgilanganda, talab o`zgarishidagi tebranishlar ta'sirida narxni qayta ko`rib chiqishga hojat qolmaydi.

Ikkinchidan, xarajatlardan kelib chiqib belgilangan narx iste'molchi uchun ham, sotuvchi uchun ham birdek adolatlidir.

Uchinchidan, bu usulda sotuvchilar o`rtasida narx raqobati oqibatlari kamayadi.

**Zararsizlikni ta'minlash va maqsadli foyda olish usuli (marjinal usuli) bilan narx belgilash.** Bunda turli mahsulot ishlab chiqarish hajmlarida kutiladigan pul tushumi va umumiy xarajatlarni (doimiy va o`zgaruvchi xarajatlarni) solishtirish asosida korxonaga ziyon keltirmaydigan hamda maksimal foyda miqdorini olishga imkon beradigan narx tanlab olinadi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan o`rtacha umumiy xarajatlar (ATC) yoki tannarx narx darajasidan ( $P$ ) past bo`lganda korxona foyda ko`ra boshlaydi. Muayyan bozor konyunkturasida zararsizlikni ta'minlash uchun, korxona hech bo`lmaganda doimiy xarajatlarni qoplaydigan minimal sotuvsalar hajmini aniqlab olishi lozim.

### **12.3. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga narx belgilash xususiyatlari**

Davlat ehtiyojlari uchun fermer xo`jaliklaridan xarid etiladigan paxta va don ekinlari davlat xarid narxlari sotib olinadi. Hozirgi kunda paxta xom-ashyosining hammasi (aslida 50 foiz deb belgilangan) va g`allaning 50 foizi davlat xarid narxlari bo`yicha sotib olinmoqda.

Davlat xarid narxlari darajasi fermer xo`jaliklarining yetarli daromad olishiga imkon bermaydi. Keyingi yillarda davlat xarid narxlarini takomillashtirish tadbirlari ko`rilmoqda. Jumladan, Respublika Prezidentining 2002-yil 20-avgustdagи «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to`g`risida»gi Farmoni bilan paxta ekadigan xo`jaliklarning yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishga rag`batini oshirish hamda narx belgilashda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan jahon amaliyotida qabul qilingan me`yor va tamoyillarni keng joriy etish maqsadida paxta xomashyosiga ichki xarid narxlari, eksportga va respublika iste'molchilariga yetkazib berilayotgan paxta tolasining ulgurji narxlari jahon bozorida shakllanayotgan paxta narxi konyunkturasiga muvofiq belgilanishi tartibi joriy etildi. Buning natijasida fermer xo`jaliklarining davlat buyurtmalari bo`yicha yetkazib berayotgan paxta xomashyosi narxlari sezilarli darajada oshdi.

Fermer xo`jaliklarining davlat buyurtmasidan tashqari barcha mahsulotlari ulgurji yoki chakana erkin (shartnomaviy) narxlar orqali sotiladi. Qishloq xo`jaligi tarmoqlarining barqaror faoliyat ko`rsatishi va rivojlanishi uchun hozirda aksariyat rivojlangan davlatlarda amal qilinayotgan erkin bozor tamoyillari to`liq amal qilishi talab etiladi.

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo`jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining asosiy daromad manbai yetishtirilgan mahsulotni sotish bilan bevosita bog`liq. Ammo, shu bilan birgalikda hozirda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo`jaligi tarmoqlarida yetishtirilgan asosiy turdag'i mahsulotlari narxi o`zgarishi davlat tomonidan nazoratga olingan holda kuzatib

boriladi. Shu asosda tarmoqqa zarur moliyaviy, huquqiy yordamlar ko`rsatiladi. Respublikamizda bu jarayon hali qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar foydasiga hal bo`lgani yo`q.

Hozirgi kunda mahsulotlar narxini shakllantirishda ishlab chiqarishda sarf qilinadigan moddiy resurslar narxi asosiy o`rinni egallamoqda. Qishloq xo`jaligiga moddiy-texnika resurslari yetkazib berish, turli ish va xizmatlar ko`rsatish va mahsulotlarni qayta ishlashga ixtisoslashgan tarmoqlar narxini tartibga solish bu muammoni qisman bo`lsada yechishga imkon berishi mumkin. Chunki, bu turdagи korxonalar joylarda ozchilikni tashkil etib (bir-ikkitadan oshmaydi), bozorda monopol mavqeini qo`lga kiritib olgan. Bozor munosabatlarining keng rivojlanib borishi va bu tarmoqlarda ham raqobat muhitining kirib kelishi bilan narxlar barqarorlashuvi yuz bera boshlaydi. Kelgusida davlatning kafolatli narxlar tizimini joriy etishga bo`lgan talab kuchayib boradi. Buni rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ko`rish mumkin.

Ayniqsa, qishloq xo`jaligida narxlar shakllanishi va qishloq xo`jaligiga moddiy-texnik vositalar yetkazib beruvchi sohalar mahsulotlariga narx shakllanishi mexanizmidagi farqlar hisobidan ko`rilayotgan zarar juda katta bo`lmoqda. Natijada, sohalar o`rtasidagi narxlar nomutanosib o`sishi natijasida, katta miqdordagi mablag` boshqa sanoat sohalariga o`tib ketmoqda.

Hozirda respublikada amalga oshirilayotgan moliyalash tizimidagi muhim nuqsonlardan biri bu hamon asosiy qishloq xo`jaligi mahsulotlariga (paxta xom ashyosi va g`alla) narx belgilash jarayonining xarajatlarga asoslangan tamoyilidan foydalanib kelayotganligidir. Bunda paxta xomashyosiga va g`alla yetishtirish uchun belgilanayotgan o`rtacha narx O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bo`yicha texnologik kartalar asosida, o`rtacha xarajatlarga ma'lum rentabellik darajasini hisobga olib aniqlanmoqda.

Narx belgilash jarayonida respublika doirasidagi inflyatsiya darjasasi, mahsulotlar bozori kon'yunkturasi e'tiborga olinsada, bu birinchidan haqiqiy ahvolni o`zida kam aks ettirmaydi. Amaldagi narx-navo esa (ayniqsa sanoat mahsulotlarining monopol narxlari) yil davomida doimiy ravish o`sib boradi.

Ikkinchidan, bu sharoitda mahsulot yetishtirish jarayonlarida xarajatlarni tejash mexanizmi ishlashi uchun sharoitlar mavjud bo`lmaydi. Mahsulot yetishtiruvchi dehqon hamon xarajatlarni oshirishdan manfaatdor bo`lib kelmoqda.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 6-avgustdagи 369-sonli qaroriga ko`ra xo`jaliklar rejadan ortiq paxta uchun 20 foiz qo`shimcha haq olishi belgilangan bo`lsada bu ham amaliyotda qo`llanilmayapti.

Davlat buyurtmasidan tashqari mahsulotlar narxini xo`jaliklar bozordagi talab asosida belgilaydilar. Ammo “Mevasabzavotuzum” xolding kompaniyasi tizimi xo`jaliklari mahsulotini shu tizimda belgilangan narxlar asosida tizimdagi qayta ishslash korxonalariga sotishga majbur. Bu esa ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan erkin shartnomaga munosabatlarni shakllantirishga to`siq bo`lmoqda.

## **12.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlariga narx belgilash mexanizmini takomillashtirish**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida barcha korxonalarning asosiy e'tibori ishlab chiqarayotgan mahsulotining bozorda xaridorini topish va maqbul narxlarda sotishdan iboratdir. Chunki, bunday inqirozlar paytida aholi tomonidan iste'mol talabining qisqarishi yuz beradi va mahsulotlarning turib qolishi oqibatida ishlab chiqaruvchi korxonalar zarar ko'ra boshlashadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan mahsulotlarining narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xo`jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rshiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibat esa makroiqtisodiy ko`rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi"<sup>1</sup>. Ushbu holatlar qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarga ham birday ahamiyatlidir.

Dunyo tajribasi va shu paytga qadar o`zimizda to`plangan tajribalar shuni ko`rsatadiki, erkin bozor munosabatlari sharoitida narxlarning talab va taklifdan kelib chiqib shakllanishi har doim ham qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari manfaatlariga mos bo`lib tushavermaydi. Bu eng avvalo qishloq xo`jalingining tabiiy-iqlimi sharoitlariga bog`liqligi bilan izohlanadiki, bu bog`liqlik tarmoqda narxlар va daromadlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Masalan, ob-havoning qulay kelishi natijasida bozorga haddan tashqari ko`p (ya'ni talabdan oshiqcha) mahsulotning kirishi narxlarning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Ba'zan narxlarning bunday pasayishi hatto mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko`radi. Tabiiyki, bunday sharoitda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo`lsa, dehqonlar xonavayron bo`lishi mumkin.

Yoki ikkinchi bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg`oqchilik, sel, jala va hokazo) natijasida hosilning keskin kamayib ketishi talabning taklifdan ortib ketishiga sabab bo`lishi mumkin. Bunday hosillarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko`rsalar, xaridorlar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Mana shularning hammasi qishloq xo`jaligiga davlat tomonidan homiylik qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu homiylik birinchi navbatda davlatning narx siyosati orqali amalga oshirilishi zarur.

Moddiy-texnika resurslari narxlarning oshib ketishidan katta zarar ko`rayotgan qishloq xo`jaligi korxonalari o`z mablag`lari hisobidan kapital qurilish olib borish yoki texnik qayta qurollanish imkoniyatlarini cheklashga majbur bo`lmoqdalar. Hatto xo`jaliklar yonilg`i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar, mineral o`g`itlar kabi aylanma vositalarni sotib olishda ham ko`plab moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Tabiiyki, bunday holatda ishlab chiqarishga ilg`or texnika va texnologiyalarni joriy etish mumkin bo`lmaganligidan, qishloq xo`jaligi asosiy fondlari nafaqat ma'naviy, balki jismoniy jihatdan ham eskirib, ishdan chiqib

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf eishning yo'llari va choralar -T.:O'zbekiston, 2009. 56- b.

bormoqda. Mana shularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida narxlar ustidan davlat nazorati o`rnatish lozimligiga shubha qoldirmaydi.

Bir qator mahsulotlar uchun hukumat tomonidan kafolatlangan narxlarning minimal darajasining o`rnatilishi qishloq xo`jaligi korxonalari uchun ancha qulay imkoniyatlar yaratadi. Eng muhimi shunga erishish kerakki, kafolatlangan narxlarning qo`llanishi xo`jaliklarni ishlab chiqarish natijalarini yuksaltirish va samaradorligini oshirishdan rag`batlantirsin.

Fikrimizcha, joylarda bozorni o`rganib boruvchi marketing xizmati bo`limlarini tashkil etib, ularning zimmasiga quyidagi vazifalarni yuklamoq kerak:

- mintaqalar bo`yicha qishloq xo`jaligi korxonalarida shakllanayotgan mahsulot turlari tannarxi darajasi haqida ishonchli ma'lumotlar yig`ish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan iste'molchilar talabi va taklif hajmini o`rganish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlarning o`sishi bilan sanoat tovarlari (birinchi navbatda qishloq xo`jaligi korxonalari uchun zarur bo`lgan sanoat tovarlari) narxlari o`sishi o`rtasidagi nisbat, ya`ni “narxlar pariteti”ni kuzatib borish va unga rioya etish choralarini ko`rish;

- zarur hollarda kafolatlangan narxlar qo`llanilishi lozim bo`lgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari turlarini aniqlash;

- mintaqalarning o`ziga xos tabiiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda, qishloq xo`jaligi mahsulotlari uchun rag`batlantiruvchi rolga ega bo`lgan narxlarning quyi chegaralarini aniqlash bo`yicha hukumatga takliflar kiritish;

- qishloq xo`jaligida qo`llaniladigan moddiy-texnika resurslari narxlarning xo`jaliklar manfaatlariga yetkazmaydigan yuqori chegaralarini belgilash bo`yicha takliflar tayyorlash;

- talabdan oshiqcha mahsulotlarni davlat yo`li bilan xarid etib, davlat zaxiralarni barpo etishga ko`maklashish.

Fermerlar mahsulotlariga narx belgilash mexanizmini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarga ryoja etish maqsadga muvofiq:

- erkin narx belgilash va narxlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini qo`shib olib borish;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlari bilan qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi sanoat korxonalari narxlarning ekvivalentligini (narxlar paritetini) ta'minlab borish bo`yicha qonun qabul qilish;

- fermer xo`jaliklarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil qilishiga imkon beruvchi darajada daromad keltiruvchi narxlar tizimidan foydalanish;

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishish;

- mahsulotlar sifati va iste'mol qiymatidan kelib chiqib tabaqalangan narxlar tizimidan foydalanish;

- davlat ahamiyatiga ega bo`lgan va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi strategik mahsulotlarga davlat tomonidan kafolatlangan narxlar tizimini joriy etish va boshqalar.

- dehqonning mahsulot sotish kanallarini tanlash va ishlab chiqarilgan mahsulotga narx belgilash bo`yicha erkinligini ta'min etuvchi iqtisodiy mexanizmni bosqichli tarzda joriy etish.

### **Qisqacha xulosalar**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo`jalik yurituvchi subyektlar uchun narx tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Chunki, xo`jalikning xarajatlarni qoplashi va daromad olishi narxga bog`liq bo`ladi. Narx resurslar oqimini ma'lum bir ishlab chiqarish jarayoniga taqsimlash vazifasini bajaradi.

Mahsulot narxining shakllanishiga quyidagi bir qancha omillar ta'sir ko`rsatadi:

- mahsulotga bo`lgan talab darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- bozordagi taklif darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- bozor konyunkturasi va raqobat muhiti;
- mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, tannarxi va foyda me'yori;
- taklif etilayotgan mahsulotning sifati, dizayni va foydalilik darajasi;
- narxlarni davlat tomonidan tartibga solib turilishi va boshqalar.

Raqobatli bozor sharoitida mahsulot narxi talab va taklif muvozanati asosida o`rnataladi. Mahsulotga talab qanchalik yuqori va taklif qanchalik kam bo`lsa, mahsulot narxi shuncha yuqori bo`ladi. Xuddi shuningdek, taklif hajmining o`zgarishiga ishlab chiqarish texnologiyasi, foydalaniladigan resurslar narxi, ishlab chiqarishni moliyalashtirish sharoitlari, soliqlar va dotatsiyalar, bozordagi ishlab chiqaruvchilar soni va boshqa mahsulotlar narxi kabi omillar ta'sir ko`rsatadi. Bozorda ushbu omillar ta'sirida talab va taklif hajmining o`zgarishi, bozor muvozanatining o`zgarishiga va oqibatda mahsulot narxining o`zgarishiga olib keladi.

Qishloq xo`jaligining mavsumiylik xarakteri natijasida ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmining yilning bir davrida talabdan ortib ketishiga yoki ikkinchi bir davrida talabdan kamayib ketishiga olib keladi. Masalan, pomidor va bodring ishlab chiqarish yoz oylarida ko`payib, qish va erta narxrda keskin kamayib ketadi. Natijada bunday mahsulotlar narxi yil davomida tebranib turadi.

Davlat ehtiyojlari uchun fermer xo`jaliklaridan xarid etiladigan paxta va don ekinlari davlat xarid narxlarda sotib olinadi. Hozirgi kunda paxtani xomashyosining hammasi (aslida 50 foiz deb belgilangan) va g`allaning 50 foizi davlat xarid narxlari bo`yicha sotib olinmoqda. Davlat xarid narxlari darajasi fermer xo`jaliklarining yetarli daromad olishiga imkon bermaydi. Keyingi yillarda davlat xarid narxlарini takomillashtirish tadbirlari ko`rilmoxda.

Fermer xo`jaliklarining davlat buyurtmasidan tashqari barcha mahsulotlari ulgurji yoki chakana erkin (shartnomaviy) narxlar orqali sotiladi. Qishloq xo`jaligi tarmoqlarining barqaror faoliyat ko`rsatishi va rivojlanishi uchun hozirda aksariyat rivojlangan davlatlarda amal qilinayotgan erkin bozor tamoyillari to`liq amal qilishi talab etiladi.

Bir qator mahsulotlar uchun hukumat tomonidan kafolatlangan narxlarning minimal darajasining o`rnatalishi qishloq xo`jaligi korxonalari uchun ancha qulay imkoniyatlar yaratadi. Eng muhimi shunga erishish kerakki, kafolatlangan

narxlarning qo'llanishi xo'jaliklarni ishlab chiqarish natijalarini yuksaltirish va samaradorligini oshirishdan rag'batlantirsin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer mahsulotlariga narx qanday o'rnatiladi?
2. Narxlarning qanday shakllari mavjud?
3. Narxlar qanday vazifalarni bajaradi?
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Mahsulotlarga narx belgilash usullari va bosqichlari nimalardan iborat?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo'jaligi mahsulotlari narxlari tizimini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5- fevraldag'i 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi» nizom (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan birga).
3. Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi. 2004.
4. Jo`rayev F. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. - T.: Istiqlol, 2004.
5. Петранева Г.А. Цена и ценаобразование. – Москва.: Издательства МСХА, 2005.
6. Королев Ю.Б. и др. Менеджмент в АПК - М.: Kolos, 2003.
7. Hamdamov Q.S, Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti. 2004.
8. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.

### **XIII bob. ISHLAB CHIQARISHGA INVESTITSIYALAR JALB ETISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO`NALISHLARI**

#### **13.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi**

Fermer va dehqon xo`jaliklarini rivojlantirishda ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etishning ahamiyati beqiyosdir. Investitsiya lotincha “investor” so`zidan olingan bo`lib, mablag` sarflamoqni, ya`ni kapital xarajatlarning hajmi, tarkibi va uning asosiy yo`nalishlarini ifoda etadi. Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish degan ma`noni anglatadi.

O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi 719-I-sonli “**Investitsiya faoliyati to`g`risida**”gi qonunining 2-bandiga muvofiq: “**investitsiyalar** - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda ularga doir huquqlardan iborat”.

Qonunda investitsiya va investitsion faoliyatga oid quyidagi tushunchalar ham keltirilgan:

- **investitsiya faoliyati** - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog`liq harakatlari majmui;
- **investor** - o`z mablag`larini qarzga olingan va jalb etilgan mablag`larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;
- **investitsiya faoliyati ishtirokchisi** - investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta`minlovchi investitsiya faoliyati subyekti;
- **reinvestitsiyalar** - investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

Investitsiyalarni bir nechta mezonlarga ko`ra turkumlash qabul qilingan (31-chizma).


Investitsiyalar mo`ljallangan obyektiga ko`ra **kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga** bo`linadi.

**Kapital** investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Innovatsiya investitsiyalari** jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o`zlashtirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Ijtimoiy investitsiyalar** jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne`matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

## **Investitsiyalarning tarkumlanishi**



31- chizma. Investitsiyalarning tarkumlanishi

Investitsiya kiritish shakliga ko`ra **real** va **moliyaviy investitsiyalar** farq qiladi. **Real investitsiyalar** deganda sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish kabi iqtisodiyotning real tarmoqlariga kapital kiritish tushuniladi. **Moliyaviy investitsiyalar** - qimmatli qog`ozlar chiqarish va realizatsiya bilan bog`liq ishlar uchun sarflanadigan mablag`lardan iborat bo`ladi.

Investitsiya jarayonidagi ishtirokiga ko`ra **bevosita** va **bilvosita investitsiyalarni** ajratib ko`rsatish mumkin. **Bevosita** (*to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar*) asosan investoring shaxsan ishtirokida. Ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo`lgan taqdirda aniq obyektga yo`naltiriladigan mablag`lardan tashkil topadi. **Bilvosita (egri) investitsiyalar** - vositachilar orqali obyektlarga sarflanadi va olingan daromadlar sheriklar o`rtasida taqsimlanadi.

Investitsiyalarning sarflanishi davriga nisbatan **qisqa muddatli** va **uzoq muddatli** investitsiyalar farqlanadi. **Qisqa muddatli investitsiyalar** qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalar shaklida bir yilgacha muddat bilan kiritiladi.

**Uzoq muddatli investitsiyalar** asosiy vositalarga kiritiladigan kapital qo`yilmalar yoki boshqa shakkarda bir yildan ortiq muddatga sarflanadi.

**Mulkchilik shakliga** ko`ra davlatning investitsion dasturlari orqali iqtisodiyotning strategik obyektlarini rivojlantirish maqsadida kiritiladigan **davlat investitsiyalari** va xususiy mulk egalari tomonidan kiritiladigan **xususiy investitsiyalar** mavjud.

**Hududiy mansubligiga ko`ra** mamlakatning ichki investorlari tomonidan kiritiladigan **milliy investitsiyalar** va chet el fuqarolari tomonidan kiritiladigan **xorijiy investitsiyalarni** ajratib ko`rsatish mumkin.

Investorlar investitsiyalarni quyidagi yo`llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg`armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

- qimmatli qog`ozlarni, shu jumladan O`zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo`lgan konsessiyalarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko`rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish.

Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul va boshqa moliyaviy mablag`lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlar;

- ko`char va ko`chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda doir huquqlar;

- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmui, u yoki bu turdagи ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo`lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau;

- yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar.

Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish obyektlari investitsiya faoliyatining obyektlaridir. Barpo etilishi va foydalanishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo`lishlari mumkin:

- O`zbekiston Respublikasining rezidentlari - fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari;

- xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va O`zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

- hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag` kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo`lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo`lishlari mumkin.

Mulk shakllaridan va faoliyat turidan qat'i nazar, investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda teng huquqlarga egadirlar.

Investor investitsiyalash maqsadi, yo`nalishi, turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov (tender) savdosini o`tkazish yo`li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi.

Qonunchilikda investorlarga ma'lum bir majburiyatlar ham yuklanadi. Investor:

- investitsiya loyihamida sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishi;

- monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;

- soliqlar, yig`imlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lashi;

- shartnoma bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli investitsiya faoliyati ishtirokchisiga yetkazilgan zararni qoplashi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlarining o`z vakolati doirasida qo`yiladigan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli:

- tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo`lish;

- investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish;

- agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo`lsa, investor oldidagi o`z majburiyatini bajarishga boshqa shaxslarni jalb etish;

- agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo`lsa, investitsiya faoliyati obyektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejamni mustaqil ravishda tasarruf etish.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi:

- qonun hujjatlarida belgilangan meyorlar, qoidalar va standartlarga rioya etishi;

- shartnomalarni o`z vaqtida va lozim darajada bajarishi;

- shartnomani bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli investorga yetkazilgan zararni qoplashi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o`z vakolati doirasida qo`yilgan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi litsenziyalanishi lozim bo`lgan faoliyatni amalga oshirish uchun O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda litsenziya olishi lozim bo`ladi.

### **13.2. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash**

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo`llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;

- soliq to`lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo`llash;

- asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;

- normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;

- monopoliyaga qarshi choralarini qo`llash;

- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o`tkazish;

- yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;

- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

- O`zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Davlat investitsiya faoliyati doirasida:

- davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlar mablag`i hisobidan to`g`ridan-to`g`ri moliyalash yo`li bilan amalga oshiriladigan investitsiya;

- O`zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya markazlashtirilgan investitsiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish bo`yicha qarorlar davlat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbolga mo`ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo`ljallangan ilmiy-texnik va kompleks davlat dasturlari hamda ana shu investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlovchi texnik-iqtisodiy asoslar negizida qabul qilinadi.

Umum davlat ahamiyatiga molik bo`lgan aniq maqsadga mo`ljallangan kompleks davlat dasturlarining loyihalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo`nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan O`zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritiladi.

O`zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish ishtirokchilariga soliqqa oid va boshqa imtiyozlar beriladi. Har bir alohida investitsiya loyihasi bo`yicha yoki umuman O`zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bo`yicha beriladigan imtiyozlarning aniq ro`yxati qonun hujjalarda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Budget mablag`lari va budjetdan tashqari mablag`lar hisobiga, shuningdek chet el investitsiyalarini O`zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida jalb etilgan holda moliyalanadigan investitsiya loyihalari ekspertizadan o`tkazilishi shart. Ekspertizani o`tkazish tartibini O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Boshqa manbalar hisobiga moliyalanadigan investitsiya loyihalari sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar bajarilishiga doir qismida, qonun hujjalarda belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o`tkazilishi lozim.

Banklarning kredit resurslari hisobidan moliyalanadigan kichik tadbirkorlik investitsiya loyihalari tijorat banki tomonidan mazkur investitsiya loyihasini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to`g`risida ekspertiza qilinishi lozim. O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari shu shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda ekspertiza qilinishi lozim.

Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining qonun hujjalara muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat investitsiyalar himoya qilinishini kafolatlaydi.

Investitsiya faoliyati subyektining investitsiya faoliyati natijasida olingan foydasi (daromadi) soliqlar, yig`imlar va boshqa majburiy to`lovlar to`langach, uning xohishiga ko`ra reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatalishi mumkin.

Investitsiyalarning qo`shimcha kafolatlari va himoya qilish choralar hukumat tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko`maklashishni, maxsus soliq va to`lov tartibi yaratilishi, loyihalar amalga oshirilishining davlat monitoringi yuritilishi va qonun hujjalara muvofiq boshqa choralar ni o`z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya faoliyati to`g`risidagi qonun hujjalari buzilgan taqdirda, investitsiya faoliyatining subyekti yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani, qonun hujjalarda belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

### **13.3. Chet el investitsiyalarini jalb etish mexanizmi**

O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 609-I-soni «Chet el investitsiyalarini to`g`risida»gi qonunida O`zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirilishining huquqiy asoslari va tartibi belgilab berilgan.

Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjalarda tasqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga

qo`shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O`zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

O`zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo`lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo`lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko`rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

- chet el davlati fuqarolari bo`lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O`zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Chet ellik investorlar O`zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo`llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- O`zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo`jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug`urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg`armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo`shib qatnashish;

- chet ellik investorlarga to`liq qarashli bo`lgan xo`jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug`urta tashkilotlari va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlarni, shu jumladan O`zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

- intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xaug'a, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

- konsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo`lgan konsessiyalar olish;

- savdo va xizmat ko`rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

Chet ellik investorlar O`zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o`zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

O`zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg`armasining kamida 30 foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko`rsatadilar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni ta'sis etish yo`li bilan yoki ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish

ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan xususiyashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin.

Chet ellik investor xalqaro huquq prinsiplari va O`zbekiston Respublikasining qonun hujjaligiga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo`nalishlarini mustaqil belgilash;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

- o`zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;

- O`zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o`ziga qarashli ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O`zbekiston Respublikasida patentlashtirish to`g`risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

- investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliksiz repatriatsiya qilish);

- O`zbekiston Respublikasiga kredit va qarzlar tariqasida pul mablag`lari jalb etish;

- o`z hisobvarag`idagi milliy valuta mablag`laridan ichki valuta bozorida chet el valutasini sotib olish uchun foydalanish;

- qonun hujjaligida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

- O`zbekiston Respublikasining qonun hujjaligiga muvofiq, o`ziga mulk huquqi asosida qarashli bo`lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag`larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo`yicha ta`min sifatida foydalanish;

- o`z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

- davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdar shaxslarining g`ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investorlar O`zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirganda:

- O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjaligiga rioya etishlari;

- O`zbekiston Respublikasining qonun hujjaligiga muvofiq soliqlar va boshqa to`lovlar to`lashlari;

- investitsiyalash munosabati bilan o`z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bo`yicha javob berishlari;

- investitsiya loyihalarida O`zbekiston Respublikasining qonun hujjalidan kelib chiqadigan sanitariya-gigiyena, ekologiyaga oid va boshqa talablarga rivoj etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishlari;

- o`z raqobatchilariga nisbatan qo`shimcha imtiyozlar va afzalliklar olish maqsadida investitsiya faoliyati bo`yicha sheriklariga yoki davlat boshqaruvi organlari

va mahalliy davlat hokimiyati organlariga bevosita va (yoki) bilvosita noqonuniy ta'sir o'tkazishning har qanday shakllaridan o'zlarini tiyishlari shart.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, soliqlar va boshqa to`lovlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanuvchi o`z xodimlari uchun ijtimoiy sug`urta va ijtimoiy ta'minot bo`yicha to`lovlarni amalga oshiradi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga talablariga rioya etgan holda eksport-import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O`zlar ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o`z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni litsenziyasiz import qilishga haqli.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 611-I-sonli «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida»gi qonunida O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralarini belgilab berilgan.

Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining amalga oshirilishi ta'minlanishini hisobga olgan holda fuqaroligi, yashash joyi, diniy e'tiqodi, iqtisodiy faoliyati qayerda amalga oshirilayotganligiga, shuningdek investorlar yoki investitsiyalarning qaysi mamlakatga mansubligiga qarab chet ellik investorlarning kamsitilishiga yo'l qo`yilmaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlarini investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlarini investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Chet ellik investor o`z xohishiga ko`ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir..

Davlat boshqaruv organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan xo`jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Chet ellik investorlarga qo`shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari har bir muayyan holda, ya'ni:

- barqaror iqtisodiy o`sishni, mamlakat iqtisodiyotida ilg`or tuzilmaviy o`zgarishlar ro`y berishini ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritilayotganda;

- respublikaning eksport imkoniyati mustahkamlanishi va kengayishini, respublika jahon xo`jalik aloqalariga integratsiyalashuvini ta'minlovchi ustuvor loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda;

▪ amalga oshirilishi xomashyo va materiallarni qayta ishlashga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan kichik tadbirkorlik sohasidagi loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda berilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi, tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar, epizootiya hollari bundan mustasno.

Chet ellik investorning O`zbekiston Respublikasida olgan daromadlari chet ellik investorning xohishiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi hududida reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qonun hujjaligiga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- O`zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek undan tashqarida har qanday valutada, har qanday bankda hisobvaraqlar ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;

- chet el valutasida ssudalar olish va uni qaytarish.

Chet ellik investorlarga chet el valutasidagi pul mablag`larini O`zbekiston Respublikasiga va undan tashqariga, ular soliqlar hamda boshqa majburiy to`lovlarni O`zbekiston Respublikasi, qonun hujjalarda belgilangan tartibda to`lashi sharti bilan, biron-bir cheklashsiz erkin o`tkazish kafolatlanadi.

Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risidagi qonun hujjalari buzilgan taqdirda, chet ellik investor yetkazilgan zarar uchun sud tartibida shunga monand tovon olish huquqiga ega.

Davlat boshqaruv organlari davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik investorlarning huquqlarini kamsituvchi normativ hujjalar qabul qilingan taqdirda, shuningdek ular chet ellik investorlarning xo`jalik faoliyatiga g`ayriqonuniy aralashgan hollarda yetkazilgan zarar shu organlar tomonidan sud tartibida qoplanadi.

Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risidagi qonun hujjalarini buzgan davlat boshqaruv organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlarining mansabdor shaxslari belgilangan tartibda javobgar bo`ladilar.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo`lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli “To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmoni bilan quyidagi imtiyozlar berilgan:

1. 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo`yicha daromad (foyda) solig`i, mulk solig`i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to`lovi to`lashdan, shuningdek respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar to`lashdan ozod qilingan.

To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo`lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo`lganda - 7 yil muddatga.

Ushbu soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo`llanilishi belgilab qo`yilgan:

- mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo`lgan mintaqalar - Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O`zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

ushbu korxonalar davlat ro`yxatidan o`tkazilgandan keyin to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo`yish;

- mazkur imtiyozlarni qo`llanish muddati davomida imtiyozlardan olingen daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo`naltirish.

To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan qishloq xo`jaligiga tutash iqtisodiyot tarmoqlari:

1. Parranda go`shti va tuxumni sanoat miqyosida yetishtirish.

2. Oziq-ovqat sanoati:

- mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

3. Go`sht-sut sanoati:

- go`sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog` ishlab chiqarish.

### **13.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo`jaligiga investitsiyalar jalb etish**

Har bir qishloq xo`jaligi korxonasi, u qanday shaklda bo`lishidan qat`iy nazar, mahsulot yetishtirish va xizmat ko`rsatishni tashkil qilish uchun sarmoya sarf etadi. Bozor iqtisodiyoti esa, har bir investor sarmoyasini sarflashdan oldin sarmoya sarflanadigan tadbir qanday natija berishi, uning iqtisodiy samarasi qanday bo`lishini bilishni talab etadi. Fermer xo`jaligi ham sarflanadigan yoki yo`naltiriladigan kapital sarflar, uzoq muddatga foydalilaniladigan vositalarni tashkil etishga qaratilgan mablag`lar samarasini loyihalashtirish jarayonida ko`zda tutadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, qishloq xo`jaligida investitsiya faoliyatini rivojlantirish davlatning ustuvor siyosatiga aylantirilgan bo`lib,

uning ta'minotiga erishish maqsadida sohaga investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda investitsion faoliyatni amalga oshirishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilganligi buning yaqqol ifodasidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to`g`risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida"gi, "Investitsiya faoliyati to`g`risida"gi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko`plab farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlarining qabul qilinganligi investitsiya muhitining huquqiy sharoitini yaratishga va mustahkamlashga imkon beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, qishloq xo`jaligida investitsiya faoliyatini rivojlantirish davlatning ustuvor siyosatiga aylantirilgan bo`lib, unga erishish maqsadida tarmoqqa investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzalarida 2008-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishga barcha moliyaviy manbalar hisobidan qiymati 5,4 milliard AQSh dollaridan ziyod, jumladan, umumiyligi taxminan 1,5 milliard dollarga teng bo`lgan xorijiy investitsiyalarni kiritish ko`zda tutilayotganligini qayd etdilar.

Qishloq xo`jaligida kapitalning sekin aylanishi tarmoqqa investitsiyalar jalb etish imkoniyatlarini cheklaydi. Ayniqsa, qishloq xo`jaligiga xususiy ichki investitsiyalar hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi hali to'laligicha o`z yechimini topgani yo`q.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarmoqlari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan qo`yilmalarning tarkibiga nazar tashlaydigan bo`lsak, 2006-2008-yillarda qishloq va o`rmon xo`jaligiga kiritilgan kapital qo`yilmalar jamiga nisbatan 5-6 foiz atrofida bo`lganini ko`rish mumkin (25-jadval).

## Iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha 2006-2008-yillar uchun kapital qo`yilmalarning tarkibi, (mlrd. so`mda)

№	Iqtisodiyot tarmoqlari	2006-yil		2007-yil		2008 yil	
		qiymati, mlrd. so`m	jamiga nisb., % da	qiymati, mlrd. so`m	jamiga nisb., % da	qiymati, mlrd. so`m	jamiga nisb., foizda
I.	Ishlab chiqarish qurilishi, jami	2796,2	69,2	3913,0	73,1	5334,3	74,7
	Shu jumladan:						
1.1.	Yoqilg`i-energetik majmuasi	602,1	21,53	1841,4	47,0	2577,9	48,33
1.2.	Metallurgiya	222,2	7,95	455,0	11,6	635,5	11,9
1.3.	Kimyo sanoati	97,0	3,47	58,9	1,5	135,7	2,54
1.4.	Mashinasozlik	56,6	2,03	26,8	0,7	64,3	1,2
1.5.	Yengil va mahalliy sanoati	169,7	6,07	347,9	8,9	514,1	9,63
1.6.	Oziq-ovqat sanoati	92,9	3,32	117,8	3,0	35,7	0,7
1.7.	Qishloq va o`rmon xo`jaligi	173,8	6,22	198,1	5,06	328,5	6,15
1.8.	Transpport va aloqa	836,4	29,9	647,7	16,5	692,7	13,0
1.9.	Qurilish materiallar sanoati va qurilish industriyasi	105,1	3,76	53,5	1,36	121,4	2,27
1.10.	Boshqa tarmoqlar	440,4	15,74	171,3	4,38	228,5	4,28
II.	Noishlab chiqarish qurilishi	1252,6	30,8	1440,0	26,9	1806,7	25,3
	Jami	4040,7	100	5353,0	100	7141,0	100

Manba : O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

Mamlakatda, xususan, qishloq xo`jaligida investitsiya faoliyatining rivojlanishi investitsiyalarni jalg etish uchun yaratilgan investitsiya muhitiga bog`liqligi sababli chet el va ichki investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalg etish uchun qulay investitsiya shart-sharoitlarini, jumladan, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish zarur. Qulay investitsiya muhiti o`z ichiga quyidagi shartlarni oladi:

- siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikning mavjudligi;
- investorlar huquqlarining kafolatlanishi;
- soliq va bojxona to`lovlari bo`yicha imtiyoz va afzalliklarning mavjudligi;
- xalqaro standartlarga javob beradigan moliya-hisob tizimi yo`lga qo`yilganligi;
- ishlab chiqarish uchun zarur infratuzilmalarning taraqqiy etganlik darajasi;
- minerallar va xomashyo asosi mavjudligi;
- malakali va arzon ish kuchidan foydalanish imkoniyatlari;
- qulay geografik joylashuv va zamonaviy transportirovka tizimining shakllanganligi.

Qishloq xo`jaligiga ichki investitsiyalarni jalg etishda quyidagi muammolar ko`zga tashlanadi:

- qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarida investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda kredit uchun garov ta'minotining yetarli emasligi;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarining chuqr olib borilmasligi;
- moliyalashtirishning muqobil usullaridan (lizing, faktoring, qimmatli kog`ozlar bozori) sust foydalanish;
- investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini sifatsiz tayyorlanishi;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda malakali mutaxassislarning yetishmasligi va boshqalar.
- investitsiya infratuzilmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi;
- tadbirkorlarning biznes-ko`nikmalari, shu jumladan investitsiya loyihalari bilan ishslash tajribasi va huquqiy bilimlari yetarli emasligi;
- loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoli og`irligi;
- mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to`g`risida batafsil ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol emasligi va boshqalar.

Bu muammolarning mavjudligi tarmoqqa ichki va xorijiy investitsiyalarni jalg etish imkoniyatlarni cheklaydi. O`zbekiston Respublikasining 2008-yilgi hududiy investitsion dasturida belgilangan qiymati 5 010 137,6 ming AQSh dollariga teng 188 ta loyihaning 10 tasi qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan bo`lib, bu loyihalarning qiymati 84 754,7 ming AQSh dollarini tashkil etgan (26-jadval).

## 26-jadval

O`zbekiston Respublikasining hududiy investitsion dasturida investitsiyalar tarmoqlar bo`yicha taqsimlanishi

Loyihalar soni	Yo`nalishi	Loyiha qiymati (ming AQSh doll.)	2008-yil 1-yanvar holatiga qoldiq (ming AQSh doll.)	2008-yil proqnozi (ming AQSh doll.)	Moliyalashtirish manbalari			Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln. so`m)	shu jumladan eksportga (ming AQSh doll.)	Yaratiladi-gan ishchi o`rinlari soni	
					o`z mablag`lari (ming AQSh doll.)	to`g`ridan-to`g`iri xorijiy investitsiyalar (ming AQSh doll.)	xorijiy kreditlar (ming AQSh doll.)				
<b>188</b>	<b>Respublika bo`yicha</b>	<b>5010137,6</b>	<b>3664037,1</b>	<b>839433,8</b>	<b>16388,8</b>	<b>733319,2</b>	<b>86875,4</b>	<b>2850,4</b>	<b>671843,0</b>	<b>221585,7</b>	<b>18803,0</b>
10	Yog`ochni qayta ishlash	12918,4	11270,4	10770,8	-	9978,4	792,4	-	16900,5	57,0	667,0
17	Yengil sanoat	8786,0	6551,0	6028,9	357,6	4591,5	982,1	97,7	11804,5	1900,0	337,0
5	Mashinasozlik	9200,0	8890,0	8890,0	100,0	8790,0	-	-	80978,1	4500,0	285,0
8	Neft va gaz sanoati	3360466,6	2264326,6	396056,6	102,4	394355,0	1599,2	-	19233,0	-	35,0
6	Meva-sabzovotni qayta ishlash	45375,0	45125,0	2825,0	533,0	1675,0	297,0	320,0	18316,9	8750,0	653,0
11	Oziq-ovqat sanoati	11293,6	9540,1	9494,1	140,3	6060,5	3293,3	-	18696,0	490,0	926,0
6	Infratuzilmani rivojlantirish	212479,0	93449,0	44219,0	-	34220,0	9999,0	-	14500,0	250,0	349,0
10	Qishloq xo`jaligi	84754,7	63290,7	37056,0	580,0	2676,0	33400,0	400,0	39450,0	-	1475,0
31	Qurilish materiallari ishlab chiqarish	903748,5	879440,5	151232,5	2379,2	143169,6	5279,2	404,5	55006,0	8059,0	1587,0
50	To`qimachilik sanoati	285651,0	245765,7	137606,5	6399,5	101852,5	29054,5	300,0	325272,3	166354,9	11081,0
2	Savdo	4403,0	2893,0	2893,0	28,0	2865,0	-	-	9710,0	-	40,0
5	Og`ir sanoat	16050,0	4706,3	8706,3	4000,0	4706,3	-	-	13720,7	30539,0	87,0
11	Xizmat ko`rsatish	19708,4	14008,4	9508,4	730,0	6644,0	1485,4	649,0	22460,5	100,0	501,0
3	Farmatsevtika	1588,5	1188,5	1188,5	250,3	695,0	-	243,2	1590,0	176,0	105,0
9	Kimyo sanoati	5428,9	4605,9	3972,2	714,0	2164,9	693,3	400,0	9501,5	408,2	385,0
4	Elektrotexnika sanoati	28286,0	8986,0	8986,0	74,5	8875,5	-	36,0	14703,0	1,6	290,0

Manba : O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

Bu loyihalarning 580,0 ming AQSh dollari qishloq xo`jaligi korxonalarining o`z mablag`lari, 2676,0 ming AQSh dollari to`g`ridan-to`g`ri xorijiy kredit liniyalari, 33 400,0 ming AQSh dollari xorijiy kreditlar va 400,0 ming AQSh dollari mahalliy kreditlar hisobidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo`jaligiga investitsiyalar jalb etish tizimini takomillashtirish quyidagi yo`nalishlarda takomillashtirish lozim:

- banklar, investitsiya fondlari, sug`urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag`batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo`lga qo`yish;
- hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko`rsatuvchi markazlar tashkil etish va foliyatini rivojlantirish;
- investitsiya takliflari tashabbuskorlariga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas`ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko`rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish;
- investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilish;
- xorijiy investorlarni to`laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar asosi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil, xomashyo va mehnat salohiyati to`g`risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash.

Keyingi yillarda qishloq xo`jaligiga maqsadli davlat dasturlari orqali davlat investitsiyalarining ahamiyati oshib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga muvofiq sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat budgetidan mablag`lar ajratilmoqda. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirish tizimini shakllantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi “Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi” tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Melioratsiya sohasidagi tadbirlarning loyihalarni moliyalashtirish uchun 2008-2012-yillar jami 604,2 mlrd. so`m mablag` yo`naltirilishi ko`zda tutilgan. 2008-yilda davlatning investitsiya dasturi doirasida 75,0 mlrd. so`m mablag`ni o`zlashtirish rejalashtirilib, shundan meliorativ obyektlarda qurish va qayta tiklash ishlari uchun 25 mlrd. so`m, ta`mirlash, qayta tiklash va tozalash ishlari uchun 15 mlrd. so`m hamda mavjud meliorativ texnikalar asosini yangilashga 35 mlrd. so`m mablag` yo`naltirildi.

“Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi” mablag`lari hisobidan 2009-yilga mo`ljallangan markazlashgan kapital qo`yilmalar limitida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadlari uchun jami 82 710, mln. so`m ajratilishi ko`zda tutilgan (27-jadval).

“Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi” mablag`lari hisobidan 2009-yilga mo`ljallangan markazlashgan kapital qo`yilmalar limiti

Mablag`larni ishlatish yo`nalishlari	O`lchov birligi	Quvvati	Qiymati, mln.sum
Jami, sh.j.			82710,0
1. Kollektorlar qurilishi va qayta ta`mirlanishiga, jami:	km	579,2	34895,7
shundan:			
- magistral kollektorlar	km	55,4	6913,2
- tumanlararo kollektorlar	km	227,4	14844,0
- xo`jaliklararo kollektorlar	km	296,4	13138,5
2. Yopiq gorizontal drenaj tarmoqlarini tiklash	km	233,0	2743,7
3. Meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta ta`mirlash	dona	12	6236,8
4. Meliorativ quduqlarni qurish va qayta ta`mirlash	dona	208	8002,0
5. Kuzatuv quduqlarini qurish	dona	485	192,5
6. Gidrotexnik qurilmalarni qurish va qayta ta`mirlash	dona	6	3339,2
<b>Jami</b>			<b>55410,0</b>
Suv xo`jaligi qurilishi tashkilotlari va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnika asosini yaxshilash			<b>27300,0</b>

Manba: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-oktabrdagi PQ-969-sonli «O`zbekiston Respublikasining 2009-yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida” gi qaroriga 7-ilova.

Bu mablag`larning 34895,7 mln. so`mi kollektorlar qurilishi va qayta ta`mirlanishiga, 2743,7 mln. so`mi yopiq gorizontal drenaj tarmoqlarini tiklashga, 6236,8 mln. so`mi meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta ta`mirlashga, 8002,0 mln. so`mi meliorativ quduqlarni qurish va qayta ta`mirlashga, 192,5 mln. so`mi kuzatuv quduqlarini qurishga, 3339,2 mln. so`mi gidrotexnik qurilmalarni qurish va qayta ta`mirlashga sarflanishi rejallashtirilgan.

### Qisqacha xulosalar

Fermer va dehqon xo`jaliklarini rivojlantirishda ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etishning ahamiyati beqiyosdir. Investitsiya lotincha “investor” so`zidan olingan bo`lib, mablag` sarflamoqni, ya`ni kapital xarajatlarning hajmi, tarkibi va uning asosiy yo`nalishlarini ifoda etadi. Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish degan ma`noni anglatadi.

O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi 719-I-sonli “**Investitsiya faoliyati to`g`risida**”gi qonunining 2-bandiga muvofiq: ”**investitsiyalar** - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlardan iborat”.

Investitsiyalar mo`ljallangan obyektiga ko`ra **kapital, innovatsiya** va **ijtimoiy investitsiyalarga** bo`linadi.

**Kapital** investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Innovatsiya investitsiyalari** jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o`zlashtirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Ijtimoiy investitsiyalar** jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Mulkchilik shakliga** ko`ra davlatning investitsion dasturlari orqali iqtisodiyotning strategik obyektlarini rivojlantirish maqsadida kiritiladigan **davlat investitsiyalari** va xususiy mulk egalari tomonidan kiritiladigan **xususiy investitsiyalar** mavjud.

**Hududiy mansubligiga ko`ra** mamlakatning ichki investorlari tomonidan kiritiladigan **milliy investitsiyalar** va chet el fuqarolari tomonidan kiritiladigan **xorijiy investitsiyalarni** ajratib ko`rsatish mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Investitsiya va investitsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiyalarni amalga oshirish turlari qanday turkumlanadi?
3. Kimlar investor hisoblanadi?
4. Investitsiya obyekti va resurslari nimalardan iborat?
5. Chet el investitsiyalarini jalb etish mexanizmi qanday tartibga solinadi?
6. Chet ellik investorlar huquqlarini himoya qilish va kafolatlash mexanizmi nimalarni o`z ichiga oladi?
7. Chet ellik investorlarga qanday imtiyozlar belgilangan?
8. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash mexanizmi qanday?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi 719-I-sonli “**Investitsiya faoliyati to`g`risida**”gi Qonuni.
2. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 609-I-sonli «Chet el investitsiyalari to`g`risida»gi Qonuni.
3. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 611-I-sonli «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida»gi Qonuni.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli “To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo`srimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmoni.

5. Abdug`aniyev A., Abdug`anyev A.A. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. -T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.
6. Лахметкина Н.И. Инновационная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006.

## **IV bob. FERMER XO`JALIGI FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI**

### **14.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni**

Har qanday xo`jalik yuritish shaklining muayyan bir ijtimoiy- iqtisodiy tizimda vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biri uning samaradorligi darajasi bilan belgilanadi. Samarali xo`jalik yuritish raqobatli bozor muhitida xo`jalikning yashovchanligi va taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar (yer, kapital, mehnat va boshqalar) cheklangan xarakterga ega bo`lib, bu holat ulardan imkonlari boricha unumli, samarali foydalanishni talab etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi - juda murakkab iqtisodiy kategoriya. U obyektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi – natijani, ya’ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu keng tushuncha bo`lib, har qanday tadbir yoki faoliyatning natijasida, o`g`itlardan foydalanish samarasi, ekinlar hosildorligi oshishida, yem-xashak samarasi, chorva mahsuldorligi oshishida ifodalanadi. Ammo bu samara, ya’ni hosildorlik va mahsuldorlikning oshishi bu tadbirlar qanchalik foydalilagini ko`rsatmaydi. O`g`it va yem-xashaklardan foydalanish bilan bog`liq xarajatlarning qoplanganlik darajasi shu xarajatlar bilan olingan natija daromad bilan taqqoslangandagina ma’lum bo`ladi. O`g`it va yem-xashakdan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligi, chorva mollari mahsuldorligini oshushi bu tadbirni texnik samaradorligini ifoda qilsa, tadbirni o`tkazish bilan bog`liq xarajatlar bilan, buning natijasida olingan daromadni taqqoslash iqtisodiy samaradorlikni ifodalaydi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo`llash orqali olingan foydali natijani yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi. U yoki bu tadbirga baho berishda yoki uning o`lchamlarini aniqlashda iqtisodiy samaradorlik mezonini bilish kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona to`la iqtisodiy va huquqiy mustaqillikka ega bo`lganligi uchun asosiy maqsadi o`ziga biriktirilgan resurslardan to`la va samarali foydalanishga qaratilgan bo`lib, shu resurslar birligiga qancha ko`p daromad va foyda olsa, raqobat kurashida shuncha ustunlikka ega bo`ladi.

Fermer xo`jaligi faoliyatini baholashda iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezoni sifatida xo`jalik jami xarajatlari birligiga olingan sof foydani qo`llash maqsadga muvofiqli. Sof foyda kategoriyasining afzalligi shundaki, bunda ham mahsulot miqdori, sifati, qanday bozorda va qanday bahoda sotilganligi, moddiy va davr xarajatlari qanchalik tejalganligi o`z aksini topadi. Fermer xo`jaligi qancha ko`p olishga erishsa, turli to`lovlarni (soliq va yig`imlar) to`lagandan so`ng o`z ehtiyojlarini ko`proq qondirishga, xo`jalikni kengaytirishga imkon beradigan mablag`ga ega bo`ladi.

## **14.2. Iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari**

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda fermer xo`jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beruvchi mezon va ko`rsatkichlar tizimini bozor munosabatlari mazmuniga mos ravishda ko`rib chiqish lozim.

Sobiq ittifoq tuzumida korxonalar markazlashgan usulda boshqarilib, ular faoliyatining muhim tomonlari (rejalashtirish, baho belgilash, mahsulotlarni sotish, moddiy- texnika ta'minoti va boshq.) tegishli davlat idoralari tomonidan belgilangani sababli, qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga asosan ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashib baho berilgan, ya`ni ishlab chiqarishdagi "xarajatlar-natija" nisbati asos qilib olingan.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida korxonalarga keng xo`jalik yuritish mustaqilligi berilishi bilan, ular nafaqat ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etadigan bo`ldilar, balki, o`z mahsulotlariga xaridorlarni hamda ta'minotchilarni mustaqil tanlash, moliya bozorlarida ishtirok etish hamda soliq va boshqa to`lovlarini to`lagandan so`ng foyda miqdorini erkin taqsimlash imkoniyatiga ega bo`ldilar. Bunday sharoitda korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini faqatgina ishlab chiqarish natijalari bilan baholab bo`lmaydi, chunki bozor sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni manfaatli asosda sota olish hamda moliyaviy faoliyat natijalari ham korxona samaradorligiga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Agar fermer xo`jaligining to`lov qobiliyati va ishonchliligi yuqori bo`lsa, uning uchun turli sohalarda sheriklarni izlab topish va kreditlar jalb etish oson kechadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorligiga baho berishdan manfaatdor bo`lgan tomonlar ko`p bo`lib, ularni shartli ravishda quyidagicha bo`lish mumkin:

- birinchi navbatda xo`jalik mulkdorlari bozordagi kuchli raqobat muhitiga bardosh berish hamda zarur moliyaviy natijalarga erishish maqsadida;
- mayjud va potensial kreditorlar qarz berish yoki bermaslik, kredit shartlarini belgilash va uni qaytarish kafolatlarini kuchaytirish, qarzni qaytarish muddatini cho`zish yoki cho`zmaslik masalalarini to`g`ri hal etish maqsadida;
- xo`jalik bilan oldi-sotdi munosabatlari kirishuvchi boshqa korxonalar hamkor sifatida uning ishonchlilagini baholash maqsadida;
- soliq organi soliq to`lovlarini to`g`ri hisoblash va o`z vaqtida budgetga undirish maqsadida;
- auditorlar, huquqshunoslar, davlat boshqaruvi va qonun chiqaruvchi organlar, fermerlar uyushmasi va boshqa bilvosita manfaatdor tomonlar.

Fermer xo`jaligi mulkdorlari manfaatlari tomonidan yondoshganda, yerdan, asosiy va aylanma fondlardan unumli foydalanish, ekinlar hosildorligi, chorva mollari mahsuldarligi, ishlab chiqarish xarajatlari sarfi, mehnat unumdarligi, foyda va rentabellik ko`rsatkichlari muhim bo`lsa, tashqi sheriklar va kreditorlar xo`jalikning to`lovga qobiliyati, kapital tarkibi, ish faolligi va rentabellik ko`rsatkichlariga asosiy e'tiborni qaratadilar (32-chizma).

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda manfaat turlari

va ularning mazmunidan kelib chiqib, shunga mos mezon va ko`rsatkichlar tizimidan foydalanish to`g`ri bo`ladi.

Fermer xo`jaliklari bir xil mehnat sarf qilgan holda turli shakllarda va turli yillarda turli natijalarga erishishi mumkin. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga baho berishda hamma ko`rsatkichlarni ikki guruhga: **natural** va **qiymat ko`rsatkichlariga** bo`lish mumkin.

**Natural ko`rsatkichlar** iqtisodiy samaradorlikni bevosita ifoda qilmasada, bu ko`rsatkichlarsiz tadbirga to`la baho berib bo`lmaydi. Chunki natura ko`rsatkichlari jarayonning intensivligini ifodalaydi. Shuning uchun ekinlar hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirish, yerdan foydalanish ko`rsatkichini yaxshilash, traktor va mashinalarning yillik ish yuklamasini oshirish fermer xo`jaligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fermer xo`jaligida olingan mahsulot va daromad turli ishlab chiqarish omillarining o`zaro integral (funksional) aloqasi natijasi bo`lganligi uchun qiymat ko`rsatkichlaridan foydalaniladi. **Qiymat ko`rsatkichlari** nafaqat o`lchov vazifasini o`taydi, shu bilan birga iqtisodiy mazmunga ega bo`lib, tovar-pul munosabatlarini ham ifoda etadi.

Iqtisodiy samaradorlikni fermer xo`jaligi manfaatlari tomonidan ifoda etuvchi qiymat ko`rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

### **1. *Yalpi mahsulotni shu mahsulotni yetishtirish uchun sarflangan jonli va buyumlashgan xarajatlar qiymatiga nisbati:***

$$ISyam = \frac{YaM}{IX + K \times AF};$$

Bu yerda:  $ISyam$  – yalpi mahsulotga nisbatan iqtisodiy samara;

$YaM$  – yalpi mahsulot qiymati;

$IX$  – joriy ishlab chiqarish xarajatlari;

$K$  – asosiy fondlardan foydalanish koeffitsiyenti;

$AF$  – fermer xo`jaligining asosiy fondlari.

Yalpi mahsulot korxona xo`jalik hisobi faoliyati uchun joriy baholarda ma'lum tahliliy xulosalar chiqarish, mavjud resurslardan (mehnat, moddiy v.h.) foydalanish dimanikasini aniqlash maqsadida qiyosiy, ya'ni taqqoslama baholarda hisobga olib boriladi. Bu formula mahsulot yetishtirish uchun xo`jalik qancha kam joriy sarf-xarajat va asosiy fondlarni jalb qilgan bo`lsa, shu xarajatlar birligiga ko`proq mahsulot yetishtirganligini ifodalaydi.

## Fermer xo`jaligining iqtisodiy samaradorligi ko`rsatkichlari tizimi

	<b>Ko`rsatkichlar</b>
<b>1.</b>	<b>Yerdan foydalanish ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ekin turlari bo`yicha hosildorlik</li> <li>- 1 ga ekin maydonidan yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda</li> <li>- yerdan foydalanish koeffitsiyenti</li> </ul>
<b>2.</b>	<b>Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fond qaytimi</li> <li>- fond sig`imi</li> <li>- foyda me`yori ( asosiy va aylanma fondlarga nisbatan)</li> <li>- aylanma fondlar aylanishi koeffitsiyenti</li> <li>- bir traktor va avtomashinaning yillik ish yuklamasi</li> </ul>
<b>3.</b>	<b>Chorva mollari mahsuldarligi ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bir bosh sigirdan olingen yillik o`rtacha sut miqdori</li> <li>- boquvdagi mollarning sutkalik vazn ortishi</li> <li>- so`yishdagи mollarning tirik vazni</li> <li>- ona hayvonlardan bola olish darajasi</li> <li>- bir bosh tovuqdan olingen yillik tuxum miqdori</li> <li>- bir bosh qo`ydan olingen yillik jun miqdori</li> <li>- 1 sentner ozuqa birligiga yetishtirilgan chorva mahsuloti</li> <li>- 1 sentner vazn ortishiga yoki 1 sentner sutga ozuqa sarfi</li> </ul>
<b>4.</b>	<b>Mehnat unumdarligi ko`rsatkichlari :</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1 sentner maxsulotga mehnat sarfi</li> <li>- 1 hektar yerga mehnat sarfi</li> <li>- o`rtacha bir ishlovchiga yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda</li> <li>- bir birlik mehnat sarfiga yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda</li> </ul>
<b>5.</b>	<b>Xarajatlar sarfi ko`rsatkichlari:</b> mahsulotlar tannarxi <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1 hektar yerga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari</li> <li>- 1 bosh chorva molni boqish xarajatlari</li> <li>- 1 so`mlik ishlab chiqarish xarajatiga yalpi mahsulot, yalpi foyda</li> </ul>
<b>6.</b>	<b>Kapital tarkibi ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti</li> <li>- mulk koeffitsiyenti</li> <li>- kreditorlarning himoyalanganligi koeffitsiyenti</li> </ul>
<b>7.</b>	<b>To`lovga qobililik (likvidlik) ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sof aylanma kapital</li> <li>- joriy likvidlik koeffitsiyenti</li> <li>- tezkor likvidlik koeffitsityenti</li> <li>- absolyut likvidlik koeffitsiyenti</li> </ul>
<b>8.</b>	<b>Ish faolligi ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aktivlarning aylanishi</li> <li>- debitorlik qarzlari aylanishi</li> <li>- kreditorlik qarzlari aylanishi</li> <li>- moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari aylanishi</li> </ul>
<b>9.</b>	<b>Rentabellik ko`rsatkichlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aktivlar rentabelligi</li> <li>- mahsulot sotish rentabelligi</li> <li>- xususiy kapital rentabelligi</li> <li>- tannarxga nisbatan rentabellik darajasi</li> </ul>

Masalan, fermer xo`jaligi 2001-yilda 50 mln.so`mlik yalpi mahsulot yetishtirgan. Joriy xarajatlar asosiy vositalarni amortizatsiyasidan tashqari 30 mln.so`mni tashkil qilgan. Asosiy fondlar qiymati jami 60 mln.so`mni tashkil etgan bo`lsa, fermer xo`jaligida jami sarflarning bir so`miga yetishtirilgan yalpi mahsulot – 1,3 so`mni tashkil etadi.

$$IS_{yam} = \frac{50 \text{ mln}}{30 \text{ mln} + 0,14 * 60} = \frac{50 \text{ mln}}{30 \text{ mln} + 8,4 \text{ mln}} = \frac{50}{38,4} = 1,3$$

Asosiy fondlar va kapital sarflardan foydalanish yoki investitsiya samaradorlik koeffitsiyentining me'yoriy darajasi xalq xo`jaligi uchun 0,14 qilib qabul qilingan. Shu me'yoriy darajaga ko`ra xarajatlarni bir xillik o`lchovga keltirish uchun shu koeffitsiyentdan foydalaniladi.

## **2. Yalpi foydaning uni yaratgan sarf-xarajatlarga nisbati:**

$$IS_{yaf} = \frac{YAF}{IX + K \times AF};$$

Bu yerda:  $YAF$  – fermer xo`jligining yalpi foydasi;

Yalpi foyda (korxonani sof mahsuloti) hamma shaklidagi korxonalar uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki bu foyda ham iste'mol, ham korxonani kengaytirish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun asosiy mablag` manbai hisoblanadi. Yalpi foyda miqdori fermer xo`jligining yalpi mahsuloti hajmidan shu mahsulotni yetishtirish uchun ketgan material va xizmatlar qiymatini chegaralab tashlash orqali aniqlanadi.

Masalan, fermer xo`jligining 2001-yilga yalpi mahsuloti qiymati 50 mln.so`mni tashkil etib, sarflangan material xarajatlari (urug`lik, yoqilg`i, yem-xashak), transport va boshqa xizmatlar qiymati – 20 mln.so`m bo`lgan bo`lsa, unda xo`jalikning yalpi foydasi 30 mln.(50mln-20mln)so`mni tashkil etadi. Bunda:  $IS_{yaf} = \frac{30}{30 + 0,14 * 60} = \frac{30}{38,4} = 0,78$  so`m ya'ni 1 so`mlik jami tenglashtirilgan xarajatlarga yetishtirilgan yalpi foyda 0,78 so`mni tashkil qiladi.

## **3. Sof foydaning uni yaratgan jami sarf-xarajatlarga nisbati:**

$$IS_{sf} = \frac{SF}{IT - DX - MX - FZ - S};$$

Bu yerda:  $SF$  – fermer xo`jligining sof foydasi;

$IT$  – mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

$DX$  – davr xarajatlari;

$MX$  – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

$FZ$  – favqulodda zararlar;

$S$  – to`langan turli soliqlar.

**4. Mehnat unumдорлигি.** Bu ko`rsatkich fermer xo`jaligida mehnat samaradorligini ko`rsatadi. Fermer xo`jaligida o`rtacha yillik xodim, sarflangan kishi-kuni, kishi-soatiga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi foyda, 1 sentner mahsulot yetishtirish yoki 1 hektar yerga mehnat sarfi miqdori bilan ifodalanadi.

**5. Xarajatlar sarfi ko`rsatkichlari.** Bu ko`rsatkichlar fermer xo`jaligi faoliyatiga iqtisodiy baho berishda juda katta ahamiyatga ega bo`lib, bir birlik yetishtirilgan mahsulotga qancha joriy xarajatlar qilinganligini ifoda etadi. Erkin

raqobat amal qilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona mahsulotining narxi bozor bahosiga katta ta'sir etolmaydi. Ammo yetishtirayotgan mahsulotiga qilinayotgan xarajatlar darajasi, ya'ni **mahsulot tannarxi** korxona faoliyatiga bevosita bog`liq.

Shuningdek, 1 gektar yerga va 1 bosh chorva molini boqishga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarini har tomonlama pasaytirish, korxona xarajatlarini kamaytiradigan texnologiyalarni qo'llash, ekinlar hosildorligi, chorva mahsuldorligi o'sishini ta'minlash, mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirish tannarx pasayishiga va natijada yalpi daromad hamda foyda oshishiga olib keladi.

**6. *Ishlab chiqarish resurslaridan (yer, asosiy va aylanma fondlardan) samarali foydalanish ko`rsatkichlari.*** Bu ko`rsatkichlarga 1 gektar qishloq xo`jaligiga yaroqli yerga (ekin maydoniga) yetishtirilgan yalpi mahsulot, yalpi foyda va sof foyda, 1 so`mlik asosiy fondlar evaziga yetishtirilgan yalpi mahsulot. Yalpi foyda va sof foyda (fond qaytimi) yoki 1 so`mlik yalpi mahsulotga to`g`ri keladigan fondlar (fond sig`imi), aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti va boshqalarini keltirish mumkin.

### 14.3. Moliyaviy barqarorlik ko`rsatkichlari

Fermer xo`jaligi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi u bilan hamkorlik qiluvchi tashqi subyektlar, ya'ni moddiy-texnika ta'minoti korxonalar, turli ish va xizmatlar ko`rsatuvchi korxonalar, mahsulot sotishga ko`maklashuvchi, tayyorlov va qayta ishslash korxonalar, kreditorlar va investorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tashqi subyektlar birinchi navbatda xo`jalikning moliyaviy holatini ifoda etuvchi ko`rsatkichlarga e'tibor qaratadilar. Bu ko`rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kapital tarkibi ko`rsatkichlari;
- to`lovga qobililik (likvidlik) ko`rsatkichlari;
- ish faolligi ko`rsatkichlari;
- rentabellik ko`rsatkichlari.

**1. Kapital tarkibi ko`rsatkichlari** korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy mablag`lar (qo`yilmalar) kiritgan kreditorlar va investorlarning himoyalanish darajasini aks ettiradi. U korxonaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

**1.1. Mulk koeffitsiyenti ( $K_m$ )** korxona jami kapitalida o`z xususiy kapitalining ulushini ko`rsatadi:

$$K_m = \frac{XK}{JA_{yk}}$$

Bu yerda:  $XK$  – korxonaning xususiy kapitali qiymati;

$JA_{yk}$  – korxona jami aktivlarining yillik qiymati.

**1.2. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti ( $K_{mk}$ )** korxonaning tashqi qarzlarga bog`liqlik darajasini ifodalaydi:

$$K_{mk} = \frac{KK}{XK}$$

Bu yerda:  $KK$  – qarz evaziga jalb etilgan kapital qiymati;  
 $XK$  – korxonaning xususiy kapitali qiymati.

Bu ko`rsatkich qancha yuqori bo`lsa, korxonaning qarzlari shuncha ko`p va bankrotlik xatari shuncha yuqori bo`ladi. Raqobatli bozor muhitida bu ko`rsatkich birdan yuqori bo`lmasligi maqsadga muvofiq.

**1.3. Qarzdorlik koeffitsiyenti ( $K_q$ )** korxonaning jami aktivlari summasidan kreditorlarga to`lanishi lozim pul mablag`lari hajmini ifodalaydi:

$$K_q = \frac{KK}{JA_{yk}}$$

Bu yerda:  $KK$  – qarz evaziga jalb etilgan kapital qiymati;  
 $JA_{yk}$  – jami aktivlarning qiymati.

Bu ko`rsatkich qancha yuqori bo`lsa, korxonaning qarzlari shuncha ko`p va bankrotlik xatari shuncha yuqori bo`ladi. Raqobatli bozor muhitida bu ko`rsatkich 0,5 dan yuqori bo`lmasligi maqsadga muvofiq.

**1.4. Kreditorlarning himoyalanganligi koeffitsiyenti ( $K_{kx}$ )** kreditorlarning berilgan kreditlar foizlari to`lanmaslidan himoyalanganligi darajasini belgilaydi:

$$K_{kx} = \frac{STT}{FX}$$

Bu yerda:  $SF$  – soliqlar va foizlar to`langunga qadar sof foyda;  
 $FX$  – hisobot davrida foizlarni to`lash xarajatlari.

Bu ko`rsatkich xo`jalikning hisobot davrida foiz xarajatlarini to`lash uchun qancha mablag` ishlab topganini ko`rsatadi va qancha yuqori bo`lsa, kreditorlar uchun shuncha muhim hisoblanadi.

**2. To`lov qobiliyati (likvidlik) ko`rsatkichlari** korxonaning kreditorlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun zarur mablag`lari nisbatini ifoda etadi. Buning uchun zarur bo`lganda tezlik bilan pul mablag`lariga aylantirish imkoniyati (likvidligi) yuqori bo`lgan aylanma mablag`lar asos qilib olinadi.

**2.1. Joriy likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{jl}$ )** korxonaning yil davomidagi qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun mablag`lari yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu koeffitsiyent 1 va 2 sonlari oralig`ida bo`lishi maqsadga muvofiq:

$$K_{jl} = \frac{PM + MK_k + DK_s + TMZ}{M_{km}}$$

Bu yerda:  $PM$  – korxonaning pul mablag`lari;  
 $MK_k$  – qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalar;  
 $DK_s$  – sof debitorlik qarzi;  
 $TMZ$  – tovar-moddiy zaxiralari;  
 $M_{km}$  – korxonaning qisqa muddatli majburiyatlar.

**2.2. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti** ( $K_{tl}$ ) korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun likvidligi yuqoriroq mablag`lari nisbatini aks ettiradi:

$$K_{ml} = \frac{PM + MK_{\kappa} + DK_s}{M_{km}}$$

Bu ko`rsatkichning mohiyati shundan iboratki, ayrim hollarda qisqa muddatli majburiyatlarini qaytarish muddati tugab, tezda qarzni uzish zarurati tug`ilganda tovar-moddiy qiymatliklarni pulga aylantirish imkoniyati biroz chegaralangan, ya`ni uni sotish jarayoni cho`zilib ketishi mumkin. Hisob raqami va kassadagi pul mablag`lari, qisqa muddatli moliyaviy qo`yilmalar va sof debtorlik qarzlari esa nisbatan yuqori likvidli moliyaviy resurslar hisoblanadi.

**2.3. Absolut likvidlik koeffitsiyenti** ( $K_{al}$ ) korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun absolut likvidlikka ega bo`lgan pul mablag`lari nisbatini aks ettiradi:

$$K_{al} = \frac{PM}{M_{km}}$$

**2.4. Sof aylanma kapital** korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo`lgan aylanma mablag`lari nisbatini aks ettiradi:

$$SAK = JA_q - QMM$$

Bu yerda:  $SAK$  – sof aylanma kapital;

$JA_q$  – joriy aktivlar qiymati;

$QMM$  – qisqa muddatli majburiyatlar summasi.

**3. Ish faolligi koeffitsiyentlari** korxonaning o`z mablag`laridan qanchalik samarali foydalanayotganini aniqlash maqsadiga xizmat qiladi.

Ish faolligi koeffitsiyentlari korxonaning mablag`lari aylanishi tezligi, ya`ni mablag`larning pul ko`rinishiga o`tishi tezligini ifodalaydi va xo`jalikning to`lovga qobiligini ifodalovchi muhim ko`rsatkichlar sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, mablag`lar aylanishining tezlashuvi korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshishiga ham sabab bo`ladi. Ish faolligi ko`rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

**3.1. Aktivlarning aylanishi (AA)** – bu korxona aktivlariga qo`yilgan mablag`larning har bir so`mi qancha so`mlik sotilgan mahsulot qiymatini keltirganini ko`rsatadi.

$$AA = \frac{SST}{JA_{yk}}$$

Bu yerda:  $SST$  – mahsulot sotishdan sof tushum;

$JA_{yk}$  – korxona jami aktivlarining o`rtacha yillik qiymati.

**3.2. Debitorlik schyotidagi mablag`larning aylanishi (DA)** korxonada bir yilda necha marta debtorlik qarzlari undirilayotgani va pul mablag`lariga aylantirilayotganini ko`rsatadi:

$$DA = \frac{SST}{DK}$$

Bu yerda: DK – sof debitor qarzlari o`rtacha yillik qiymati.

### **3.3. Debitorlik qarzlarining o`rtacha undirilishi muddati ( $UM_{dk}$ )**

$$UM_{dk} = 365 : \frac{SST}{DK}$$

Debitor qarzlarning o`rtacha qoplanish muddati korxonaga debitorlar qarzlarni undirish uchun o`rtacha necha kun kerakligini ko`rsatadi.

### **3.4. Kreditorlik qarzlarning aylanishi (KA):**

$$KA = \frac{SMM}{KK}$$

Bu yerda:  $SMT$  – sotilgan mahsulot tannarxi;

$KK$  – mol yuboruvchilarga kreditor qarzlarning o`rtacha yillik qiymati.

Korxonaga mol yuboruvchilardan kreditorlik qarzlarini uzishi uchun necha oborot zarurligini ko`rsatadi.

### **3.5. Kreditorlik qarzlarini o`rtacha to`lash muddati ( $TM_{kq}$ ):**

$$TM_{kq} = 365 : \frac{SMM}{KK}$$

Bu yerda:  $SMT$  - sotilgan mahsulot tannarxi;

$KK$  – mol yuboruvchilarga kreditor qarzlarining o`rtacha yillik qiymati.

Kreditor qarzlarini o`rtacha to`lash muddati (kunda) xo`jalikning mol yuboruvchilardan o`z qarzini uzish uchun o`rtacha kun kerakligini ko`rsatadi.

### **3.6. Tovar - moddiy zaxiralari aylanishi (ZA):**

$$ZA = \frac{SMM}{TMZ}$$

Bu yerda:  $TMZ$  – tovar-moddiy zaxiralarining o`rtacha yillik qiymati.

Tovar-moddiy zaxiralari aylanishi moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini sotish tezligini (oborotini) ko`rsatadi.

### **3.7. Tovar - moddiy zaxiralarini o`rtacha saqlash muddati ( $O`SM_z$ ):**

$$USM_z = 365 : \frac{SMM}{TMZ}$$

Bu yerda:  $TMZ$  – tovar-moddiy zaxiralarining o`rtacha yillik qiymati.

Tovar-moddiy zaxiralarining o`rtacha saqlash muddati moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarining omborda o`rtacha necha kun turib qolayotganini ko`rsatadi.

### **3.8. Operatsiya davrining uzunligi (OTS):**

$OTS = \text{Debitor qarzlarning o`rtacha undirilishi muddati } (UM_{dk}) + \text{Tovar-moddiy zaxiralarining o`rtacha saqlash muddati } (O`SM_z)$

Operatsiya davrining uzunligi korxonaga mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va olinadigan tovar-moddiy zaxiralar uchun haq to`lashga necha kun kerakligini ko`rsatadi.

**4. Rentabellik ko`rsatkichlari** barcha korxonalar faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko`rsatkichidir.

Korxona faoliyatini tahlil qilishda foydaning umumiyligi summasi bilan birga, u qanday xarajatlar evaziga olinayotganlini, mablag`lar qanday darajada aylanayotlanligini bilish mulkdorlar, sheriklar va kreditorlar uchun o`ta ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun korxonaning moliyaviy hisobotida foydalilik darajasi va mablag`lar aylanishini ifoda etuvchi quyidagi ko`rsatkichlar aks ettiriladi:

#### 4.1. Aktivlar rentabelligi. ( $R_a$ ):

$$P_a = \frac{SF}{JA_{yk}}$$

Bu yerda:  $SF$  – sof foyda;

$JA_{yk}$  – korxona jami aktivlarining o`rtacha yillik qiymati.

Korxonaning jami aktivlari rentabelligi korxona aktivlariga qo`yilgan mablag`larning bir so`miga to`g`ri keladigan sof foyda, aktivlardan qanchalik darajada foydalanilganligini ifoda qiladi.

#### 4.2. Sotilgan mahsulot rentabelligi ( $R_{sm}$ ):

$$R_{sm} = \frac{YaF}{SST} \quad \text{yoki} \quad R_{sm} = \frac{SF}{SST}$$

Bu yerda:  $R_{sm}$  – sotilgan mahsulot rentabelligi;

$AF$  – yalpi foyda;

$SF$  – sof foyda;

$SST$  – mahsulot sotishdan sof tushum.

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so`mi qancha yalpi foyda yoki sof foyda keltirganini ko`rsatadi.

#### 4.3. Xususiy kapital rentabelligi ( $R_{xk}$ ):

$$R_{xk} = \frac{SF}{XK}$$

Bu yerda:  $SF$  – sof foyda;

$XK$  – xususiy kapital o`rtacha yillik qiymati.

Mulkdor tomonidan kiritilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlashda foydalaniladi va bu ko`rsatkich boshqa qimmatli qog`ozlarga kiritilganda olinishi mumkin bo`lgan daromad bilan solishtirish imkonini beradi.

Xususiy kapital har bir so`mi qancha sof foyda keltirganini ko`rsatadi.

**4.4. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi ( $R_{ix}$ )**, bu ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir so`miga olingan yalpi foyda yoki sof foydani ifoda qiladi. Bu ko`rsatkichdan turli mahsulotlar ishlab chiqarishning solishtirma samaradorligini aniqlashda keng foydalaniladi.

$$\text{yoki} \quad R_{ix} = \frac{YaF}{MIT}$$

Bu yerda:  $YaF$  – yalpi foyda;

*SF – sof foyda;*  
*MIT – mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.*

### **Qisqacha xulosalar**

Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi juda murakkab iqtisodiy kategoriya bo`lib, texnika va iqtisodiy samara tushunchalarini o`z ichiga oladi. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo`llash orqali olingan foydali natijani yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi. Fermer xo`jaliklari faoliyatiga iqtisodiy baho berishda yetishtirilgan yalpi daromad (sof mahsulot) asosiy mezoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va fermer xo`jaligi faoliyatiga to`g`ri va to`la baho berish uchun iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari tizimidan foydalilaniladi. Bunda asosiy ko`rsatkich sifatida bir xillikka keltirilgan jami xarajatlarning bir birligiga yetishtirilgan yalpi daromad (sof mahsulot), yalpi mahsulot, foya va rentabellik, yer, asosiy fondlar birligiga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad, mehnat unumdarligi ko`rsatkichlaridan foydalilaniladi.

**Kapital tarkibi ko`rsatkichlari** korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy mablag`lar (qo`yilmalar) kiritgan kreditor va investorlarning himoyalanish darajasini aks ettiradi. U korxonaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

**To`lov qobiliyati (likvidlik) ko`rsatkichlari** korxonaning kreditorlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo`lgan mablag`lari nisbatini ifoda etadi. Buning uchun zarur bo`lganda tezlik bilan pul mablag`lariga aylantirish imkoniyati (likvidligi) yuqori bo`lgan aylanma mablag`lar asos qilib olinadi.

**Ish faolligi koeffitsiyentlari** korxonaning o`z mablag`laridan qanchalik samarali foydalayotganini aniqlash maqsadiga xizmat qiladi. Ish faolligi koeffitsiyentlari korxonaning mablag`lari aylanishi tezligi, ya`ni mablag`larning pul ko`rinishiga o`tishi tezligini ifodalaydi va xo`jalikning to`lovga qobiligini ifodalovchi muhim ko`rsatkichlar sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, mablag`lar aylanishining tezlashuvi korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshishiga ham sabab bo`ladi.

**Rentabellik ko`rsatkichlari** barcha korxonalar faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko`rsatkichidir. Korxona faoliyatini tahlil qilishda foydaning umumiyligi summasi bilan birga, u qanday xarajatlar evaziga olinayotganli, mablag`lar qanday darajada aylanayotlanligini bilish mulkdorlar, sheriklar va kreditorlar uchun o`ta ahamiyatli hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik nima?
2. Iqtisodiy samaradorlik mezoni deganda nima tushuniladi?
3. Iqtisodiy samaradorlikning ko`rsatkichlar tizimi qanday ko`rsatkichlarni o`z ichiga oladi?

4. Kapital tarkibi ko`rsatkichlari tizimi qanday ko`rsatkichlarni o`z ichiga oladi?
5. To`lovga qobililik ko`rsatkichlari qanday aniqlanadi?
6. Ish faolligi ko`rsatkichlari qanday aniqlanadi?
7. Rentabellik ko`rsatkichlari qanday aniqlanadi?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining «Fermer xo`jaligi to`g`risida» gi qonuni. –T., 2004.
2. Salimov B.T. va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. –T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.
3. Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. –T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.
4. Husanov R.H., Qosimov M. Dehqon xo`jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. – T.: Cho`lon, 2000.
5. Samatov G`A. va boshq. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. - T.: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.

## **XV bob. FERMER XO`JALIKLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASH**

### **15.1. Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish zarurati va o`ziga xos xususiyatlari**

Qishloq xo`jaligi korxonalarli faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash zaruratini dastavval mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri - qishloq xo`jaligi va uning o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liq holda qarash maqsadga muvofiqdir.

Erkin bozor tarafidori agrar sohaga xos bo`lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo`jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo`lgan tabiiy – biotexnologik omillar fermerdan mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munsabatlari amal qilishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud degan g`oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha bozorning o`z-o`zini tartibga sola olish xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zarurat ham yo`q. Mustaqil xo`jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermer xo`jaliklarining yuksak sur`atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, respublikamiz bozor munosabatlariiga o`ta boshlaganidan beri o`tgan davr saboqlari hamda ilg`or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo`jaligini davlatning faol aralashuviziz rivojlanirib bo`lmasligini ko`rsatmoqda. Mutaxassislarining fikricha: «...bozor mexanizmi agrar sohada ham hamma masalalarni hal qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning agrar sektori bozor sharoitida alohida o`rin tutadi va davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanmasdan turib sohalararo raqobatga bardosh bera olmaydi»<sup>1</sup>.

Amerikalik iqtisodchi – olimlar K.R. Makkonnell va S.L. Bryu davlatning agrar sohaga faol aralashuvni zaruratini quyidagi muammolarga bog`laydilar:

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari bo`lgan talabning noelastikligi;
- texnik rivojlanish natijasida fermerlar mahsulotlarining talabdan oshiqcha ishlab chiqarilishi;
- qishloq xo`jaligi resurslarining nisbatan immobillik xususiyati;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat kurashi hukm surgan holda, unga resurslar yetkazib beruvchi bozorlarda monopoliya elementlarining mavjudligi.

Shu tufayli ham agrar sohani davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash har bir rivojlangan mamlakatlar hukumatlarining diqqat markazida turadi. Masalan, AQShda fermerlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha davlat dasturlari 1930-yillardan beri amalga oshirib kelinadi va ular o`z ichiga quyidagi masalalarni qamrab oladi:

1. Fermer mahsulotlari bahosi, ishlab chiqarish hajmi va daromadlar.
2. Tuproq va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish.
3. Qishloq xo`jaligiga oid ilmiy-tadqiqotlar.
4. Fermerlarni kredit bilan ta'minlash tizimi.

<sup>1</sup> Husanov R.H, Qosimova M. Dehqon xo`jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. - T.: Cho`lpon, 2000, 74-b.

5. Fermerlar ishlab chiqarishni turli tabiiy ofat va favqulodda holatlardan sug`urtalash<sup>2</sup>.

Qishloq xo`jaligi murakkab biotexnik texnologik hamda ijtimoiy -iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagи omillar bilan birgalikda yer, suv, o`simlik va chorva mollari organizm, yorug`lik. Issiqlik, havo, tabiiy iqlim va geografik joylashuvi kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayoni turli tavsifdagi ushbu omillar uyg`unlashib ketadi.

Fermer xo`jaligi qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining bir shakli sifatida ushbu tarmoqqa xos bo`lgan barcha omillar ta`sirida rivojlanib boradi.

Ishlab chiqarish – xo`jalik faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi fermer xo`jaligining samarali faoliyat ko`rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob-havo, tabiiy iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish fermerning imkoniyatlar doirasidan tashqarida bo`lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo`lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo`jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Fermer xo`jaligi ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoiti, (jonli organizmlar geografik muhit va ob-havoga bog`liqligi ular faoliyatini rag`batlantirish va sug`urtalash kabi bir qator himoya vositalarini yaratishni talab qiladi.

Fermer manfaati tomonidan yondoshsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg`oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda fermerning ko`rgan zararini qisman bo`lsa-da, qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi. Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo`jaligi tarmog`ida, balki butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug`dirishi mumkin.

Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zaxiralari bo`lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo`l bo`lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlash va ob-havo noqulay kelib tanqislik vujudga kelgan yillari bu zaxiralardan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg`or davlatlarida qo`llanib kelinadi va o`zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimi sharoitlarga bog`liqligi bu tarmoqda baholar va fermer xo`jaligi daromadining barqarorligiga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Masalan, qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko`proq sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba`zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida fermerlar katta zarar ko`radi.

Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo`lsa, fermerlar xonavayron bo`lishi turgan gap. Ikkinci bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg`oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin

<sup>2</sup> Кемпбелл Р. Макконнелл, Стенли Л. Брю. Экономикс. - М.: Республика, 1992, 241 с.

kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari oshib ketishiga sabab bo`lishi mumkin. Bunday hollarda fermerlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko`rsalar, iste'molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko`rinib turibdiki, har ikkala holda ham fermer ko`proq zarar ko`radi va bu holat qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini, davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, qishloq xo`jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog`liqligi tufayli tez buziluvchan bo`ladi. Ularni uzoq muddatda saqlash yoki olis masofalarga tashish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo`jaligi korxonalaridan farqli ravishda “sanoat, savdo yoki xizmat ko`rsatish korxonalari o`z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, ularni iste'molchi so`rayotgan narx qoniqtirmasa, toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turish mumkin. Qishloq xo`jaligi korxonalari esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishi kutib, uzoq vaqt ushlab tura olmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o`tgandan so`ng o`zining iste'mol qiymatini yo`qotishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo`ladilar<sup>3</sup>”.

Ikkinci tomondan, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar respublikamizda ko`pchilikni tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o`zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat hukm suradi. Bir turdag'i mahsulotni juda ko`p sonli ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarganligi sababli bozorda vujudga keladigan shu mahsulot narxini alohida olgan korxona o`zgartira olmaydi.

Odatda, qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talabning o`zgarishi unchalik katta bo`lmaydi. Boshqacha aytganda, qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talab elastik (yoki juda past elastiklikka ega) emas. Qishloq xo`jaligi korxonalari xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o`g`it, yoqilg`i va h.k.) narxi esa ko`p hollarda tez sur'atlarda o`sadi. Bu esa o`z navbatida qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman zararli qilib qo`yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi.

Aksincha, qishloq xo`jaligiga moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko`rsatuvchi korxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Natijada qishloq xo`jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo`lgan sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o`rtasida yirik nomutanosiblik (baholar pariteti) vujudga keladi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun noqulay bo`lgan baholar nomutanosibligini bartaraf etish va moddiy-texnika ta'minoti hamda xizmat ko`rsatuvchi korxonalarning monopol mavqeini cheklash choralarini ko`rishga majbur bo`ladi.

Bundan tashqari qishloq xo`jaligida juda muhim bo`lgan ijtimoiy zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning

<sup>3</sup>.Salimov B va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: Adabiyot jamg`armasi, 2004, 164-b.

ahamiyati katta. Bu omil ham davlat tomonidan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi davlat tomonidan tartibga solib turilishini toqazo etadi.

Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash zarurati qishloq xo`jaligida kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo`jaligiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko`p foyda keltirishi tufayli qishloq xo`jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi. Ko`pchilik fermer xo`jaliklarida ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish uchun dastlabki kapital hajmi yetarli bo`lmaydi. Bank kreditilaridan foydalanish imkoniyatlari garovga qo`yiladigan mol-mulk yetishmasligi oqibatda chegaralangan. Ko`p hollarda bunday kreditlar qisqa muddatli bo`lib, ko`proq aylanma mablag`larga sarflanadi.

Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o`zlashtirish va sug`orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan-texnika yutuqlari va ilg`or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag`lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg`iz fermer xo`jaliklarining mablag`lari hisobidan amalga oshirib bo`lmaydi. Buning uchun davlat budgeti hisobidan maxsus mablag`lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Nihoyat, fermer xo`jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya`ni ular uchun yo`llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy madaniy obyektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo`lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo`lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg`or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, qishloq xo`jaligi tarmog`i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo`llab-quvvatlanishi lozim<sup>4</sup>. Hozirgi paytda dunyo davlatlari qishloq xo`jaligini qo`llab-quvvatlash uchun har yili o`rta hisobda 350 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag` saflamoqda. Dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishni talab qiladigan yana bir omil ularning daromadlari miqdori bilan bog`liq. Dehqon va fermer xo`jaliklari daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalarga nisbatan orqada qolish tendentsiyasiga ega. Bu holat dehqon va fermer xo`jaligi mahsulotlariga bahoning pasayib ketmasligini ta'minlash vazifasini keltirib chiqaradi.

Albatta dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solib turish to`g`risida gap borganda ularning faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvi haqida emas, balki davlatning o`z qo`lidagi ma'muriy, iqtisodiy va institutsional dastaklar bilan dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatiga ta'sir ko`rsatishi haqida gap borayotganini unutmaslik lozim.

## **15.2. Davlatning fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solish hamda qo`llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari, uni amalga oshirish shakllari va usullari**

Qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash zarurati davlatning oldiga bir qator vazifalarni qo`yadi. «Fermer

<sup>4</sup> Hakimov R. va boshq. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. - T.: Adabiyot jamg`armasi, 2004, 109-b.

xo`jaligi to`g`risida»gi Qonunda davlatning qishloq xo`jaligi korxonalarini qo`llab-quvvatlash bo`yicha asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik obyektlari bo`lmagan hududda fermer xo`jaliklari tashkil etilganida uni birlamchi obodonlashtirish (yo`llar, elektr uzatish, va aloqa liniyalari qurish, suv bilan ta'minlash, gazlashtirish, telefonlashtirish, radiolashtirish, yer tuzish, yerlarni melioratsiyalash;
- ularga ishlab chiqarish obyektlari va turar joylarni barpo etishda yordam ko`rsatish;
- fermer xo`jaligi uchun kerakli mol-mulk va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olishda ko`maklashish;
- navli urug` va qishloq xo`jaligi ekinlarining ko`chat materiallari, organik va mineral o`g`itlar, qishloq xo`jaligi ekinlarini zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish vositalarini yetkazib berish yuzasidan davlat tegishli agrotexnik xizmat ko`rsatish tizimlari orqali texnikaviy xizmat ko`rsatish;
- qishloq xo`jaligi texnikasi, asbob-uskunalarini va ashyo-anjomlarini lizing asosida olishda ko`maklashish;
- chorva mollari va parrandalar boqish uchun shartnoma asosida aralash ozuqa ajratish, yosh chorva mollari va parrandalar, zotdor qoramollar olishda ko`maklashish;
- chorva mollariga zooveterinariya xizmati ko`rsatish uchun zarur sharoitlar yaratib berish;
- yetishtirgan mahsulotlarini tayyorlash va sotishda ko`maklashish;
- konsalting va axborot xizmatlari ko`rsatish.

Qishloq xo`jalogining xususiyatlardan kelib chiqqan holda davlatning dehqon va fermer xo`jaliklarini tartibga solishdagi asosiy vazifalari sifatida yana quyidagilarni belgilash mumkin<sup>5</sup>:

**Huquqiy himoyalash va tartibga solish vazifasi** – fermer xo`jaliklarining barqaror rivojlanishini hamda boshqa xo`jalik yurituvchi subyektlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi qonuniy-me'yorlar hujjatlarni qabul qilish hamda ularga rioya etilishini nazorat etishni nazarda tutadi.

**Rag`batlantirish vazifasi** – xususiy tadbirkorlik tashabbusi,adolatli raqobat kurashi hamda fermer xo`jaliklari, shuningdek ularga xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini turli iqtisodiy dastaklar yordamida rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash choralarini ifodalaydi.

**Taqsimlash vazifasi** - ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek fermer xo`jaliklarining moddiy-texnika resurslaridan imtiyozli asoslarda foydalanishiga sharoit yaratish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog`liq.

**Ijtimoiy kafolatlash vazifasi** – ijtimoiy ta'minot va himoyalashning samarali tizimini yaratish, shuningdek fermer xo`jaliklarining ta'lim, sog`liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo`lgan ehtiyojini qondirish bilan bog`liq chora-tadbirlarni o`z ichiga oladi.

<sup>5</sup> Salimov B va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. -T.: Adabiyot jamg`armasi, 2004, 158-b.

**Axborot-maslahat ta'minoti vazifasi** - fermerlarning axborot ta'minoti tizimidan teng sharoitlarda, to`siqlarsiz foydalanish imkoniyatini yaratish, ular uchun iqtisodiy muammolarning samarali yechimini topish, xomashyo va resurslar ta'minoti, ilg`or texnika va texnologiyalarni qo'llash yuzasidan maslahatlar berishni nazarda tutadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlarda fermer xo`jaliklari manfaatlarini himoyalash, imtiyozli bojxona ta'riflari va soliqlar orqali eksport uchun qulay iqtisodiy muhit qilish tadbirlaridan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning fermer xo`jaliklarini qo'llab-quvvatlashdagi vazifalaridan biri ularning boshqa xo`jalik yuritish subyektlari bilan teng sharoitlarida faoliyat ko`rsatishini ta'minlovchi huquqiy – me'yoriy asoslarni yaratishdir. Bu fermerlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishni hamda tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash choralarini nazarda tutadi.

Davlatning yana bir muhim vazifasi fermer xo`jaliklarini samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog`lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozorining ochiqligini hamda adolatli raqobat muhitini yaratish, nosog`lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo'llash choralari amalga oshiriladi.

Davlat fermer xo`jaliklarining jahon qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli subyekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog`i lozim. Buning uchun davlat: fermer xo`jaliklarining eksportga yo`naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishga rag`batini oshirish; mahalliy bozorlarda fermerlarni tashqi eksportyorlar raqobatidan yetarlilik darajasida himoyalash (proteksionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri fermerlarga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko`maklashishdir. Bu vazifani amalga oshirish dehqon va fermer xo`jaliklariga moddiy-texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishslash va sotishga ko`maklashuvchi xizmat ko`rsatuvchi korxonalar tarmog`ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog`ozlar bozori, fond birjalari va yarmarkalar, axborot maslahat markazlari hamda ular manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning fermer xo`jaliklarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari ma'lum bir tamoyillarga tayanib amalga oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagi tavsiflash mumkin:

- fermer xo`jalogining aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda tutgan o'rni va ahamiyatini tushunish;
- zarurat va yetarlilik darajasidagi proteksionizm siyosati;
- fermer xo`jaliklarini maqsadli-dasturiy tartibga solish;
- davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;
- qo'llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo'llanilishi;
- davlat aralashuvining rag`batlantiruvchi yo`nalishga egaligi.

Davlatning fermer xo`jaliklarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi faoliyati ma'lum bir shakllar hamda usullar asosida olib

boriladi. Davlat fermer xo`jaliklari faoliyatiga ma'muriy, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Davlat o`zining real hokimiyati kuchidan foydalangan hamda fermer xo`jaliklari faoliyatini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalgamoshiradi.

Erkin bozor munosabatlari rivojlanib borayotgna hozirgi sharoitda davlatning ma'muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiyati va ma'muriy usullar orqaligini ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo`jaliklarini qo'llab-quvvatlash ko`proq ahamiyat kasb etib boraveradi. Chunki, ular fermerning ichki xo`jalik faoliyatini hamda xo`jalik qarorlari qabul qilish erkinligini cheklamaydi. Aksincha, tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatdorlik va sog`lom raqobat muhitida fermer xo`jaliklari samaradorligini yuksaltirishda davlatning rag`batlantiruvchi rolini yuzaga chiqaradi.

Davlat fermer xo`jaliklari faoliyatini respublikada amalda bo`lgan qonunchilik doirasida tartibga solib turadi. Bu birinchi navbatda fermer xo`jaligini tashkil etish va faoliyat ko`rsatishi qoidalarini belgilash, ularda yerdan foydalanish, mehnat, mol-mulk va boshqa munosabatlarni tartibga solish hamda buxgalteriya, soliq va statistik hisobotlarni yuritish tartiblarini joriy etishni nazarda tutadi.

Davlat tomonidan qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish ma'muriy, tashkiliy, iqtisodiy va institutsional xarakterdagi chora-tadbirlari majmuasini ifoda etib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish bo`yicha qonuniy-me'yoriy hujjatlarni yaratish.
2. Fermer va dehqon xo`jaliklarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda kafolatlash.
3. Qishloq xo`jaligi korxonalarini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda rag`batlantirish choralarinining huquqiy asoslarini yaratish.
4. Qishloq xo`jaligining rivojlanishiga ko`maklashuvchi institutsional va bozor infratuzilmalarni barpo etish va qo'llab-quvvatlashning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish.

### **15.3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari**

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni, jumladan uning tarkibiy qismi bo`lgan qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash masalasi bugungi kunda ilmiy doiralarda ko`plab munozaralarga sabab bo`lmoqda. O`tgan davr mobaynida iqtisodiyotning agrar tarmog`ini davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirish mushkul ekanligiga amin bo`lgan bo`lsak- da, bunday

aralashuvning chegaralari hamda usullari, mexanizmlari va yo`nalishlarini chuqur o`rganish zaruratga aylanmoqda. Xususan, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o`rganish va bu tajribalarni mamlakatimiz qishloq xo`jaligiga qo`llash imkoniyatlarini tadqiq etish muhimdir.

Agrar va oziq-ovqat bozorlarini davlat tomonidan tartibga solish borasidagi jahon tajribasini o`rganish shuni ko`rsatadiki, milliy hukumatlar tomonidan qo`llanilayotgan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari xilma-xil va turli maqsadlarni ko`zlab amalga oshiriladi. Shunga qaramay ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Qishloq xo`jaligini rivojlantirishga qaratilgan umumiyl chora-tadbirlar.
2. Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini oshirish chora-tadbirlari.
3. Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishi xarajatlarini pasaytirishga yo`naltirilgan tadbirlar.
4. Ma'muriy-huquqiy va me'yoriy asoslarni yaratish chora-tadbirlari.
5. Tarkibiy-institutsional siyosat.
6. Qishloq joylarda ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan tadbirlar.
7. Iste'molchilarni qo`llab-quvvatlashga yo`naltirilgan subsidiyalar.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining daromadligini oshirish yo`llaridan biri qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotishdan keladigan tushumlarni oshirishdir. Bunga ikki xil yo`l bilan erishish mumkin: qishloq xo`jaligi mahsulotlariga **talabni oshirish** va **taklifni kamaytirish**.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga talabni oshirish yo`llaridan biri **davlat xaridlarini ko`paytirish** hisoblanadi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid etish tajribasi biz uchun yangilik emas. Xususan, paxta va g`allaga davlat buyurtmasi o`rnatilgan. Ammo rivojlangan davlatlar tajribasida paxta va g`alladan boshqa qishloq xo`jaligi mahsulotlariga ham davlat buyurtmasi o`rnatish holatlari uchraydi.

Masalan, Yevropa Hamjamiyati va AQShda o`rta maktab o`quvchilari uchun **“bepul ovqatlanish taloni”** dasturlari mavjud. Bundan tashqari AQSh aholisining kam daromadli qismi davlat tomonidan **“oziq-ovqat taloni”** bilan ta'minlanadi va ular bu talonlar evaziga bepul oziq-ovqat mahsulotlari xarid etish imkoniyatiga ega bo`lishadi. Shuningdek, AQSh Mudofaa vazirligi va Yustitsiya vazirligining Qamoqxonalar byurosi ham davlat budgeti hisobidan katta hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini fermerlardan xarid etadi. Bu dasturlarning amalga kiritilishi go`sht, sut, mevalar, savzavot va poliz mahsulotlariga davlat buyurtmalari joriy etilishiga olib keladi. AQSH Qishloq xo`jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko`ra federal, shtatlar va mahalliy hukumatlar tomonidan davlat mablag`lari evaziga fermerlardan xarid etilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun 2002-yilda 41,3 mlrd. dollar sarflangan<sup>6</sup>.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining davlat ehtiyojlari uchun xarid etilishi fermer xo`jaliklari mahsulotlariga bo`lgan yalpi talabning oshishini va ularning daromadlari ko`payishini ta'minlaydi. Buning uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari importini cheklash va eksportini qo`llab-quvvatlash tadbirlari amalda bo`lishi talab etiladi. Aks

<sup>6</sup> [http://usda.ru/usda\\_programs/2005/03/07/42](http://usda.ru/usda_programs/2005/03/07/42)

holda ichki mahsulotlarga qaraganda ancha arzon olib kirilishi mumkin bo`lgan import mahalliy fermerlarga kuchli raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari taklifini cheklash uchun ishlab chiqarish hajmiga kvotalar o`rnatish, ekin maydonlarini vaqtinchalik konservatsiya qilish (foydanishdan chiqarish), ishlab chiqarilayotgan mahsulotga solinayotgan soliqlarni ko`paytirish kabi tadbirlarni qo`llash mumkin.

Ichki bozorda qishloq xo`jaligi mahsulotlari taklifini cheklash choralarini ko`rib chiqamiz. Bu dasturlarni amalga kiritish uchun ichki tovar ishlab chiqaruvchilar importyorlar oldida qulay raqobat muhitiga ega bo`lishlari muhim hisoblanadi. Ichki tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay raqobat muhitini tabiiy va davlat tomonidan kiritilgan maxsus dasturlar orqali yaratish mumkin. Aks holda, mahalliy mahsulotlar taklifini cheklash bu mahsulotlarni chet eldan import qilish hisobidan osonlik bilan qoplanishi va yetarli samara bermasligi mumkin.

Agar ichki oziq-ovqat bozori tashqi tovar ishlab chiqaruvchilar eksportidan yetarlicha himoyalangan bo`lsa ichki tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga talabni oshirish va ularning daromadlarini yuksaltirish uchun bir qancha mexanizmlardan foydanish mumkin.

Davlat buyurtmasi bo`yicha qishloq xo`jaligi mahsulotlarini xarid qilish agrar tarmoq bozorlarida talabni o`stirishga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. Fermerlar yetishtirayotgan mahsulotlarning baholarini ma'lum darajada saqlab turish uchun davlat tomonidan vakil qilingan tashkilot budjet mablag`lari hisobidan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining bir qismini sotib olishi mumkin. Buni xarid intervensiysi deb atash ham mumkin.

Davlatning intervensiya xaridlari mahsulotning bahosini oshishiga olib keladi va fermerlar uchun foya keltiradi. Shu bilan birga davlat oldida xarid etilgan mahsulotlarni saqlash xarajatlari bo`yicha qo`shimcha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Davlat buyurtmasi bo`yicha xarid etilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sarflashning bir nechta variantlari mavjud.

Birinchi variant to`plangan ortiqcha mahsulotni xalqaro bozorlarga eksport qilish. Agar eksportga chiqarilayotgan mahsulot hajmi yirik bo`lsa, bu holat jahon bozoridagi baholar darajasiga sezilarli ta`sir ko`rsatishi va boshqa eksportchilarning e'tiroziga sabab bo`lishi mumkin.

Ikkinci variant ortiqcha mahsulotni mamlakat ichida qayta ishlash va raqobatlashmaydigan boshqa bozorlarda sotishdir. Masalan, bug`doyni qayta ishlab, yem uchun ozuqa sifatida sotish mumkin. Bunda bug`doyni qayta ishlash natijasida insonlar iste'moli uchun yaroqsiz holga keltirish lozim. Aks holda, ularni ichki bozorda qayta sotish imkoniyati vujudga kelishi mumkin.

Davlatning intervensiya zaxiralari aholining kam ta'minlangan qismlariga pasaytirilgan narxlarda talon bo`yicha sotish yoki o`rta maktablarda bepul tushliklar tashkil etishga sarflash ham mumkin. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda davlatning ortiqcha oziq-ovqat zaxiralarini yo`qotish yo`llaridan biri sifatida kam taraqqiy etgan mamlakatlarga yordam uyuştirish keng qo`llanib kelinadi. Masalan, AQShning “**Tinchlik yo`lida oziq-ovqat**” dasturi davlatning ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ob-havo qulay kelgan yillarda qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozoriga talabdan ortiqcha mahsulot kirishi oqibatida baholar keskin tushib ketishi va fermerlar uchun jiddiy zarar keltirishi mumkin. Bunday paytlarda davlat bozordagi ortiqcha mahsulotni xarid etish orqali bir tomondan mahsulotni sotilishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan muvozanat narxni tiklash orqali fermerlarni zarar ko`rishdan saqlab qoladi.

Davlat xarid etilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining bir qismini oziq-ovqatning bufer zaxiralari sifatida saqlashi va ob-havo noqulay kelib, hosildorlik pasayib ketgan yillarda ulardan samarali foydalanishi mumkin. Bunday holatlarda davlatning oziq-ovqat zaxiralarini bozorga tashlash taqchillikni bartaraf etishga olib keladi va baholarning keskin ko`tarilib ketishidan iste'molchilarni himoya qiladi.

Davlatning ortiqcha oziq-ovqat zaxiralarini vaqtি-vaqtি bilan realizatsiya qilib turilmasa, ularni saqlash xarajatlari mamlakat budgeti uchun og`ir yuk bo`lishi mumkin.

Jahon amaliyotida qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga subsidiyalar ajratish siyosati keng qo`llaniladi. Bu usulda davlat u yoki bu mahsulot bahosining minimal kafolatlangan chegarasini o`rnatadi va bozordagi muvozanat bahosi kafolatlangan bahodan pastga tushib ketsa, baholar orasidagi farqni qoplash majburiyatini o`z zimmasiga oladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qishloq xo`jaligini subsidiyalash maqsadlariga yirik mablag`lar ajratiladi. Masalan, 2000-yilda AQSh hukumatining fermerlar baholarini qo`llab-quvvatlashga yo`naltirgan subsidiyalar 17 mlrd. dollarni, turli maqsadlar uchun Amerikalik fermerlarga davlat tomonidan ajratilgan jami mablag`lar hajmi 60 mlrd. dollarni tashkil etgan. Yevropa Hamjamiyatida agrar tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy qo`llab-quvvatlashga yo`naltirilgan mablag`larning umumiy qiymati 1999-yilda 107,4 mlrd. yevroni tashkil etib, fermerlarning qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlari tarkibida subvensiyalarning ulushi 49 foizgacha etgan<sup>7</sup>. Odatda bunday subsidiyalar fermerlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha boshqa dasturlarga, xususan yerlarni konservatsiya qilish dasturiga bog`langan holda qo`llaniladi.

Bevosita subsidiyalarni ikki xil shaklda: sotilgan mahsulot birligiga to`lanadigan qat`iy stavkada yoki bahodagi farq to`lovlar ko`rinishida amalgा oshirish mumkin. Ikkinci holatda fermerlar qat`iy belgilangan stavka bo`yicha subsidiya olmasdan, kafolatlangan bahoning belgilangan minimal darajasi bilan haqiqiy sotish bahosi orasidagi farqqa teng subsidiya oladi. Amaliyotda turli hududlarda mahsulotning bozor bahosi turlicha bo`lishi mumkinligidan, fermerlar oladigan farq to`lovlar ko`rinishidagi subsidiya ham turlicha bo`lishi mumkin.

Qishloq xo`jaligida xarajatlarni kamaytirishning asosiy dastaklaridan biri agrar ishlab chiqarish resurslarini subsidiyalash mexanizmidir. Bunday subsidiyalarni amalgा oshirish usullari turlicha: ishlab chiqaruvchilar xarid etadigan har bir resurs birligiga (masalan, har bir tonna mineral o`g`itga) qat`iy o`rnatilgan subsidiya ajratish, ma'lum bir tadbirlarni (masalan, meliorativ tadbirlarni) amalgा oshirish uchun subsidiya ajratish yoki imtiyozli kreditlar olish orqali mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratilishi mumkin.

<sup>7</sup> [http://www.kgau.ru/distance/ec\\_05/zbinova/fermerstvo/08\\_politika.html](http://www.kgau.ru/distance/ec_05/zbinova/fermerstvo/08_politika.html)

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar baholarining arzonlashtirilishi evaziga xarajatlarni pasaytirish siyosati quyidagi natijalarga olib keladi:

- ishlab chiqaruvchilar foydasining o'shini ta'minlaydi;
- arzonlashtirilgan resurslarga bo`lgan talabni oshiradi;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko`paytiradi;
- boshqa resurslarga bo`lgan talabning oshishiga olib keladi.

Ammo bu natijalarni ta'minlash uchun uchta muhim shartga rioya etish talab etiladi:

1. Resurslarni ishlab chiqaruvchi tarmoqda raqobat muhitini amal qilishi lozim. Aks holda resursga ajratilgan subsidiyalar uning bahosini oshishiga olib kelishi mumkin. Chunki, resursga ajratiladigan subsidiyalar qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan emas, monopol mavqedagi resursni ishlab chiqaruvchilar tomonidan o`zlashtiriladi.

2. Subsidiyalanadigan resurs faqatgina qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan bo`lishi lozim. Aks holda, uni boshqa maqsadlar uchun qayta sotishga urinish yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallangan imtiyozli kredit resurslarini boshqa tarmoqlarga ajratish mumkin.

3. Subsidiyalanadigan resurs taklifi yetarlicha elastiklikka ega bo`lishi lozim.

Qishloq xo`jaligi sohasida amalga oshiriladigan davlatning tarkibiy siyosati eng avvalo agrar tarmoq hisobidan kun kechiruvchi kishilar sonini qisqartirish va ular uchun boshqa tarmoqlarda ish o`rinlari yaratishga qaratilgan bo`ladi. Agar bu vazifa amalga oshirilsa qishloq xo`jaligida qolgan fermerlarning daromadlari sezilarli oshishi mumkin. Odatda tarkibiy siyosat ikki xil tadbirlarni nazarda tutadi: qishloq xo`jaligida band bo`lganlar sonini qisqartirish va fermer xo`jaliklarining o`rtacha hajmini oshirish.

Qishloq xo`jaligida band bo`lgan fermerlar sonini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar qishloq joylarda alternativ ish o`rinlarini yaratish, qishloq xo`jaligida band xodimlarni qayta tayyorlash va hatto migratsion dasturlarni o`z ichiga oladi. Bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fermerlarni vaqtli nafaqaga chiqarish dasturlari ham shu maqsadlarni ko`zlab amalga oshiriladi. Ba`zan nafaqaga chiqqan fermerlarga o`z yerlarini merosxo`rlarga majburiy o`tkazish yoki sotish choralari ham ko`zda tutiladi.

Fermer xo`jaliklari hajmini yiriklashtirishga qaratilgan davlat siyosati tarkibiy siyosatning bir qismi hisoblanadi. Bu siyosatdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad xo`jaliklarning o`rtacha hajmini oshirish orqali fermerlar daromadini ko`paytirishga erishishdir. Buni amalga oshirish uchun davlat fermer xo`jaligi yuritish uchun zarur bo`ladigan yer maydoni hajmining quyi chegaralarini belgilab berishi mumkin. Ba`zan davlat agrar tarmoqdagi tarkibiy o`zgarishlarni jadallashtirish maqsadida o`zining qo`llab-quvvatlash choralarini faqatgina o`rta va yirik fermer xo`jaliklariga nisbatan qo`llashi mumkin. Masalan, 1970-yillarda Yevropa Ittifoqida kamida 80 hektar haydaladigan yer maydoni yoki 40 bosh yirik shoxli qoramoli mavjud fermer xo`jaliklariga nisbatan qo`llaniladigan subsidiyalar amalda qo`llanilgan edi.

Tarikibiy-institutsional tadbirlarga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

**1. Qishloq hududlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan tadbirlar.** Ular o`z ichiga qishloq hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni

rivojlantirishga qaratilgan turli dasturlarni qamrab oladi. Bular jumlasiga yo`l qurilishi, suv, gaz, elektr ta'minoti, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotishga ko`maklashuvchi tuzilmalar, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalari obyektlarini shakllantirish tadbirlarini kiritish mumkin. Bu dasturlarning amalga oshirilishi fermer xo`jaliklarining daromadliligini yuksaltirishga bilvosita ta'sir ko`rsatadi va qishloq joylarda yashash sharoitlarini yaxshilaydi.

## **2. Qishloq hududlarida boshqa alternativ bandlik turlarini rivojlantirish.**

Bular jumlasiga qishloq joylarda mahalliy xomashyo negizida ishlaydigan sanoat korxonalarini joylashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalg etishni kengaytirish, xizmat ko`rsatish sohalarini rivojlantirish va boshqalarni kiritish mumkin. Bulardan ko`pini amalga oshirish uchun davlat homiyligi va qo`llab-quvvatlashi zarur bo`ladi.

**3. Fermerlar daromadiga bevosita to`lovlar.** Bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarning agrar siyosatida bu tadbir borgan sari keng qo`llanilib borilmoqda. Bu dasturning asosiy mohiyati yillik daromadi belgilangan me'yordan past bo`lgan fermerlarga davlat tomonidan ma'lum miqdordagi to`lovlarini amalga oshirishdadir. Bu to`lovlar boshqa qo`llab-quvvatlash tadbirlari singari agrar va oziq-ovqat bozorlariga bevosita ta'sir ko`rsatmaydi

Shu paytgacha ko`rib o`tilgan qo`llab-quvvatlash tadbirlarida iste'molchilar fermerlar foydasiga ma'lum miqdordagi to`lovlarini (soliqlarni) to`laydi deb faraz qilamiz. Ammo, rivojlangan mamlakatlar tajribasida ayrim holatlarda fermerlarning iste'molchilar foydasiga ma'lum bir to`lovlarini (soliqlarni) to`lashi amaliyoti ham uchraydi.

Ob-havoning qulay kelishi yoki boshqa omillar ta'sirida bozorga talabdan ortiqcha qishloq xo`jaligi mahsulotlari kirishi oqibatida narxlearning keskin pasayib ketishidan fermerlarning zarar ko`rishini bartaraf etish uchun davlat talabdan ortiqcha mahsulotni xarid etishi siyosati bilan tanishgan edik. Buning natijasida yuzaga keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining bufer zaxiralarini davlat raqobatlashmaydigan boshqa bozorlarda sotishi xususida to`xtlib o`tilgandi. Ammo, davlat qishloq xo`jaligi mahsulotlarini bozor bahosida fermerlardan xarid etib, ularni arzon baholarda iste'molchilarga sotishi ham mumkin. Bu dasturlar aholining keng qatlamlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari baholarini arzonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ayrim holatlarda ob-havoning noqulay kelishi yoki boshqa omillar ta'sirida qishloq xo`jaligi mahsulotlari taklifi keskin kamayib ketishi kuzatiladi. Buning oqibatida oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelib, qishloq xo`jaligi mahsulotlari baholari qimmatlashib ketadi va bu holat iste'molchilar turmush sharoitlariga katta ziyon keltiradi. Buni bartaraf etish uchun davlat o`zining oziq-ovqat bufer zaxiralarini bozorga tashlash orqali talab va taklif muvozanatini tiklaydi va buning natijasida baholar barqarorlashadi.

Bir qaraganda bu dasturni amalga oshirilishidan olinadigan iste'molchilarning yutug`i fermerlarning ko`radigan ziyoniga, u esa o`z navbatida davlatning budjetdan amalga oshiradigan xarajatlariga teng bo`lib ko`rinadi. Shu tariqa jamiyatning sof yo`qotishlari fermerlar ko`radigan ziyon bilan qoplangandek bo`ladi. Ammo davlatning sotish intervensiysi natijasida kutiladigan baholar arzonlashuvi ko`p jihatdan mahsulotga bo`lgan talab va taklifning elastiklik darajasiga bog`liq.

#### **15.4. Fermer xo`jaliklarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish va himoyalash tizimi**

Muayyan bir jamiyat miqyosida faoliyat olib borish qishloq xo`jaligi korxonalari oldiga jamiyat manfaatlariga bo`ysunish uchun ma'lum bir majburiyat va javobgarliklarni keltirib chiqaradi. Chunki, jamiyat oldidagi majburiyatlar ularni ma'lum bir qonun-qoidalar darajasida faoliyat olib borishga undaydi.

O`zbekistonda qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish borasida mustahkam huquqiy-me'yoriy asos yaratilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi, «Fuqarolik Kodeksi», «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi, “Dehqon xo`jaligi to`g`risida”, “Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida”gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida»gi qonunlari, respublikamiz Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar respublikamizda qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solib turadi<sup>8</sup>.

O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-avgustdagagi «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi qonuni bevosita fermer xo`jaligining qonuniy maqomini belgilash, ularni tashkil etish va faoliyat ko`rsatishi, huquq va majburiyatlarini hamda davlat organlari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarini tartibga solish vazifalarini bajaradi. Qonunchilikda fermer xo`jaligini tashkil etish va tegishli organlarda ro`yxatga olish uchun davlat tomonidan bir qator minimal talablar belgilangan. Xususan, fermer xo`jaligi yuridik shaxs maqomida faoliyat yuritishi va bozorga yo`naltirilgan tovar xo`jaligi bo`lishi lozim.

Fermer xo`jaligida mehnat munosabatlari amaldagi qonunchilik bilan davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Fermer xo`jaligida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslarning mehnatiga haq to`lash belgilangan eng kam ish haqidan oz bo`limgan miqdorda taraflarning kelishuviga binoan pul tarzida ham, natura tarzida ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga fermer xo`jaligining barcha a'zolari hamda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar ish haqidan daromad solig`i va boshqa barcha to`lovlanri amalga oshirishi belgilab qo`yilgan.

Davlat fermer xo`jaligi boshlig`idan xo`jalik a'zolari va shartnomasi asosida ishlayotganlar uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash shartini ham qonun yo`li bilan talab qiladi.

Qonunchilikda ularga berilgan kafolatlari, ularning huquqlarini himoya qilish choralarini ham belgilab berilgan. Masalan, O`zbekiston Respublikasining «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi qonuni 29-moddasida: «Davlat qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug`ullanuvchi fermer xo`jaliklarini huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi», - deb e'tirof etilgan.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, respublikamizda dehqon va fermer xo`jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>8</sup> Yusupov M. O`zbekistonda fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Bozor, pul va kredit. 2003-yil 1-son, 34-b.

to`g`risida”gi Farmonida nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo`l qo`ymaslik, maqsadida 2005-yilning 1-iyulidan boshlab quyidagi faoliyat turlari bo`yicha tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini faqat sud orqali qo’llanish tartibi joriy etilgan:

1. Faoliyatni tugatish.

2. Faoliyatni to`xtatib qo`yish. Favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog`lig`iga boshqa haqiqiy xavf-xatar yuzaga kelishini oldini olish munosabati bilan faoliyatni ko`pi bilan o`n ish kunigacha to`xtatib qo`yish hollari bundan mustasno.

3. Banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha operatsiyalarni to`xtatib qo`yish. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish borasida aniqlangan hollar bundan mustasno.

4. Moliyaviy sanksiyalarni qo`llash. Soliq va yig`imlarni to`lash muddatini o`tkazib yuborganlik uchun ustama qo`shish, shuningdek tadbirkorlik subyekti sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybiga iqror bo`lish va moliyaviy sanksiya jarimalarini ixtiyoriy ravishda to`lash hollari bundan mustasno.

5. Huquqbazarlik predmetlarini davlat daromadiga o`tkazish.

Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo`jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) belgilangan tartibda faqat davlat soliq xizmati organlari, ular tomonidan tekshirish davomida soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda esa - O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Faqat qo`zg`atilgan jinoiy ish yuzasidan tekshirishni tayinlash to`g`risidagi qaror yoki shunday tekshiruvlarni o`tkazish to`g`risida nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo`yicha maxsus vakolatli organning qarori mavjud bo`lgandagina qonunda ko`zdautilgan hollarda tadbirkorlik subyektining tekshirilayotgan xo`jalik yurituvchi subyekt bilan o`zaro munosabatlarinigina muqobil tarzda tekshirishga yo`l qo`yiladi. Muqobil tekshirishlarni o`tkazish chog`ida tadbirkorlik subyektlariga borish va ulardan tekshirishga taalluqli bo`lmagan moliya-buxgalteriya yoki boshqa hujjatlarni talab qilish man etiladi.

Davlat organlarining noqonuniy qarorlari yoki shu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararning o`rni sud qarori asosida to`la hajmda bevosita ana shu davlat organlari tomonidan, birinchi navbatda, ularning budgetdan tashqari jamg`arma mablag`lari hisobiga qoplanishi lozim. Zararlarning o`rnini qoplash sud qarori bilan ana shu yetkazilgan zarar uchun aybdor bo`lgan davlat organlarining mansabdor shaxslariga, qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorlarda yuklanishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-oktabrdagi PF-3665-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonining 1-bandiga muvofiq:

- mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining moliya-xo`jalik faoliyatini har to`rt yilda ko`pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarini esa har uch yilda ko`pi bilan bir marta reja asosida tekshirish o`tkaziladi;

- yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining moliya-xo`jalik faoliyatini ular davlat ro`yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil mobaynida reja asosida tekshirish o`tkazilmaydi;

- tadbirkorlik subyektlarini tekshirish natijalari bo`yicha nazorat organlarining taqdimnomalarini bajargan, shuningdek yetkazilgan zararni belgilangan muddatda va to`liq hajmda ixtiyoriy ravishda qoplagan, shu jumladan ustamani to`lagan taqdirda ularga moliyaviy jazo choralari qo`llanilmaydi.

Ushbu farmonning 2-bandida nazorat organlarining mansabдор shaxslari tadbirkorlik subyektlari ruxsatsiz tekshirilganligi va ularning xo`jalik faoliyatiga noqonuniy aralashilganligi uchun yetkazilgan iqtisodiy zararning o`rni qoplangan holda javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortilishi belgilab qo`yilgan.

O`zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga nazorat va huquqni muhofaza qilish organlarining tekshirishlarni tayinlash va o`tkazish borasida belgilangan tartibga qat`iy rioya etish, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo`lidagi faoliyati ustidan muntazam nazoratni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-iyundagi PF-3622-sonli “Tadbirkorlik subyektlarining xo`jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to`g`risida”gi Farmoni bilan xo`jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish maqsadida quyidagilar belgilangan:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan birinchi marta sodir etilgan, qasddan qilinmagan va kam ahamiyatli, shuningdek Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg`armalariga to`lovlar kamroq tushishiga olib kelmaydigan huquqbuzarliklar uchun mansabдор shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda materiallarni sud organlariga taqdim etmasdan faqat ma`muriy javobgarlik choralari qo`llaniladi;

- materiallar sud instansiylariga topshirilgan hollarda, tadbirkorlik subyekti soliqlar, yig`imlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lamaganlik uchun sodir etilgan huquqbuzarlik tufayli yetkazilgan zararning o`rnini bir oy mobaynida ixtiyoriy ravishda qoplagan hamda uning oqibatlarini bartaraf etgan, jumladan ustama to`lagan tadbirkorlik subyekti moliyaviy sanksiyalar qo`llanilishidan ozod etiladi.

Bundan tashqari, qonunchilikda o`tkazilayotgan tekshirishlarning tadbirkorlar faoliyatiga to`sinqlik qilmasligi, tekshirish predmetiga oid bo`limgan ma`lumotlar va hujjatlar so`rashning ta`qilganishi, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolat doirasiga kirmaydigan talablarni bajarmaslik huquqi va boshqa bir qator kafolatlar mustahkamlab qo`yilgan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagagi 357-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro`yxatdan o`tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi Qarori bilan tadbirkorlik subyektlarini, jumladan fermer xo`jaliklarini davlat ro`yxatiga olish va hisobga qo`yishning yengillashtirilgan tartibi joriy etildi. Unga ko`ra tadbirkorlik

subyektlarini davlat ro`yxatiga olish «bir yo`la» tamoyili asosida, ularni avtomatik tarzda hisobga qo`yish bilan amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq tuman hokimiylari tarkibida davlat ro`yxatiga olish bo`yicha maxsus xizmat tashkil etilgan bo`lib, uning xodimlari tadbirkorni davlat ro`yxatidan o`tkazish bilan bog`liq barcha hujjatlarni tayyorlash, ularni yo`l fondi, mehnat, bandlik va ijtimoiy ta`minot bo`limi, soliq hamda statistika organlarida hisobga qo`yish ishlarini o`zlarini amalga oshiradilar.

Fermer xo`jaligini yer ijarasi bilan bog`liq barcha hujjatlari tayyor bo`lgan taqdirda davlat ro`yxatiga olishning umumiyy muddati (ichki ishlar bo`limidan muhr hamda burchak shtampini tayyorlashga ruxsat olishni ham qo`shib hisoblaganda) 2 ish kunidan oshmasligi belgilangan.

Fermer xo`jaliklarini davlat ro`yxatiga olishning bu yengillashtirilgan tartibini joriy etishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Chunki, qaror qabul qilingunga qadar fermer xo`jaligi tashkil etish istagida bo`lgan fuqarolarni ro`yxatga olish ishlari asossiz ravishda, turli ma`muriyatçilik va sansalorlik tufayli cho`zib yuborilar edi.

Fermer xo`jaliklari qonunda belgilab berilgan tartibda hisob va hisobot ishlarini yuritadilar.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi PQ-100-sonli “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida” Qaroriga muvofiq mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklari:

- buxgalteriya balansidan iborat moliyaviy hisobot - 1-shaklni, moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot - 2-shaklni hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to`g`risidagi ma`lumotnomma - 2-a-shaklni - har yili;

- statistik hisobotni - hisobot turlariga qarab har chorakda yoki har yili taqdim etadilar.

#### Tadbirkorlik subyektlaridan:

- davlat soliq xizmati organlari va davlat statistika organlari belgilangan moliyaviy va statistik hisobotlarga qo`shimcha ravishda har qanday ma`lumotlar, ma`lumotnomma va hujjatlarni talab qilishga;

- boshqa davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiysi organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan qonunlarda nazarda tutilmagan har qanday axborotni, shu jumladan hisobot, ma`lumotlar, ma`lumotnomma va hujjatlarni talab qilishlariga yo`l qo`yilmaydigan tartib o`rnatilgan.

Qarorda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga Bosh prokuratura bilan birgalikda moliyaviy, statistik hisobotlar va hisob-kitoblarni qabul qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan qattiq nazorat o`rnatish, tadbirkorlik subyektlaridan moliyaviy, statistik hisobotlar va hisob-kitoblarni, shuningdek boshqa ma`lumotlar va hujjatlarni noqonuniy talab qilishda aybdor bo`lgan shaxslarni jazolanishi muqarrarligini ta`minlash vazifalari yuklatilgan.

Mazkur xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun mansabdor shaxslar O`zbekiston Respublikasining “Ma`muriy javobgarlik to`g`risida”gi Kodeksida va O`zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishlari, tadbirkorlik subyektlariga yetkazilgan ma`naviy va moddiy zararning o`rni sud qaroriga binoan aybdor mansabdor shaxslar hisobidan qoplanishi belgilab qo`yilgan.

Qishloq xo`jaligi korxonalarini faoliyatini davlat tomonidan me`yoriy-huquqiy tartibga solish va ularning qonuniy manfaatlarini himoyalash borasida yaratilgan kafolatlar tizimi ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida nosog`lom raqobat muhitidan va davlat organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy aralashuvlaridan himoyalaydi. Ammo, bozor munosabatlari taraqqiy etib borishi bilan ma`muriy usullarning ahamiyati kamayib, iqtisodiy rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etib boraveradi.

#### **15.4. Qishloq xo`jaligi korxonalarini davlat tomonidan iqtisodiy tartibga solish va qo`llab-quvvatlash choralar**

Qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat bilan iqtisodiy munosabatlari keng va turli-tuman bo`lib, bunda eng avvolo yer-suv resurslaridan foydalanish, ijara munosabatlari, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirish, budget-soliq va moliya-kredit, baho kabi iqtisodiy munosabatlar asosiy o`rnini egallaydi.

Qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat bilan iqtisodiy munosabatlarini bevosita va bilvosita shaklda talqin etish mumkin. Masalan, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirish davlat xarid narhlari belgilash, yer-suvdan foydalanish va yer ijerasi, yer solig`i to`lash kabi munosabatlar turida ular bevosita davlat va uning ijroiya organlari bilan munosabatga kirishsa, moddiy-texnika ta`minoti, xizmat ko`rsatish sohalarida davlat umumiy 51 %dan va undan yuqorini tashkil etadigan davlat aksiyadorlik jamiyatlari (DAJlar) bilan iqtisodiy munosabastlari bivosita iqtisodiy munosabatlarga misol bo`ladi.

Fermer xo`jaliklarining davlat bilan iqtisodiy munosabatlari eng avvalo xo`jalik yuritish shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Yerdan foydalanishda yerning tabiiy xususiyatlari qishloq xo`jaligini tashkil etishda va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Ammo, hal qiluvchi omil iqtisodiy shart-sharoitlardir. Shundan kelib chiqqan holda, fermer xo`jaligining davlat yerlarini uzoq muddatli ijara olishi shartlarini to`g`ri belgilab olish, yerdan foydalanganlik uchun olinadigan haq, ya`ni yer solig`i miqdorini asosli belgilash bo`ladi.

Bozor munosabatlarining kengayishi va iqtisodiyot erkinlashishi sayin davlat ko`proq dehqonning teng huquqli hamkoriga aylanib, ular o`rtasidagi munosabatlar obyekti faqat yagona yer solig`i hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimida jamiyat manfaatlarining ishtirok etishi qishloq xo`jaligi korxonalarining bir qism daromadlarini soliqlar sifatida budgetga undirishning taqozo etadi. Fermer xo`jaliklari ham soliq to`lovi subyekt sifatida yagona yer solig`i to`lovchi sifatida davlat bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Bunda fermer xo`jaligi oldiga yer solig`i miqdorini to`g`ri va aniq hisoblash hamda o`z vaqtida davlat budgetiga o`tkazib borish mas`uliyati yuklanadi. Soliqlarning o`z vaqtida va to`liq to`lanishidan bo`yin tovslash tegishli jarima va boshqa sanksiyalar bilan tartibga solib turiladi.

Shu bilan birga davlat oldida soliq yukining ishlab chiqaruvchilar uchun og`ir yuk bo`lmasligi va soliqlarning rag`barlantiruvchi tusga ega bo`lishi uchun ma`lum bir majburiyatlar oladi

Fermer xo`jaliklarining davlat bilan iqtisodiy munosabatlari davlat buyurtmasi asosida qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish sohasida ham amalga oshiriladi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash uchun davlat buyurtmasi dehqon uchun foydali bo`lib, davlat xarid baholari eng muhimi qishloq xo`jaligi mahsulotlarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qismi uchun belgilanadigan davlat xarid narxlari rag`batlantiruvchi kuchga ega bo`lishi va korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini qoplab ma'lum bir miqdordagi foyda ko`rishiga imkon yaratishi lozim .

Davlat strategik ahamiyatiga ega bo`lgan qishloq xo`jalik, mahsulotlari-paxta va g`alla (bug`doy doni), sholi uchun qishloq xo`jaligi korxonalariga davlat buyurtmalari beradi.

Davlat buyurtmalari hajmi qishloq xo`jaligi mahsulotlari turlari bo`yicha quydagicha o`rnatilgan:

- bug`doy uchun rejalashtirilgan hosilning 50 % miqdorida;
- paxta uchun rejalashtirilgan hosilning 70 % ini davlat xarid narxlari va qilgan 30 % ini erkin shartnomaviy narxlarda sotish.

Davlat buyurtmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 31-dekabrdagi PF-2165-sonli Farmoni bilan tashkil etilgan “Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg`armasi” mablag`lari hisobidan amalga oshiriladi .

Davlat buyurtmasi hajmi tuman hokimiyatlari qishloq va suv xo`jaligi boshqarmalari tomonidan har bir xo`jalikning yer maydoni ball bonitetidan kelib chiqib belgilanadigan hosildorlikdan belgilanadi.

Davlat buyurtmalari fermer xo`jaliklari bilan tuziladigan shartnomalar orqali rasmiylashtiriladi. Shartnomani davlat tomonidan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob jamg`armasi”ning tijorat agentlari hisoblanadigan subyektlar:

- g`alla bo`yicha “O`zdonmahsulot” Davlat Aksiyadorlik jamiyatining joylaridagi bo`linmalari;
- paxta bo`yicha “O`zpaxtasanoatsotish” Assotsiatsiyasining tumanlardagi paxta tozalash zavodlari orqali rasmiylashtiriladilar.

Jamg`arma, shuningdek davlat buyurtmasi bo`yicha mahsulot yetishtiruv chi xo`jaliklarini o`z vaqtida moliyalashtirish uchun “Paxtabank” RATB va “G`allabank” RATBlarni moliya agenti sifatida yollaydi.

Respublikamizda fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan iqtisodiy rag`barlantirish va qo`llab-quvvatlash yo`nalishida bir qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Bu mexanizm quydagи iqtisodiy dastaklardan tashkil topgan:

- moliya-kredit mexanizmi orqali qo`llab-quvvatlash;
- budget-soliq tizimi orqali qo`llab-quvvatlash;
- narx mexanizmi orqali qo`llab-quvvatlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag`batlantirish;

Fermer xo`jaliklarini moliya kredit tizimi orqali qo`llab-quvvatlash bиринчи navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo`llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

Tijorat banklarining kredit siyosatida fermer xo`jaliklari uchun quydagи imtiyozlar berilgan:

- davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan paxta xomashyosi va g`alla qiymatining 50 foizi qiymatida beriladigan qisqa muddatli kredit yillik 3 foizli stavkada;

- tijorat banklarining “imtiyozli jamg`armasi”dan beriladigan kreditlarining yillik foiz stavkalarini miqdori O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan ortiq bo`lmagan miqdorda belgilanadi;

- tijorat banklarining fermer xo`jaliklariga milliy yoki xorijiy valutada qarz berayotgan kunda birjadan tashqari valuta bozori kursi bo`yicha 10000 (o`n ming) AQSh dollariga teng qiymatdagi mikrokreditlarning yillik foiz stavkasi Markaziy Bank qayta moliyalashtirish stavkasidan oshiq bo`lmagan miqdorda.

- “Mikrokreditbank”ning mablag`lari hisobidan beriladigan eng kam ish haqining 200 barobarigacha boshlang`ich sarmoya uchun mikrokreditlar yillik 5 foizli stavkada, biznesni kengaytirish va aylanma mablag`larni to`ldirish uchun eng kam ish haqining 500 barobarigacha mikrokreditlar Markaziy Bank qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo`lmagan miqdorda belgilanadi.

Budgetdan tashqari jamg`armalar kredit resurslari hisobidan beriladigan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkalarini:

- dastlabki sarmoyani shaklantirishda Markaziy Bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida;

- fermer xo`jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo`jaligi texnikasini sotib olish , fermerlik inshootlarini qurish uchun Markaziy Bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida.

Ushbu ma'lumotlardan ko`rinib turibdiki, fermer xo`jaliklarini imtiyozli kreditlash yo`nalishlarida davlat tomonidan yaxshi sharoitlar yaratilgan. Ammo, tijorat banklari va budgetdan tashqari jamg`armalarning imtiyozli kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati ko`pchilik fermerlar uchun ochiq emas. Kuzatishlarning ko`rsatishicha bunga qiyidagi omillar ta'sir ko`rsatadi:

- ko`pchilik tijorat banklarida “imtiyozli jamg`arma” resurslari yetarli emas;

- aksariyat fermer xo`jaliklarida kreditni olishda talab etiladigan 120 % lik kafolat uchun mol-mulk yoki mablag` yetishmaydi;

- kreditlar asosan qisqa muddatga aylanma mablag`larni moliyalashtirish uchun beriladi, uzoq muddatli kreditlar esa 3 yildan oshmagan muddatga beriladi;

- turli inshootlar, binolar qurish va asbob-uskunalar sotib olishga ajratilayotgan kreditlar hajmi yetarli emas;

- kreditlarni kafolatlovchi sug`uirta tizimida davlat kafolati tizimi shakllanmagan;

- budgetdan tashqari jamg`armalar, ayniqsa “Dehqon va fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi” moliyaviy jihatdan baquvvat emas, uning resurslari hozirgi kun talablariga javob bermaydi.

## **15.5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo`llari**

Fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash va ularning faoliyatini tartibga solib turishni takomillashtirish davlatning istiqboldagi agrar siyosatini amalga oshirish yo`nalishlariga uzviy bog`liqdir. O`zbekiston Respublikasi hukumatining agrar siyosatida istiqbolda qishloq xo`jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi asosiy subyekt – fermer xo`jaliklarini har tomonlama rivojlantirish ko`zdautilgan.

Respublikada fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlashni quyidagi yo`llar bilan takomillashtirish ko`zda tutilmoqda:

- fermer xo`jaliklarining to`liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va fermer xo`jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilgan qishloq xo`jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag`batlantiradigan huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratish;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashning bozor tamoyillariga javob beradigan uslub va shakllarini takomillashtirish, moliyaviy mablag`lardan foydalanishda fermer xo`jaliklarining mustaqilligini, barcha xarajatlarni qishloq xo`jaligini sotishdan tushadigan o`z daromadlari hisobiga qoplashni ta'minlaydigan ishonchli tizimni shakllantirish;
- bozor sharoitida biznesni boshqarish ko`nikmalariga ega bo`lgan fermer xo`jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash tizimini yaratish;
- qishloqda fermer xo`jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko`rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini jadal rivojlantirish;
- fermer xo`jaliklarining boshqa korxona va tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlariga rioya etilishini nazorat etish;
- fermerlarning tadbirkorlik erkinligi va huquqlarini har tomonlama muhofaza etish, qonunda ko`rsatilgan huquqlari buzilishiga yo`l qo`ymaslik va ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko`rinishiga yo`l qo`ymaslik;
- fermerlarning barqaror daromad olishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash hamda qishloq xo`jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o`rtasidagi mutanosiblik, ya`ni «baholar pariteti»ni saqlab borish;
- ularni ilg`or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;
- mahsulotlarini sotishning eng maqbul yo`llarini ishlab chiqish.
- tijorat banklari hamda budgetdan tashqari jamg`armalarning fermerlikni rivojlantirishga yo`naltirayotgan kredit resurslarini ko`paytirishni har tomonlama rag`batlantirish;
- kredit tavakkalchilagini sug`urtalovchi institutsional tuzilmalarni keng rivojlantirish.

Fermer xo`jaliklarining davlat bilan iqtisodiy munosabatlari tuzishda ular faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag`barlantirish va qo`llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo`jaligi sohasida mavjud xorijiy mamlakatlar tajribasini o`rganish shuni ko`rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi, tartibga solish birinchi navbatda dehqonchilikda vaqt-vaqt bilan bo`lib turadigan inqirozlarni bartaraf etishga, shuningdek qudratli agrobiznes bilan bo`ladigan raqobatli kurashda fermerlarga davlat yordami ko`rsatishga qaratiladi va juda ko`p ijtimoiy va iqtisodiy masalalar mana shunday yo`llar bilan hal etiladi.

Fikrimizcha, xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda fermer xo`jaliklarini moliya-kredit mexanizmi orqali qo`llab-quvvatlashni quyidagi yo`nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

- fermerlik inshootlari, binolar qurish, texnika vositalari, asbob-uskunalar va yangi texnologiyalarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan, muddati 5 yildan 10 yilgacha bo`lgan va foizi yiliga 8-10 foizdan oshmaydigan uzoq muddatli kreditlar berishni yo`lga qo`yish va uni kredit risklaridan kafolatlaydigan maxsus “kafolat jamg`armasi”ni tashkil etish;

- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o`zlashtirish maqsadlariga xizmat qiluvchi davlat budgeti hisobidan moliyalashtiradigan jamg`arma shakllantirish (yagona yer solig`ining bir qismini yo`naltirish orqali);

- yerlarni uzoq muddatli ijaraga olish huquqini va bo`lg`usi hosilni kredit uchun kafolat sifatida qabul qilish mexanizmini kuchaytirish va “ipoteka krediti” tizimini kengaytirish.

Fermer xo`jaliklari faoliyatini budget-soliq tizimi orqali tartibga solish va rag`batlantirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda fermer xo`jaliklariga amaldagi qonunchilik doirasida bir qator soliq imtiyozlari belgilangan. Ammo, yerning me`yoriy qiymatidan belgilanadigan yagona yer solig`i stavkasining 2006-yilda 1,5 foiz, 2007-yil uchun 2,3 foiz va 2008-yil uchun 2,8 foiz, 2009-yil uchun 3,5 foiz qilib oshirib borilishi qishloq xo`jaligi korxonalarining moliyaviy holatiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish jarayoni doimo takomillashtirilib boriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solib turish – ularning faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvi emas, balki davlatning o`z qo`lidagi juda kuchli quroq va dastaklar bilan fermer xo`jaliklari faoliyatiga ta`sir ko`rsatishi (ularning faoliyatini tartibga solib turishi).

Fermer xo`jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish O`zbekiston Dehqon va fermer xo`jaliklari uyushmasi hamda Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solib turishning me`yori haqida gap borganda davlatning fermer xo`jaliklari o`z faoliyatlarini normal olib borishi uchun muhit (huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy) yaratishi ko`zda tutiladi.

Fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, posyolka, qishloq va ovul fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, qishloq xo`jaligi kooperativlari (shirkat xo`jaliklari) tomonidan amalga oshiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish deganda nimani tushunasiz?

2. Fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishni qanday omillar taqozo etadi?

3. Fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solib turish va qo`llab-quvvatlash zarurati davlat oldiga qanday vazifalarni qo`yadi?

4. Davlat tomonidan fermer xo`jaliklari faoliyatini tartibga solish va qo`llab-quvvatlash qanday usullar va shakllarda olib boriladi?

5. Fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash qaysi davlat organlari orqali amalga oshiriladi?

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasining «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni -T., 1998 .
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo`nalishlari to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2003-yil 25-mart.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2003-yil 28-oktabr.
4. Баландин Ю.С. Крестьянское хозяйство. -М.: Агропромиздат. 1990.
5. Беккет М. Фермерское производство, организация, управление, анализ. – М., 1989.
6. Добринын В.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Колос, 1990.
7. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. – М.: Тандем, 1999.
8. Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2000.
9. Серова Е.В.Аграрная экономика. – М.: Государственный университет: Высшая школа экономики, 1999.

## ATAMALAR LUG`ATI

**Asosiy faoliyatdan ko`rilgan foyda** - mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o`rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

**Aksiyadorlar jamiyati** - ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo`lingan jamiyat.

**Asosiy tarmoq** - korxonaning jami tovar mahsulotida yoki yalpi mahsulotida eng katta salmoqqa ega bo`lgan, uning maqsad va vazifalarini ifodalovchi hamda ixtisoslashishini belgilovchi tarmoq.

**Almashlab ekish** - ekinlarning yillar davomida ma'lum dalalarda rejali tartibda navbatil bilan almashib turilishi.

**Bevosita xarajatlar** - bitta mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog`liq, miqdori ishlab chiqarish hajmining o`zgarishiga nisbatan o`zgaruvchan xarajatlar.

**Bilvosita xarajatlar** - yordamchi ishchilarga vaqtbay ish haqi to`lash, ishlab chiqarish asosiy vositalarining amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarini saqlash, joriy va kapital ta'mirlash va mahsulot hajmining o`zgarishidan qat'i nazar nisbatan doimiy bo`lib qoladigan boshqa xarajatlar singari ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlar.

**Biznes** – sohibkorlik – tijorat ishlari bilan shug`ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan shug`ullanish.

**Bo`linmas fond** - qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) ustav fondi qiymatining bir qismi bo`lib, u shirkat xo`jaligi tasarrufida qoladi va paychi a'zolar o`rtasida taqsimlanmaydi.

**Daromadlar** - hisobot davrida aktivlarning ko`payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi.

**Davlat buyurtmalari** – davlat tomonidan muayyan mahsulot turini (hozirgi kunda paxta va g`allani) yetkazib berish bo`yicha qishloq xo`jaligi korxonalari bilan tuzilgan shartnoma-topshiriq.

**Dotatsiya** – davlat budgetidan qaytarib berilmaslik sharti bilan mablag` ajratish, iqtisodiyotga (ayniqsa qishloq xo`jaligiga xos) budget orqali ta'sir etish vositalaridan biri.

**Dividend** — sof foydaning soliqlar, yig`imlar va boshqa to`lovlar to`langanidan keyin shirkat xo`jaligi (aksiyadorlar jamiyati) ixtiyorida qoladigan va a'zolar o`rtasida taqsimlanishi lozim bo`lgan qismi.

**Dehqon xo`jaligi** - oilaviy mayda tovar xo`jaligi, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

**Dehqonchilik tizimi** - dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun yerdan to`la foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o`zaro bog`liq va bir-birini to`ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig`indisi.

**Yer transformatsiyasi** - qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlarni bir turdan boshqa turga o`tkazilishi, yer fondiga tarkibiy o`zgartirishlar kiritilishi.

**Yer solig`i** - yerdan foydalanganlik uchun yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, uning kadastr bahosini inobatga olgan holda xo`jaliklar tomonidan davlatga to`lanadigan ijara haqi.

**Yer uchastkasi** - yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimi hamda davlat yer kadastri va yer uchastkasiga bo`lgan huquqlariga, davlat ro`yxatidan o`tkazish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa jihatlarga ega bo`lgan muayyan qismi.

**Yer rentasi** – bevosita qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratiladigan qo`shimcha mahsulotning yer egalari tomonidan o`zlashtiriladigan qismi.

**Yem-xashak balansi** – korxona uchun zarur yem-xashakning hamma turlari ko`rsatilgan, yem-xashaklar jismoniy holidagina emas, balki oziq turlarida va o`zlashtiriladigan oqsil moddalari tarzida ham hisobga olinadigan ish hujjati.

**Yopiq aksiyadorlar jamiyat** - aksiyalari faqat o`zining muassislarini orasida yoki oldindan belgilab qo`yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan, o`zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o`tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli bo`lmagan jamiyat.

**Yordamchi tarmoq** – korxonaning tovar mahsuloti bo`yicha asosiy tarmog`idan keyingi o`rinda turadigan, asosiy tarmoq bilan texnologik hamda tashkiliy jihatdan bog`langan, asosiy tarmoqning muttasil rivojlanib borishi uchun bevosita yordam ko`rsatadigan tarmoq.

**Joriy yoki yillik rejalar** – korxona va uning dastlabki ishlab chiqarish bo`linmalari (brigada, ferma, oila pudrati) yillik ishlab chiqarish reja va topshiriqlari kiradi.

**Ijara** – mol-mulkni yollash bo`yicha shartnoma, unga ko`ra bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga (ijarachiga) ma`lum to`lov evaziga mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun beradi.

**Infratuzilma** – ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga xizmat ko`rsatuvchi tuzilmalar.

**Ipoteka** – ssuda olish maqsadida ko`chmas mulkni garovga qo`yish.

**Ishlab chiqarish kooperativi** - fuqarolarning shaxsiy ishtiroy etishi hamda a`zolarning (ishtiroychilarining) mulk bilan qo`shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birqalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo`jalik faoliyatini olib borish uchun a`zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi.

**Ixtisoslashtirish** – mavjud tabiiy-iqlimi shart-sharoitlar va boshqa omillar ta'sirida u yoki bu mahsulot turlarini ishlab chiqarishga moslashuv.

**Ishlab chiqarish konsenratsiyasi** - qishloq xo`jaligida ixtisoslashtirish tobora chuqurlashib, har bir korxonada ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchlari va buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mujassamlanib borishi jarayoni.

**Limitlar** – xo`jalik faoliyati turli jihatlarining miqdoran cheklanishi yoki moddiy xomashyo resurslari sarfining cheklangan me`yorlari.

**Litsenziya** – iqtisodiy, texnikaviy, ilmiy va boshqa xarakterdagи yangiliklarni ishlatishga, davlat tomonidan biror-bir faoliyat turi bilan shug`ullanishga beriladigan ruxsat.

**Loktatsiya davri** – buzoqlagan sigirlarning sut berish davomiyligi muddati.

**Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda** - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi tavofut.

**Monopoliya** – iqtisodiyotning biror sohasi yoki biror turdag'i tovarlar, ishlar va xizmatlar bozorida tanho hukmronlik.

**Moliyaviy natijalar** - xo`jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakuni.

**Oziq ratsioni** - chorva mollariga beriladigan yem-xashak turlari va ularning oziq me'yordagi salmog`ini ifoda qiladigan hujjat.

**Ochiq aksiyadorlar jamiyati** - ishtirokchilar o`zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligesiz o`zga shaxslarga berishlari mumkin bo`lgan jamiyat.

**Operativ ish rejalar** – mavsumiy xarakterga ega bo`lgan sohalarda ayrim ish davlari (ekish, hosilni yig`ib-terib olish, qo`zilatish, chorva mollarini semirtirish va h.k.) uchun tuzilgan, ishlab chiqarish bir me'yorda kechadigan sohalarda esa chorak, oylar (sut, go`sht yetishtirish) bo`yicha tuzilgan rejalaridan va ayrim ishlarni bajarish uchun berilgan muddatli reja naryadlar.

**Paychilik munosabatlari** – sherikchilik asosida biznes yuritishga hissa qo`shish va shu hissaga qarab daromad ko`rish sohasidagi iqtisodiy munosabatlar.

**Pay fondi** - shirkat xo`jaligi ustaviga muvofiq shirkat xo`jaligi a`zolarining qiymatda ifodalangan mulkiy paylari, har bir a`zoning shirkat xo`jaligi pay fondidagi ulushi.

**Podani takror ishlab chiqarish** - chorva mollari sonini doimo yangilab borish, bosh sonini ko`paytirib borish, mollar zotini yaxshilash jarayoni.

**Poda tarkibi** - ayrim jins va yoshdagi mollar guruuhlarining ma'lum muddatlarda umumiyl podadagi salmog`i.

**Poda oboroti** – chorva mollarini ishlab chiqarish va xo`jalik ixtisosiga ko`ra ular bosh sonining yosh va jins guruhlari bo`yicha ma'lum muddat davomida o`zgarib turishi.

**Pul mablag`larining tushumi va chiqimi rejasi** - korxona pul oqimlarini prognozlashtirish natijalarini aks ettirishga qaratilgan, pul mablag`larining yil boshidagi qoldiq ko`rsatkichi, reja davridagi tushum va chiqimi hamda pul mablag`larining yil oxiridagi qoldiq ko`rsatkichlarning o`zaro bog`liqligini ta'minlaydigan reja turi.

**Renta daromadlari** – yer egalarining qishloq xo`jaligi yerlarini foydalananishga berish natijasida oladigan daromadlari.

**Rentabellik** – tarmoq yoki korxonaning foyda olib ishlashi, aktivlar, sotilgan mahsulot yoki ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan foydalilik darajasini ko`rsatadi.

**Rejelashtirish** – korxonani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yo`llari va sur`ati, tarmoqlar va bo`linmalar, takror ishlab chiqarishning asosiy bo`g`inlari o`rtasida to`g`ri mutanosiblikni (proporsionallikka) tashkil etish jarayoni, boshqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo`lib, u iqtisodiy tizimning kelgusi holatini, unga erishish yo`llari, usullari va vositalarini belgilab beruvchi rejalarini ishlab chiqish va amalda qo`llashdan iborat.

**Reja-naryad** - ishning xususiyatiga ko`ra, individual xodimga, ishchilarining mayda guruhiga, traktor otryadiga yoki agregatiga qisqa muddatga (bir, besh kun va dekadaga) beriladigan reja topshiriqlar.

**Soliq imtiyozlari** – muayyan turdag'i ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan soliq to`lashda beriladigan imtiyozlar.

**Soliq to`langungacha olingan foyda** - umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko`zda tutilmagan) vaziyatlardan ko`rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

**Tarmoq** - qo`llanilayotgan vositalar, ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkil qilish xususiyati hamda mahsulotlardan foydalanish tartibiga ko`ra bir-biridan farq qiladigan ishlab chiqarishning bir qismi.

**Texnologik karta** - ayrim ekin turlari bo`yicha mahsulot yetishtirish bilan bog`liq ishlarni tashkil etishda korxonaning mashina va uskunalariga, ishchi kuchlari va mehnat xarajatlariga, yoqilg`i va moylash materiallariga bo`lgan talabi, mexanizatsiya ishlarining hajmi, traktor va qishloq xo`jaligi mashina va uskunalariga bo`lgan talab rejalashtiriladigan ish hujjati.

**Traktor ishlarini bajarishning zagon usuli** - dalani bir necha bo`laklarga (taxtalarga) bo`lib, ish bajarish usuli.

**Ustav fondi** - korxonalar faoliyatini ta'minlash uchun ta'sischilar tomonidan dastlab kiritiladigan va keyinchalik ko`paytirib borish mumkin bo`lgan, hajmi korxonaning ustavida belgilab qo`yiladigan mablag`. Shirkat xo`jaliklarida pay fondi va bo`linmas fonddan iborat bo`ladi.

**Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar** - asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko`rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

**Favqulodda daromad (zarar)** - xo`jalik yurituvchi subyektning odadagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya`ni tez-tez yoki muntazam sodir bo`lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergen daromadlar yoki xarajatlar.

**Fermer xo`jaligi** - o`ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi, a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo`jalik yuritish subyekti.

**Xarajatlar** - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko`payishi.

Ekin maydonlari tarkibi - jami ekish maydonida ayrim turdag'i ekinlar maydonining tutgan salmog`i.

**Yilning sof foydasi** - soliq to`lagandan keyin xo`jalik yurituvchi subyekt, ya`ni korxona (firma) ixtiyorida qoladigan hamda xo`jalik subyekti mustaqil tasarruf etadigan foyda.

**Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi)** – tovar qishloq xo`jaligi mahsuloti yetishtirish uchun pay usulga va asosan oila (jamoa) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga, boshqarishning umumiyligiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga asoslangan mustaqil xo`jalik yurituvchi subyekt.

**Shuba korxona** - o`ziga biriktirib qo`yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot.

**Hosildorlik** – bir birlik ekin maydoni (gektar, sotix va boshqa) hisobiga yetishtirilgan hoslning fizik miqdori.

**Chorvachilik tizimi** - chorva mollari sonini o`stirish va sifatini yaxshilash, mahsulorligini muntazam oshirib borish hamda mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarni kamaytirish, umuman, chorva mollari va chorvachilik vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish orqali uni eng samarali tarmoqqa aylantirishni ta'minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va texnikaviy tadbirlar yig`indisi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

### **I. O`zbekiston Respublikasining Qonunlari**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2003.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi Kodeksi».
- T.: Adolat, 1995.
3. O`zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi». -T.: Adolat, 1996.
4. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolik Kodeksi». - T.: Sharq, 2002.
5. O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagagi «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. «Xalq so`zi» gazetasi. 2004-yil 15-oktabr.
6. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni. - T.: O`zbekiston, 2002 y.
7. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida»gi Qonuni, «O`zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi va qishloq xo`jaligi”ga oid qonun hujjatlar. - T.: Adolat, 1999 y.

### **II. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari**

8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva – sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlar to`g`risida” gi Farmoni. 2006-yil 9-yanvar. Xalq so`zi gazetasi, 2006-yil 10-yanvar.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF 3618–sonli “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotini erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.
10. O`zbekiston Respublikasining Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan hisobot tizimini takomillashtirish va uni haqqoniy talab etganligi uchun javobgarligini kuchaytirish to`g`risida»gi Qarori. //«Xalq so`zi», 2005-yil 15-iyun.
11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» Farmoni. //«Xalq so`zi», 2005-yil 16-iyun..
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-oktabrdagi PF–3665–sonli “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.
13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikro firmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag`batlantirish borasida qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Farmoni, // «Xalq so`zi», 2005-yil 20-iyun.
14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagagi PF-3226–sonli «Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo`nalishlari to`g`risida»gi Farmoni, // «Xalq so`zi», 2003-yil 25-mart.
15. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish Konsepsiysi to`g`risida»gi Farmoni, //«Xalq so`zi», 2003-yil 28-oktabr.

### **III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari**

16. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 12-avgustdagagi 387-sonli «Mahsulotlar, xomashyo va materialarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to`g`risida»gi Qarori.

17. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli «2005-2007-yillarda fermer xo`jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori.

18. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagagi 357-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro`yxatdan o`tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi Qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish, hisobga qo`yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to`g`risida Nizom”.

19. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabrdagi 486-sonli «Qishloq xo`jaligida ijara munosabatlарини yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori.

20. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli «2004-2006-yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori.

21. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori.

### **IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

22. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi, // “Xalq so`zi”, 14 fevral 2009 y.

23. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar. -T.: O`zbekiston, 2009. 56- b.

### **V. O`zbekiston Respublikasi vazirliklari me`yoriy hujjatlari**

24. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 19-noyabrdagi 1523-son bilan ro`yxatdan o`tkazilgan «Fermer xo`jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g`olibini aniqlash tartibi to`g`risida»gi Nizom.

25. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 16-apreldagi 1337-sonli «Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga bo`lg`usi hosilni garovga olgan holda kreditlash tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash to`g`risida»gi Qarori.

26. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 30-apreldagi 1345-sonli «Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash to`g`risida»gi Qarori.

27. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank Boshqaruvining 2007-yil 13-martdagagi 30, 288-V-son qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo`jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va

g`alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to`g`risida”gi Nizom.

28. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

29. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo`jaligi kooperativi» (shirkat xo`jaligi)ning namunaviy Ustavi.

30. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo`jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

31. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo`jaligining namunaviy Ustavi».

32. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo`jaligi xodimlarini yollash to`g`risida namunaviy shartnoma».

33. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi».

34. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma».

35. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xizmat ko`rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma».

36. O`zbekiston Respublikasi «O`zagrosug`urta» DASKning 2003-yil 28-fevraldagi 03/97-sonli «Qishloq xo`jaligi hayvonlarini tabiiy ofatlar, kasalliklar va boshqa voqealar natijasida nobud bo`lishidan yoki majburiy so`yilishidan ixtiyoriy sug`urta qilish Qoidalari»

37. O`zbekiston Respublikasi «O`zagrosug`urta» DASKning 2003-yil 31-yanvardagi 03/89-sonli «Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo`jaliklarning ekinlardan kam hosil olish natijasida ko`rilgan moliyaviy zararni ixtiyoriy sug`urta qilish Qoidalari».

38. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko`rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo`jaliklarini milliy va chet el valutasida mikrokreditlash to`g`risidagi 2000-yil 29-fevraldagi 902-sonli Tartib», «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami». - T.: O`zbekiston, 2002.

39. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklari va kichik biznesning boshka subyektlarini milliy va chet el valutasida mikrokrediitlash to`g`risida»gi 903-sonli Tartibi, «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami». - T.: O`zbekiston, 2002.

40. «Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklari kichik va o`rta biznes subyektlarini milliy valutada kreditlash to`g`risida»gi 907-sonli Tartibi, «O`zbekiston

Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami». - T.: O`zbekiston, 2002.

41. “Aksiyadorlik-tijorat Tadbirkorbankning kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabki (boshlang`ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi to`g`risida” Nizom.

42. «Tijorat banklari tomonida yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o`rta biznes subyektlarini budgetdan tashqari jamg`armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash to`g`risida» yangi tahrirdagi 1074-sonli Tartibi, «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami». - T.: O`zbekiston, 2002.

43. «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o`tkazish to`g`risidagi 1999-yil 20-iyuldaggi 776-sonli Nizom», «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami». - T.: O`zbekiston, 2002

44. Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitobni amalga oshiruvchi jamg`arma to`g`risida»gi Nizom, № 612-1, 25 fevral 2000.

45. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan “«O`zqishloqxo`jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi texnikasini lizingga olish tartibi”.

46. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida”gi Nizom (qo`shimchalar va o`zgartirishlar bilan birga).

## **VI. Darsliklar**

47. Петранова Г.А. Цена и ценаобразование. – М.: Издательство «МСХА», 2005.

48. Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A.A. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. - Т.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi, 2004.

49. Jo`rayev F. Qishloq xo`jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. - Т.: Istiqlol, 2004.

50. Петранова Г.А. Экономика и управление в сельском хозяйстве. - М.: Академия, 2003.

51. Королев Ю.Б., и др. Менежмент в АПК. - М.: Колос, 2003.

52. Бизнес- планирование: Учебник /под ред. Попова В.М., Ляпунова С.И Модуко С.Г -2-ое изд., перераб.и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006.

53. Сельскохозяйственная кредитная кооперація. /Под ред. проф. Коваленко С.Б. и.д.э.н. Козенко З.Н. – М.: FiC, 2005.

## **VII. O`quv qo`llanmalar**

54. Artukmetov Z.A., M. Shodmanov. Fermer xo`jaligida suvdan samarali foydalanish, sug`orishning ilg`or usullari hamda yerning meliorativ holatini yaxshilash. O`quv qo`llanma. -Т.: TDAU, 2004, 5-b.

55. Шумакова Ю.Н. Практикум по организации, нормирование и оплате труда на предприятиях АПК. - М.: Колос, 2005.
56. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N., O'zbekistonda fermer xo`jaligini yuritish asoslari. - Т.: Voris-nashriyot, 2007.
57. Olimjonov O. va boshqalar Fermer faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – Т., 2005.
58. Salimov B.T.va boshq. Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi. - Т.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi. 2004.
59. Xodiyev B.Yu. va boshq. Kichik tadbirkorlik menejmenti. -Т.: Konsauditinformnashr, 2004.
60. Ткач А.В. Сельскохозяйственная кооперация: учебное пособие. 3-е изд. испр. I доп. - М.: Дашков и К°, 2005.
61. Савицкая В. Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий. – М.: INFRA-M, 2005.
62. Уткин Е. А., Фролов Д. А. Управление рисками предприятия. - М.: ТЕИС, 2003.
63. Миронов М.Г. Управление качеством. - М.: Проспект, 2006.
64. Новицкий Н.И. и др. Управление качеством продукции. - Минск: Новое знание, 2001.
65. Буров В.П., Ломакин А.Л., Морошкин В.А. Бизнес- план фирмы. Теория и практика: учебное пособие. – М.: INFRA-M, 2006.
66. Волков А.С., Марченко А. А. Бизнес-планирование: учебное пособие. – М.: РИОР, 2005.
67. Ковалев В.В. Учёт, анализ и финансовый менеджмент. – М.: Финансы и статистика, 2006.
68. Ковалев В.В., Ковалев В. Винансовая отчётность: анализ финансовый отчётности. – 2-е изд. – М.: Проспект, 2006.
69. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. / Лахметкина Н.И. – М.: КНОРУС, 2006.

### **VIII. Statistik ma'lumotlar to`plami**

70. O`zbekiston Respublikasining 2005-yildagi ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha yakunlari. – Т.: O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo`mitasi, 2006.
71. Сельское хозяйство Республики Узбекистан (за 2002-2008 годы), Госкомстат Республики Узбекистан (за соответствующие годы).

### **IX. Internet saytlari**

72. Московская сельскохозяйственная академия, [www.ecfak.timacad.ru](http://www.ecfak.timacad.ru)
73. Петранова Г.А. Экономика и управление в сельском хозяйстве. Учебник. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
74. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. -М.: ЮРКНИГА, 2004. <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page4&book88899>
75. Попов Н.А. Основы рыночной аграрной экономики и сельского предпринимательства. М.: Tandem, 2002. <http://family.taukita.ru/item2219310.html>
76. Попов Н.А Экономика отраслей АПК, курс лекций. 2002. <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic935&page1>

**Baxtiyor Tadjiyevich Salimov,  
Muhiddin Soatovich Yusupov**

## **Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi**

*O`quv qo`llanma*

Muharrir Mirboboyeva S.A.  
Texnik muharrur Boboyeva N.S.

Bosishga ruxsat berildi 21.12. 2009 y. Sharqli bosma tabog`i 18,8.  
Bichimi 60x80 1/16. Adadi 50 nusxa. \_\_\_\_ – sonli buyurtma.

---